



# FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

"Filologiya va pedagogika"  
ilmiy-metodik jurnali  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi  
364/5-qarori bilan  
10.00.00 – Filologiya va  
13.00.00 – Pedagogika fanlari  
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari  
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini  
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2025-yil  
3 (7)-son

e-ISSN 3060-4885

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И  
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND  
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL  
ELECTRONIC JOURNAL OF THE  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND  
SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu sonda

Yapon xalq maqollari  
lingvomadaniy  
tahlilida til va  
madaniyatlar  
bog'liqligi

4  
bet

Pul diskursida genderlik  
yondashuvi: erkaklar  
va ayollar orasidagi  
tafovutlar

89  
bet

Проблемы и решения  
инклюзивной среды в  
школах Узбекистана

136  
bet

O'qib tushunish  
ko'nikmasini  
shakllantirishning asosiy  
bosqichlari

146  
bet



O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan 2024-yil  
19-avgustda 360240-raqami  
bilan davlat ro'yxatidan  
o'tkazilgan.

2025-yil  
3 (7)-son

e-ISSN 3060-4885

# FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

## ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

## PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL  
ELECTRONIC JOURNAL OF THE  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND  
SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**MAS'UL MUHARRIR**  
Shahobiddin Rasulov

**MUHARRIRLAR:**  
Emma Torosyan  
Nargis Bobodjanova  
Nargiza Sotvoldiyeva  
Muxlisa Do'stmuhamedova

**SAHIFALOVCHI**  
Gulnoza Valiyeva

**Tahririyat manzili:**  
100011, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (55) 510-28-44,  
(77) 358-57-67  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar  
@FilologiyaPedagogikaBot  
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 25.03.2025 da  
nashr etildi.

**MUASSIS**  
O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirligi  
"Til va adabiyot ta'limi"  
davlat korxonasi

**TIL VA ADABIYOT  
TA'LIMI**

УЗБЕКИСТОН  
ИЛМИЙ-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

### TAHRIR HAY'ATI:

**Hilola Umarova**

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri*

**Farhod Boqiyev**

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari*

**Azizbek Turdiyev**

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri maslahatchisi*

**Farrux Jabborov**

*"Til va adabiyot ta'limi" - "Prepodavanie yazyka i literatury" -  
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

### 10.00.00 - FILOLOGIYA

**Baxtiyor Mengliyev**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
tadqiqotchi-professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Baxtiyor Doniyorov**

*Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti Nurafshon filiali  
professori, filologiya fanlari doktori*

**Anatoliy Lixodzyevskiy**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori*

**Oksana Gibraltarskaya**

*O'zbekiston Milliy universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori*

**Sherzod Atamuradov**

*filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori*

**Ranusha Atayeva**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti katta  
o'qituvchisi, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori*

### 13.00.00 - PEDAGOGIKA

**Qozoqboy Yo'ldoshev**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**Gulnora Mansurova**

*Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti dotsenti,  
falsafa fanlari doktori*

**Xadicha Muxitdinova**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**G'ofir Hamroyev**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
tadqiqotchi-professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**Sevara Ziyayeva**

*O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari doktori*

**Indira Narkulova**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti katta  
o'qituvchisi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining  
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 - Filologiya va 13.00.00 - Pedagogika fanlari bo'yicha  
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*



# M U N D A R I J A

## 10.00.00 – FILOLOGIYA

<b>Mubina Soleyeva.</b> Yapon xalq maqollari lingvomadaniy tahlilida til va madaniyatlar bog'liqligi .....	4
<b>Husan Ermatov.</b> Bosma nashrlar formatidagi o'zgarishlar va unga qo'yiladigan zamonaviy talablar .....	6
<b>Asila Vaxarova.</b> The impact of learning foreign languages on human life.....	11
<b>Олмахон Шукурова.</b> Авторская трансформация фразеологизмов в идиостиле В.С.Высоцкого .....	13
<b>Зухриддин Нуридинов.</b> Понятие «вопрос героя» в литературоведении .....	15
<b>Rusana Sinjarova.</b> Paraphrasing as a key to successfully taking the IELTS test .....	18
<b>Ольга Шевцова.</b> Взаимодействие и функционирование производных слов с сопутствующей семой «количество» .....	20
<b>Dilrabo Igamuratova.</b> O'zbek – ozarboyjon – rus tillaridagi barqaror birikmalarning o'xshashligi xususida ba'zi mulohazalar .....	22
<b>Шахло Алимарданова.</b> Явление территориальной дифференциации русского языка .....	25
<b>Гулихон Акрамова.</b> Паралингвистический аспект изучения текста .....	27
<b>Бибимарьям Раметова.</b> К вопросу о дифференциации сегментированных конструкций .....	29
<b>Ирина Львова, Лидия Шим.</b> Художественная форма русских и корейских паремий .....	31
<b>Ойбек Акбаров, Умида Гафурова.</b> Мотив смерти в романе И.С.Тургенева «Накануне» .....	34
<b>Махбуба Болтаева, Гулчехра Жабборова.</b> Способы выражения субъективной модальности в диалогах на примере пьесы современного автора .....	36
<b>Шохсанам Акрамова.</b> Ханча в корейском языке и его восприятие носителями разных поколений .....	39
<b>Алие Белялова.</b> Творческий метод В.Г.Зебальда в романе «Аустерлиц» .....	42
<b>Севара Очилова, Анна Шереметьева.</b> Деривационный потенциал имен прилагательных в русском языке .....	45
<b>Фахриддин Абдурахманов.</b> Учет семантической и синтаксической валентности в русском и узбекском языках при обучении РКИ.....	47
<b>Шахло Мирзаева.</b> Человек в мире языка, язык в мире человека .....	49
<b>Алла Цой.</b> Аксиологические механизмы языковой игры в драме М.Ю.Лермонтова «Маскарад».....	52
<b>Gulnaz Jarilkasinova.</b> Oliy harbiy bilim yurtlari kursantlarining chet tilida kommunikativ harbiy-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi .....	55
<b>Dilnoza Xoliqova.</b> Internatsional so'zlarni o'zbek tiliga o'zlashtirishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari .....	58
<b>Nilufar Rasulova.</b> Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asarida keltirilgan ginekologik terminlar tahlili .....	60
<b>Nigina Rasuleva.</b> Xitoy internet adabiyotida ilmiy fantastik asarlarning targ'iboti (《我们生活在南京》 – «Biz Nankinda yashaymiz» romani misolida) .....	62
<b>Kamola Adxamova.</b> O'zbekiston PR muhitida ijtimoiy tarmoqlar: afzalliklar, cheklovlar va yechimlar .....	65
<b>Shoxida Atanazarova.</b> Reklama matnida perlokutsiya va illokutsiyani ifodalovchi vositalar.....	68
<b>Dilora Akhmedova, Umida Tagayeva, Umida Ruziyeva.</b> Expressions in shaping characters in the works of Togay Murod and John Steinbeck.....	70
<b>Ruxsora G'ofurova.</b> Zebo Mirzo va Halima Ahmedova she'rlaridagi sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlari .....	74
<b>Nozanin Ganiyeva, Gulchehra Mansurova.</b> The content and essence of the activities of Bukhara jadid enlightenment in the education system .....	76
<b>Farrux Aminov.</b> Analyzing language use in social media communication: multimodal and linguistic strategies in Uzbek instagram discourse.....	78
<b>Inobat Narziyeva.</b> Importance of family roles and relationships in classic children's stories.....	81
<b>Zamira Abdujabbarova.</b> Lisoniy-kognitiv yondashuvda til tizimi va til strukturasiyning konseptual ahamiyati .....	83
<b>Zoir Taxirov.</b> Nutq va uslub.....	85
<b>Dilrabo Saydullayeva.</b> Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asaridagi turkiy she'riy parchalar badiiyati.....	87
<b>Diloromxon Turg'unboyeva.</b> Pul diskursida genderlik yondashuvi: erkaklar va ayollar orasidagi tafovutlar .....	89
<b>Dilafroz Kurbanbaeva.</b> Qoraqalpoq tilida «erkak» konseptosferasi qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari.....	92
<b>Muborak Sattorova.</b> Alisher Navoiy she'riyati va badiiy ijod taraqqiyoti .....	94
<b>Sitora Shirinova.</b> Hamza romanlarida obrazlar tizimi.....	96
<b>Shahrizoda Komilova.</b> So'z o'yinlarining o'zbek qiziqchilari nutqida ifodalanishi .....	98
<b>Maxbuba Qobilova.</b> Polisemantik shaxs semali leksemalar tahlili .....	101



<b>Xilola Fayzullayeva.</b> Fotojurnalistikada axloqiy dilemmalar: etika, mas'uliyat va kasbiy me'yor.....	103
<b>Shahribonu Tohirova.</b> Oliy ta'limda chet tillarni samarali o'qitishda jahon tajribalaridan foydalanish usullari .....	105
<b>Dilnoza Yuldasheva.</b> Perifrazalarning o'rganilishi jarayonida yuzaga kelgan ilmiy qarashlar va ularning o'ziga xosligi.....	107
<b>Oqiljon Mavlonov.</b> Bir bayt sharhi.....	109
<b>Dilnurabonu Vayisova.</b> «Urush odamlari» qissasida Normat obrazining jismoniy va ruhiy tasviri .....	111

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA

<b>Mayram Hojiyeva.</b> Geografiya darslarida 3E, 5E, 7E ta'lim modellari orqali tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi .....	113
<b>Шахноза Турсунова.</b> Институциональный дискурс в контексте педагогического общения.....	117
<b>Ширин Рахимова.</b> Разработка эффективных методов профессионально-ориентированного образования в формировании и объективной оценке универсальных компетенций будущих специалистов в области экономики .....	119
<b>Наргиза Алимова.</b> Элективная дисциплина в кредитно-модульной системе высшего образования.....	121
<b>Muborak Sattorova.</b> Maktabda «Farhod va Shirin» dostonini o'rgatish metodikasi .....	124
<b>Мавлюда Хамраева.</b> Использование современных технологий в обучении русскому языку в медицинском вузе: оценка эффективности цифровых ресурсов и онлайн-платформ .....	126
<b>Шахноза Холматова.</b> Роль электронных источников при обучении русскому языку как иностранному (PKИ).....	128
<b>Матлюба Мирханова.</b> Преимущества и недостатки Интернета .....	130
<b>Ахтам Сариев.</b> Основа речевой деятельности с методической точки зрения .....	132
<b>Камила Касимова.</b> Роль социальных сетей в создании новых слов и значений.....	134
<b>Дурдона Назирова.</b> Проблемы и решения инклюзивной среды в школах Узбекистана.....	136
<b>Otabek Abdunazarov.</b> O'quvchilar yozma nutqidagi leksik xatolar.....	138
<b>Hulkar Shamshiyeva.</b> Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya (fizika fani misolida).....	140
<b>Zoxida Tursinova.</b> Zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahorat mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning innovatsion usullari.....	142
<b>Periyzat Kojalipesova.</b> O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishning asosiy bosqichlari.....	146
<b>Ruxshona Salomova, Yulduz Omonova.</b> Ingliz tili fanini o'qitishning samarali usullari: darslarda o'zbek va ingliz milliy ismlarining o'xshash jihatlaridan foydalanish afzalliklari .....	150
<b>Naima Rejapova.</b> Raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda CLIL texnologiyasining o'рни.....	153
<b>Dilafruz Xidoyatova.</b> O'qitishning psixodidaktik, emotsional va o'zgarish tamoyillarining o'ziga xosliklari .....	155
<b>Maqsuda Badalova, Oybarchin Eshmuminova.</b> «Barkamol avlod» bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirishda maktab klasterining roli .....	159





Mubina SOLEYEVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

## YAPON XALQ MAQOLLARI LINGVOMADANIY TAHLILIDA TIL VA MADANIYATLAR BOG'LIQLIGI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tadqiq etilayotgan o'zbek va yapon tillaridagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari, ushbu xalqlarning o'ziga xos madaniyati va mentalitetini ko'rsatishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** paremiologiya, tarjima, ekvivalentlik, maqol, ibora, hikmat, madaniy o'yin, lingvomadaniyat.

**Annotation.** The article examines the similarities and differences between proverbs in Uzbek and Japanese, as well as the unique culture and mentality of the peoples who speak these languages.

**Keywords:** paremiology, translation, equivalence, proverb, phrase, wisdom, cultural game, linguistic culture.

**Аннотация.** В статье рассматриваются сходства и различия пословиц на узбекском и японском языках, а также уникальная культура и менталитет народов, говорящих на этих языках.

**Ключевые слова:** паремиология, перевод, эквивалентность, пословица, словосочетание, мудрость, культурная игра, лингвокультура.

O'qilishi sodda, ma'nosi ulkan xalqona maqol va matallar – shu xalq hayotining ko'zgusi. Ularda millat falsafasi, ma'naviy qadriyatlari va qoidalari, hayotiy tajribasi o'z aksini topadi. Xuddi shunday xususiyatni yapon xalq og'zaki ijodida ham kuzatish mumkin. Ular o'zlarini o'rab turgan borliq – tabiat, undagi mavjudotlar bir osmon ostida, bir zamin ustida bahamjihat hayot kechirishga odatlangan xalq. Yaponlar azaldan betartiblik, ortiqcha dabdabani yoqtirmaydi, oddiy va kamtarin yashashni ma'qul ko'radi. Ona tabiatdagi kapalakning qanot qoqishidan ham saboq chiqarib yashaydigan bu xalq maqollari zamirida kuzatuvlardan hosil bo'lgan sodda, buyuk falsafa yotganini ilg'ash mushkul emas [1: 24].

Maqollarni har taraflama o'rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Ularning qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida lingvomadaniy xususiyatlariga ham to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bu orqali o'zbek va yapon tillaridagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, bu xalqlarning o'ziga xos madaniyati va mentalitetini ko'rsatishga, maqollarining lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz.

Biror tilni shu tildagi badiiy asarlar orqali o'rganish juda ko'p bilim olishga yo'l demakdir. Tabiiyki, har bir millat madaniy merosida, avvalo, xalq maqollari uzoq tarixga ega. Maqol – so'z ko'rki, nutq bezagi. Qolaversa, har bir millat dunyoqarashining ifodachisi, yillar davomida jamlangan tajribalarining yig'indisi. Adabiyotning bu maxsus turi inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Insonni axloq-odobga o'rgatadi, bejizga «so'z ko'rki maqol» deyilmaydi [4: 28]. Maqollarga xos bo'lgan xususiyatlardan biri: *ularda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'ladi* [2: 43]. Faqat unutmazlik kerakki, maqol va matallarni tarjimada to'g'ri berish, ma'nosini saqlab qola olish muhim jihat. Shu jihatdan muhim sanalgan va biz tanlagan mavzu

o'zbek va yapon tilidagi maqollarning muqobil variantlarini topish muammosi hisoblanadi.

So'zlovchining o'z nutqida xalq maqollaridan foydalanib gapirishi fikrini yanada aniqroq ifodalashiga xizmat qiladi. Ta'kidlash kerakki, maqollar xalqning milliy mentaliteti, yillar davomida jamlangan tajribalari yig'indisidir. Xususan, maqollarda xos bo'lgan xususiyatlardan biri: *ularda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon va ibratli fikrdir* [2: 43]. Fikrlar esa rad etilmaydigan hukm shaklida beriladi. Maqol har qaysi xalqda ma'naviy boylik sifatida qadrlanadi. Ular so'zga ifoda beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin va ta'sirchan etadi. Shu bois kim muqloqotda undan ko'p foydalansa, uning nutqini shirali deydilar, diqqat bilan eshitadilar. Xalq maqollari badiiy adabiyot, ya'ni she'r, doston, hikoya, romanlarda ko'p ishlatiladi. Hatto boshidan oxirigacha maqol bilan yozilgan asarlar bor. Masalan, Gulxaniyning «Zarbulmasal»i 400 dan ortiq maqol va matal bilan to'lgan. Demak, xalq maqollarida millat tarixi, urf-odati, turmush-tarzi, fe'l-atvori, ruhiyati – butun borlig'i aks etadi. Ular turli mavzularda bo'lishi mumkin.

Xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kun tilshunosligida lingvomadaniy izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga biri bo'lib qolmoqda. Avval qayd etilganidek, til o'rganishda maqollarning tarjimasini aniqlash va muqobiligini topish asosiy muammolardan sanaladi. Ma'lumki, tarjima jarayonida bevosita va bilvosita tarjima vositalari mavjud. O'zbek va yapon tillarida shunday maqollar borki, ularning ekvivalentlarida ma'noviy uyg'unlik uchraydi. Fikrimizni tasdiqlash uchun quyidagi maqollardan namunalar keltiramiz.

Suhbat jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan o'zbek xalq maqollardan biri bu – *Bir boshdan ikki bosh afzal*. Ko'pincha maslahat, muhokamada ushbu maqoldan keng foydalanishadi. Mazkur maqol yapon tilida ham aynan shunday shakl va ma'no juhatdan ekvivalentiga ega:

2人よれば文殊のちえ [Futari yoreba monjuno chie].

So'zma-so'z tarjima qilinganda ham aynan bir xil ma'noni kasb etadi [3: 37].

*Toma-toma ko'l bo'lor* maqoli o'qish, o'rganish davomida tez-tez ishlatiladi. Yapon tilidagi ham mazmunan, ham so'zma-so'z mos varianti quyidagicha:

地率もって川となる [Chiri tsumot te kawato naru].

Mazkur maqol nafaqat o'qish, izlanish, umuman har sohada kam-kam o'rganib, bir butunlikka erishish ma'nosi izohlangan.

Pand-nasihah ruhidagi maqollar insonlarni hamisha ezgullikka, hallolikka va to'g'rilikka yetaklashga xizmat qiladi. Bunday maqollarda asosan o'xshatishlardan foydalaniladi. O'zbek xalq maqollari bisotidan: *Yursang sayoq, yeysan tayoq*. Maqol yapon tilida quyidagicha ifodalanadi:

犬も歩けば棒にあたる [Inumo arukeba bouni ataru].

Maqolning so'zma-so'z tarjimasi: *Nazoratsiz yurgan kuchuk tayoq yeydi*. Biroq tarjima jarayonida biz moslikni, ekvivalentlikni tanlashimiz kerak. Shu boisdan ham o'zbek xalqning yuqoridagi maqoli hamohang keladi.

Insonni tushkunlikka tushmaslik, umidini so'ndirmaslikka, intilishga chorlaydigan *Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak* o'zbek xalq maqolining yapon tilidagi ifodasi:

らくあればくあり [akuarebakuari] [3: 117].

*Omad jasurlarga kulib boqadi* maqoli ham yuqoridagiga mazmunan yaqin. Unga ekvivalent bo'la oladigan *おににかなぼう* [onini kanabou] maqoli ham xuddi shunday, hayotga dadil qadam qo'yishni, to'siqlarga mardonavor turishni o'rgatadi.

Yapon tilida bir xalq maqoli borki, undan ikki ma'no anglashiladi: *ふみお揺るにもかくてはもたぬ* [Fumi oyuruni mokakute vatane] [4: 43].

Maqolning birinchi ma'nosi poymol bo'lgan sevgi ifodasiga qaratiladi. Maqolga ko'ra odamlar o'z hissiyotlarini ba'zida xat bilan ifodalasa, shunda taskin topadi. Ikkinchi ma'nosi: yoshlikda qilinmagan, foydalanilmagan imkoniyat keksaygan odamni pushaymonlikka duchor qiladi. Bizningcha, bu ma'noni o'zbek tilidagi *Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir* maqoli anglata oladi.

きてごくらくみてしごく [Kitegokuraku mite shigoku] – *Ming bor eshitgandan ko'ra bir bor ko'rgan yaxshi*.

*Beshikdan to qabrgacha ilm izla* ma'noviy jihatdan yapon tiliga quyidagicha tarjima qilinadi: 学ぶこといけること、いきることまなぶこと。 [Manabu koto ikerukoto, ikiru koto manabukoto]. Ma'nosi: *O'qish bu hayotni tushunish, hayotni tushunish bu o'qish*. Demak, o'zbek tilidagi xalq maqoliga muqobil. Bundan ko'rinadiki, o'zbek tilida ham ikki shaklda: mazmunan va ohang variantlari mavjud.

Demak, yuqorida ko'rib o'tilgan maqollarning har biri o'ziga xos tasnifga va muqobil variantiga egaligi bilan farq qiladi. Lekin ba'zida ma'nan uyg'un keladigan tarjimani berish kerak. Maqollardagi ma'nolar hamisha yakdillikka ega. Shu bois qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, ezgulik va tarbiya uchun xizmat qiladi.

Lingvomadaniy til aspekti nuqtayi nazaridan o'zbek va yapon tillaridagi maqollarning ko'pincha shaklan, qolaversa, mazmunan mos kelishi madaniyatlardagi o'xshashlik natijasi bo'lsa ajab emas. Maqollar ma'lum xalq so'zlarining yasaliush usuli, o'ziga xos xususiyatlari bilangina ifodalanadi. Yuqorida lingvomadaniy jihatdan o'rganilgan ayrim yapon va o'zbek xalq maqollari bu xalqlarning o'ziga xos jihatlarini, umumiy xossalarni ko'rsatib berdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
3. ミニことわざ辞典 — 研究者 (kobu mokenkyuusha). 1993.
4. Soleyeva M. Aqliy hujum, venn diagrammasi metodlari va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarga yapon tilidagi maqollarni o'rgatish // Science and innovation, 2022. 1(B7), 1247–1253.
5. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir. – Toshkent: O'zbekiston madaniyati, 1965.
6. O'zbek xalq maqollari. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1987.
7. ことわざ辞典 小柳 昇 (Oyanagi Noboru). ニューアプローチII (New)
8. Soleyeva M.R., Jo'ramurodov D.G. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir o'zbek maqollarning yapon tilidagi tarjimasi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022. (Special Issue 24), 389–398.



Husan ERMATOV,

«Ishonch» gazetasi bosh muharriri,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti erkin tadqiqotchisi

## BOSMA NASHRLAR FORMATIDAGI O'ZGARISHLAR VA UNGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli transformatsiyaning bosma nashrlar formatiga ta'siri hamda shu asnoda yuzaga kelayotgan zamonaviy talablar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** nashr, multikanal, multiplatforma, multimediyalik, gazeta nashriyoti, uslub.

**Annotation.** The article analyzes the impact of digital transformation on the format of printed publications and the resulting modern requirements.

**Keywords:** publication, multichannel, multiplatform, multimedia, newspaper publication, style.

**Аннотация.** В статье анализируются влияние цифровой трансформации на формат печатных изданий и вытекающие из этого современные требования.

**Ключевые слова:** публикация, многоканальность, мультиплатформа, мультимедиа, газетное издание, стиль.

Ma'lumotlarga qaraganda, «2009-yilda Britaniyaning mahalliy va hududiy nashrlari global iqtisodiy inqiroz sabab kasodga uchray boshlagan. «Enders Media» kompaniyasi hisobotiga ko'ra, shu yili 1300 ta nashrning 52 foizi oldida tahririyatni yopish yoki yashab qolish uchun kurash tanlovi bo'lgan. Bunday sharoitda nashrning onlayn segmentini rivojlantirishga qaratilgan gazeta menejmenti strategiyalariga ko'proq e'tibor qaratilgan. 2010-yilda multikanal, multiplatforma va multimediyalik kabi yo'nalishlarga urg'u berilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib Britaniya nashrlari «newspaper publishing» (gazeta nashriyoti)dan «news publishing»ga o'tib, «post gazeta» yangiliklar va tahliliy xizmatlarni yaratishda dunyo yetakchisiga aylandi»[1]. Shunda ham matn o'z ahamiyatini yo'qotmadi, faqat audio, video va fotomateriallar, shuningdek interaktivlik, ma'lumotlar bazasi, multimediyaviy elementlar bilan boyitila boshlandi.

Buyuk Britaniya milliy gazeta bozori ijtimoiy tizimga juda yaxshi moslashgan hamda «yuqori», «o'rta» va «quyi» segmentlari uchun ham kerakli yechim taklif qila olgan. Bunda ular gazeta formati, biznes modeli hamda tahririyat ishlash uslubiga alohida e'tibor qaratishgan. Ushbu mamlakatda bugungi kunda gazetalarning keng polosali gazetalar (broadsheets), ko'k (blue-tops) hamda qizil rangli tabloid (red-tops) formatlari mavjud [1].

Jahon amaliyotida, shuningdek, Stayl gayd (Stile guide), Staylbuk(Stilebook), Gaydlayn(Guideline) kabi formatlar har bir tahririyatning o'z ichki imkoniyatlari va qadriyatlaridan kelib chiqib tanlangan. Bu auditoriya fragmentatsiyasi jarayonida nashrlar uchun vaziyatdan chiqishning usullaridan biri edi.

1928-yilda Britaniyaning «Gardian» (Guardian) nashri 22 sahifadan iborat «Stayl of Manchester Gardian» (Stile of the Manchester Guardian) nomli birinchi kitob ostidagi staylbuk chop etishni yo'lga qo'ydi. Shuningdek, «New York Times» 40 sahifalik staylbukini 1923-yilda, «Assosiated Press» 60 sahifalik staylbuk shaklidagi broshuralarni 1953-yilda

chiqara boshlagan. Ulardan ortda qolmagan holda «Wall Street Journal» nashri 1652-yilda jurnalist va redaktorlar uchun maxsus staylbuklarini taqdim etgan [2].

Aslida XX asrga kelib, format tushunchasining ishlatilish ko'lami kengayib, DVD, MP3, MR4 format kabi ma'lum parametr va xususiyatlar to'plami sifatida tushunila boshlandi [3]. Rossiyalik olimi Lazutininaning fikricha, «format asosan tinglovchilarga yo'naltirilgan axborot mahsuloti sifatida tushuniladi va har qanday aloqa subyekting xususiyatlarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bozor munosabatlari sharoitida ushbu belgilar uning tijorat qobiliyatini aniqlash uchun boshqa aloqa subyektlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan mezonlar to'plamini tashkil etadi. Shu asosda ushbu asarni tinglovchilarga taqdim etishning imkoniyati bor yoki yo'qligi, maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Obyektlarning maydoni, hajmi va shakli ularning moddiy olamdagi o'rnini aniqlaganidek, format ham axborot mahsulotlarining aloqa jarayonida, ularning axborot bozoriga o'tish sharoitidagi o'rnini belgilaydi. Shuning uchun aytish mumkinki, format – bu aloqa subyekting jamiyatga yo'naltirilgan axborot oqimlaridagi o'rnini tavsiflovchi tushuncha [4].


Bu fikrga qo'shilish mumkin. Sababi, biron bir obyekt to'g'risidagi xususiyatlar uning obrazini shakllanishida yordam beradi. Obraz bu muayyan bir shakl. Shakl esa formatga egiz tushuncha. Media va kommunikatsiya sohasida format atamasini yanada teranroq tushunish uchun quyidagicha misol keltirish mumkin. Kontent bir buyum bo'lsa, uning qayerda turishi, qay yo'sinda sotilishi yoki qanday yetkazilishi – format. Mediamahsulotning kimga yoki nimaga xizmat qilishini esa janr deyish mumkin. Ikkala holatda ham shakl tushuniladi. Farqi, birida tashqi, aloqaviy xususiyat ustun tursa, ikkinchisida mazmun asosiy hisoblanadi. Texnologiya rivoji bilan format tushunchasi birinchi darajaga chiqdi. Ya'ni OAV auditoriyaning iste'mol talabi bo'yicha formatni shakllantira boshladi. Demak, format – axborotni yetkazish usuli, holati.

Rossiyalik yana bir olim A.Tertichniy ham format tushunchasi biror bir nashrning o'ziga xosligini ifodalaydi, degan fikrni ilgari suradi. Unga ko'ra, «nashrga xos bo'lgan individual xususiyatlar uning boshqa OAV turidan ajralib turishini ta'minlaydi. Nashr formati samarali yoki samarasiz, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin. Bu uni yaratishdagi ilmiy yondashuv, kasbiy tajriba hamda tegishli nashr formatini joriy etuvchi shaxslarning ijtimoiy mavqei bilan belgilanadi. Nashrning formati uning amalga oshiradigan g'oyalari asosida turlicha shakllantirilsa-da, asosiy qoida barcha uchun bir xil. Bu auditoriya segmenti qiziqishlarining ustuvorligidir» [5].

Format yaratishdagi tayanch nuqta ham ana shu auditoriya hisoblanadi. Sababi, nashr formati tahririyatning g'oyalari va qadriyatlariga mos ravishda yaratilishi mumkin. Ammo auditoriyaga mos bo'lishi majburiy.

Yana bir rossiyalik tadqiqotchi Pastuxovning keltirishicha, «kontent ishlab chiqaruvchi ham, uni iste'mol qiluvchi ham medianing o'ziga xos shakli haqida umumiy tushunchaga ega. Format nafaqat OAVni idrok etishga yordam beradi, balki media madaniyatni ham shakllantiradi» [6]. Uning ta'biri bilan aytganda, format shou bilan yangiliklar ko'rsatuvini farqlashda xizmat qiluvchi element. Bundan tashqari, mediakontentni tahlil etishda formatlar alohida tadqiqot obyekti bo'lib ham xizmat qiladi. Olimning format media madaniyatni shakllantiradi, degan fikriga qo'shilmaymiz. Sababi, format auditoriya talabi, kayfiyati, turmush tarzi, yashash sharoitiga qarab o'zgarib turadigan tushuncha. O'zgaruvchanlik esa biror madaniyat shakllanishida asosiy omil bo'la olmaydi.

1) Bugungi kunda yangi mediada quyidagi yangi media formatlar ko'p qo'llanilmoqda. Bular [7]:



Albatta, bu formatlarning yuzaga kelishida texnika va texnologiya rivojining ta'siri katta. Ammo o'zgarishlar bu bilan to'xtab qolayotgani yo'q.

Ayniqsa, internetdagi tezlik oshgani sayin vizuallik bilan bog'liq yangi format va yo'nalishlar ommalasha boshladi. Tadqiqotchilar ularni bir necha guruhlariga bo'lib o'rganishadi:

*Videoxosting* – YouTube, Rutube, LoadUp, VideoMail kabi platformalarni o'z ichiga olgan server.

*Telekanal platformalari* – ham onlayn translyatsiyani amalga oshiradigan, ham alohida videofayllar formatida kontentni onlayn joylashtiradigan manzillar to'plami. Bunga misol qilib [www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz) ni keltirish mumkin.

*An'anaviy loyihalar* – televizion bo'lmagan gazeta, jurnal, axborot agentliklari, radiostansiya va OAV turlarining tarmoq resurslari orqali o'z kontentiga videoni qo'shishi [8]. Masalan, «Yangi O'zbekiston» gazetasida o'z telegram

mesenjeri hamda yutub platformasida har kuni bir nechta qisqa hajmli videokontent joylash yo'lga qo'yilgan. Bu kontent informatsion-tahliliy xarakterga ega bo'lib, gazetadagi tarkibni takrorlamaydi.

Albatta, kelajakda videokontent axborot uzatish formatlarining asosiy qismini egallaydi, degan farazlar ham yo'q emas [9]. Bu haqida bahslashishdan yiroqmiz. Ammo bugungi auditoriya ana shu formatni afzal ko'rayotgani ko'z yumib bo'lmaydigan haqiqat.

Tahlilni aynan bosma nashrlar formatidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqish bilan davom ettiramiz.

Mamlakatdagi respublika, mahalliy va, ayniqsa, hududiy gazetalarini sonining yanada kamayayotganini inkor etish mushkul. Tan olish kerak, ko'pchiligi o'qilmaydi. O'qiydigan qiymatga ega emaslar ham talaygina. Sababi, ularning aksariyati bugungi kun iste'molchisining talab va takliflari o'rganilmasdan chiqarilmoqda. Odamlarni





nimalar qiziqtirayapti, degan savolga javob yo'q. Gazetaga, tahririylarga ayni ular yaratayotgan mahsulot nuqtayi nazaridan e'tirozlar bildirib borish, ularni jonlantirishga motivatsiya shakllanmagan, aniqrog'i, bunday yondashuvlar bugun umuman mavjud emas.

Nashrlarning mazmun-mundariyasi, dizayni, tahlil va tahrirdagi kamchiliklar uchun, qolaversa, janrlarning umuman yo'qolib ketayotgani, zamon bilan hamnafas formatlardan foydalanilmayotgani borasidagi tanqidlar o'rinni. Bu shu davr gazetalarini chuqur tahlilga tortish lozimligini ko'rsatadi. Jumladan, qay biridir, haqiqatan ham yopilishga loyiqdir, ba'zilar esa jamiyatga manaman degan veb-saytdan ko'ra ko'proq foydali kontentlarni berayotgan bo'lishi ham mumkin.

Jamiyat, yoshlar bilib turib, gazetadan, aytish mumkin bo'lsa, eng katta ma'rifatdan uzoqlashtirilganini 2018–2021-yillari Xalq ta'limi vazirligi muassisligidagi «Ma'rifat» gazetasiga va boshqa ta'lim nashrlariga qo'llanilgan munosabatdan bilish qiyin emas. Nashrning o'tgan yillardagi sonlarini varaqlaganda ularni tayyorlashga ketgan shuncha ko'z nuri, izlanishlar, ijod mashaqqatlari tasavvur qilinsa, maktablardagi obunani yo'q qilinishining noto'g'ri qaror ekanini anglash mumkin. Hozirda ham o'sha kichik jamoa o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Gazeta adadi keskin kamayganiga qaramasdan, tahririyat jamoasi ishlashda, zamonga mos ravishda harakatlanishda to'xtamadi. O'zbek nashrlari orasida birinchilardan bo'lib, mobil ilovasini joriy qildi. Ya'ni auditoriyasiga gazeta o'qiy olmasa, qo'lidagi telefon qurilmasi orqali onlayn formatda mutolaa qilish imkonini taqdim etdi. Bu ham format o'zgarishiga yorqin misoldir.

Bu misolni bitta gazeta orqali keltirdik. «Mahalla» gazetasi so'nggi yillarda «AiF» bilan solishtirilmoqda. «Milliy tiklanish»dagi o'ziga xos topilmalar, uslubni e'tirof etish o'rinni. O'z formatini, axborot yetkazish shakllarini zamonga moslashga urinayotgan bu kabi nashrlar yetarli. Faqat buni ko'ra bilish, tan olish, bu ijodiy va muhimi, toza kuchdan foydalanish, uni jamiyat ravnaqi yo'lida safarbar etish yo'q. Muassislarning bu boradagi dunyoqarashi esa ongli insonni uzoq o'ylanishga majbur qiladi.

Format integratsiyasida ijobiy o'zgarishlar bo'lmayotganida faqatgina tahririyatni ayblash noo'rin. Bunga tashqi omillarning ham o'zaro ta'siri bor. Birgina tahliliy maqolani yozish uchun jurnalist ozmuncha ter to'kmaydi. Jumladan, muammoni o'rganadi, tahlil qiladi, solishtiradi, turli variantlarda yozadi, tahrir qiladi. Buning mashaqqatini zalvorli, tahliliy maqola yoza oladiganlar biladi.

Shuning uchun bu borada keskin fikr bildirishdan oldin bugungi muhitni o'rganish va tanqid qilishda konkretlikka rioya etish, ularga masala qo'yish, eng muhimi, muammoni yechishning yo'llari haqida aytish maqsadga muvofiqdir. Bu sohaning rivojlanishiga xizmat qilish barobarida gazetalarning elektron shakllari, yangicha formatlari paydo bo'lishiga ham turtki beradi. Aks holda nashrlarda

kelajagiga nisbatan ishonch so'nib, faoliyatiga yangiliklar kiritishga umidi qolmaydi.

Formatni auditoriya talabiga moslash bugungi zarurat ekanligini ta'kidladik. Keyingi tahlillarda O'zbekistondagi yirik nashrlar bu tendensiyaga qay darajada javob bera olayotgani ko'rib chiqiladi.

Ko'p yillar o'zbek matbuoti uchun asosiy birlamchi manba hisoblanib kelgan «O'ZA» milliy axborot agentligi axborot uzatish formatini o'zgartirdi. O'z logosini rebrending qilgan ushbu tahririyat ko'plab OAVga asosan rasmiy xabarlarini yoritishda birlamchi manba bo'lish barobarida o'zi ham keng auditoriyaga kontent bera boshladi. Kontent nafaqat matn va fotodan, balki videomateriallardan ham iborat. Xususan, 2024-yilning 15-aprel kunida tahririyatning rasmiy telegram kanalida «Firibgarlar yaqinlaringiz ovozida qo'ng'iroq qilishmoqda (+video)» sarlavhali meterial e'lon qilindi. Uning formati an'anaviy yondashuvdan farqli ravishda foto+video+matn shaklida berilgan bo'lib, ekranda 3 ta lokatsiyaga havola ko'rinadi. Birinchisi, yutub kanalga yo'naltirish, ikkinchisi saytga. Uchinchisi esa mobil ilova yuklab olishga qaratilgan bo'lib, obunachilar o'zi ishlatayotgan mobil qurilmaning rsumiga qarab yuklab olishi uchun qulaylik yaratilgan. Multimediamiy kontentda O'ZA muxbiri tomonidan bugungi kunda avj olayotgan bir illat to'g'risida tahliliy yondashuv qilingan.

Mazkur tahririyatning telegram messengerida ikkita kanali mavjud bo'lib, birinchisi «UZA rasmiy kanal» deb nomlangan. Unda asosan tahliliy ruhdagi, mavzu jihatdan eskirmaydigan materiallar konvergent axborot shaklida beriladi, 196 mingdan ortiq obunachisi bor (15.04.2024 holatiga ko'ra). «UZA tezkor xabarlar» deb nomlangan kanalda esa obunachilar soni bir necha barobar kam (15.04.2024 holatiga ko'ra, 33 mingdan ortiq), unda kundalik tezkor xabarlar berib turiladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu kanalda ham videomateriallarga ko'zingiz tushadi.

Axborot uzatishda formatini o'zgartirgan tahririylardan yana biri «Yangi O'zbekiston» gazetasidir. Gazeta tashkil etilgan yilidan boshlab sayti ishga tushirildi, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari ochildi, telegram messengerida rasmiy kanali yurgizila boshlandi. 2023-yildan boshlab yutub platformasiga e'tibor kuchaytirildi. Bugungi kunda ushbu tahririyat qoshida mediamarkaz faoliyat ko'rsatadi. Unga tahririyat ichidan va chet mualliflar orasidan aynan onlayn format uchun kontent tayyorlay oladigan jurnalist, operator, montajchi hamda boshqa soha mutaxassisleri tanlab olingan. Buning natijasida tahririyat ham poligrafik, ham onlayn formatda kontent taqdim etishga erishgan. Bundan shuni ko'rish mumkinki, tahririyat onlayn formatini kundalik yangiliklarni tezkor ravishda berishga yo'naltirgan bo'lsa, poligrafik formatida ana shu yangiliklarning kengroq sharhiga va tahliliga e'tibor qaratadi.

«Ishonch» gazetasi qoshida ham shunday mediamarkaz faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ishlash mexanizmi «Yangi O'zbekiston» nashri bilan deyarli bir xil. Faqat

farqi, mediamarkazga televideniye yo'nalishida ko'p yillik tajribaga ega jurnalistlar ham jalb qilingan. «Ishonch» gazetasi videokontentlarida asosan tahliliy yondashuv ustun turadi. Sababi, tahririyat respublikaning top yangiliklar saytlari bilan xabarlarini tezkor yetkazish borasida sog'lom raqobatga kirisha olmaydi. Demak, onlayn format uchun ham videokontent tayyorlashda tahlil ustunlikka ega bo'lmoqda.

Tahririyatda nafaqat matn+foto, matn+foto+video formatda, balki foto+audio tarzda ham axborot uzatish yo'lga qo'yilgan. Xususan, 16.04.2024-yilda «Yangi O'zbekiston» nashrining rasmiy telegram kanali orqali e'lon qilingan «1,5 ming dollar maosh» materiali jurnalist tomonidan o'qib eshittirilgan. #Audiomaqola heshtegi ostida berilgan kontent bitta gapni tashkil etgan sarlavhadan iborat: «Yangi O'zbekiston» gazetasida chop qilingan «1,5 ming dollar maosh» sarlavhali maqolaning audio variantini tinglashingiz mumkin». Postdan maqola va uning muallifining fotosi tushirilgan poster joy olgan. Shu poster ustiga maqolaning audiovarianti joylangan. Bu imkoniyati cheklangan hamda uzun post o'qiy olmaydigan, lekin gazeta mutolaa qilishni istaydigan qatlam uchun qulaylik yaratadi.

«Jadid» gazetasi 2024-yil 1-yanvardan chiqqa boshlagan bo'lsa, 10-yanvardan onlayn formatini yo'lga qo'ygan. Ijtimoiy tarmoqlar, yutub hamda telegram platformalarida rasmiy kanallar ochilib, turli kontentlar joylana boshlagan. Nashrning rasmiy telegram kanalida postlar joylashuvi, sarlavha, poster dizayni kabilarda kreativlik ko'zga tashlanadi. O'quvchi gazetaning yangi sonini o'qishi uchun pdf ochishi yoki saytga o'tib, uning sahifalari yuklanishini kutib o'tirishi shart emas. Telegram messengerida bu masala soddalashtirilgan tartibda berilgani tahririyatning yutug'i hisoblanadi. Sababi, bugungi kunda auditoriya uchun kurash ketmoqda. Buning ustiga, auditoriya erinchoq. Unga maksimal darajada qulaylik va servis yaxshi bo'lgan obyekt mahsulotini sotib oladi, iste'mol qiladi. Shu jumladan, axborotni ham qulay tarzda taqdim etgan mediadan qabul qilishni ma'qul ko'radi. «Jadid»ning rasmiy telegram kanalida auditoriya bilan kommunikatsiya to'g'ri va samarali yo'lga qo'yilayotganini intellektual so'rovnomalari, konkurslar tashkil etilayotganidan anglash mumkin.

Filologiya fanlari doktori Nozima Muratovaga ko'ra, milliy mass-mediada qog'oz o'z dolzarbligini yo'qotib bo'lgan, endi raqamlashtirish vaqti kelgan. «Yangi formatda hamma narsa: tartib, taqdimot, uslub, til, vizual komponentlar, material shakli boshqacha. Raqamli makonda gazeta uslubini o'qib bo'lmaydi. Bu shuni anglatadiki, matnni tashkil qilish eng qiyin narsa – gazeta materialini tarmoq formati uchun qayta ishlash. Shuning uchun uni yozishda muallif matnni smartfon yoki planshet ekranidan dinamik ravishda o'qishga qaratilgan bo'lishi kerak» [10].

Olimaning fikrlarida jon bor. To'g'ri, gazeta va gazeton o'rtasidagi kommunikatsiya formati o'zgardi, raqamli shaklga o'tib bo'ldi. Kontent tayyorlash formati ham texnika

va texnologiya ta'sirida o'zgarishga yuz tutdi. Ammo tahliliy jurnalistika hali o'z o'rnini yo'qotgani yo'q.

Kontent formatidagi integratsiya – janr, uslub, mavzu tanlashdan tortib, uning taqdim etilgunigacha bo'lgan jarayondagi o'ziga xoslikni talab belgilaydi. Ya'ni talabdan kelib chiqib kontenti qanday bo'lishini nashrning o'zi hal etadi va shunga mos ravishda tayyorlaydi.

Kommunikatsiya formati – tayyor kontentning iste'molchilarga jo'natiladigan kanallari. Buni ham talabdan kelib chiqib, tahririyatning o'zi belgilaydi. Bosma nashrning kommunikatsiya formatlarini quyidagicha tasniflash mumkin. Bular:

– *gazeta yoki jurnalning sayti*. Raqamlashuvning klassik shakliga aylanayotgan mazkur format ham qimmat, ham ko'p resurs talab qiladigan kanal turi. Klassik shakl deyishimizga sabab, bugungi kunda bu kanal turi ham auditoriya e'tiboridan chetda qolmoqda. Dunyoning mashhur nashrlarining saytlari bundan mustasno. Ammo mahalliy mediada nashrlarning qilayotgan asosiy xatosi, sayt konsepsiyasini noto'g'ri shakllantirishidir. Sayt vizualidan tortib kontent mazmunigacha bo'lgan jarayonda kreativlik yetishmasligini qayd etish zarur. Undan ham asosiysi, kommunikatsiyaning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganidir. Gazeta saytiga kirgan har qanday obunachi izlagan axborotini topish barobarida tahririyat xodimlariga murojaat qilishi, suhbatlashishi, o'z muammolarini bildirsa olishi muhim;

– *gazeta yoki jurnalning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi*. To'liq kommunikatsiyaga asoslangan bu format saytni axborot maydonidan siqib chiqarmoqda deyish mumkin. Boshqa tomondan aynan shu ijtimoiy sahifa yoki messengerlar orqali o'quvchi saytga yo'naltirilmoqda. Ma'lumki, bugungi auditoriya ko'zini ochishi bilan gazeta o'qimaydi, televizor ko'rmaydi, balki mobil qurilmasini qo'lga olib, ijtimoiy tarmoqqa kiradi. Aynan shu ommaviy odat sabab axborot uzatish va iste'mol tartibi, formati o'zgarib ketdi, deyish mumkin. Bu format orqali o'quvchi nashrning yangi soni mundarijasi bilan tanishish barobarida, uni yaqinlariga ulashish imkoniga ham ega bo'ladi. Qolaversa, bu orqali nashr shov-shuvli maqolasini oldindan anons shaklida e'lon qilishi yoki auditoriyasi fikrini muntazam ravishda o'rganib borishi mumkin.

– *mobil ilovalar*. Bugungi kunda har bir inson qo'lida sensorli telefon bor ekan, mobil ilovalar ommalashib boraveradi. Qo'llanilish va ommaviylik jihatidan ijtimoiy tarmoqlarga tenglasha olmasa-da, mutolaa madaniyati yuqori darajada hisoblangan davlatlarda faol foydalaniladi. Mobil ilovalar asosan onlayn obuna yoki bir martalik, ko'p martalik to'lov shakllari mavjud bo'lib, gazetaning poligrafik formatidan ancha arzon tushadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, respublikaning yetakchi nashrlari tomonidan o'z axborot uzatish shakli hamda formatini o'zgartirishga harakatlar boshlangan. Poligrafik nusxada qaynoq yangiliklar berish to'xtagan. Aksincha, tanqidiy-tahliliy hamda adabiy-badiiy materiallarga keng o'rin ajratilmoqda. An'anaviy multimediyaviy kontent matn+foto+video ko'rinishida



rivojlangan bo'lsa, endilikda foto+audio, infografika+audio, qisqa matn+video ko'rinishidagi shakllari ham yuzaga kelgan. Gazetalarda videon tomosha qilish, boshqa alifboda o'qish, saytdagi nusxasini o'qish kabi maqsadlarga yo'naltirilgan QR-kod amaliyoti ham mavjud. Aynan bosma nashrlarning onlayn formatida reportaj janridan ko'ra hafta mobaynida

aktual bo'lib turgan mavzularning tahlilini video formatda berish amaliyoti ko'proq kuzatildi. Yirik yangiliklar saytlari axborotni birinchi manbasiga aylanishga harakat qilsa, gazeta tahririyatlarida poligrafik formatdagi yondashuvga mos onlaynda ham tanqidiy-tahliliy yo'nalishda kontent tayyorlashga ko'proq urg'u berilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бодрунова С. Медиарынок Великобритании и газетный кризис: стратегии выживания газет в период дигитализации медиапроизводства // Экономическое возрождение России, 2013, №4 (38). С.136.
2. The Wall Street journal guide to business style usage / Paul R. Martin, style editor. NY, Dow Jones & Company, Inc, 2002. Ъ. 6.
3. Большой толковый словарь русского языка / Под ред. Кузнецова С. А. СПб.: Норинт, 1998. С. 1136.
4. Лазутина Г. Жанр и формат в терминологии современной журналистики // Вестник Московского университета. – Серия 10. Журналистика. 12.05.2010.
5. Тертычный А. О соотношении понятий: «концепция», «тип», «профиль», «формат издания» // Вестн. Моск. ун-та. сер. 10. Журналистика, 2010, №6. С.13.
6. Пастухов А. Медиажанры и медиаформаты: к разграничению понятий // Ученые записки Орловского государственного университета, 2015, №5 (68). С. 150.
7. Карякина К. Актуальные формы и модели новых медиа: от понимания аудитории к созданию контента // Mediascope, 2010, №1. С.178.
8. Круглова Л. Трансформация аудиовизуального контента в новых медиа // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 10. Журналистика, 2012, №3. С.62.
9. Почему видео – контент будущего. Цифры. [www.highspeedimaging.ru/novosti/pochemu-video-kontent-budushchego-tsifry/](http://www.highspeedimaging.ru/novosti/pochemu-video-kontent-budushchego-tsifry/).
10. Муратова Н. Цифровая повестка печатных СМИ. [https://ictnews.uz/17/04/2019/digital\\_agenda/](https://ictnews.uz/17/04/2019/digital_agenda/). (Murojaat sanasi: 16.07.2024).

**Asila BAXAROVA,**

*Student of Karshi State University, foreign languages faculty*

## THE IMPACT OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES ON HUMAN LIFE

**Annotation.** This article explores the significant impact of learning foreign languages on various aspects of human life, including cognitive abilities, social relationships, and career opportunities. By reviewing existing literature and research, the article discusses the cognitive benefits of language learning, such as improved memory and problem-solving skills, as well as its role in fostering cultural awareness and social empathy. Furthermore, the professional advantages of multilingualism are explored, highlighting how language skills can open doors to global job markets and improve employment prospects. The article provides a comprehensive overview of the various positive effects of learning foreign languages, while also addressing the challenges that learners may face.

**Keywords:** foreign languages, cognitive development, multilingualism, professional growth, cultural awareness, global communication.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishning inson hayotining turli jabhalari, jumladan, kognitiv qobiliyatlar, ijtimoiy munosabatlar va martaba imkoniyatlariga sezilarli ta'siri ko'rib chiqiladi. Mavjud adabiyotlar va tadqiqotlarni ko'rib chiqish asosida til o'rganishning kognitiv afzalliklari, masalan, xotirani yaxshilash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari, shuningdek, uning madaniy ong va ijtimoiy empatiyani rivojlantirishdagi roli o'rganiladi. Bundan tashqari, ko'p tillilikning kasbiy afzalliklari haqida so'z yuritilib, tilni bilish jahon mehnat bozoriga yo'l ochishi va bandlik istiqbollarini yaxshilashi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada chet tillarini o'rganishning turli afzalliklari hamda o'quvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar haqida to'liq ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** chet tillari, kognitiv rivojlanish, ko'p tillilik, kasbiy o'sish, madaniy xabardorlik, global muloqot.

**Аннотация.** В статье исследуется значительное влияние изучения иностранных языков на различные аспекты жизни человека, включая когнитивные способности, социальные взаимоотношения и возможности карьерного роста. На основе обзора существующей литературы и исследований рассматриваются когнитивные преимущества изучения языка, такие как улучшение памяти и навыков решения проблем, а также его роль в развитии культурной осведомленности и социальной эмпатии. Кроме того, рассматриваются профессиональные преимущества многоязычия, подчеркивается, что знание языка может открыть дверь на мировые рынки труда и улучшить перспективы трудоустройства. В статье также дается всесторонний обзор различных положительных сторон изучения иностранных языков, а также рассматриваются проблемы, с которыми могут столкнуться учащиеся.

**Ключевые слова:** иностранные языки, когнитивное развитие, многоязычие, профессиональный рост, культурная осведомленность, глобальная коммуникация.

In today's globalized world, the ability to speak multiple languages is more than just a valuable skill – it is an essential tool for personal, social, and professional development. The benefits of learning foreign languages extend beyond simply being able to communicate with people from different countries. Learning a new language not only enhances cognitive abilities but also enriches social interactions and opens doors to professional opportunities. As globalization continues to drive interconnectedness among cultures, the demand for multilingual individuals is steadily increasing. This paper aims to explore the broad range of effects that foreign language learning has on human life, with a focus on cognitive, social, and economic implications.

The research for this article is based on a qualitative analysis of existing studies, surveys, and literature reviews on the topic of multilingualism and its impact on various aspects of human life. Data sources include academic journals, books on linguistics and psychology, as well as case studies and interviews with multilingual individuals. The methods used for collecting data are:

1. Literature Review. A comprehensive review of existing academic papers, books, and articles was conducted to gather information on the cognitive, social, and professional benefits of learning foreign languages.

2. Surveys and Case Studies. A survey was distributed among bilingual and multilingual individuals to collect firsthand accounts of the benefits and challenges they have experienced in their personal and professional lives. Additionally, case studies from individuals in various professions were analyzed.

3. Comparative Analysis. The article compares the cognitive abilities, social skills, and career outcomes of multilingual individuals with those of monolingual individuals to highlight the relative advantages of learning foreign languages.

Results. Cognitive Benefits.

Tadqiqotimizning avvalgi qismida lingvistik kompetensiya tushunchasi amerikalik sotsiolingvist Noam Xomskiy tomonidan taklif qilingani hamda boshqa bir amerikalik etnolingvist Dell Hayms kompetensiyani kommunikativ deb atagani, hamda M.Kaneil va M.Suen kommunikativ kompetensiyani muloqot uchun zarur bo'lgan lingvistik bilim va ko'nikmalarning asosiy tizimining sintezi sifatida qaragani xususida to'xtalib o'tgandik. Bundan tashqari, kommunikativ kompetensiya chet til o'qitishning asosiy maqsadiga aylanganligi ko'plab mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi. Xususan, rus muallifi A.N.Shchukin [2] chet tilida kommunikativ kompetensiyani «muayyan faoliyat doirasidagi muloqot maqsadlari va holatiga muvofiq nutq faoliyatini amalga

oshirish uchun o'rganilayotgan til vositalaridan foydalanish qobiliyati» deb ta'kidlasa, R.Milrud va I.Maksimovalar[3] «kommunikativ kompetensiya» uslubiy konstruksiyasini chet tilidagi muloqotga tayyorlik jarayoni sifatida taqdim etadilar. E. N.Solovyova [4] chet tilini boshlan g'ich darajasida o'qitishning asosiy maqsadini lingvistik, sotsiolingvistik, sotsial-madaniy, strategik, diskursiv va ijtimoiy kompetensiyalarni o'z ichiga olgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish deb ataydi. Mazkur masalada fikr yuritar ekanmiz, I.L.Bimning [5] qarashlari alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash o'rinli, xususan, mutaxassis chet tilida kommunikativ kompetensiyani chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi deb hisoblaydi.

Ko'plab olimlar chet tilining kommunikativ kompetensiyasini turli sohalarda mutaxassislar tayyorlash kontekstini inobatga olgan holda kasbiy so'zini qo'shib, uning kasbiy sohadagi nutq faoliyati bilan bog'liqligini alohida ta'kidlaydilar. Nofilologik o'quv muassasalarida chet tillarini o'qitish metodikasi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga bag'ishlangan. Ko'rinib turibdiki, bunda kasbiy kompetensiya ham lisoniy kompetensiya bilan chambarchas bog'liq. Xususan, A.V.Tsepilova chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyani samarali kasbiy muloqot uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar va chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasining integratsiyasi natijasi deb hisoblaydi [6].

Zamonaviy xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlarda chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiya tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilganiga guvoh bo'lish mumkin. K.Bezukladnikov, M.Novoselov, B.Kruse singari mutaxassislar guruhi tomonidan keltirilgan ta'rifni eng mukammallardan biri sifatida e'tirof etish mumkin: «Bo'lajak bakalavr va magistratura





talabasining chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasi – bu umumiy madaniy, umumiy kasbiy va maxsus kompetensiyalar yig'indisidan iborat bo'lgan shaxsiy psixologik yangi shakl bo'lib, kommunikativ kasbiy komponentlarning birligi va o'zaro bog'liqligi kognitiv va xulq-atvor jihatlari bilan bir qatorda chet tilida kasbiy hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borish uchun uzoq muddatli tayyorgarlik qobiliyatni o'z ichiga oladi» [7].

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida shuni alohida ta'kidlash lozimki, chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiya oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishning asosi sifatida qaraladi. Bu chet tilidagi kasbiy va akademik muloqotda ishtirok etish qobiliyati va tayyorligini ifodalaydi.

Endi bevosita harbiy bilim yurti kursantlarining chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasi xususida to'xtalib o'tsak. Yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu soha chet tillarni o'qitish metodologiyasi doirasida juda kam tadqiq etilgan masalalardan hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, turli harbiy ixtisoslik kursantlarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchrab turadi. Shunday tadqiqotlardan biri R.V.Drajan, Y.S.Kotova, S.N.Pautova tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mualliflar guruhi harbiy dengiz floti kursantlarida chet tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalani batafsil tahlil etadilar. Mazkur ilmiy tadqiqotda mualliflar harbiy dengiz floti kursantlarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini «kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni amalga oshirish uchun kasbga yo'naltirilgan chet tilini bilish, qo'llay olish hamda erkin gapira olishdir» deb ta'riflaydilar [8]. Harbiy bilim yurti bitiruvchisining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari tadqiqotchilar nuqtai nazaridan, kasbiy-lingvistik, sotsiolingvistik, kompensatsion (strategik), ijtimoiy (pragmatik) va shaxsiy kompetensiyalar sifatida qayd etiladi.

Mazkur masalaga oid eng so'nggi tadqiqotlardan biri rus pedagogi M.R. Vanyagina [9] tomonidan amalga oshirilgan. Mualif tadqiqotining dastlabki qismida, harbiy sohada bo'lmasa-da, boshqa sohalardagi kasbiy kommunikativ kompetensiya xususida amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida chet tilidagi kommunikativ harbiy-kasbiy kompetensiya tushunchasini shakllantirib, unda oltita kichik kompetensiyani aniqlaydi: lingvistik, ijtimoiy-madaniy, axborot, pragmatik, o'z-o'zini tarbiyalash va harbiy-kasbiy kompetensiya. Muallif kommunikativ kompetensiya haqida gapirar ekan, deyarli barcha tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan ikkita komponent – lingvistik va ijtimoiy-madaniy jihatlarni alohida ta'kidlaydi.

Lingvistik komponent «xorijiy til» fanining o'zidan va tilning tabiatidan kelib chiqadi. Lingvistik subkompetentlik «predmetli kompetensiyani ifodalaydi, chunki u kommunikativ kompetensiyaning bir qismi

sifatida ishlaydi» [10], bu chet tilini o'zlashtirishning kalitidir. Lingvistik subkompetentlik, o'z navbatida, til va nutq komponentlarini o'z ichiga oladi. Til komponenti til haqidagi bilimlarni, ya'ni o'rganilayotgan tilning grammatikasi, lug'at tarkibi (leksik qatlami), fonetikasi, boshqacha aytganda, «so'zlovchi/tinglovchiga xos bo'lgan va ularga grammatik jihatdan to'g'ri kelgan asarlarni tanib olishga imkon beruvchi bilimlar yig'indisini» ifodalaydi [11]. Nutq komponenti chet tilidagi nutq faoliyatining har xil turlarini amalga oshirish qobiliyatini qamrab oladi: o'qish va tinglab tushunish kabi retseptiv, gapirish va yozish kabi produktiv, shuningdek tarjima, izohlash kabi mediativ, va nutqning o'zaro ta'siri va hamkorlik kabi interaktiv jihatlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-madaniy subkompetentlik – o'rganilayotgan tilning ijtimoiy-madaniy fonini tushunish va undan foydalanish, nutqiy xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini xorijiy til madaniy muhitida qo'llashdan tashkil topadi. Biroq bu til o'rganuvchilarning alohida davlatlar vakillarining madaniy an'analari va milliy xususiyatlarini bilish asosida madaniyatlararo muloqotga tayyorligi bilan chegaralanib qolmaydi, balki madaniyatlararo muloqot jarayonida o'z madaniyatini chet tili orqali ifodalash qobiliyati va tayyorligini ham o'z ichiga olishi esda tutish lozim [12]. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya ikkita komponentni o'z ichiga oladi: fon, ya'ni tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyati, mintaqaviy tadqiqotlari, madaniy va kasbiy voqe'lari to'g'risidagi ma'lumotlarga (fon (tagzamin) bilimlariga) ega bo'lish va madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda madaniyatlararo o'zaro ta'sirni amalga oshirish qobiliyati.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan axborotni boshqarish ko'nikmalarining ahamiyati brogan sari ortib bormoqda. Tilning asosiy vazifalaridan biri, shubhasiz axborot (ma'lumot)ni yetkazishdan iborat bo'lib, ushbu vazifa hozirda har qachongidan ham ko'proq ahamiyatga egaligicha qolmoqda. Axborot subkompetensiyasi ham nutqiy faoliyatning boshqa turlari singari, ikki komponent – chet tilidagi manbalardan olingan ma'lumotlarni tushunish va undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan axborot-retseptiv hamda chet tilidagi ma'lumotlarni yaratish, qayta ishlash, uzatish va tarqatish qobiliyatiga ega bo'lgan produktiv komponentlarga ajratiladi.

Pragmatik subkompetentlik turli kommunikativ kontekstlarda chet tilidan to'g'ri foydalanish, muloqot uslublari va registrlarini to'g'ri farqlash va ularga mos keladigan til vositalarini tanlash qobiliyatini anglatadi [13]. Pragmatika chet tilidagi muloqotni o'z maqsadi bilan bo'g'lashni o'z ichiga oladi. Pragmatik subkompetentlik strategik va kompensatsion deya nomlanuvchi ikki komponentga ajratiladi. Strategik komponent shart-sharoitlar va me'yorlarga mos keladigan aloqa strategiyasini qo'llash qobiliyati, qo'shma muloqot faoliyatini tashkil etish singari jihatlarni qamrab olsa,



kompensatsion komponent aloqa muammosini hal qilish uchun chet tilini cheklangan darajada bilish sharoitida barcha bilim, qobiliyat va ko'nikmalardan foydalanish qobiliyatini qamrab oladi. Kommunikativ

kompetensiyaning kompensatsion komponenti tilni o'zlashtirishning dastlabki bosqichlarida, zaif tilni bilish darajasini qoplash zarur bo'lganda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A learning-centred approach. – Cambridge, 1987.
2. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам: теория и практика, филоматис. – Москва, 2004.
3. Мильруд Р.П., Максимова И.Р. Коммуникативная компетенция как готовность учащихся к общению на иностранном языке // Язык и культура, 2017, №38.
4. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: продвинутый курс. АСТ, Астрел. – Москва, 2007.
5. Бим И.Л. Компетентностный подход к образованию и обучению иностранным языкам под редакцией Хуторского А.В. Компетенции в образовании: опыт проектирования. Сб. научных трудов. – М.: ИНЭК, 2007.
6. Цепилова А.В. Интегрированная иноязычная профессионально-коммуникативная компетентность в структуре профессиональной компетентности современного инженера // Вестник Томского государственного педагогического университета, – 2017, №1 (178).
7. Безукладников К.Э., Новоселов М.Н., Крузе Б.А. Особенности формирования иноязычной профессиональной коммуникативной компетенции будущего учителя иностранного языка // Язык и культура, 2017, №38.
8. Дрожан Р.В., Котова Ю.С., Паутова С.Н. Иноязычная коммуникативная компетентность в системе профессионального образования курсантов морского вуза в аспекте реализации ФГОС-3+ // Вестник Майкопского государственного технологического университета, 2016, №3.
9. Vanyagina M.R. Development of foreign language communicative military-professional competence of cadets as a goal of teaching foreign languages in higher military school // Scientific-methodological electronic journal «Konsept». 2024, № 03.
10. Юдина Т.В. Обоснование структуры лингвистической компетенции как компонента коммуникативной компетенции студента языкового вуза // Педагогика. Вопросы теории и практики, 2021, т. 6, №4.
11. Войтович Н.В. Коммуникативная компетенция и её компоненты. Актуальные проблемы содержания и технологии обновления довузовского образования. – Минск, 2017.
12. Глумова Э.П., Шимичев А.С. Технология профессионального портфолио при формировании межкультурной компетенции будущих учителей иностранного языка // Язык и культура, 2017, №39.
13. Давидова В.В. Прагматическая компетенция в обучении иноязычному общению. Известия Волгоградского государственного педагогического университета, 2020, №4 (147).



Dilnoza XOLIQOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti umumiy tilshunoslik  
kafedrasida o'qituvchisi

## INTERNATSIONAL SO'ZLARNI O'ZBEK TILIGA O'ZLASHTIRISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada internatsional so'zlarni o'zbek tiliga o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda fonetik, morfologik, semantik va stilistik moslashuv jarayonlari o'rganilib, o'zbek tilining ichki tizimiga ushbu so'zlarning qanday integratsiyalashuvi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** internatsional so'zlar, o'zlashtirish, leksik moslashuv, fonetik integratsiya, semantik o'zgarish, lingvistik adaptatsiya, til me'yorlari.

**Annotation.** This article analyzes the main problems that arise in the process of assimilation of international words in the Uzbek language. The study examines the process of phonetic, morphological, semantic and stylistic adaptation, and also examines how these words are integrated into the internal system of the Uzbek language.

**Keywords:** lexical errors, synonyms, tracing errors, functional lexical errors, written speech, readers, language teaching methods, analysis, translation errors.

**Аннотация.** В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие в процессе ассимиляции интернациональных слов в узбекском языке. В исследовании изучается процесс фонетической, морфологической, семантической и стилистической адаптации, а также рассматривается, как эти слова интегрируются во внутреннюю систему узбекского языка.

**Ключевые слова:** лексические ошибки, синонимы, ошибки при калькировании, функциональные лексические ошибки, письменная речь, читатели, методика обучения языку, анализ, ошибки перевода.

Til taraqqiyoti jarayonida internatsional so'zlarning o'zlashuvi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli tillar o'rtasidagi aloqa kuchayib, internatsional leksika kengayib bormoqda. Ammo bu jarayonda muayyan lingvistik muammolar yuzaga keladi.

Birinchi navbatda, internatsional so'zlarning fonetik va morfologik moslashuvi masalasi dolzarb hisoblanadi. Ko'pgina o'zlashmalar asl talaffuzi saqlanmagan va o'zbek tilining fonetik tizimiga moslashgan holda qabul qilinadi. Masalan, *kompyuter* so'zi ingliz tilidagi *computer* so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilining talaffuz qoidalariga moslashtirilgan. Biroq ayrim hollarda fonetik moslashuv so'zning talaffuzi va yozuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchi muammo – semantik noaniqlik. Ayrim internatsional so'zlar turli tillarda turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *marketing* so'zi ingliz tilida keng qamrovli iqtisodiy tushuncha sifatida qo'llanilsa, o'zbek tilida ba'zan reklama bilan bog'liq ma'noda tushuniladi. Bu esa noto'g'ri talqin va muloqotdagi tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Uchinchi muammo – international so'zlarning haddan ziyod ko'p qo'llanilishi o'zbek tilining tabiiy rivojlanishiga tahdid solishi mumkin. Jamoatchilikka bunday so'zlarning mahalliy ekvivalenti tavsiya qilinmasa, milliy til xususiyatlari xavf ostida qolishi mumkin. Masalan, *menedjer* so'zi o'zbek tilida *boshqaruvchi* yoki *rahbar* so'zlari bilan almashtirilishi mumkin bo'lsa-da, asosan *menejer* shaklida qo'llanyapti.

Bu muammolarni hal qilish uchun bir necha yondashuvlar taklif qilinmoqda:

Birinchidan, internatsional so'zlar o'zbek tiliga to'g'ri moslashtirilishi uchun rasmiy normativ hujjatlar ishlab chiqilishi kerak.

Ikkinchidan, o'zbek tilidagi ekvivalentlarni targ'ib qilish orqali ortiqcha internatsionalizmlarning oldini olish.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi va ilmiy muhitda internatsional so'zlarning to'g'ri ishlatilishini nazorat qilish.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida internatsional so'zlarning o'zlashuvi va milliy tillarga ta'siri bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Lingvistlar, terminologlar va tarjimonlar internatsional leksikaning milliy tillar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini o'rganib, til siyosatini shakllantirishga harakat qilmoqdalar.

K.Bausch va M.Gorlach global tillar o'rtasidagi leksik almashinuv jarayonlarini o'rganib, internatsional terminlarning milliy tillarga moslashuvi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda [1: 112]. Ularning izlanishlari xalqaro miqyosda leksik ta'sirning mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan. Suzan Romen esa sotsiolingvistika sohasida faol tadqiqotlar olib borib, tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni hamda internatsional leksikaning milliy tillarga ta'sirini o'rganmoqda [4]. Til tipologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida internatsional terminlarning grammatik o'zgarishlarini o'rganib, turli tillarda qanday shakllanishi va moslashishini Bernard Komri tahlil qilmoqda [2: 74]. Uning ishlari qiyosiy tilshunoslik va universal grammatik xususiyatlarni aniqlashga asoslangan. Viktor Fredman Markaziy Osiyo tillarida internatsional terminologiyaning qabul qilinishi va semantik o'zgarishlarini o'rganish bilan shug'ullanmoqda. Tadqiqotlari regiondagi ko'p tillilik sharoitida xalqaro atamalar qanday shakllanishini va milliy leksikaga qanday moslashishini aniqlashga yo'naltirilgan [3: 53].

Internatsional soʻzlarning oʻzlashuvi va milliy tilga taʼsiri boʻyicha Oʻzbekistonda ham muhim tadqiqotlar olib borilyapti. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbek tilini rivojlantirish jamgʻarmasi va Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibidagi Tilshunoslik instituti internatsional terminlarning normativ asoslarini ishlab chiqish boʻyicha turli loyihalar amalga oshirmoqda. Tadqiqotlarda internatsional soʻzlarning leksik-semantik xususiyatlari, fonetik va morfologik oʻzgarishlari, ommaviy axborot vositalarida qoʻllanilishi tahlil qilinmoqda.


Yurtimizda internatsional soʻzlarning haddan tashqari koʻpayishining oldini olish va milliy ekvivalentlarini rivojlantirish maqsadida davlat til siyosati doirasida muayyan choralar koʻrilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston rasmiy hujjatlarda va taʼlim tizimida milliy terminlarni qoʻllashga alohida eʼtibor qaratilgan. Bundan tashqari, zamonaviy lingvistik va tarjimashunoslik boʻyicha ilmiy konferensiyalarda internatsional terminologiyaning oʻzbek tiliga moslashuvi boʻyicha maxsus sessiyalar tashkil etilmoqda.

Tadqiqotlar internatsional soʻzlarni oʻzbek tiliga oʻzlashtirish jarayonida fonetik, morfologik va semantik muammolar yuzaga kelishini koʻrsatadi. Chunki ular asosan ilm-fan, texnika, siyosat va madaniyat sohalari bilan bogʻliq

holda bevosita qabul qilinadi. Baʼzi soʻzlar toʻliq oʻzbek fonetik meʼyorlariga moslashsa, boshqalari asl talaffuzini saqlab qoladi. Bu holat ayniqsa rus tili orqali qabul qilingan soʻzlarda yaqqol namoyon boʻlib, oʻzbek tilida ikki xil talaffuz variantlarining shakllanishiga olib keladi.

Morfologik oʻzlashtirish jarayonida internatsional soʻzlarning oʻzbek tilidagi soʻz yasash va grammatik tizimga moslashuvi turlicha kechadi. Baʼzi soʻzlar oʻzbek tili affikslarini qabul qilib, yangi maʼno anglatadi, boshqalari esa asosan leksik birlik sifatida qoʻllanib, morfologik oʻzgarishlarga uchramaydi. Ayniqsa ilmiy-texnik terminlar koʻpincha asliyatga yaqin shaklda ishlatilishi natijasida oʻzbek tilining anʼanaviy soʻz yasash tizimiga nisbatan farqli ravishda rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari internatsional soʻzlarning oʻzbek tiliga oʻzlashtirilishi boʻyicha tizimli yondashuv zarurligini koʻrsatadi. Fonetik, morfologik va semantik moslashuvni oʻz ichiga olgan kompleks yondashuv internatsional soʻzlarning oʻzbek tili meʼyorlariga mos kelishini taʼminlashi mumkin. Bu borada, tilshunoslar va terminolog mutaxassislar ishlab chiqqan tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi diagrammada ushbu tadqiqot natijalari umumlashtirilgan holda koʻrsatilgan.



Xulosa qilganda, internatsional soʻzlarni oʻzbek tiliga oʻzlashtirish jarayoni lingvistik va ijtimoiy omillar taʼsirida shakllanadi. Fonetik, morfologik va semantik moslashuv oʻzbek tilining oʻziga xos xususiyatlariga bogʻliq holda kuzatiladi. Ayniqsa semantik moslashuv jarayoni murakkab

boʻlib, soʻzni oʻzbek tilining kontekstiga dastlabki maʼnosini saqlagan holda moslashtirish talab etiladi. Tilshunoslar, terminologlar va til siyosatini yurituvchi tashkilotlarning hamkorligi international soʻzlarning aniq va meʼyoriy oʻzlashtirilishini taʼminlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bausch K, Görlach M. Linguistic Exchange and International Terminology Adaptation in National Languages. Berlin: De Gruyter; 2015. – 418 p.
2. Comrie B. Typological Perspectives on International Word Adaptation in Grammar. Cambridge: Cambridge University Press; 2018. – 422 p.
3. Friedman V. Lexical Borrowing and Semantic Change in Central Asian Languages. Leiden: Brill; 2020. – 432 p.
4. Romaine S. Language Contact and Globalization: The Influence of International Vocabulary on National Languages. Oxford: Oxford University Press; 2017. – 384 p.




**Nilufar RASULOVA,**
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili amaliy aspektlari kafedrası dotsent v.b.*

## MAHMUD KOSHG'ARIYNING «DEVONI LUG'OTIT-TURK» ASARIDA KELITIRILGAN GINEKOLOGIK TERMINLAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» lug'atida keltirilgan ginekologik terminlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** yo'ldosh, tomir, bola tug'moq, yengil bo'lmoq, emizikli xotin, doya.

**Annotation.** This article analyzes the gynecological terms contained in Mahmud Kashgari's dictionary «Diwanu lugat at-turk».

**Keywords:** placenta, vein, childbirth, relief, nursing woman, midwife.

**Аннотация.** В данной статье анализируются гинекологические термины, содержащиеся в словаре Махмуда Кашгари «Дивану лугат ат-турк».

**Ключевые слова:** плацента, вена, роды, облегчение, кормящая женщина, акушерка.

Dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga hissa qo'shgan «Devoni lug'otit-turk» asari turkiy tilshunoslikning bizgacha yetib kelgan ilk yirik hamda tengi yo'q ulug' yodgorligidir. Ushbu lug'atda qadimgi xalq maqollari, xalq dostonlari va qo'shiqlaridan

olingan parchalar, iboralar, shuningdek, sheva so'zlari o'rin olgan. Qolaversa, ginekologiyaga oid so'zlar ham keltirilgan.

Biz ilmiy o'rganishlarimiz asosida ginekologiyaga oid lug'atlarni quyidagicha jamladik:

Turkiy tilda	O'zbek tilida	So'zning lug'aviy ma'nosi	Manba sahifasi
umay	yo'ldosh	Tuqqan xotinlar qornidan chiquvchi narsa. Bolaning qornidagi hamrohi – yo'ldoshi deyiladi.	62
emiglig	emiglig	emizikli xotin	72
Emüzdi	Emizdi	Urağut oğliña sūt emüzdi Xotin o'g'liga sut emizdi	85
Tilkü	tilku	Bu so'z orqali qiz bolaga ishora qilinadi. Ayol tuqqanida doyadan «Tilkümü tugdi azu bõrimü?» (tulki tug'dimi yoki bo'rimi?) deb so'raladi. Ya'ni «Qizmi yoki o'g'ilmi?» demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo'lganlari uchun tulkiga, o'g'il bolalar botirligiga ko'ra bo'riga o'xshatiladi.	171
beşiklig	beşiklig beshikli	beşiklig urağut beshikli va emizikli xotin	201
kõtürdi, Er yuk kõtürdi	ko'tardi Kishi yuk ko'tardi	Xotinlarning yuk (homila) ko'tarishiga nisbatan ham bu so'z qo'llaniladi	229
tuğurdi	Tug'di		231
Urağut oğul tuğurdi	Xotin o'g'il tug'di		231



Qutuldi; Uragut qutuldi	Qutuldi, bo'shaldi;	Xotin tug'di va qiyinchilikdan qutuldi	244
yenigü	yenigu	tug'adigan	335
bu uragut-ol yenigü	bu xotin tug'adigan	oy kuni yaqin xotin	335
Yenidi	Tug'di Uragut yenidi	Xotin bola tug'di; Yukidan bo'shandi (yenir, yenimak) Ikkinchi: «badan» ma'nosidagi <b>yin</b> so'zidan olingan. «Xotin o'z badanidan yana bir gavda (vujud) chiqardi» demakdir. So'zning yasalişida har ikki usul ham qoidaga muvofiq keladi.	354
qavut	qağut shakli ham bor	Yangi tuqqan xotinlarning taomi. Qovurilgan tariq uni, yog' va shakarga qorib yeyiladi.	379

**Yenidi** – tug'di; Uragut yenidi – xotin bola tug'di, yukidan bo'shandi. «Uragut yenidi» gapidagi «yenidi» so'zining yasalişiga e'tibor beradigan bo'lsak, ikki xil ma'noni anglashimiz mumkin. Birinchisi, «yenidi» so'zi «yenig nāñ» (yengil narsa) iborasidan olingan. Xotin bola tug'ib yengil bo'ladi, demakdir. Ikkinchi: «badan» ma'nosidagi «yin» so'zidan olingan. «Xotin o'z badanidan yana bir gavda (vujud) chiqardi demakdir [1: 354].

**Qap** so'zining lug'atda 3 xil ma'nosi qo'llanilgan: 1. G'ilof, qop. 2. Yaqin; istiora yo'li bilan: «Ol mening birla uya qap – ol» deyiladi. «U men bilan bir qorindan tug'ilgandek yaqin»

demakdir. 3. Ona qornida bola o'ralib turgan parda, yo'ldosh. Agar bola bu parda bilan tug'lsa, qutlug' deb fol qilinadi. «Uni qaplig' o'g'ul» deb ataladi [1: 373].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «Devoni lug'atit turk» turkiy tildagi so'z yasalişini chuqur o'rganish imkonini beruvchi keng qamrovli asardir. Lug'at turkiy til haqidagi tushunchamizni shakllantirishga yordam berdi va so'z boyligimizni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi [2: 248]. Ushbu lug'atdagi so'zlar og'zaki nutqda qo'llanilmasada, tilshunoslikda hali hanuztdiqotlar obyekti bo'lib klemoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Koshg'ariy «Devonu lug'otit-turk» (Turkiy so'zlar devoni) – Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.
2. Suxanberdiyeva S. «Devonu lug'otit turk» asarini o'qitishda interfaol metodlar // Journal of integrated education and research, 1(5), 248-b. 2022.



Nigina RASULEVA,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

## XITOIY INTERNET ADABIYOTIDA ILMIY FANTASTIK ASARLARNING TARG'IBOTI

(《我们生活在南京》 – «Biz Nankinda yashaymiz» romani misolida)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xitoy zamonaviy adabiyotining yangi tendensiyalaridan biri bo'lgan «internet adabiyoti», xususan, xitoy onlayn adabiyotida «ilmiy fantastika» janrining namoyon bo'lishi, internetdagi ilmiy fantastik asarlarning ommaboplik darajasi haqida bayon qilinadi. Hozirgi rivojlanish holati va kelajakda taxmin qilinayotgan taraqqiyot jarayoni haqida aniq xulosalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** xitoy internet adabiyoti, ilmiy fantastika janri, internet yozuvchilari, 《我们生活在南京》 – «Biz Nankinda yashaymiz» romani.

**Annotation.** This article discusses one of the new trends in modern Chinese literature, «internet literature», in particular the emergence of the «science fiction» genre in Chinese online literature, and the level of popularity of science fiction works on the Internet. Clear conclusions are given about the current state of development and the expected future development process.

**Keywords:** Chinese internet literature, science fiction genre, internet writers, 《我们生活在南京》 – Novel «We live in Nanjing».

**Аннотация.** В статье рассматривается одно из новых направлений в современной китайской литературе – «интернет-литература», в частности возникновение жанра «научная фантастика» в китайской интернет-литературе, а также уровень популярности научно-фантастических произведений в Интернете. Даны четкие выводы о текущем состоянии развития и ожидаемом будущем процессе развития.

**Ключевые слова:** китайская интернет-литература, жанр научной фантастики, интернет-писатели, 《我们生活在南京》 – роман «Мы живем в Нанкине».

So'nggi 25 yil davomida xitoy internet (onlayn) adabiyoti Amerika blokasterlari, yapon animelari va koreys teleseriallari bilan bir qatorda to'rt yirik adabiy hodisadan biriga aylandi. Uning rivojlanish tarixini o'rganish va shakllanish trayektoriyasi ustida izlanish Xitoy madaniyatini tushunish hamda xalqi bilan yaqindan tanishishda muhim ahamiyatga egadir.

Internet adabiyotining subyektlarini internet hamjamiyatidagi adabiy hodisalarda faol rol o'ynaydigan kishilar tashkil etadi. «Inson – ijtimoiy munosabatlar yig'indisi; tarmoq jamiyatida kishilarning o'zaro munosabatlari aniq tarmoq xususiyatlariga ega, bu ular o'rtasidagi umuminsoniy aloqaning ko'rinishidir. Shu sababli, Xitoy tarmoq jamiyatini internet texnologiyalari rivojlanishi asosida kibermakondagi odamlar o'rtasidagi interaktiv munosabatlar yuzaga keladigan ijtimoiy shakl sifatida ko'rishi mumkin» [2: 201].

Internet adabiyoti yaratuvchilarining asosiy qismini zamonaviy yozuvchilar, ya'ni internet davrida paydo bo'lgan adabiy ijodning yangi guruhi tashkil etadi. Ular an'anaviy adabiy yozuvchilardan farqli o'laroq quyidagi xususiyatlarga ega: 1. Ular ko'pincha onlayn yozadilar, asarlari internetda doimiy shakllanib boradi. 2. Asarlari tarmoq foydalanuvchilari tomonidan tan olingan va kliklar (internetda biror havola ustiga bosish) soni yuqori. 3. Onlayn asarlar ma'lum bir standartga javob berishi va kasb egalari yoki nashriyot muassasalari tomonidan tan olinishi kerak. Shuning uchun internetda ko'pincha shaxsiy his-tuyg'ulari haqida yozadigan, kuzatuvchilari kam va hech qanday qadr-qimmatga ega bo'lmagan yozuvchilarni

«internet-yozuvchilar» deb atab bo'lmaydi. Yillar mobaynida asta-sekin ba'zi internet yozuvchilari an'anaviy adabiyotda tan olinib, «Xitoy yozuvchilar uyushmasi» a'zoligiga qabul qilindi va ularni rasman «网络作家» deb atay boshlashdi [8].

Yillar o'tgani sayin internet asarlarining janrlari ham rang-baranglashdi. Yosh yozuvchilar onlayn adabiyotga kirib kelishi tobora ko'paygani sari zamonaviy janrlarda ijod qiluvchi yozuvchilar soni ham keskin oshib bordi. So'nggi 5–6 yil davomida internet yozuvchilari orasida ilmiy fantastika janrida ijod qiluvchilar ancha ko'pchilikni tashkil qilgani kuzatilmoqda. Ularning asarlari esa nafaqat xalqaro miqyosda e'tibor qozondi, balki mashhur adabiy mukofotlarni ham qo'lga kirita boshladi. Ilmiy fantastik asarlar ko'pincha internet platformalarida yoziladi va o'quvchilar tomonidan serial tarzida o'qiladi.

Xitoy internet adabiyotidagi ilmiy fantastikaning xususiyatlari:

1. Veb-roman formatida yozilishi. Asarlar odatda veb-saytlarda (masalan, Qidian, Zongheng, 17k) serial shaklida chop etiladi.

2. Ko'plab kitobxonlar va muhokamalar uchun ochiq maydonning mavjudligi. O'quvchilar har bir bobdan keyin izoh qoldirishi, muhokama qilishi va muallifga takliflar berishi mumkin.

3. Mahalliy madaniy ta'sir. G'arb ilmiy fantastikasidan farqli ravishda, xitoy ilmiy fantastik asarlarida konfutsiychilik ta'limotining g'oyalari va tarixiy motivlar ko'p uchraydi.

4. Texnologik va futuristik g'oyalar ustunligi. Sun'iy intellekt, yulduzlararo sayohat, kiborglar, virtual haqiqat, kosmik sivilizatsiyalar kabi mavzular keng yoritiladi.

Yaqinda e'lon qilingan ilmiy fantastika janri ijod na'munalariga beriladigan xalqaro mukofot g'oliblari ro'yxatida ham internet ilmiy fantast yozuvchilari nomi paydo bo'ldi: 天瑞说符 (Tianrui Shuofuning) 《我们生活在南京》 («Biz Nankinda yashaymiz») asari «文学奖冠军-最佳科幻长篇小说» ya'ni «Eng yaxshi ilmiy fantastik roman» nominatsiyasida g'olib bo'ldi. Romanda romanchilik rivojlanishi uchun ilmiy va texnologik harakatlantiruvchi kuch sifatida radiotexnikaning professional muhitidan kelib chiqqan «时光慢递» – «Vaqtning sekin o'tishi» metodidan foydalaniladi [7]. Bu roman 2019-yilda o'rta maktab o'quvchisi 白杨 (Bai Yang) va 2040-yilda «最后一个人类» «Oxirgi odam» bo'lgan o'n to'qqiz yoshli 半夏 (Ban Xia) qizning dunyoni qutqarish uchun birgalikda harakat qilishlari haqida. Bu tanqidchilar tomonidan «完成了硬核科幻与唯美故事的新科幻实验» «O'zida murakkab ilmiy fantastik elementlar va estetik hikoyani mujassamlagan yangi ilmiy fantastik eksperiment» roman deb baholandi. 《我们生活在南京》 – «Biz Nankinda yashaymiz» dan tashqari, yozuvchi 天瑞说符 (Tianrui Shuofu) ning 《泰坦无人声 – «Titanning ovozi yo'q», 《死在火星上》 – «Marsdagi o'lim» va so'nggi asari bo'lmish 《保卫南山公园》 – «Nanshan bog'ini himoya qilish» kitoblari ham kitobxonlar orasida mashhurlikka erishgan.

《2024 中国科幻产业报告》 («2024-yilgi Xitoy ilmiy fantastika sanoati hisoboti») ga ko'ra, 2023-yili Xitoyda ilmiy fantastikani mutolaa qilish sanoatining daromadi 3,17 milliard yuanni tashkil etdi, bu undan avvalgi yilga nisbatan 4,3 foizga o'sdi degani, so'nggi yillarda ilmiy fantastika bozori asta-sekin tiklandi hamda taraqqiy eta boshladi. Adabiyotning sifati va miqdori oshib borayotgan bir paytda, 文汇报记者 («Wenhui Daily» nashri muxbiri) 天瑞说符 (Tianrui Shuofu) bilan Xitoy ilmiy fantastik romanlarining hozirgi rivojlanish holati va uning shaxsiy yozuv uslubi haqida suhbatlashdi. Tadqiqotimizning dolzarbligini ifodalash uchun aynan shu suhbatni maqolamizda keltirishga va undan xulosalar berishga harakat qildik [1: 105].

Muxbir: «Ilgari ayrim sharhlovchilar internet adabiyoti olamidagi ko'plab ilmiy fantastik romanlarni shunchaki o'yinlar, qiyomat kunidagi yirtqich hayvonlarga qarshi kurash va ilmiy fantastika niqobiga o'ralgan boshqa turdagi adabiyotlar deb hisoblashardi. So'nggi yillarda Xitoy ilmiy fantastik adabiyoti katta yutuqlarga erishdi va ajoyib asarlar paydo bo'ldi. Tanqidchi 杪樛 (Suo Luo) ning fikricha, ilmiy fantastik adabiyotlarning ommaviyligi Xitoy ilmiy-texnikaviy qudratining jadal rivojlanishi natijasidir. Ilmiy fantastik asarlarda Xitoyning asl kuchi, xalqining donoligi, madaniy qadriyatlariga bo'lgan hurmati yoritib berilishi haqida siz qanday fikrdasiz?»

天瑞说符 (Tianrui Shuofu): «Menimcha, xitoylik yozuvchilar ilmiy fantastik asarlarni yozishda eng ko'p ahamiyat berishi kerak bo'lgan jihat bu – kitobxonlar bilan aloqadir. Onlayn ilmiy fantastik romanlarning katta afzalligi o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va ularning fikr-mulohazalarini juda tez va to'g'ridan to'g'ri tahlil qilish

imkoniyatining borligida. Shu bilan birga, umid qilamizki, kitobxonlar mahalliy ilmiy fantastik adabiyotga nisbatan bag'rikeng bo'lishlari va endi 真伪科幻 (haqiqiy va soxta ilmiy fantastika) mavzusiga to'xtalmasliklari lozim. Mavzu qanchalik kuchli bo'lsa, shunchalik ta'sirli bo'ladi, agar mahalliy ilmiy fantastika haqiqiy va soxta ilmiy fantastika muammosi bilan kurashmasa, haqiqiy kuchga ega bo'ladi [3: 35].

Muxbir: 1995-yilda tug'ilgan yosh yozuvchi sifatida o'smirlilik chog'ingizdan ijod qila boshlagansiz va 25 yoshingizdayoq 《我们生活在南京》 («Biz Nankinda yashaymiz») asarini yozishga kirishdingiz. Siz texnologik mazmundagi kuchli ilmiy fantastikada ham, gumanistik ruhdagi ilmiy fantastikada ham ajoyib natijalarga erishdingiz. Shaxsiy yozuv uslubingiz va uning rivojlanish yo'nalishi haqida o'zingiz nima deya olasiz?»

天瑞说符 (Tianrui Shuofu) : Hozirgi shaxsiy pozitsiyam va rejam – internet adabiyotiga chuqurroq kirib borish. Asarlarimda jiddiy ilmiy va texnologik mazmuni berish bilan birga, syujet va yozuvning sayqallanishiga ham e'tibor beraman, qattiq ilmiy fantastika va yumshoq ilmiy fantastika o'rtasidagi muvozanatni topishga intilaman. Rivojlanish yo'nalishida men kitobxonlarga yanada qiziqarli asarlarni yetkazib berish uchun yangi ilmiy fantastik mavzularni hamda yozish texnikasini mukammallashtirishni davom ettiraman deb umid qilaman.

Nazarimda, 刘慈欣ning iste'dodi tengsiz. Umuman olganda, ilmiy fantastika ko'pincha noyob g'oyadan boshlanadi va aqlli tasavvur orqali ajoyib hikoyani yaratadi. Biroq, bunday hikoyalar hajmi cheklangan va faqat o'n minglab so'zlardan iborat qisqa hikoyalarni tashkil qilishi mumkin. Uzoq muddatli ilmiy fantastik romanlarda esa ko'proq adabiyotning chuqurligi va kengligiga e'tibor qaratiladi, xarakter yaratish va syujet rivojlanishiga e'tibor beriladi. Ehtimol, bu detektiv taassurotning hayajonidir yoki hissiy tarixning chuqurligi ilmiy fantastika elementlarida ko'proq rol o'ynaydi. 刘Liu o'zining ilmiy fantastik asarida ushbu ikkita an'anaviy ijodiy uslubni buzdi, har bir nuqta mustaqil ravishda romanga aylanishi uchun yetarli va bu zich boy fikrlar buyuk va murakkab ilmiy fantastika dunyosini qurish uchun aqlli uslubda birlashtirib berildi. Bunday ijod namunasi shubhasiz, o'n yoki hatto yigirma yillik to'plash va ajoyib iste'dodni talab qiladi.

Muxbir: Shu nomdagi romandan ishlangan 《我们生活在南京》 «Biz Nankinda yashaymiz» filmi yaqinda e'lon qilingan reklamalarda ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Ba'zi sharhlar sizning ishingiz matnidagi split-shot ifodalash texnikasi kuchli vizual tuyg'uga ega va IP film televidenie uchun juda mos keladi, deb hisoblashadi. Bundan tashqari, siz ijodiy jarayon davomida o'quvchilaringiz bilan ma'lum darajada o'zaro aloqada bo'lasiz. Internet asrida kitobxonlar va mualliflar o'rtasidagi kuchli interaktiv munosabatlar adabiy ijodkorlarga qanday o'zgarishlar kiritdi?»

天瑞说符 (Tianrui Shuofu) : O'quvchilar bilan kuchli uzviy aloqa – bu internet adabiyotning asosiy xususiyatlaridan biri, ammo uning ijobiy va salbiy





tomonlari bor, bir tomondan, o'quvchilar va bozorga tabiiy yaqinlik onlayn adabiyot mualliflarining asosini tashkil etsa, boshqa tomondan, o'quvchilar barcha adabiy janrlarda hech qachon ko'rilgan ijodga juda katta ta'sir ko'rsatadilar. O'quvchilar bilan qanday munosabatda bo'lish internet adabiyoti mualliflari uchun zarur bo'lgan yo'nalishdir, lekin ta'kidlash kerak bo'lgan narsa shundaki, men «泰坦无人声» «Titanning ovozi yo'q» romanini seriyalashtirganimda, men o'zimning yaratish usulimda o'quvchilar bilan «斗智斗勇» «aql va jasorat tuyg'ularini uyg'unlashtirdim». Qolaversa, albatta o'quvchilarning fikr-mulohazalarini hisobga olish kerak va men ularning izohlarini har kuni o'qiyman. «不完美» «Nomukammallik» ham onlayn adabiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Romanni seriallashtirish jarayonida yuzaga kelgan qo'ppolik va nomukammallik ham shu adabiyot turiga xosdir.

Muxbir: Asarlaringiz ko'pincha inson olamini ma'yus qiyomat fonida tasvirlaydi, lekin erkak va ayol qahramonlar yoshlik va go'zal insoniylikning yorqinligini ko'rsatadi. Bu asarlar uchun ilhom va motiv nima? O'quvchilarga qanday fikrni bildirmoqchisiz?

天瑞说符 (Tianrui Shuofu) : O'ziga xos «xizmatga yo'naltirilgan» adabiy ijod sifatida internetdagi asarlarning boshlang'ich nuqtasi muallifning shaxsiy ichki dunyosi bo'lishi mumkin, voqealarning rivoji esa kitobxonlarning qiziqishlari va asarning ommabopligidan kelib chiqib davom etadi. Biz romanlarni internetda e'lon qilishni boshlaymiz, syujetning o'zgarishi esa kitobxonlarimizning qiziqishlari nuqtai nazaridan amalga oshadi. Shu sababli, ilhom va motivni albatta kitobxon muxlislarimizni qiziqishlaridan olamiz deb bimalol ayta olaman.

Muxbir: Ayrim sharhlovchilarning fikricha, ilmiy fantastika ommabopligi Xitoyning ilmiy va texnologik qudratning jadal rivojlanishi natijasidir. Bu ilmiy fantastika ilm-fan taraqqiyotidan oldinda bo'lishi va fanga yo'nalish

berishi kerakligini anglatadimi? Agar ilmiy fantastika mualliflarida ilmiy va muhandislik bilimlari yetishmasa, bu «科幻» «ilmiy fantastika»ning «魔幻» «sehrli» bo'lishiga olib kelishi mumkinmi?

天瑞说符 (Tianrui Shuofu) : Ilmiy-fantastik romanlar ilm-fan rivojiga olib kelishi shart emas, chunki asarlar fanning rivojlanish yo'nalishini ta'minlay olmaydi, shuningdek, ular real dunyoda fan va texnologiya rivojiga bevosita ta'sir o'tkaza olmaydi yoki rag'batlantira olmaydi, deb hisoblayman. Ko'rishimiz mumkinki, ilmiy fantastika mualliflari ko'pincha ijodiy materiallarni eng ilg'or olimlardan olishadi – ilmiy fantastik adabiyotning o'zi kelajakni bashorat qilish funksiyasiga ega emas va u bu majburiyat yoki mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.

Ilmiy fantastik adabiyotning noyob qobiliyati jamoatchilikning texnologiya yoki kelajak haqidagi umumiy tushunchasini oson tushunarli va ommabop tarzda shakllantirishdan iboratdir. Shunday qilib, u bilvosita texnologiyaning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Internet adabiyotida ilmiy fantastika janrining keng ommalashishi hamda dunyo kitobxonlarining e'tiboriga tushishini quyidagi xulosalar yordamida bayon qilamiz:

Xitoy internet adabiyoti ilmiy fantastik asarlari xalqaro miqyosda mashhurlikka erishmoqda, bu esa o'z navbatida xitoy zamonaviy adabiyoti tendensiyalarini xorijliklar orasida targ'ib etilishiga olib keladi.

Netflix va boshqa global kompaniyalar xitoy ilmiy fantastik romanlarini ekranga moslashtirishga qiziqish bildirmoqda, bu esa xitoy adabiyotini kinofilmlar orqali jahonga yanada tanilishiga yordam beradi.

Ko'plab xitoy ilmiy fantastik veb-romanlari ingliz tiliga tarjima qilinmoqda va xalqaro tanqidchilar orasida ham yutuqqa erishmoqda.

Xitoy internet adabiyotidagi ilmiy fantastika tez rivojlanayotgan va ijodiy jihatdan juda boy soha bo'lib, u kelajakda yanada ko'proq e'tibor qozonishi kutilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 王德威、史统散，《科幻兴 – 中国科幻小说的兴起、勃发与未来》，《探索与争鸣》2016年第8期，第105-108页。
2. 王晋康：《豹人》，成都：四川科学技术出版社2012年版，第200页。
3. 伊·普里戈金、[法]伊·斯唐热，曾庆宏、沈小峰译，《从混沌到有序—人与自然的新对话》，上海：上海译文出版社2005年版，第3页。
4. 宝树. 科幻中的中国历史[M]. 北京：生活·读书·新知三联书店，2017：2.
5. 张未未. 科幻式的异文化表达——《三体》的文学人类学解读 [J]. 美与时代 (下), 2016, (5).
6. 杨庆祥. 作为历史、现实和方法的科幻文学——序《青·科幻》丛书[A]. 宝树. 世间外史 [M]. 北京：作家出版社，2018.

**Kamola ADXAMOVA,**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti*

## **O'ZBEKISTON PR MUHITIDA IJTIMOY TARMOQLAR: AFZALLIKLAR, CHEKLOVLAR VA YECHIMLAR**

**Annotatsiya.** O'zbekiston PR muhitida ijtimoiy tarmoqlarning o'рни masalasi o'rganilib, maqolada ularning PR kampaniyalari samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. So'rovnoma natijalari asosida ijtimoiy media vositalarining afzalliklari, duch kelinayotgan muammolar aniqlanib, ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** PR, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, marketing, ommaviy axborot vositalari.

**Annotation.** This article examines the role of social networks in the PR environment of Uzbekistan and their impact on the effectiveness of PR campaigns. Based on the survey results, the advantages and problems of using social media are analyzed, and recommendations for their solution are offered.

**Keywords:** PR, social networks, communication, marketing, media.

**Аннотация.** В данной статье изучается роль социальных сетей в PR-среде Узбекистана и их влияние на эффективность PR-кампаний. На основе результатов опроса анализируются преимущества и проблемы использования социальных медиа, а также предложены рекомендации по их решению.

**Ключевые слова:** PR, социальные сети, коммуникация, маркетинг, СМИ.

Zamonaviy axborot makonida ijtimoiy tarmoqlar strategik kommunikatsiyalarning muhim vositasiga aylangan bo'lib, O'zbekistonda PR sohasi rivojlanayotgan bir davrda ahamiyati yanada ortib bormoqda. PR kampaniyalarining samaradorligi auditoriyaga tezkor axborot yetkazish, jamoatchilik bilan interaktiv muloqot o'rnatish va brend obro'sini boshqarish kabi omillarga bog'liq bo'lib, bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar PR mutaxassislari uchun muhim platforma hisoblanadi. Biroq O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan PR faoliyatida foydalanish mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan, mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot O'zbekiston PR muhitida ijtimoiy tarmoqlarning rolini, ularning PR kampaniyalarini amalga oshirishdagi imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida PR sohasi mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning PR faoliyatidagi o'рни va samaradorligi baholashga harakat qilinadi.

Tarixdan tashkilot yoki brend bilan bog'liq ma'lumotlarni yetkazib borishda gazeta, radio, televizor kabi an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan foydalanib kelingan. Zamonaviy jamiyatda esa ijtimoiy tarmoqlar jurnalistlar va tashkilotlar o'rtasida axborot almashishning asosiy vositasiga aylandi. Ijtimoiy media platformalari insonlar va korxonalariga kontent tarqatish va qabul qilish uchun misli ko'rilgan kuch berdi. Ular an'anaviy axborot vositalarida mavjud chegaralarni chetlab o'tib, korxonalar, taniqli shaxslar va maqsadli auditoriya o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqa liniyasini o'rnatdilar. Ijtimoiy tarmoqlar bu – hamkorlik uchun yaratilgan texnologik vositalar bo'lib, ular ish joyidagi faoliyat va o'zaro munosabatlarni tubdan o'zgartirib, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni keng miqyosda tarqatish va almashishga imkon beradi. Ular ijtimoiy media tarkibidagi aniq platformalar yoki tizimlar hisoblanadi. Tadqiqotchilar ijtimoiy mediani foydalanuvchilar bilan tezkor va samarali

aloqa o'rnatish imkonini beruvchi innovatsion platforma sifatida baholaydilar. Meikle 2016-yilda ijtimoiy mediani «ommaviy va shaxsiy muloqotni birlashtirgan tarmoq bazali platformalar» sifatida ta'riflagan. Breakenridge (2008) esa buni yanada soddaroq qilib tushuntiradi: «ijtimoiy media – odamlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradigan har qanday internet vositasi» [2: 2]. AQShda Smith va Blazovich (2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda «Fortune 500» ro'yxatidagi kampaniyalarning ijtimoiy media platformalaridan foydalanishi o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda asosiy korporatsiyalarni ijtimoiy tarmoqlardan qanchalik foydalanganliklari va bu omillar sanoat tarmog'i, kampaniya hajmi va o'sish imkoniyatlariga qarab farqlanadimi yoki yo'qmi aniqlashga harakat qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, «Fortune 500» kampaniyalarining 80% dan ortig'i ijtimoiy media platformalaridan foydalangan bo'lib, har bir kampaniya o'rtacha uchta platformadan foydalanardi [1: 44]. O'zbekistonda ham bugungi kunda kampaniya va tashkilotlar turli maqsadlarini amalga oshirishda ijtimoiy tarmoqlardan keng tarzda foydalanib kelmoqda. Xususan, jamoatchilik bilan aloqalar sohasi ham ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'z faoliyatini takomillashtirdi. Ana shu ta'sir jarayonini baholash va bu vaziyatda PR sohasi uchun paydo bo'lgan yangi imkoniyatlar, xavflar va muammolarni aniqlash uchun PR mutaxassislari orasida onlayn so'rovnoma o'tkazildi. Mazkur so'rovnomada 16 nafar PR mutaxassisi qatnashdi, ulardan 56,3 foizi ayollar va 43,8 foizi erkaklardir. So'rovnoma Google Forms platformasi orqali tayyorlanib, maxsus link Telegram, Instagram, Facebook, LinkedIn ijtimoiy tarmoqlari orqali 30 dan ortiq mutaxassislarga yuborildi. Tadqiqot jarayonlari 2024-yil 21-dekabrden 2025-yil 16-fevralga qadar davom etdi, javoblar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilindi. So'rovnomada ishtirok etganlar orasida eng ko'p uchragan lavozimlar PR menejeri (62,5%) va raqamli marketing mutaxassisi (12,5%) bo'ldi. Shuningdek, respondentlar orasida SMM mutaxassisi (6,3%), PR mutaxassisi (6,3%), PR agentligi direktori (6,3%), marketing bo'limi rahbari (6,3%),



marketolog (6,3%) va CEO (6,3%) kabi kasb egalari ham uchradi. Umuman olganda, ularning barchasi PR sohasi vakillari bo'lib, ayni damda ushbu lavozimda faoliyat yuritishadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, PR sohasida 1–2 yillik tajribaga ega ishtirokchilar eng ko'p ulushni (12,5%) tashkil etdi. Shuningdek, 3–4 yillik tajribasi borlar ham sezilarli – 18,8% ni tashkil qildi. 5 yillik tajribaga ega ishtirokchilar 6,3% ni, 6,5 va undan ko'p yillik tajriba egalari esa biroz kamroq foizni tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich 13 yillik tajriba bo'ldi. Ushbu natijalar PR sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining aksariyati nisbatan yangi

yoki o'rta darajadagi tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunga sabab PR sohasining O'zbekiston hududi uchun yangi kasblardan hisoblanishidir.

O'rganishlarga ko'ra, ishtirokchilarning aksariyati Telegram va Instagram platformalarini PR kampaniyalarida foydalanish uchun eng samarali deb hisoblashadi (jadvalga qarang). Ayniqsa, telegram, O'zbekiston PR amaliyotida eng mashhur platforma bo'lib, tezkor xabarlar yuborish, kanal yaratish va auditoriya bilan interaktiv muloqot o'rnatish imkoniyatlarini taqdim etadi.

T/R	Ijtimoiy tarmoq nomi	Foydalanuvchilar soni (foizda)
1.	Telegram	93.8 %
2.	Instagram	87.5 %
3.	Facebook	50 %
4.	LinkedIn	50 %
5.	YouTube	12.5 %
6.	X (avvalgi Twitter)	2 %

*Eng ko'p foydalanilayotgan ijtimoiy tarmoqlar.*

Ijtimoiy tarmoqlardan PR amaliyotida foydalanish sabablari bo'yicha ishtirokchilar bir nechta asosiy omillarni ta'kidlashdi. Ularning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa Telegram va Instagram, keng auditoriyaga tez va samarali yetib borish imkonini yaratadi, bu esa PR kampaniyalari uchun juda muhim. Respondentlar, shuningdek, LinkedIn platformasining biznesga yo'naltirilgan imkoniyatlarini ham ta'kidlashdi, chunki bu tarmoq professional darajada kampaniya qadriyatlarini va yutuqlarini targ'ib qilishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarning arzon narxlari, interaktiv muloqot o'rnatish va natijalarni tezda kuzatish imkoniyati ham PR strategiyalarini samarali amalga oshirishda yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda brend imidjini shakllantirish va shaxsiy brendni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlardan turli PR kampaniyalarini amalga oshirishda keng foydalaniladi. Ishtirokchilarning fikriga ko'ra PR kampaniyasining maqsadiga qarab, turli usullar qo'llaniladi. Masalan, yangi yil aksiyasi kabi mahsulotni targ'ib qilish uchun Telegramda promo nashrlar tayyorlanadi yoki bloggerlar bilan hamkorlik qilish orqali mahsulotni reklama qilish mumkin. Agar maqsad kampaniyaning kelgusi yilga bo'lgan rejalarini taqdim etish bo'lsa, maxsus loyiha – masalan, yuqori menejer bilan intervyu tashkil etilib, bu intervyu Telegram va Instagramda e'lon qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar tadqiqot natijalarini keng auditoriyaga tarqatish, infografikalar orqali ma'lumotlarni ommalashtirish, vebinar va tadbirlarni targ'ib qilish, ekspert imidjini shakllantirish kabi maxsus loyihalar uchun ham samarali hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar bilan interaktiv aloqalar o'rnatish, xabardorlikni oshirish, jamoatchilik fikrini o'rganish va mahsulot haqida ma'lumotlarni keng auditoriyaga tezda yetkazish uchun

keng qo'llaniladi. Shuningdek, korporativ ijtimoiy mas'uliyat loyihalari (ESG), mahsulot va brendni targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Influence marketing va PRni sun'iy ravishda kuchaytirish uchun ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgan PR kampaniyalarining muvaffaqiyatini o'lchashda bir nechta omillar hisobga olinadi. Ba'zi ishtirokchilar uchun buni layklar, ulashishlar, izohlar va ko'rishlar soni bilan baholaydi. Boshqalar esa, kampaniyaning maqsadiga qarab, sotuv hajmi yoki veb-trafik kabi aniq ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadi. Shuningdek, analitika vositalaridan foydalanib, kontentning qanchalik ta'sir qilganini va maqsadli auditoriyaga qanday ta'sir o'tkazganini kuzatish ham keng tarqalgan amaliyotdir. PR sohasida turli ko'rsatkichlar mavjud va har bir mutaxassis bu ko'rsatkichlardan o'zining aniq ehtiyojlariga qarab foydalanadi.

Bugungi kunda jahon tajribasida PR amaliyotlarini bajarishda ijtimoiy tarmoqlar an'anaviy mediaga qaraganda ko'proq qo'llanilmoqda. O'zbekistonda esa an'anaviy ommaviy axborot vositalari hali o'z o'rnini bo'shatmagan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 50 foizi PR kampaniyalarini amalga oshirishda an'anaviy mediadan ko'p; 37,5 foizi o'rtacha; 12,5 foizi esa kamroq darajada foydalanishni bildirgan. An'anaviy media keng auditoriyani qamrab olish imkoniyatini taqdim etsa-da, ijtimoiy tarmoqlar tezkor va interaktiv aloqa imkoniyatlarini yaratadi. Shu sababli, ko'plab PR mutaxassislari har ikkala platformadan ham samarali foydalanishni ma'qul ko'rmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor va oson muloqot o'rnatish, auditoriya bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish, hamda kampaniyani ommalashtirish imkoniyatlari ortmoqda.

Shuningdek, tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlarning an'anaviy mediadan foydalanishga ta'siri ham o'rganildi. Unga ko'ra, 37,5% ishtirokchi ijtimoiy tarmoqlar an'anaviy mediadan foydalanishga umuman ta'sir qilmaganini; 37,5% biroz kamaytirganini; 18,8% ancha kamaytirganini ta'kidlagan. 6,3% mutaxassislar esa ijtimoiy tarmoqlar an'anaviy media o'rnini to'liq egallaganini bildirishgan. Bu natijalar, ijtimoiy tarmoqlarning PR sohasidagi o'rnini yanada mustahkamlaganini va an'anaviy media bilan birgalikda ishlashning samaradorligini ko'rsatadi.

Har sohada yangi tizimlarning kirib kelishi turli qiyinchilik va muammolar kelib chiqishiga ham sabab bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda mutaxassislar duch kelgan qiyinchiliklar quyidagicha bo'lgan:

- to'g'ri auditoriyani topish bilan bog'liq muammolar;
- auditoriyani jalb etish va kontentning tezda «yo'qolib ketishi»;
- noto'g'ri talqin qilinish xavfi va auditoriya bilan barqaror muloqotni ta'minlash zaruriyati;
- qisqa matnlar bilan e'tiborni jalb qilishdagi qiyinchiliklar;
- troling, buyurtma qilingan salbiy fikrlar, va turli darajadagi soxta ma'lumotlar (feyklar).

Albatta, bu muammolar dastlabki moslashuv davrida kuzatilgan bo'lib, kerakli bilimlar egallanishi bilan bartaraf etilgan.

Umuman olganda, PR mutaxassislari yoxud auditoriya bilan muloqot qilish vazifasi yuklatilgan har qanday xodim ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida muammolar bilan muomala qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Buning uchun kompaniya rahbariyati tomonidan zarur choralar ko'rilishi, media savodxonlik darslari tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatni hisobga olib, tadqiqot ishtirokchilari faoliyat yuritadigan kompaniyalardagi bu bilan bog'liq vaziyatni tekshirdik. Respondentlarning 31,3 foizi ishlayotgan tashkilotida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha muntazam ravishda ta'lim berilishini bildirgan. 25 foizi bunday ta'lim kamdan-kam hollarda o'tkazilishini qayd etgan. Shu bilan birga, 37,5 foiz respondent tashkilotida bu borada umuman ta'lim berilmasligini ta'kidlagan, 6,3 foizi esa kelajakda bunday ta'lim berish rejalashtirilayotganini ma'lum qilgan.

Natijalardan xulosa qilish mumkinki, ko'plab tashkilotlarda ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha ta'lim berish tizimining o'zi hali mavjud emas yoki bu jarayon kamdan kam amalga oshiriladi. Kampaniya rahbariyati yangi tendensiyalarni xodimlarga o'rgatib borish ular uchun qanchalik foydali bo'lishini tushunishganda doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalarga oid bilimlarni yetkazish chora-tadbirlarini ko'rishgan bo'lar edi. Shu o'rinda, ijtimoiy tarmoqlarning soha vakillari uchun qanday afzalliklar taqdim etgani bilan ham qiziqdik. Bunda quyidagi asosiy nuqtalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

• **Xizmatlarni samarali targ'ib qilish va brend imijini shakllantirish.** Ijtimoiy media xizmatlarni samarali targ'ib

qilish, brend imijini shakllantirish va maqsadli auditoriya bilan o'zaro aloqada bo'lish imkonini beradi.

• **Tezkor aloqa.** Ijtimoiy tarmoqlar, PRda ko'pincha tezkor axborot berish zarurati yuzaga keladi, va bu platformalar bu borada juda foydalidir.

• **Keng qamrov va ko'rinish.** Ijtimoiy tarmoqlar keng auditoriyaga tezkor tarzda kirishni ta'minlaydi, bu esa ko'rilishni va tan olinishni oshiradi.

• **Auditoriya bilan muloqot va fikr-mulohazalar olish.** Auditoriya bilan bevosita muloqot qilish va fikr-mulohazalar olish imkoniyati katta ahamiyatga ega.

• **Jamoatchilik fikri va qiziqishini shakllantirish.** Ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik fikrini shakllantirish va muayyan axborot hodisalariga nisbatan qiziqishni oshirishda faol rol o'ynaydi.

• **Ma'lumot tahlili va gipotezalarni sinovdan o'tkazish.** Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va marketing gipotezalarini sinab ko'rishga yordam beradi.

• **Shaxsiy brend va ishonchni shakllantirish.** PR mutaxassislari uchun ijtimoiy media shaxsiy brend yaratish va ekspertlikka ishonchni shakllantirishda ham muhim.

• **Tezkor va arzon aloqa kanali.** Ijtimoiy tarmoqlar, arzon va tezkor aloqa kanali sifatida, tezda ma'lumot yetkazish uchun qulay.

• **Tarmoq qurish va aloqalarni kengaytirish.** Platformalar yangi hamkorlar bilan aloqalarni o'rnatish, jamoalarni kengaytirish va hamfikrlarni yig'ish imkonini beradi.

• **Masofaviy ishlash.** Ijtimoiy tarmoqlar masofaviy ishlash imkoniyatini yaratadi, bu esa PR faoliyatiga qo'shimcha qulayliklar beradi.

• **Obro'ni boshqarish.** Ijtimoiy media obro'ni boshqarish va umumiy imijni yaxshilashda yordam beradi.

O'rganishlar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, bugun butun jahonda, shu jumladan, O'zbekistonda ham PR faoliyatini samarali tashkil etishda ijtimoiy tarmoqlar asosiy kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Auditoriyaga qarab turli hududlarda turli tarmoqlar yetakchi bo'lishiga qaramay, ularning barchasi muloqot o'rnatish, xabardorlikni oshirish, vaziyatni tahlil qilish, brend imidsini mustahkamlash kabi vazifalarni bajarishga qaratilgan har qanday turdagi PR kampaniyalarni amalga oshirishda qo'llanilmoqda. Shu o'rinda aytish lozimki, bu vazifalarni ado etishda an'anaviy media yordamidan voz kechilmagan, faqat bu borada asosiy bosim va e'tibor ijtimoiy tarmoqlarga yuklatilmoqda. Har bir yangi texnologiyaning afzalliklari bilan birgalikda turli muammolarga sabab bo'ladigan jihatlari bo'lgani kabi ijtimoiy tarmoqlar ham soha mutaxassislari uchun bir qancha qiyinchiliklar yaratayotgani tabiiy hol. Lekin bu ijtimoiy tarmoqlarning qiymatini pasaytirmaydi. Bu jarayonda PR mutaxassislardan kerakli bilim-ko'nikmalarni to'liq egallash va har qanday vaziyatga to'g'ri baho bera olish talab etiladi xolos.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alhamamy S.N. The Use of Social Media by PR Practitioners and Organizations in Saudi Arabia. – London: University of East London, 2021. – 177 P.
2. Martins S. The Role of Social Media in Public Relations Practice – A New Zealand Perspective. Auckland University of Technology, 2020. – 149 P.




**Shoxida ATANAZAROVA,**
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ikkinchi chet tili kafedrasida katta o'qituvchisi*

## REKLAMA MATNIDA PERLOKUTSIYA VA ILLOKUTSIYANI IFODALOVCHI VOSITALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada illokutsiya va perllokutsiya nutq aktlari umumiy tushunchalari va uning reklamada tutgan o'рни, asosiy vazifalari, reklama matnlarini tahlil qilish bosqichlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** illokutsiya, perllokutsiya reklama matnlari, mahsulot va uning brendlari, shakllar va turlar, tovar elementlari.

**Annotation.** Illocution, perlocution of advertising materials, special effects and their brands, commercials and tours, and product elements.

**Keywords:** advertising, advertising texts, goods and their brands, forms and types, brand elements.

**Аннотация.** В статье рассматриваются общие понятия речевых актов – иллокуция, перлокуция, а также основные задачи, которые они выполняют в рекламе, этапы анализа рекламных текстов.

**Ключевые слова:** иллокуция, перлокуция, рекламные материалы, спецэффекты и их бренды, рекламные ролики и туры, товарные элементы.

Illokutsiya va perllokutsiya nutq aktlari nazariyasidagi ikkita asosiy tushuncha bo'lib, reklama matnlarini tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Illokutsiya – so'zlovchining nutqda ifodalangan niyati. Reklamada esa mahsulotni sotib olish taklifi, uning ustunligi haqidagi axborot, ma'lum bir brend imijini yaratish va boshqalar bo'lishi mumkin. Perllokutsiya bu – so'zlovchi o'z nutqi bilan erishmoqchi bo'lgan natijadir. Reklamada bu, birinchi navbatda, iste'molchini xarid qilish, brendni eslab qolish, mahsulotga bo'lgan munosabatini o'zgartirish kabi harakatga undaydi [1].

Ushbu tushunchalar reklamada qanday namoyon bo'lishini quyida ko'rib chiqamiz.

### I. Illokutiv aktlar:

**Faktlar bayonoti:** «Our product is the tastiest!» // «Bizning mahsulotimiz eng mazali!»

**Takliflar:** «Buy now and get a discount!» // «Hozir sotib oling va chegirmaga ega bo'ling!»

**Va'dalar:** «Quality guaranteed!» // «Sifat kafolati!»

**Savollar:** «Do you want to look younger?» // «Siz yoshroq ko'rinishni xohlaysizmi?»

### II. Perllokutiv aktlar:

**Mahsulot sotib olish:** ko'pgina reklama kompaniyalarining asosiy maqsadi.

**Brend imijini o'zgartirish:** iste'molchi ongida ijobiy yoki unikal imij yaratish.

**Ogohlikni oshirish:** brend nomini, shiorni eslab qolish.


**Sadoqatni shakllantirish:** ushbu mahsulotni boshqalarga nisbatan doimiy tanlash. Masalan: gazlangan ichimliklar reklamasida illokutsiya «bu ichimlik insonni tetiklashtiradi va quvonch bag'ishlaydi» degan axborot bo'lsa, perllokutsiya «issiq kunda bu ichimlikni sotib olish istagini paydo qilish»dir. **Avtomobil reklamasida illokutsiya «komfort, qulaylik, xavfsizlik va nufuzni va'da berish» bo'lsa, perllokutsiya «mijozda aynan shu modelni sotib olish istagini paydo qilish»dir [2].**

Illokutsiya va perllokutsiyani tushunishning ahamiyati quyidagicha izohlanadi:

**1. Samarali reklama yaratish.** Reklama matnidagi illokutsiya va perllokutsiyani to'g'ri tahlil qila olish o'z maqsadiga aniq erishadigan reklama xabarlarini yaratish imkonini beradi.

**2. Reklama matnlarini tahlil qilish.** Reklamaning illokutiv va perllokutiv jihatlarini tahlil qilish orqali uning samaradorligini baholash va yashirin ma'nolarini aniqlash mumkin.

Reklamada illokutsi va perllokutsiyaning ifodalanishida quyidagi qo'shimcha omillar ham e'tiborga olinishi lozim:



1-chizma. Reklamada illokutsi va perllokutsiyaning ifodalanishida qo'shimcha omillar.

Demak, illokutsiya va perllokutsiya reklamaning qanday natija berishini ko'rstuvchi asosiy tushunchalardir. Ushbu mexanizmlardan xabardor bo'lish orqali reklama xabarlariga ko'proq tanqidiy munosabatda bo'lish va sotib olish bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish mumkin.

Reklamada illokutsiya: so'zlar qanday qilib harakatga aylanadi?

Reklamada illokutsiya qanday namoyon bo'ladi?

**1. Harakatga to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalar beradi:** «Hozir sotib oling!», «Bepul sinab ko'ring!», «So'rov qoldiring» // «Buy now!», «Try it for free!», «Leave a request».

**2. Istak tug'diradi:** «O'zingizga ishonung!», «O'zingizni yoshroq his eting!»,

«Muvaffaqiyatga erishing» // Believe in yourself! Feel younger! Be successful.

**3. Va'da beradi:** «Sifat kafolati!», «Bozordagi eng yaxshi narx!», «Shu kuniyoq yetkazib beramiz» // «Quality guaranteed!», «Best price on the market!», «Same day delivery».

**4. Ustunlikni ta'kidlaydi:** «Eng yaxshi ta'mli qahva», «Eng kuchli protsessor», «Eng ishonchli mashina» // «The best-tasting coffee», «The most powerful processor», «The most reliable machine».

**5. Emotsional muloqotni hosil qiladi:** «Yaqinlaringizga quvonch bag'ishlang», «Biz bilan nishonlang», «Ozodlikni his eting» // Give joy to your loved ones, Celebrate with us, Feel the freedom.

Turli mazmundagi reklamalarda illokutsiyaning ifodalinishi quyida misol keltiramiz:

**Gazlangan ichimlik reklamasi:** Bu yozda yangilaning! (taklif) Avtomobil reklamasi: Kuch va tezlikni his eting! (istak paydo qilish)

**Kosmetika reklamasi:** Teringizni mukammal qiling! (va'da berish)

Reklamada illokutsiya reklama beruvchining nutqiy yoki vizual shaklda ifodalangan aniq niyati bo'lib, reklama beruvchi buni mijozlarning tushunishi va bajarishini ko'zlaydi. Masalan, «Hozir sotib ol!», «Bepul sinab ko'ring!» // «Buy now!», «Try it for free!» Illokutsiya reklama xabarining «yuragi» kabi.

Perlokutsiya reklama beruvchining o'z auditoriyasidan olishni istagan natijasi bo'lib, bu mahsulotni sotib olish, brendga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, shiorni eslab qolish bo'lishi mumkin. Perlokutsiya bu reklamaning «maqsadi» bo'lib, u (reklama beruvchi) nimaga intilishini bildiradi.<sup>3</sup>

Reklama matnida illokutsiya yuqorimi yoki perlokutiv kuch ko'pmi? Bu savolga javob topish uchun quyidagi mushohalarni keltiramiz.

**O'zaro munosabat:** illokutsiya va perlokutsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Har bir illokutsiya ma'lum bir perlokutsiyaga erishishga qaratilgan. Misol uchun agar reklama beruvchi «Hozir sotib ol» desa, mijozning rozi bo'lishi perlokutsiyadir [4].

**Kontekst.** Mayyan reklama kompaniyasiga qarab, e'tibor illokutsiya yoki perlokutsiyaga o'tishi mumkin. Masalan, yangi mahsulot reklamasida illokutsiya (to'g'ridan to'g'ri harakatga chaqirish) ko'proq ifodalansa, allaqachon taniqli brend reklamasida esa sodiqlikni saqlab qolish perlokutsiya bo'lishi mumkin. Biroq reklamalarni kuzatish va tahlillar asosida quyidagicha umumlashtirish mumkin:<sup>5</sup>

– aksariyat reklamalarda perlokutsiya ustunlik qiladi. Reklama, birinchi navbatda, aniq maqsadga erishishga qaratilgan – mahsulot yoki xizmatni sotish. Shuning uchun perlokutsiya uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi;

– illokutsiya perlokutsiyaga erishishda muhim rol o'ynaydi. Aniq ifodalangan reklama beruvchining niyati auditoriyaga yanada samarali ta'sir ko'rsatishga va kerakli natijalarga erishishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar, reklamadagi illokutsiya va perlokutsiya bir tanganing ikki tomoni bo'lib, samarali reklama xabarlarini yaratishda ikkalasi ham muhim rol o'ynaydi. Garchi perlokutsiya, odatda, reklamaning asosiy maqsadi bo'lsa ham, bu maqsadga erishish uchun illokutsiya talab etiladi. Bunday mavzudagi reklamalardagi umumiy ochiq perlokutsiya sifatida brendning mashhurligini oshirish, yangi mijozlarni jalb qilish, kompaniyani reklama qilish, mahsulot sotuv ko'lamini oshirish hamda ishonchni oshirish kabilarni e'tirof etish mumkin.

Reklamadagi illokutsiya shunchaki so'zlar emas, balki reklama beruvchining matn yoki vizual tasvirda ifodalangan bevosita niyatidir. Reklama beruvchi mijozlar buni tushunishi va amalga oshirishini xohlaydi [6].

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ассел Генри. Маркетинг: принципы и стратегия. – Москва: Инфра-М, 1999.
2. Докторов Б.З. Реклама и опросы общественного мнения в США: История зарождения. Судьбы творцов. – Москва: ЦСП, 2008.
3. Котлер Филип. Основы маркетинга. Краткий курс: Пер. с англ. – СПб.: ООО «Диалектика», 2019.
4. Дал Г. Реклама для «чайников» – Москва: Диалектика, 2006.
5. Реклама : [арх. 3 января 2023] / Денисова А. Ю. // Пустырник – Румчерод [Электронный ресурс], 2015. – С. 362. (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004–2017, т. 28).
6. Джоунс Д.Ф. Рекламный бизнес: деятельность рекламных агентств, создание рекламы, медиа-планирование, интегрированные коммуникации. – Москва: Вильямс, 2005.
7. Locutionary, Illocutionary And Perlocutionary Acts Examples. <https://www.englishbix.com/locutionary-illocutionary-and-perlocutionary-acts/>.



**Dilora AKHMEDOVA,**

*the head of the department, Samarkand state institute of foreign language;*

**Umida TAGAYEVA,**

*teacher, Samarkand state institute of foreign language;*

**Umida RUZIYEVA,**

*teacher, Samarkand state institute of foreign language*

## EXPRESSIONS IN SHAPING CHARACTERS IN THE WORKS OF TOGAY MUROD AND JOHN STEINBECK

**Annotation.** This article examines the role of anthropocentric phraseological units in the character creation process in the works of Togay Murod and John Steinbeck. Phraseological units serve not only as linguistic ornamentation but also as a means of reflecting the characters' psychological states, cultural identities, and social conditions. While Togay Murod's works depict Central Asian mentality and traditional values, Steinbeck's phraseological units illustrate the economic and social environment of the United States during the Great Depression. The study analyzes how phraseological expressions can offer deeper insights into character portrayal and highlights the importance of phraseology in literature.

**Keywords:** phraseological expressions, anthropocentrism, character development, cultural context, semantic analysis, pragmatic analysis, phraseological metaphors, linguistic expressions.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Tog'ay Murod va Jon Steynbek asarlarida antroposentrik frazeologik birliklarning xarakter yaratish jarayonidagi o'рни o'rganiladi. Frazeologik birliklar nafaqat til bezagi, balki qahramonlarning psixologik holati, madaniy identifikatsiyasi va ijtimoiy sharoitlarini aks ettirish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Tog'ay Murod asarlarida Markaziy Osiyo mentaliteti va an'anaviy qadriyatlar aks etgan bo'lsa, Steynbek asarlaridagi frazeologik birliklar AQShda Buyuk Depressiya davridagi iqtisodiy va ijtimoiy muhitni tasvirlaydi. Frazeologik ifodalar yordamida qahramon xarakterini chuqurroq yoritish imkoniyatlari tahlil qilinadi va frazeologiyaning adabiyotdagi ahamiyati ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, antroposentrizm, qahramon yaratish, madaniy kontekst, semantik tahlil, pragmatik tahlil, frazeologik metaforalar, lingvistik ifodalar, adabiy tahlil.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль антропоцентрических фразеологических единиц в процессе создания образов персонажей в произведениях Тогай Мурода и Джона Стейнбека. Фразеологические единицы выступают не только в качестве языкового украшения, но и как средство отражения психологического состояния героев, их культурной идентичности и социальных условий. В произведениях Тогай Мурода отображаются менталитет Центральной Азии и традиционные ценности, а у Стейнбека фразеологические единицы иллюстрируют экономическую и социальную обстановку в США в период Великой депрессии. Исследование анализирует возможности более глубокого раскрытия характера персонажа посредством фразеологических выражений и подчеркивает важность фразеологии в литературе.

**Ключевые слова:** фразеологические единицы, антропоцентризм, создание персонажей, культурный контекст, семантический анализ, прагматический анализ, фразеологические метафоры.

Language serves as a powerful tool in literature, shaping characters and influencing readers' perceptions. Phraseological expressions, particularly anthropocentric ones, play a crucial role in defining characters' personalities, emotions, and worldviews. These linguistic units, which revolve around human actions, characteristics, and experiences, provide a deeper understanding of the social and psychological aspects of literary characters. They serve as mirrors reflecting the culture, history, and mentality of the society in which they are used.

In the works of Togay Murod and John Steinbeck, anthropocentric phraseological expressions offer profound insights into the psychological and cultural frameworks of their characters. Murod's writing, deeply rooted in Uzbek traditions and oral storytelling, employs rich phraseology that reflects Central Asian worldviews. Steinbeck, on the other hand, embeds his anthropocentric expressions within the context of American society, particularly the hardships faced during the Great Depression. The comparison of

these two authors provides an opportunity to analyze how phraseological expressions transcend mere linguistic function and contribute to a deeper understanding of human nature.

The purpose of this study is to analyze how anthropocentric phraseological expressions contribute to character development in the literary works of these two authors. The study seeks to explore the similarities and differences in their use of phraseology and the impact of cultural and linguistic factors on their character portrayals.

This research employs a qualitative comparative analysis of phraseological expressions used in the works of Togay Murod and John Steinbeck. The primary texts analyzed include Murod's «*Otamdan qolgan dalalar*» and Steinbeck's «*The Grapes of Wrath*», both of which provide rich linguistic and cultural contexts. The study applies a semantic-pragmatic approach to identify anthropocentric phraseological expressions and examine their functions in character depiction [4: 78].

Lexical and semantic analysis plays a crucial role in identifying phraseological units that contain anthropocentric components and categorizing them based on their semantic features. For instance, in Togay Murod's works, the expression «erib ketmoq» (to melt away) vividly captures emotional distress and exhaustion [8: 89]. Similarly, in John Steinbeck's writing, the phrase «turning into dust» symbolizes the characters' struggles and their transient existence [7: 134]. Likewise, the Uzbek phrase «Ko'ngli qushdek uchmoq» (to have a heart flying like a bird) conveys immense joy, paralleling the English idiom «walking on air» [5: 56].

In addition to lexical and semantic analysis, contextual analysis is essential for understanding how these phraseological units function within dialogues, internal monologues, and narrative structures. For example, in *The Grapes of Wrath*, the phrase «I'll be there» signifies resilience and unwavering familial support, effectively portraying the steadfast nature of characters like Tom Joad [3: 211]. Similarly, in *Otamdan qolgan dalalar*, the expression «cho'ldek qolmoq» (to remain like a desert) metaphorically conveys feelings of isolation and desolation [8: 97].

Beyond lexical and contextual analysis, pragmatic analysis further reveals how phraseological expressions convey implicit meanings and emotions. For instance, the Uzbek expression «tuyaning dumidan tutmoq» (to hold onto a camel's tail) metaphorically describes reliance on external forces for survival, paralleling Steinbeck's depiction of displaced families seeking stability during the Great Depression [6: 152]. Likewise, in *The Grapes of Wrath*, the phrase «Got no home» pragmatically emphasizes themes of displacement and instability [2: 178].

Similarly, the Uzbek phrase «Dili cho'kdi» (heart sank) reflects deep disappointment, much like the English idiom «gut-punched.» Additionally, «eshak minib etagidan ushlamoq» (to ride a donkey and hold onto its tail) signifies an illogical act, comparable to the English expression «shooting oneself in the foot.» Lastly, the phrase «Qo'li kalta» (short-handed) corresponds to «down on one's luck» in Steinbeck's character portrayals, further illustrating the economic hardships and social struggles within his narratives [9: 120].

By examining phraseological units from a lexical, contextual, and pragmatic perspective, this study provides deeper insight into the anthropocentric nature of expressions in both Uzbek and English literature. The comparative approach not only highlights linguistic parallels but also sheds light on the cultural and thematic elements that shape these expressions within the works of Togay Murod and John Steinbeck.

The analysis reveals that both Murod and Steinbeck use anthropocentric phraseological expressions to deepen character portrayals, emphasizing emotions, social conditions, and personal struggles. A crucial component of this analysis involves human-centered metaphors, which

highlight the universality of human experiences across linguistic and cultural contexts [7: 198]. For instance, the metaphor «turning into dust» in Steinbeck's work and its Uzbek counterpart «erib ketmoq» (to melt away) both illustrate the fragility and impermanence of human existence [8: 103]. These expressions reflect the inevitable decline faced by individuals in harsh circumstances, portraying themes of mortality and existential struggle. Similarly, «walking on air» in English and «ko'ngli qushdek uchmoq» in Uzbek encapsulate euphoric emotions, conveying an overwhelming sense of happiness and freedom often tied to moments of personal achievement or emotional elation [5: 69].

Furthermore, metaphors related to insignificance and suffering frequently appear in both literary traditions. Steinbeck's phrase «ain't worth a hill of beans» parallels Murod's «suvga tushgan toshdek» (like a stone dropped into water), both signifying futility and a lack of importance [6: 15]. These expressions emphasize the insignificance of certain actions or individuals within broader societal or existential struggles. Similarly, «put through the wringer» in English and «toshga urilgan bosh» (a head struck against a rock) in Uzbek both serve as metaphors for suffering, encapsulating the emotional and physical hardships characters endure within their respective narratives [4: 147].

Another recurring metaphorical theme is abandonment and desolation. Steinbeck's phrase «left in the lurch» mirrors Murod's «Dala-dashtga tashlandi» (thrown into the wilderness), both depicting a state of being forsaken and left to struggle alone. These expressions often characterize individuals who face societal rejection or personal betrayal, emphasizing themes of isolation and neglect. Through these metaphorical expressions, both authors effectively convey deep emotional and existential concerns, reflecting broader social and historical realities.

Similarly, «walking on air» in English and «ko'ngli qushdek uchmoq» in Uzbek encapsulate euphoric emotions, conveying an overwhelming sense of happiness and freedom often tied to moments of personal achievement or emotional elation. Likewise, the phrase «ain't worth a hill of beans» in Steinbeck's writing and «suvga tushgan toshdek» (like a stone dropped into water) in Murod's works signify insignificance and irrelevance, emphasizing characters' perceived unimportance in the grander scheme of societal and economic struggles.

Cultural context plays a pivotal role in shaping phraseological expressions. Murod's characters frequently use expressions rooted in Uzbek traditions, social values, and historical realities, reflecting deeply ingrained cultural norms and beliefs. For example, expressions such as «Qo'li kalta» (short-handed) and «Bo'sh qo'l bilan kelmoq» (to come empty-handed) reveal economic and social hardships in a collectivist society where personal relationships and reciprocity hold significant importance [8: 127].

On the other hand, Steinbeck's characters rely heavily on American colloquialisms, particularly those shaped by the





Great Depression. Phrases like «hard row to hoe,» «down on one's luck,» and «a fellow got to eat» highlight the dire economic circumstances of the time, underscoring the struggles of working-class individuals. These phraseological expressions serve as linguistic markers of the respective social and economic landscapes in which the authors' characters operate.

Anthropocentric expressions are also instrumental in conveying emotional intensity, often reflecting deep emotions such as despair, determination, and hope. Steinbeck's characters frequently use phrases associated with endurance, survival, and hardship, emphasizing their resilience in the face of adversity. For instance, expressions such as «put through the wringer» (subjected to immense suffering), «hanging by a thread» (barely surviving), and «hard times» (living under severe economic difficulty) illustrate the characters' struggles against external forces. In contrast, Murod's characters employ expressions that emphasize honor, legacy, and familial ties, such as «Ota-ona duosi qarg'ishdan kuchli» (parents' prayers are stronger than curses) and «Yaxshilikning yarmi ota-onaga» (half of goodness belongs to one's parents). These expressions not only reveal emotional depth but also reinforce moral and ethical values that are deeply embedded within Uzbek culture.

Lastly, the phraseological expressions in both authors' works serve as reflections of their societies' moral and ethical values, linking characters' identities to broader cultural narratives. Steinbeck's writing often centers around the theme of social justice, illustrating the struggles of the working class through idiomatic expressions such as «a hard knock life» (a life full of difficulties) and «a man's got to do what a man's got to do» (emphasizing responsibility and duty) [9: 69]. Murod's works, by contrast, reflect the collectivist moral framework of Uzbek society, where family honor, respect for elders, and perseverance play fundamental roles. Expressions such as «Bosh egma, yurak bilan yashagin» (do not bow your head, live with your heart) and «Mehnat qildingmi, albatta natijasini ko'rasan» (if you work hard, you will surely see the result) emphasize personal integrity and perseverance.

The findings of this study suggest that phraseological expressions in literature are not merely decorative linguistic elements but integral tools for character development, thematic reinforcement, and cultural representation. The analysis of phraseological units in the works of Togay Murod and John Steinbeck reveals that these expressions serve as powerful narrative devices, enriching character portrayals and enhancing the emotional depth of their literary worlds. Both authors skillfully incorporate phraseological expressions to reflect the socio-cultural realities of their respective societies, shaping their characters' identities and making them more authentic, relatable, and emotionally compelling.

One of the most significant insights drawn from this research is the way phraseological expressions contribute

to the psychological realism of fictional characters. In Steinbeck's writing, characters often articulate their struggles through idiomatic expressions that reflect economic hardship, survival instincts, and resilience in the face of adversity. For instance, phrases such as «a hard row to hoe» (referring to difficult labor and struggles), «hitting rock bottom» (describing complete financial ruin), and «tightening one's belt» (indicating the necessity of frugality) emphasize the harsh realities of life during the Great Depression [9: 158]. Similarly, in Murod's works, phraseological expressions such as «tashlab ketilgan uydek» (like an abandoned house) and «cho'lda qolgan daraxtdek» (like a tree left in the desert) encapsulate themes of loneliness and isolation, reflecting the existential challenges faced by his characters. These expressions serve as emotional signposts, guiding the reader through the internal struggles and external hardships experienced by individuals within the narrative.

Moreover, this study highlights the role of phraseology in bridging the gap between language and thought, demonstrating how linguistic choices shape not only dialogue but also the perception of fictional characters. Anthropocentric phraseological units in both Uzbek and English literature serve to humanize characters, offering readers a profound understanding of their inner worlds. For example, in *The Grapes of Wrath*, the phrase «I got nothing but my word» underscores themes of dignity and personal integrity, mirroring Murod's expression «so'zimni yeb qo'ymayman» (I will not eat my words), which signifies a deep commitment to truthfulness and honor [9: 120]. Additionally, Steinbeck's «I'll be there» conveys unwavering familial support, much like Murod's «oqibatli farzand» (a child with a strong sense of familial duty), illustrating how phraseology reinforces cultural ideals of responsibility and devotion.

Furthermore, phraseological expressions play a crucial role in reinforcing the moral and ethical values embedded in both Uzbek and American literary traditions. In Murod's writing, proverbs and idioms often emphasize the importance of parental blessings, hard work, and communal responsibility. Expressions such as «Ota-ona duosi yetimni ham baxtli qiladi» (A parent's prayer can even bring happiness to an orphan) and «mehnat qilgan halovat topadi» (he who works hard finds peace) encapsulate fundamental societal values. On the other hand, Steinbeck's phraseology reflects themes of individual perseverance and economic struggle, with expressions like «you do what you gotta do» (emphasizing survival instincts) and «a fella's got to eat» (highlighting the necessity of basic sustenance). These expressions not only shape the personalities of fictional characters but also provide insight into the broader cultural landscapes that influence their actions and decisions.

Additionally, phraseological units serve as a means of reinforcing social hierarchies and power dynamics within the narratives. In *The Grapes of Wrath*, expressions such as «ain't worth a hill of beans» illustrate the devaluation

of human labor and economic struggles of the working class, paralleling Murod's «*qo'li kalta odam*» (a short-handed person), which signifies economic vulnerability. Similarly, Steinbeck's «*left in the lurch*» (abandonment) and Murod's «*dala-dashtga tashlandi*» (left in the wilderness) encapsulate themes of social alienation, illustrating how language reflects power imbalances and marginalization.

This study reaffirms that phraseology is not merely a stylistic embellishment but an essential tool in literary storytelling. The anthropocentric phraseological units employed by Murod and Steinbeck function as linguistic windows into the lived experiences of their characters, offering readers a richer and more immersive understanding of their struggles, aspirations, and cultural backgrounds.

This study concludes that anthropocentric phraseological expressions play a crucial role in shaping character development in the works of Togay Murod and John Steinbeck. These linguistic elements go beyond mere stylistic embellishments, serving as essential tools that enhance the depth, authenticity, and emotional resonance of literary narratives [3: 234]. By embedding culturally and contextually rich phraseological units within their works, both authors provide readers with profound insights into the psychological states of their characters, as well as the broader societal conditions that influence their lives.

The findings of this research highlight the significance of phraseology not only as a literary device

but also as a means of conveying cultural identity, social values, and existential struggles. In Steinbeck's writing, phraseological expressions such as «*hard row to hoe*», «*down and out*», and «*ain't worth a hill of beans*» encapsulate the hardships faced by individuals during the Great Depression, reinforcing themes of economic despair and human resilience. Similarly, in Murod's works, expressions like «*cho'ldek qolmoq*» (to be left like a desert), «*erib ketmoq*» (to melt away from distress), and «*tuproqqa aylanmoq*» (to turn into soil) evoke deep emotional and existential themes, illustrating the fragile and transient nature of human existence. These phraseological units not only enhance the realism of the characters but also allow the reader to engage with their internal dilemmas and external struggles on a more profound level.

Moreover, this study underscores the necessity of further comparative analyses of phraseological expressions across different literary traditions. Examining how anthropocentric phraseology functions in diverse cultural contexts can yield valuable insights into universal and culture-specific aspects of human expression in literature. Future research could explore phraseological parallels and divergences in the works of authors from different linguistic and cultural backgrounds, shedding light on how language operates as a bridge between individual identity and collective consciousness.

### References

1. Fillmore, Charles J., Paul Kay, and Mary Catherine O'Connor. Regularity and Idiomaticity in Grammatical Constructions: The Case of Let Alone. *Language*, vol. 64, no. 3, 1988, pp. 501.
2. Gibbs, Raymond W. *Embodiment and Cognitive Science*. – Cambridge UP, 2006.
3. Halliday, M. A. K., and Christian M. I. M. Matthiessen. *An Introduction to Functional Grammar*. – London: Routledge, 2014.
4. Kunin A.V. *A Course in Phraseology*. – Vysshaya Shkola, 1996.
5. Koonin A.M. *English Phraseology*. – Vysshaya Shkola, 1970.
6. George L., Johnson M. *Metaphors We Live By*. U of Chicago P, 1980.
7. Rosamund M. *Fixed Expressions and Idioms in English*. Clarendon Press, 1998.
8. Togay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2021.
9. Steinbeck J. *The Grapes of Wrath*. – Viking Press, 1939.



Ruxsora G'OFUROVA,

Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

## ZEBO MIRZO VA HALIMA AHMEDOVA SHE'RLARIDAGI SINONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zebo Mirzo va Halima Ahmedova she'rlaridagi sinonimlarning ahamiyati, foydalanish o'rne va lingvopoetik xususiyatlari chuqur o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy niyat, badiiy tasvir, kontekstual sinonim, gradual sinonim, ideografik sinonim, stilistik sinonim.

**Annotation.** In this article using the example of Zebo Mirzo's and Khalima Akhmedova's poem, using various synonyms in her poem, a deep study of their linguopoetics. Let's see how the poet uses meaningful words while avoiding repetition from their subtle word art.

**Keywords:** artistic intention, artistic image, contextual synonym, gradual synonym, ideographic synonym, stylistic synonym.

**Аннотация.** В данной статье на примере творчества Зебо Мирзо и Халимы Ахмедовой проводится глубокое исследование их лингвопоэтического аспекта с использованием различных синонимов в стихотворениях. Давайте посмотрим, как художник использует осмысленные слова, избегая при этом повторов в своем тонком словесном искусстве.

**Ключевые слова:** художественный замысел, художественный образ, контекстуальный синоним, градуальный синоним, идеографический синоним, стилистический синоним.

Sinonimlar nutqiy birliklarni go'zal va rang-barang tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Tildagi so'zlarni keng ko'lamda qo'llash, birining o'rnida ikkinchisini almashtirish, takrorlardan qutulish imkonini yaratadi. «Til nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki estetik hodisa sifatida ham o'rganib kelinmoqda. Tilning estetik-stilistik xususiyatlari badiiy matnda na'moyon bo'ladi. Badiiy matnlarni poetik jihatdan tadqiq etish, estetik qimmatini belgilashda til vositalaridagi sinonimlarning o'rne beqiyos» [6: 112]. Shu tufayli «tildagi sinonimlarni yaxshi egallash, ulardan to'g'ri foydalanish kishi nutqi uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Buning natijasida ular o'z fikr va ideyalarining eng nozik xolatlarini, o'z nutqlarining hamma ma'no jilolarini tushunarli va ravshan, ravon va jozibador, shirali va ta'sirchan qilib ifodalash sha'rafiga muayassar bo'ladilar» [1: 6].

Zebo Mirzo she'riyatiga nazar tashlab, undagi o'ziga xoslik, sinonimlardan mohirona foydalana olish, so'z qo'llash mahorati singari ta'riflarni berishimiz mumkin. Shoiraning asalarlarini lingvopoetik xususiyatlari tahlilda yanada aniqroq ochib beriladi. Tahlilni quyidagi she'rdan boshlaymiz:

*Milyon yil kutdim-u umidsiz, abgor,  
Bir dilni Xudoni sevganday sevdim!  
Keyin... ko'tarildi buyuk bir to'fon,  
Falakni kuydirdi **hasratim, ohim** [7: 13].*

*Hasrat, oh* singari so'zlar o'zaro bir-biriga teng kelmasada, ma'nodoshlikni hosil qilgan. Ya'ni ma'no kuchaygan. Ijodkor bunda tabiat tasvirlari orqali o'zida kechayotgan holatni o'quvchiga yanada aniqroq yetkazib bera olgan.

*Yuragimni **ezg'ilab, bosib,**  
Yillar o'tdi, yillar... [7: 14]*

Shoiraning yuqoridagi «Yolg'izlik» she'rida kelgan *ezgilab, bosib* singari fe'llari ham ma'nodosh. *Bosib* fe'lida harakat *ezgilab* so'ziga nisbatan kuchsizroq ifodalanadi. Ayol kishi hamisha jufti bilan butundir. Bu yerda shoira yolg'izlik yuragiga qattiq ziyon berayotgani, uzoq yillardan beri uni *ezgilab, bosib*, unda chandiq qoldirganini aytmoqda. Man shunday sinonimlardan «Tashrif» she'rida ham foydalanilgan:

*Asta mendan so'radi **ahvol,**  
**Holim** edi yomondan-yomon.  
Yuragimning bir chekkasiga  
Tegib ketsa qulardi osmon... [7: 22]*

Misralardagi *ahvol, holim* kabi so'zlari sinonimlikni hosil qilgan va qahramonning ruhiy holatini tasvirlagan. Yuragi shunday og'rinqdagi, osmon unga tegib ketsa qulab tushishi mubolag'a orqali aytilmoqda. O'zbek tilining izohli lug'atida *ahvol* (arabcha – holatlar) so'ziga ta'rif beriladi: «1. Muayyan sharoitdagi holat; vaziyat. Vodiydagi ahvol xavotirli edi. *T.Malik, Qaldirg'och. Yo'lchi Qoratoydagi zamon ahvolini so'radi. Oybek, Tanlangan asarlar.* 2. Turmush va ish-faoliyatidagi holat; hol-ahvol. Ahvolingiz qalay? – Yo'lchi Shokir otaning ahvolini, tirikchiligini so'radi. *Oybek, Tanlangan asarlar.* 3. Jismoniy, ruhiy holat. Bemorning ahvoli. Shunday bo'ldi devlar ahvoli, Turay desa yo'qdir hech holi. «*Malikayi Ayyor*» [8: 129].

Hol (arabcha) – hayotdagi muayyan bir holat, vaziyat; ahvol [8: 548]. Aslida arab tilida *hol* birlik, *ahvol* esa ko'plik shaklidir. Lekin biz ikkinchi sinonim sifatida qabul qilishga o'rganib qolganmiz.

*Mening ustozlarim ko'pdir hayotda...  
Yonib yashamoqni, o'rgatdi quyosh.*

*G'am, ko'z yosh, qayg'uning sellari aro  
Qanoat darsini o'tdi xarsangtosh [3: 28].*

Sinonimlar she'rning stiliga xos ruh va ohang bilan tiza boradi va o'quvchi diqqatini shu asar syujetiga jalb qiladi. Sinonimlarning bunday birin-ketin ishlatilishi she'rda ifodalanayotgan mazmuni har xil shaklda va ta'sirli qilib berishga xizmat qiladi [2: 143]. Keltirilgan parchada sinonimlikni hosil qilgan *g'am, qayg'u* so'zlari ijodkor ruhiy holatini ifodalagan. **Ko'z yosh** leksemasi *g'am* va *qayg'u* so'zlariga assotsiativ bog'langan. *Ko'z yosh* badiiy nutqda *tomchi, munchoq, marvarid, shabnam* kabi so'zlar bilan kontesksual sinonim bo'ladi.

*Bardoshim yetmadi,  
Qola olmadim.  
Jimgina o'layotgan gullar yonida,  
Buncha **achchiq, sovuq** izg'irin yelar  
Nega yuragimning to'rt tomonida? [3: 137]*

Kontesksual sinonimiya rang-barang bo'lib, nutqda muhim vazifa bajaradi. Bunday sinonimik munosabat nutqning o'zida voqe bo'ladi, shu nutqdan (matndan) tashqarida esa yo'qqa chiqadi. Bunday sinonimik munosabat, masalan, olmosh bilan boshqa turkum leksemasi orasida, olmosh bilan birikma, jumla, hatto abzas orasida, shaxs, narsa, mavhum tushuncha nomi bilan shuning tasviriy muqobili orasida (Pushkin / «Yevgeniy Onegin»ning muallifi kabi) paydo bo'ladi [10: 77–78].

Lug'aviy sinonimlarga uzuallik xos bo'lsa, kontesksual sinonimlarda okkasionallik mavjud. Kontesksual sinonimlar ijodkorning ijodiy imkoniyatlari samarasi bo'lib, ma'nolari har xil so'zlar matn tarkibidagina umumiy semaga ega, matndan tashqarida esa ma'nolari turlichadir. Shu sababdan adabiyotlarda ideografik, stilistik, kontesksual hamda individual – muallif sinonimlari tarzida nomlanadi [4: 38].

Demak, yuqoridagi misralarda qo'llangan *achchiq, sovuq* sifatlari sinonimdir. Tilshunoslikka ko'ra *achchiq* so'zining sinonimlari – *taxir, nordon*. *Sovuq* leksemasi esa haroratga nisbatan qo'llanadi. Lekin *achchiq izg'irin* so'z birikmasi ko'chma ma'noda qo'llangan. *Achchiq* va *sovuq* so'zlari matndan tashqarida ma'nodosh bo'lolmaydi. Bu she'rda kontesksual sinonim vazifasini bajargan va mazmuni kuchaytirishga yordam bergan.

*Lahzalar sochilib yotibdi,  
Maysalar, gullarda,  
Daraxtda ...  
Kim tug'ilib,  
Kimdir o'layapti,  
Tan olging kelmagan shu Vaqtda [3: 18].*

Gradual sinonimiya til sathida farqlilikni yorqin aks ettirib, aynanlik orasida miqdoriy farqlilikni yuzaga kelishidir [5: 115]. Halima Ahmedovaning «Vaq» she'ridagi ushbu misralarda *maysa, gul, daraxt* so'zlari o'zaro gradual sinonimiyani hosil qilgan. Nega aynan bu nomlardan foydalanilgan? Chunki maysa ham, gul ham, daraxt ham tabiatning yashil o'simligi, lekin ularda shakl nuqtayi nazaridan farqlanadi. Ya'ni maysa guldan ko'ra kichik, gul esa daraxtga nisbatan ancha kichik. Shu tufayli kichikdan to kattaga qadar graduallash kuzatilgan va she'r mazmunida vaqtning ahamiyati so'z qo'llash mahorati bilan yetkazib bergan.

Xulosa qilib aytganda, Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodida ma'nodosh so'zlar hosil qilishdagi o'ziga xoslik nutqimizdagi leksemalarni faollashtirishda ahamiyatlidir. She'rlaridagi sinonimlar esa bir xillik va qaytariqlarning oldini olishga, she'r ohangdorligini ta'minlashga, ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Kontesksual sinonimlar esa bu ijodkorlarning lisoniy imkoniyatlarini ochib bergan, favqulodda yangi poetik ohorga ega badiiy tasvir yaratgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Doniyorova X., Yo'ldosheva B. Adabiy til va baadiy stil. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Ahmedova H. Umid soyasi – Toshkent, 2008.
4. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. – Andijon, 2003.
5. Rahmonova G. O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabati. – Farg'ona, 2019.
6. Yunusova J. Shavkat Rahmon she'rlarida sinonimlarning lingvopetik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. 2022. №2.
7. Zebo Mirzo. Ishq. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2006–2008.
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.





Nozanin GANIYEVA,  
*Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute;*

Gulchehra MANSUROVA,  
*Bukhara State Pedagogical Institute 2nd year student of English language*

## THE CONTENT AND ESSENCE OF THE ACTIVITIES OF BUKHARA JADID ENLIGHTENMENT IN THE EDUCATION SYSTEM

**Annotation.** This article discusses the activities of Bukhara Jadid Enlightenment in the education system and the real purpose of the reforms they carried out in the education system, which is to introduce the nation to its identity, to educate and raise a new generation that will lead the Nation and the Fatherland to independence through a radical reform of the socio-political system, and it is scientifically and theoretically substantiated that they made a great contribution to the rise of education at that time.

**Keywords:** Bukhara Jadids, education, modern education, rules, education, upbringing, culture, Bukhara People's Soviet Republic, development.

**Annotatsiya.** Bu maqolada Buxoro jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim tizimidagi faoliyati va ta'lim tizimida amalga oshirgan islohotlarining asl maqsadi, ya'ni xalqqa o'zligini tanitirish, ijtimoiy-siyosiy tizimni tubdan isloh qilish orqali el-yurtimizni, Vatanimizni mustaqillikka yetaklovchi yangi avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishdan iborat bo'lgani, ularning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro jadidlari, maorif, zamonaviy ta'lim, qoidalar, ta'lim, tarbiya, madaniyat, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, taraqqiyot.

o'zi uchun tushunarli holga keltirishga bo'lgan xohishiga bo'ysunadi. Tahrir shunday bo'lishi kerak, deb biladi.

Matndagi ayrim mantiqiy-sintaktik konstruksiyalar murakkabligi, nashr talabiga mos emasligiga ko'ra o'zgartirilishi kerak. O'quvchi matnni o'qir ekan, ko'pincha uni yaxshi tushunish, yana ham aniqrog'i, eslab qolish uchun xayolan qayta tuzadi. Chunki matn qancha qisqa va umumlashtirilgan bo'lsa, nutqdan anglashiladigan mazmunning o'zlashtirilishi osonlashadi. Matnni fikran qayta tuzish va o'z fikrlash tartibiga moslash xatoni to'g'rilash, degani emas. Ayrim tahrirchilar nutq egasining ifodasini qabul qilolmaydi. Masalan:

*Asta-sekin* – yozadi muallif; *sekin-asta* – tuzatadi muharrir.

*Demak* – yozadi muallif; *shunday qilib* – tuzatadi muharrir.

*Vaholanki* – yozadi muallif; *holbuki* – tuzatadi muharrir.

*Xatoga yo'l qo'yishga, odatda, yozishdan ko'ra fikrlashning tezligi sabab bo'ladi* – yozadi muallif; *Odatda, fikrlashning yozishdan ko'ra tezligi xatoga yo'l qo'yilishiga sababdir* – o'zgartiradi muharrir.

Muallif va tahrirchining fikrlash uslubi, nutq tarzi turli bo'lishi mumkin. Tahrirchi muallifning uslubini emas, balki uslubdan qanday noto'g'ri foydalanganini aniqlashi kerak. Matnga subyektiv yondashish, uni o'z qarashlariga moslashtirishga intilishlardan holi bo'lish uchun til me'yorlarini yaxshi bilish zarur. Tahlilda matnning o'ziga xosligi va vazifasini to'g'ri idrok etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn til va uslubga ko'ra tahlil etilar ekan, me'yoriy uslubiyat qoidalari hamda tavsiyalaridan oqilona foydalana

olish talab etiladi. Muharrirlar (OAV tahririyatidagilar ham) bevosita o'zlari tahrirdan chiqarayotgan, chiqarishi kerak bo'lgan matnga uslubiyatning qaysi me'yorlariga ko'ra yondashishlari lozimligini yaxshi idrok etishlari kerak. Yozma nutq, xususan, matn ifodasi nihoyatda nozik masala, unga bir qolipda yondashish asarni nutqiy, uslubiy jihatdan yaxshilash o'rniga uni abgor qilishi tayin.

«Ertog'ril» filmidagi din arbobining nutqiga e'tibor beraylik: «*Tangrining nuri hamisha salibchilar yo'lini yorug' qilsin*». Tarjimon filmidagi personajlarni «sof» o'zbek tilida so'zlatmoqchi bo'lgandir. *Tangri* – turkiylarning yakka ilohi. Salibchilar – katolik, xristianlar – xochparast, mushriklar. Bunday nutqiy qashshoqlikka, tilni bilmaslik, tarjimon o'z bilganicha ish ko'rgani, subyektivlikka yo'l qo'ygani sabab bo'lgan. Tarjimon ham, tahrirchi ham turkiylarning yakka ilohi *Tangri*ni mushriklarniki qilib qo'ygan. Ya'ni so'z qo'llashda o'ta qo'pol xatoga yo'l qo'yilgan.

«Tilni bilish» faqat iboralar, sintaksis me'yorlardan bilimga ega bo'lish degani emas, buning uchun til va uslubni nazariy jihatdan mukammal egallash zarur. Chunki amaliyotda til va uslub bilan bog'liq ko'plab vazifani bajarishga to'g'ri keladi. Buni esa faqat chuqur nazariy bilimga tayanibgina uddalash mumkin. Lekin til va uslubga oid xatolarni aniqlash uchun bu hali yetarli emas. «Uslubiyat nutq madaniyatidan farqli o'laroq, asosiy e'tiborni adabiy nutqqa qaratadi» [5]. Xullas, matnni bunday xatolardan holi qilish uchun tahlil va tahrir nazariyasi hamda metadologiyasini a'lo darajada bilish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Taxirov Z.T. Tahrir mantig'i. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Одинцов В.В. Стилистика текста. – Москва, 1980.
3. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – Москва, 1991. – С. 7-8.
4. Владимиров В.В. Проблемы русской стилистики. – Москва, 1981.
5. Taxirov Z.T. O'zbek tilining amaliy uslubiyati. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021.

**Dilrabo SAYDULLAYEVA,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

## **ALISHER NAVOIYNING «NASOYIM UL-MUHABBAT» ASARIDAGI TURKIY SHE'RIY PARCHALAR BADIYYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasining adabiyotshunoslik va tasavvuf ilmidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda keltirilgan turkiy shoirlarning ijodi va tasavvufiy g'oyalari tadqiq etilib, Alisher Navoiyning ularga bergan bahosi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** tazkira, avliyo, tariqat, tasavvuf, hikmat, Nasimiy, Ahmad Yugnakiy, Muqimiy, Lutfiy, Hakim Ota.

**Annotation.** The article analyzes the significance of the commentary «Nasoyim ul-muhabbat» in literary criticism and the science of Sufism. The work examines the creativity and mystical ideas of the cited Turkic poets, and also sheds light on their assessment by Alisher Navoi.

**Keywords:** remembrance, tadhkira, sufism, God's friends, Nasimi, Ahmad Yugnaki, Muqimi, Lutfi, Hakim Ata.

**Аннотация.** В статье анализируется значение комментария «Насайим ул-мухаббат» в литературоведении и науке суфизма. В работе рассматриваются творчество и мистические идеи цитируемых тюркских поэтов, а также проливается свет на их оценку Алишером Навои.

**Ключевые слова:** поминание, друзья Божии, суфизм, хикмат, Насими, Ахмад Югнаки, Мукими, Лутфи, Хаким Ата.

O'zbek adabiyotshunosligi tarixidan tortib to bugungi kunga qadar «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasiga doir turlicha munosabatlarni ko'rish mumkin. Asarning tahlili va talqini haqidagi xulosalar ham rang-barang. Shu vaqtgacha qilingan tadqiqotlarda tazkira asosan Navoiy biografiyasiga oid ma'lumot beruvchi yoki tasavvuf ta'limotidan bahs qiluvchi manba sifatida tahlilga tortilgan. Binobarin, «Nasoyim ul-muhabbat»ning turkiy adabiyotshunoslik rivoji uchun xarakteri xususiyatlari hali nazardan chetda qolgandek.

Ma'lumki, tazkira janrining xarakterli xususiyatlaridan biri ijodkor haqida ma'lumot, qiziqarli faktlar ortidan uning ijodidan namunalar ham keltirilishidir. «Nasoyim ul-muhabbat»da ham 770 ta so'fiy zikri va ayrimlarining she'rlaridan parchalar bor.

Akademik B.Valixo'jayev tazkiraning bu muhim jihatini quyidagicha e'tirof etadi: «Nasoyim ul-muhabbat» tasavvuf ahli silsilasiga bag'ishlangan bo'lsa-da, unda forsiy va turkiy nazmning ko'pgina mashhur namoyandalari haqida ham asarning mavzusi bilan bog'liq tarzda ma'lumot keltirilgan, boshqacha qilib aytganda, Alisher Navoiy bu asarida mashur shoirlar faoliyatiga faylasufona yondashib, bir tomondan, ular faoliyatida o'rta asrlardagi tasavvuf va uning ko'rinishlarini kuzatsa, ikkinchi tomondan, ularning badiiy ijodlari va shu sohadagi alohida xizmatlarini ham ta'kidlaydi. Bu jihatdan turkiy tilda ijod qilgan Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Hakim ota, Adib Ahmad, Mavlono Lutfiy, Mavlono Muqimiy, Sayyid Nasimiylar haqida yozganlari diqqatga sazovor» [3: 79]. Darhaqiqat, tazkirada turkiy ijodkorlardan bo'lmish Hakim otaning hikmat janriga doir she'ridan parcha, adib Ahmad, Lutfiy, Mavlono Muqimiy va Sayyid Nasimiylar she'rlaridan baytlar ham keltirilgan.

Masalan, Hakim Ota zikrini keltirar ekan, Navoiy ushbu shayxning nafaqat a'oli yoki a'moli, balki hikmat janridagi

she'riy parchalari turklar orasida mashhur ekani haqida ham aytib, namuna keltiradi:

*«Tikka turg'an bo'tadur, borg'anlarni yutadur.  
Borg'anlar kelmas bo'ldi, magar manzil tutadur» [1: 463].*

Yuqoridagi hikmatda qo'llangan «bo'ta» – Venera yulduzi (o'zbekchada Sayyora yulduzi, qolaversa, Zuhro yulduzi degan nomi ham bor) beri juda yorqinligi sababli o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos ramziy va estetik ma'noga ega. Bizningcha, ushbu hikmat vositasida Hakim Ota oddiy insonlarni kufrdan tiyilishga, jahannam va uning azoblarini bir dam ham unutmashlikka va shariat yo'lini mahkam tutishga undamoqda.

Asarda Adib Ahmad ijodidan ham quyidagi namuna keltirilgan:

*«Ulug'lar ne bersa yemasman dema,  
Ilik so'n, og'iz ur, yemasang yema!  
So'ngakka ilikdur, eranga bilik,  
Biliksiz eran-ul so'ngaksiz ilik» [1: 469].*

Bu misralarda tashbih orqali ilik suyak uchun qanchalik muhim bo'lsa, er kishiga ham ilm shu darajada zarurligi uqtirilgan va bilimsiz kishi iliksiz ichi bo'sh suyakka mengzalgan.

Xurosonlik Mavlono Muqimiy zikrida uning turkcha she'rda mashhur va ma'ruf ekani ta'kidlanib, turkiy tilda tarji'band ham bitgani qayd etilaadi. Tarji'bandda takrorlanib kelgan 2 misrani ham aynan keltiradi:

*«Sen sen asli vujudi har mavjud,  
Sendin o'zga vujudqa ne vujud» [1: 517].*





Ushbu parchada ishq ilohiy tarannum etilgan bo'lib, Allohning yaratuvchilik sifatleri ulug'langan, har mavjudotning vujudi U ekani va Yaratgansiz hamma narsa yo'qlikka mahkumlighi q aytilgan.

Sayyid Nasimiy rumiy va turkmoniy tilda ijod qilgani, she'riyatida haqiqat va ma'rifat g'oyalari beqiyos tasvirlanganidan hanuz biror shoir bu mavzuda uningdek she'r bita olmagan va taqlid ahli uning mazhabida qusur borligi tuxmatini qilib, shahid ketishiga sababchi bo'lganliklari haqida ta'kidlab o'tadi. Sayyid Nasimiyning qalamiga mansub parcha keltirar ekan, shoir uni shahid ketar chog'i o'qiganini ham ta'kidlaydi. Unda yor yuzi qiblaga, qoshi mehrobgga, surati Mus'hafga, yuzidagi xati va xoli esa e'robgga tashbeh etilgan:

*«Qibladur yuzung, nigoro, qoshlaring mehroblar,  
Surating Mus'haf vale xolu xating e'roblar.  
Ey Nasimiy, chun muyassar bo'ldi iqboli visol,  
Qo'y, teringni so'ysa so'ysun bu palid qassoblar» [1: 518].*

Mavlono Lutfiy zikriga ham tazkirada keng o'rin berilgan. Uning kubraviylik tariqatining mashhur

namoyandasi, Navoiyga zamondosh shayx Shihobiddin Xiyoboniy xizmatida odob tariqatini o'rgangani aytilgan. Qolaversa, Lutfiy nafaqat mashhur shoir, balki darveshona hayot tarziga amal qilgan shaxs sifatida e'tirof etilgan. Yozilishicha, shoir Navoiyga hamisha iltifot va nasihatlar qilgan, ayniqsa, ko'p bor ona roziligini olishga da'vat etgan. Lutfiy 90 yoshdan oshgan chog'ida Navoiy Jomiyga atab «Suxan» radifli qasida bitgan va hadyadan Jomiy xijolatda qolib, to'nini yechib Lutfiyga kiygizgan. Bu qissadan so'ng zikr so'ngida Navoiy Lutfiy qalamiga mansub ushbu parchani keltiradi:

*«Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,  
Ko'zgudek qildi seni O'zini paydo qilg'ali» [1: 517].*

Parchadan anglashiladiki, go'zallikda tengsiz husn Yor uchun elni shaydo qilish uchun bir bahona edi xolos, aslida Yor o'zining aksini namoyon etish uchun oshiq ko'nglini ko'zguga aylantirmoqchi edi. Bunda oshiq ko'ngli ko'zguga o'xshatilgan.

Demak, asar nafaqat tasavvuf ilmiga doir muhim manba, balki adabiyotshunoslik ilmi uchun ham g'oyat qimmatli.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Nasoyim-ul muhabbat: (Ilmiy tanqidiy matn). Nashrga tayyorlovshi H. Islomiy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017.
2. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.

**Diloromxon TURG'UNBOYEVA,**  
*Andijon davlat universiteti magistranti*

## **PUL DISKURSIDA GENDERLIK YONDASHUVI: ERKAKLAR VA AYOLLAR ORASIDAGI TAFOVUTLAR**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pul diskursida erkaklar va ayollar orasidagi gender tafovutlar tahlil qilinadi. Kognitiv, lingvokulturologik, pragmatik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan pulning jamiyatdagi roli va tilda aks etish usullari o'rganiladi. Maqola pul va genderning tilshunoslikdagi o'zaro bog'liqligini yoritishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** pul diskursi, gender, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, frazeologiya.

**Annotation.** This article analyzes gender differences in the discourse of money between men and women. The study examines cognitive, linguocultural, pragmatic, and sociolinguistic approaches to the perception of money and its reflection in language. The article contributes to understanding the relationship between money and gender in the context of linguistics.

**Keywords:** discourse of money, gender, cognitive linguistics, linguoculturology, pragmatics, sociolinguistics, phraseology.

**Аннотация.** В данной статье анализируются гендерные различия в дискурсе денег между мужчинами и женщинами. Рассматриваются когнитивный, лингвокультурологический, прагматический и социолингвистический подходы к восприятию денег и их отражению в языке. Статья помогает понять взаимосвязь денег и гендера в контексте лингвистики.

**Ключевые слова:** дискурс денег, гендер, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, прагматика, социолингвистика, фразеология.

Pul jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning til vositasida aks etishi gender tafovutlarini ham yoritib beradi. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan antroposentrik yondashuv inson omilining tilga ta'sirini o'rganadi, kognitiv tilshunoslik esa inson tafakkuri va dunyoqarashi bilan bog'liq til birliklarini tahlil qiladi. Pul diskursi jamiyatdagi gender rollarini aks ettiruvchi kuchli semantik tizimga ega. Erkaklar va ayollar pulga oid tushunchalarni har xil talqin qiladi, bu esa ularning nutqiy amaliyotida ham aks etadi. Ushbu maqola erkak va ayollarning pul haqidagi fikrlashi, metaforalari, frazeologik birliklari va diskursiv strategiyalarini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Antroposentrik tilshunoslikdagi «diskurs» tushunchasining lingvistik atama sifatida qo'llanila boshlangani, tilni mazmuniy va yaxlit o'rganishga e'tibor kuchaygani bilan bog'liqdir. Tilni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bog'liq holda o'rganish, zamonaviy tilshunoslikda tilning foydalanuvchisi hamda uning nutqi bilan bog'liq yangilanish, yangi tushunchalarning iste'molga kirishiga zamin yaratdi. «Diskurs nutqi» atamasi ilk bor amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952-yilda nashr etilgan diskurs tahlili nomli maqolasida foydalanilgan. Lingvistik termin sifatida esa diskurs 1960-yillarning boshlarida antropolog Dell Humes tomonidan olib kirilgan. O'zbek tilshunosligida diskurs borasida lingvistik tadqiqotlar tilshunos Sh. Safarov tomonidan amalga oshirilgan [1].

Diskurs bu – til vositasida ma'lum bir kontekstda amalga oshiriladigan muloqot, matn yoki nutq jarayoni bo'lib, u lingvistik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Diskurs tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlarida turlicha talqin qilinadi, lekin umumiy ma'noda u mazmunli matn va nutqning kontekst bilan bog'liq tahlili sifatida tushuniladi.

**Gender** tushunchasi O'zbekistonga yangi kirib kelgan terminlardan biri bo'lib, hozirgi jarayonda ushbu atama turli sohalarida tez-tez qo'llanilmoqda. Ushbu termin tilshunoslikka yaqindagina kirib kelganiga qaramasdan faol rivojlanib, yangi tadqiqot muammolarini topayotgan zamonaviy tilshunoslikning bir tarmog'idir. **Gender** – erkaklar va ayollar o'rtasidagi xulq-atvor, madaniy, psixologik va boshqa ijtimoiy-madaniy jihatdan aniqlangan farqlarni shakllantiradigan ijtimoiy jins [2].

Lingvistik jihatdan qaraganda diskurs va gender tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, gender diskursi ijtimoiy-madaniy omillar, qadriyatlar va stereotiplarga asoslangan holda erkaklar va ayollarning nutqiy xususiyatlarini izchil o'rganadi. Aynan ushbu sohada erkak va ayollarning nutq uslubi, muloqot strategiyalari va tilni qo'llash usullari farqlanadi.

Ushbu tadqiqotda pul diskursidagi gender tafovutlarini o'rganish uchun sotsiolingvistik tahlil, kognitiv tahlil va lingvokulturologik yondashuv asos qilib olindi. Metodologiya uch bosqichda tashkil etildi. Birinchisi, til birliklarini yig'ish va tanlash, ikkinchisi, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish va uchinchisi, olingan natijalarni umumlashtirish va interpretatsiya qilish.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan til insonning dunyo haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi va shu asosda inson ongida turli konseptlar shakllanib boradi hamda ular nutqiy faoliyat jarayonida o'z-o'zidan iste'molga kirishadi. Pul – jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan konsept. Biroq uning erkaklar va ayollar orasidagi talqini turlicha bo'lib, bu tafovut lingvistik birliklarda ham o'z aksini topadi. Kognitiv tilshunoslikka ko'ra pul **erkaklar** uchun kuch, mustaqillik, ijtimoiy maqom bilan bog'liq bo'lsa, **ayollar** uchun xavfsizlik, tejamlilik va farovonlik tushunchalarini ifodalaydi. Erkaklar



pulni ko'pincha kuch, harakat va erkinlik bilan bog'laydi. Bu esa ularning nutqidan, harakatlaridan yaqqol sezilib turadi. Buni quyidagi misollardan ko'rish mumkin:

**Pul – qurol:** «Pul kuchdir», «Pul bilan har qanday muammoni hal qilish mumkin».

**Pul – jang maydoni:** «Pul uchun kurashish kerak», «Kim ko'proq ishlasa, shuncha kuchli bo'ladi».

**Pul – yo'l:** «Pul topish yo'lini bilish kerak», «Boylik sari yo'l ochiq».

Bu metaforalar shuni ko'rsatadiki, erkaklar pulni harakat va resurs sifatida qabul qiladi, ularning diskursi iqtisodiy faoliyatni raqobat sifatida ko'rsatadi. Ayollar esa pulni, unga egalik qilishni xotirjamlik barqarorlik bilan bog'liq holda ko'radilar. Ularning nazdida pul bo'lishi ko'p muammolarga yechim bo'la oladi, turli xil tashvishlarni ketkazadi:

**Pul – suv:** «Pul oqimi yaxshi bo'lsa, hayot ham yaxshi bo'ladi», «Toma-toma ko'l bo'lur».

**Pul – baxt:** «Pul bo'lsa, hayot gullaydi», «Pul bo'lsa, tinchlik ham bo'ladi».

Bu metaforalar ayollar pulni asosan osuda turmush va oilaviy farovonlik manbasi sifatida qabul qilishini anglatadi.

Har bir millatning madaniyatidagi **frazeologizmlar** til orqali o'sha xalqda shakllangan mentalitetni ko'rsatib beruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Bizning o'zbek madaniyatidagi pulga oid frazeologik birliklar erkaklar va ayollarga nisbatan turlicha ishlatiladi. Jumladan, **erkaklarga** nisbatan, asosan, pulni ishlab topuvchi, uni aql bilan boshqara oluvchi va sarflashda shoshilmaydigan odam sifatidagi iboralar ishlatiladi:

**Pul uchun otasini ham sotadi** → Erkaklarning moliyaviy manfaatni ustun qo'yishi ya'ni ular pulni xarajlayotganda har jihatini o'ylaydi, qaysi tomondan foyda kelishini aniq mulohaza qiladi. Biroq bu barcha erkaklarda mavjud xususiyat emas, bunga erkaklarning pul topish qobiliyati va daromadi bevosita bog'liq.

**Qo'li ochiq odam** [3] → Saxovatli va pulni yaxshi boshqaruvchi erkak. Erkaklar, ayollardan farqli o'laroq, o'zlari ishlab topgan pulni xayrli ishlarga sarflashdan cho'chimaydilar. Bu odat ularning yanada ko'p pul ishlab topishlariga yo'l ochadi, deb o'ylaydilar. Shu xususiyat ularning sof o'zbekona qarashlaridir.

**Pul qo'lining kiri** [3] → Erkaklarda pul topish imkoniyati yuqori ekanligi va ular harakat, mehnat qilsa, yana pul topa olishiga ishonishlarini bildiradi. Biroq bu frazeologizm ayollar tomonidan kam iste'molda bo'ladi, chunki ularning aksariyati pul topishni mushkul bir vazifa sifatida ko'radilar.

Biroq **ayollar** erkaklarga nisbatan pulni tejavchi sifatida qaraladi. Ammo ular tejalgan pullarni asosan o'z manfaatlariga yoki ba'zan oilaviy ehtiyojlar uchun ishlatishadi va bunday jarayonlarda tejamkorlik xususiyati nafaol bo'ladi. Ularda erkaklardagi qo'li ochiqlik, ehson qilish xususiyatlari kamdan-kam hollarda uchraydi. Bu holat ularning nutqida ham namoyon bo'ladi:

**Pul bo'ldi – kul bo'ldi** [3] → Ayollardagi pulning mavjudligi vaqtinchalik ekani haqidagi tuyg'u. Chunki

ayollar qo'lidagi bor pulni, uning miqdori qancha ekanligidan qat'iy nazar, tez sarflashga moyildirlar.

**Pul ketsa ketsin, obro' ketmasin** [3] → Bu frazeologik birlik ayollarning pul qanday ishlab topilgani, uni yig'ish yo'lidagi mashaqqatlarni hisobga olmagan holda pulni el ko'zi oldida obro' olib berishinigina o'ylashlarini bildiradi. Ya'ni ular uchun pulsiz qolishdan ko'ra obro'sini yo'qotish xavfliroq.

**Qizning puli – qorning suvi** [3] → Ushbu o'zbek xalq maqoli o'zbek millatiga mansub xalqning o'g'il va qiz farzandlarga alohida munosabat bildirishlarini ko'rsatadi. Bunday munosabat ularning topgan pullariga qarashda ham yaqqol seziladi, ayniqsa, onalar nutqida buni tez-tez kuzatish mumkin. Bu esa bevosita lingvokulturologiya bilan bog'liqdir. Qiz farzandning topgan pulini aynan qorning suviga o'xshatilishida pragmatikaning o'ziga xos o'rnini bor. Sababi shuki, «qorning suvi» iborasi tez erib ketadigan, vaqtinchalik narsa sifatida ishlatilgan. Bunda pul va moliyaviy boylikning qizlar uchun beqaror yoki vaqtinchalik ekanligini ifodalaydi.

Lingvopragmatik jihatdan gender diskursida erkak va ayollarning pulga oid nutqiy strategiyalarini tahlil qilamiz. Nutqda ishlatiladigan konstruksiyalar ular o'rtasida sezilarli darajada farq qiladi. Bunda pragmatik jihatdan erkaklar pul haqida qat'iy va aniq gapirsa, ayollar ehtiyotkor va oilaviy manfaatlarga urg'u beradi. Quyida ulardagi tafovutlarni misollar orqali ko'rib chiqamiz.

**Erkaklar diskursi:**

**Aniq miqdor va faktlarga urg'u.** Erkaklar o'zlarining ishi, biznesi, sof daromadi haqida so'zlashayotganlarida ayollarga nisbatan ochiq ma'lumot beradi hamda aniq miqdorlarga tayanadi. Ularning nutqiy faoliyatida mujmallik kam uchraydi: «**Men oyiga 10 million so'm topaman**».

**Buyruq ohangidagi gaplar.** Erkaklarning nutqida aniqlik, ravon fikrlar va tavakkal qilishga moyillik sezilib turadi. Pul masalasiga kelganda ularning aksariyati yanada shijoatli bo'lishadi va bu ular bilan muloqot qilinganida ham o'z ifodasini topadi: «**Sarmoya kiritish kerak!**»

**Raqobatni ifodalovchi gaplar.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender jihatdan qaralganda erkaklar diskursida daromadga egalik va biznes borasida bir-biri bilan raqobatlashish ularning hayotini mazmundor qilishini aniq belgilar orqali ko'rish mumkin. Aynan suhbatlashish va fikr almashish chog'ida ular raqobatda o'zlarini qanday tutishlarini, chidamli ekanliklarini ko'rsatib beradilar: «**Pul topishda kuchli bo'lish kerak**».

**Ayollar diskursi:**

**Nozik va shubhali gaplar.** Ayollar diskursida pulga oid gaplar ko'pincha nozik va shubha bilan aytiladi. Ular moliyaviy vaziyatga nisbatan ehtiyotkorlik va beqarorlikni ifodalaydi. Masalan:

«Pulimiz yetarmikan?»

«Shuncha xarajat qilsak, keyin yetarlicha qolarmikan?»

«Keyingi oylikkacha chidashimiz kerak».

Bu kabi gaplar ayollar orasida moliyaviy barqarorlikka bo'lgan xavotirni aks ettiradi. Ayollar oilaning budjetini



rejalashtirish, yetarli mablag' qolishini ta'minlash haqida ko'proq o'ylashadi. Shuningdek, ushbu iboralar moliyaviy beqarorlikka nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashish, ortiqcha xarajat qilishdan oldin o'ylash kabi xususiyatlarni ifodalaydi.

**Tavsiflovchi iboralar.** Ayollar diskursida pulning muhimligi va unga ehtiyotkorona munosabat zarurligini ta'kidlovchi iboralar ham keng qo'llanadi. Misollar:

«Pulni ehtiyot qilish kerak».

«Ko'p ishlash kerak, pul topish oson emas».

«Keraksiz narsalarga pul sarflamaylik».

Bu iboralar ayollarning iqtisodiy masalalarda mas'uliyatli yondashuvini ko'rsatadi. Ayniqsa, uy bekalari yoki oila iqtisodiyotiga javobgar bo'lgan ayollar pulni tejash, unga munosib foydalanish haqida ko'proq o'ylashadi. Shuningdek, bu gaplar ayollarning moliyaviy rejalashtirishga intilishini ham ko'rsatadi.

**Oilaviy jihatga e'tibor.** Ayollar diskursida pulga oid iboralar ko'pincha oilaviy manfaatlariga bog'langan bo'ladi. Bu ayollarning iqtisodiy qarorlarni oilaviy nuqtayi nazardan ko'rib chiqishini anglatadi:

«Uy uchun pul tejash kerak».

«Bolalar kelajagi uchun yig'ishimiz kerak».

«Ortiqcha xarajat qilishdan oldin oilani o'ylash kerak».

Bu iboralar ayollarning pulga nisbatan uzoq muddatli strategik yondashuvini aks ettiradi. Ular moliyaviy qarorlarni qabul qilishda oilaning manfaatini birinchi o'ringa qo'yishadi. Shuningdek, ayollarning iqtisodiy rejalashtirishdagi muhim roli ham ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada pul diskursining gender tafovutlari kognitiv, lingvokulturologik, frazeologik, pragmatik va sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

**Kognitiv yondashuv** bo'yicha:

Erkaklar pulni kuch va harakat bilan bog'laydi. Ayollar esa pulni barqarorlik va oilaviy qadriyatlar bilan bog'laydi.

**Lingvokulturologik tahlil** bo'yicha:

Frazeologizmlar pulga oid gender stereotiplarini mustahkamlaydi.

**Pragmatik tahlil** bo'yicha:

Erkaklar aniq va buyruq ohangida gapiradi, ayollar esa ehtiyotkorona ifodalardan foydalanadi. Bu tahlillar pul diskursidagi gender tafovutlarini lingvistik va madaniy jihatdan chuqur tushunishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibotova M. Diskurs tushunchasi va unga ilmiy yondashuvlar // Scientific progress. – Buxoro, 2023.
2. Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqotning nazariy asoslari // Foreign languages in Uzbekistan. – Urganch, 2023.
3. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.





Dilafuz KURBANBAEVA,

Nukus davlat pedagogika instituti ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

## QORAQALPOQ TILIDA «ERKAK» KONSEPTOSFERASI QO'LLANILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qoraqalpoq tilidagi ibora, maqol, hikmatli so'z va birikmalarda erkak obrazining qay tarzda tasvirlanishi, qadr-qimmatı qanday aks etishi, milliy va madaniy xususiyatlari bilan bog'liqligi, shuningdek, madaniy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan qay yo'sında talqin etilishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** konsept, erkak, lingvopragmatika, kognitiv, leksema, antroposentik tahlil, neyrolingvistika.

**Annotation.** This article examines how the image of a man is portrayed in phrases, proverbs, wise sayings, and expressions in the Karakalpak language, how his dignity is reflected, how it relates to national and cultural characteristics, and how it is interpreted from a cultural and linguistic perspective.

**Keywords:** concept, man, linguopragmatics, cognitive, lexeme, anthropocentric analysis, neurolinguistics.

**Аннотация.** В статье анализируется образ мужчины в каракалпакских языковых фразах, пословицах, мудрых словах и словосочетаниях, изображается его ценность, как она связана с национально-культурными особенностями и как трактуется с точки зрения культурологии и лингвистики.

**Ключевые слова:** концепт, мужчина, лингвопрагматика, когнитивность, лексема, антропоцентрический анализ, нейролингвистика.

Bugungi kunda antroposentrizm zamonoviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Antroposentrik tahlil asosan matnni tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi. Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolinvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskurs tahlil kabi yo'nalishlarida shaxs omilini tadqiq qilish obyektning markaziga aylandi. Bu sohaning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o'rganish va lingvistik faolligini shaxs omili bilan birga yoritish harakatlari bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa «konsept» tushunchasiga aloqador bir qator masalalarni ko'rib chiqishni talab etadi. Keyingi yillarda «konsept» atamasi tilshunoslikda tez-tez qo'llanayotganiga va ayrim olimlar lingvistik birliklarni konsept sifatida o'rganayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Qoraqalpoq tili izohli lug'atida «er» so'zining lug'aviy ma'nolariga e'tibor bersak. Birinchi ma'nosi – turmush o'rtoq, umr yo'ldosh, kuyov, yor, jufti halol. Og'zaki so'zlashuvda «erga berdi» «turmushga berdi», «uzatdi» degan ma'nolarda qo'llaniladi, «erga tegdi» birikmasi «turmushga chiqdi» ma'nosini bildiradi. Erning ikkinchi ma'nosi – botir, azamat, g'ayratli, xalq uchun xizmat qiladigan inson.

«Erkak» er so'zining etimologik ma'nosi qadim davrlardan, ya'ni shumerlar davriga borib taqaladi. «Eski» shumer tilida ER /IR yor «Membrum virile», «erkek» eski turk tilida er. «1) erkak; 2) kuyov, umr yo'ldosh; 3) kuyov, qahramon botir», tuva tilida er «1) erkak; 2) erkak jinsli», oltoy tili. er «1) kuyov; erkak 2) bahodir, erylurak, xakas». Ir tilida «1) erkak; 2) kuyov», chuvash tilida. ar «erkak, kuyov», mo'g'ul. er «1) kuyov; erkak; 2) erkak jinsli» [3].

Har qanday konseptning, jumladan, «erkak odam» konseptinining ma'nosi, eng avvalo, afsonaviy va folklor matnlarda ko'rinadi. Chunki insonning dunyo haqidagi

birinchi tushunchalari mifologik asarlarda, xalq og'zaki ijodi namunalarida o'z aksini topgan. Qoraqalpoq folklor matnlarida «erkak kishi» konseptiga oid har xil leksemalar uchraydi. Bunda «botir» leksemasi dovyurak er yigit ma'nosida qo'llangan. Masalan:

*Er jigitning juregi,  
Arislan'ga teng keler.  
Qoriqqan jigit belgisi,  
So'zi suwiq bos keler.  
Jigit bolsang bir so'yle,  
Shayma bolma tutanaq.  
Er jigitlikke miyasar,  
Turaqliliq, ziyreklik.  
Er jigit el ushin tushadi,  
Eli ushin oledi.  
Erlikting bolar eng zori [4],*

Qoraqalpoq tilida «er» so'ziga ma'nodosh «er yigit», «er azamat», «azamat» leksemalari ham qo'llaniladi. «Er yigit» va «er azamat» so'zlari deyarli bir xil ma'noni anglatadi. Masalan, «azamat» so'zi ikki xil ma'noda ishlatiladi: 1. Voyaga yetgan erkak kishi; 2. Insoniy fazilatga ega, hurmatli odam. Xalq orasida qo'llaniladigan «Azamat erdin belgisi, az g'ana so'ylep kop tiñlar, arqimaq attin belgisi, az g'ana otlap kop juvsar» kabi hikmatli so'zlar yuqoridagi ma'noni tasdiqlaydi. Misol uchun, qoraqalpoq tilida «erkak» so'zi uch xil ma'noda qo'llaniladi: 1) er jinsiga tegishli odam, kishi; 2) kuyov, umr yo'ldosh, jufti halol; 3) hayvonlarning, jonivorlar, hasharotlarning tuxum sohadigan er jinslilari [3].

«Erkak» so'zi ko'proq og'zaki so'zlashuv uslubiga xos, adabiy tilda ko'p uchramaydi. Chunki qoraqalpoq tilida biroz qo'pol va salbiy xarakterga ega. Xalq og'zaki

ijodida ko'pincha «er», «er yigit» leksemalari faol, «erkak» so'zi esa ko'p qo'llanilmagan. «Qoraqalpoq og'zaki tilida erkak odamni kisi (kishi) deb aytish tez-tez uchraydi. Shuningdek, «erkak» so'zi «er» so'ziga nisbatan qo'polroq ma'noda qo'llaniladi, shuning uchun «er» so'zi ko'proq qo'llaniladi». Masalan, *Er jigitting basinda, Turli-turli sawda bar* [4].

Yuqorida, «er odam» konseptining ma'nosini aniqlashda folklor matn yetakchi vazifani bajaradi. Dostonlarda, ertaklarda, naql-maqol matnlarida er odam obrazi «botirlar» deb ishlatilgan. Chunki ota-bobolarimiz doim elni yovdan himoya qilgan, xalqqa bosh bo'ladigan va boshqa ijobiy belgilarni batir obrazida jamlagan. Shu bilan birga, xalq tuchunchasida batir ideal odamdir.

Qoraqalpoq tilining izohli lug'atida «botir»ga quyidagicha ta'rif berilgan: 1. Er yurak, kuchli, qaysar, botil, qo'rqmas, qahramon; 2. Elning yovga, dushmanga qarshi kurashgan, dostonlarning, eposlarning qahramoni; 3. Vatan uchun jonini ayamaydigan, vatanparvar; 4. Dushmani, yovni yengib, xalqni, elga yo'l boshchi bo'lgan, rahbar, aqlli inson; 5. Ishdagi qahramonligi, kuch-g'ayrati [3].

«Alp» so'zi eski turkiy xalqlarda ikki lashkar o'rtasida urush boshlanmasidan oldin yakkama-yakka kurashda qatnashuvchi odam. Qoraqalpoq xalq dostonlarida g'ayritabiiy kuch-quvvati, mardligi, dev yurakli ekani bilan ajralib turadigan qahramon. Shuningdek, dev «kuchli» ma'nosini ham anglatgan.

Hozirgi adabiy tilda «botir» va «alp» diaxronik konseptlari erkak kishi ma'nosida ishlatilmasa ham, afsona va folklor namunalari, shuningek, xalq orasida ideal er yigit sifatida saqlanib qolgan. U juda kuchli, pahlavon, dovyurak, jasur ma'nolarini ifodalagan.

Qoraqalpoq tilining izohli lug'atida «chol» so'ziga shunday izoh beriladi: Shal- sózi 1. Garri. Búl sóz garri sózine sinonim bolip tabiladi [3]. O'zbek tilida «chol», qozoq tilida «shal» so'zlari qo'llaniladi. Quyida qoraqalpoq folkloridan namuna keltiramiz:

*Elenip algan shalimdi,  
Eshki tewip óltirdi.  
Hár kimning bir dárti bar,  
Gosh jigit – yoshli jigit,  
márt jigit. Árebi atli* [6].

Shidamaspan dos ham dushpan sózine temir tonli gosh jigit. Bu misollarda yigitning mardligi ta'riflangan.

*Sóz aytpasin gosh jigitni isine  
Bir gosh jigit ko'rdim Rustem sipatli  
Kózime kórindi arislan aybatli* [5].

Er yigit konseptiga tegishli eng dastlabki «yigit» so'zi alohida ko'zga tashlanadi. U yosh erkak kishi, shuningdek, qizning bo'lajak kuyovi ma'nolarini anglatadi. Yigitlik erkak kishining kuch-quvvatga to'lgan, voyaga yetgan, yoshlik davri sanaladi. Bu so'zga «yosh yigit», «kuyov yigit» birikmalari ma'nodosh sifatida qo'llaniladi. Satrlarda «gosh jigit» leksemasi qo'llanilgan bo'lib, bu leksema yosh g'ayratli yigit ma'nolarida kelgan. Quyidagi satrlarga e'tibor beramiz:

*Elingizge kelip berdiñ ulli toy,  
Qiz-jigitler toy toyladi jazip boy,  
Kóp xoshirey, barna bir yaxshi jigit eken* [2].

«Kuyov» leksemasi erkak kishi konseptining bir turi bo'lib, uning ma'nosini qiz aytirish, qalin puli berish kabi freymlik tarmoqlar to'ldiradi. Buni qoraqalpoq tilining izohli lug'atida berilgan ta'rifdan ham ko'rishimiz mumkin: 1. Ayolning, xotinning eri, turmush o'rtog'i, jufti haloli, umr yo'ldoshi; 2. Turmushga chiqib ketgan qizning eri, turmush o'rtog'i, jufti haloli; 3. Voyaga yetgan qizga sovcilikka keladigan uylanmagan yosh yigit. Shuningdek, «kuyov» so'ziga sinonim sifatida «bay» so'zi ham qo'llaniladi. U «er», «kuyov», «umr yo'ldosh», «jufti halol» ma'nolarida ishlatiladi. «Kuyov» so'zi adabiy tilga xos bo'lib, madaniyatli tarzda ayol kishining umr yo'ldoshiga nisbatan qo'llaniladi. «Bay» so'zi og'zaki tilga xos bo'lib, u biroz qo'pol, salbiy ma'noda ham ishlatiladi [3]. Uylanmagan erkak kishiga nisbatan «bo'ydoq» so'zi qo'llaniladi. Unga qoraqalpoq tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi: «1. Úylenbegen adam, jalgiz basli adam, basi bos adam; 2. Qoyding toqlidan ulkeni, isek hám serke, qisir mal mánilerin anglatadi» [3].

Xulosa qilib aytganda, yuqorida erkak kishi qoraqalpoq tilida «er», «er jigit», «er azamat», «Azamat», shuningdek, «aq batir», «alp» so'zlari bilan qo'llaniladi. Yoshlik vaqtida «yigit», uylanmagan bo'lsa «boydoq» deb, uylanib, turmush qurgandan keyin esa «kuyov», «bay» deb nomlanadi. Bu leksema ko'pincha og'zaki so'zlashuv uslubida uchraydi. Farzandli bo'lgandan keyin esa «ota» degan nomga ega bo'ladi. Qoraqalpoq tilida uylanib, farzandli bo'lgan erkak kishi «ake», «aga», «ata» kabi leksemalar bilan nomlanadi. Shunga qaramay, ularning har biri ma'no jihatidan farqli bo'lib, buni matndan ajratib olishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qaraqalpaq folklori Ershora dastani. – No'kis, 2018.
2. Qaraqalpaq folklori. 27 tom. Er Ziyvar dastani, 2018.
3. Qaraqalpaq tili tusindirime so'zligi. II tom. – No'kis: Bilim, 1989.
4. Qaraqalpaq folklori Bozug'lan. 17 tom. – No'kis, 2018.
5. Qoraqalpoq folklori Qanshaym dastani. 26 tom. – No'kis, 2018.
6. Qoraqalpoq folklori. Naql-maqollar. – No'kis, 2018.



Muborak SATTOROVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

## ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI VA BADIY IJOD TARAQQIYOTI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining XX asr ilmiy va badiiy taraqqiyotida tutgan o'рни va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** poetik obraz, badiiy ijod, qasida, bayt, botiniy, zohiriy, zamonaviy, obraz, qimmatli, she'riyat.

**Annotation.** In this article, there are thoughts and opinions about the role and importance of Alisher Navoi's work in the scientific and artistic development of the 20th century.

**Keywords:** poetic image, artistic creation, ode, verse, internal, external, modern, image, valuable, poetry.

**Аннотация.** В данной статье изложены мысли и мнения о роли и значении творчества Алишера Навои в научном и художественном развитии XX века.

**Ключевые слова:** поэтический образ, художественное творчество, ода, стих, внутренний, внешний, современный, образ, ценностный, поэзия.

Alisher Navoiy ijodi XX asr ilmiy va badiiy ijod taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Navoiy she'riyatidagi zohiriy ma'no yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham o'rgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin. Shu sababdan Navoiy ijodidagi badiiyot va poetik obrazlar silsilasini qay darajada ekanini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Navoiy she'riyatida an'anaviy obrazlarning tasviri va talqinidagi o'ziga xoslik, badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanish, ular orqali lirik qahramonning ichki olami, ma'naviy va ruhiy dunyosini ochib berish adabiy olamdagi kashfiyotlardan deyish mumkin. Shoir ijodiga nazar tashlar ekanimiz, uning XX asr ilmiy va badiiy ijod taraqqiyotida muhim o'rin tutganini anglaymiz. Bu ijod jamiyatga yirik navoiyshunos olimlarni yetishtirdi. V.Zohidov, A.Xaytmetov, A.Abdug'ofurov, H.Sulaymon, A.Rustamov, S.Erkinov, I.Haqqul kabi o'nlab olimlar Navoiy hayoti va ijodi bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini yoqladi. N.Karimov, M.SHayxzoda, S.G'aniyeva kabi ko'plab olimlar Navoiy ijodi bo'yicha fan nomzodlariga aylandilar.

XX asr o'zbek adabiyotining rivoji mumtoz adabiyotimizning an'analari bilan bog'liq. O'zbek mumtoz adabiyoti esa Navoiy ijodida eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan. Demak, shoirning hayoti va ijodiga daxldor masalalar XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyoti bilan bog'liqdir. XX asr o'zbek adabiyotida Navoiy timsoli, asarlarining syujeti-yu g'oyasi asosida asarlar yaratildi, shoir she'riyatiga xos bayt va parchalarning XX asr o'zbek adabiyotidagi ko'rinishlari diqqatga sazovor bo'ldi. Bu asrda qalam tebratgan ijodkorlar orasida Navoiy haqida qalam tebratmagani deyarli uchramaydi. Bu buyuk shoirga bo'lgan ehtiromdir. Oybek, G.G'ulom, H.Olimjon, M.Shayxzoda, Mirtemir, E.Vohidov, A.Oripov va boshqalar Navoiy haqida doston, ballada va she'rlar yaratdi. Ular orasida Oybekning «Navoiy va Guli» dostoni diqqatga sazovordir. E.Vohidovning «O'zbekim» qasidasidagi quyidagi baytlar shoirga bo'lgan yuksak xurmat namunasidir:

*«Mir Alisher na'rasiga  
Aks-sado berdi jahon,  
She'riyat mulkida bo'ldi  
Shohu sulton o'zbekim...»*

*«Menga Pushkin bir jahonu  
Menga Bayron bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor,  
Ko'ksim osmon, o'zbekim» [4]*

A.Oripovning «O'zbekiston» she'rida Navoiy ta'rifiga alohida bandlar ajratilgan:

*«Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,  
Barchasiga guvoh – yer osti.  
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro  
Jahongiri kam bo'lar, rosti.  
Besh asrkim, nazmiy saroyini  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyini  
Qalam bilan oldi Alisher  
Dunyo bo'ldi chamanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim» [2: 146].*

«Alisher» she'rida esa Navoiy ijodining buyukligi ifodalangan:

*«Jahonki muqaddas neki ko'ribdi, –  
Bariga onasan, ey qodir hayot.  
Besh yuz yil naridan boqib turibdi  
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.  
Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan, –  
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.  
Uning nomi bilan birga bitilgan  
Dunyo daftarida o'zbek degan nom» [2: 178].*

Navoiy timsoli M.Osimning «Zulmat ichra nur», «Badarg'a», «Astrabod», «Darveshning fitnasi» hikoyalarida,

Oybekning «Navoiy» romanida muvaffaqiyatli yaratilgan. Dramaturgiyada esa Uyg'un va I.Sultonning «Alisher Navoiy», V.Sa'dullaning «Xuroson yulduzi» nomli dramalari diqqatga sazovor. A.P.Korsun, A.N.Boldirev, M.M.Dyanon kabi leningradlik olimlar ham «Alisher Navoiy» nomli drama yaratishgan.

Navoiy dostonlari yoki undagi hikoyalar asosida o'zbek adabiyotida turli janrlarda badiiy asarlar yaratildi. Masalan, Xurshid Davron Navoiy dostonlari ta'sirida «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dramalarini yaratgan. H.Olimjon esa «Zaynab va Omon» dostonini yaratishda «Farhod va Shirin»dan unumli foydalangan. Navoiy «Farhod va Shirin»da sevgi tarixini boshlar ekan, shunday yozadi:

*«Yozib jon mushobidin ikki oyat,  
Debon Farhodu Shirindan hikoyat» [1]*

H.Olimjon ham «Zaynab va Omon» dostonini sevishtanlar nomini zikr etish bilan boshlaydi:

*«Suylab beray Zaynab va Omon,  
Sevgisidan bir yangi doston» [3: 4]*

Navoiy doston boshlanishida Farhodning yurti – Chin haqida so'z yuritsa, H.Olimjon Zaynab o'sgan el haqida yozadi. Navoiy dostonida xarakterlar

to'qnashgan. Bu ayniqsa Xusrav va Farhod dialogida aks etgan.

*«Dedi: «Qaydin, sen, ey Majnuni gumroh»,  
Dedi: «Majnun Vatandin qayda ogoh?» [1: 219].*

H.Olimjon ham Zaynabdagi qat'iyat, sevgiga sadoqatni uning Anor xola bilan suhbatida aks ettirgan:

*«– Bo'lmaydimi Sobir tez gapir,  
– Opa, bo'lmas, jonim, gapim bor.  
– Yo meni de, yoki Omonni,  
– Netay, tikdim yo'lida jonni...» [3: 43]*

Uyg'un va I.Sultonning «Alisher Navoiy» dramasida Navoiy siymosini A.Xidoyatov, O.Xo'jaev, Y.Axmedovlar yaratgan. O.Xo'jaev obrazni nihoyatda muvaffaqiyatli yaratib berdi. «Alisher Navoiy» kinofilmda esa bu vazifani R.Hamraev uddaladi.

Har bir millat g'oyat qimmatli, mangu yashaydigan umuminsoniy ma'naviy boyliklarga ega. Bu meros zamonlar o'tishi bilan sifat jihatidan yangi ahamiyat kasb etishni boshlaydi. Demak, O'rta Osiyo tarixining yorqin, kishi tasavvurini lol qoldiradigan sahifalarini o'rganish, uni barchaning ma'naviy mulkiga aylantirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Navoiy ijodi esa mana shu ma'naviy mulkning asosiy negizi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 6-7-8-jildlar. – Toshkent: Fan, 1967.
2. Oripov A. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Olimjonov H. Zaynab va Omon – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
4. O'zbekim (Qasida). <https://kutubxonachi.uz/story-and-poetry/erkin-vohidov/o-zbegim-qasida-muallif-erkin-vohidov/#gsc.tab=0>.





Sitora SHIRINOVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
1-bosqich tayanch doktoranti*

## HAMZA ROMANLARIDA OBRAZLAR TIZIMI

**Annotatsiya.** XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida dunyo tamaddunida jiddiy siyosiy, ijtimoiy, madaniy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu davr Turkiston tarixida jadidchilikning maydonga kelishi va shakllanishi davri bo'ldi. Davr ziyoli jadidlaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy edi. Ushbu maqolada shoir, pedagog, jamoat arbobi, o'zbek adabiyoti va san'atida sotsialistik realizmning asoschisi hisoblangan Hamza Hakimzoda Niyoziyning nasriy asarlari o'rganilishiga bo'lgan e'tibor va yangiliklar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nasr, roman, jadidchilik, millat, tarbiya, Vatan.

**Annotation.** In the late 19th – early 20th centuries, serious political, social and cultural changes occurred in world civilization. This period was the period of the birth and formation of Jadidism in the history of Turkestan. One of the intellectual Jadids of that period was Hamza Hakimzoda Niyazi. The article examines the attention and innovation in the study of prose works by Hamza Hakimzoda Niyazi – a poet, educator, public figure, founder of socialist realism in Uzbek literature and art.

**Keywords:** prose, novel, jadidism, nation, education, Motherland.

**Аннотация.** В конце XIX – начале XX века в мировой цивилизации произошли серьезные политические, социальные и культурные изменения. Этот период был периодом зарождения и становления джадидизма в истории Туркестана. Одним из интеллектуальных джадидов того периода был Хамза Хахимзаде Ниязи. В статье рассматриваются внимание и новаторство в изучении прозаических произведений Хамзы Хахимзоде Ниязи – поэта, просветителя, общественного деятеля, основоположника социалистического реализма в узбекской литературе и искусстве.

**Ключевые слова:** проза, роман, джадидизм, нация, образование, Родина.

Badiiy obraz kitobxonda estetik hissiyot uyg'otishi kerak. Yozuvchi badiiy obraz orqali estetik idealini tasvirlaydi: ideallik ijobiy obrazda bevosita, salbiy obrazda bilvosita ifodalanadi. Shunga ko'ra u yoki bu asarni o'qiganimizda biz ham badiiy obraz faoliyatiga befarq qaray olmaymiz: ulardan yo zavqlanamiz yoki nafratlanamiz [1: 50]. Badiiy adabiyotda yaratilgan asarlar tom ma'noda yozuvchining qalbida asrab qo'ygan idealini ifodalaydi. Chunki badiiy asar yozishga kirishar ekan, har qanday yozuvchi o'z oldiga fikr va maqsad tizginini umumlashtirgan holda bir butun reja asosida ish ko'radi. Bu orqali o'z kitobxoniga kecha, bugun va kelajakdagi hayotning tom ma'noda yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishga, ulardagi yechim topmagan muammolarni ko'rsatishga harakat qiladi. Bugungi kunda Hamzaning bizgacha yetib kelgan «Yangi saodat» va «Uchrashuv» romanlari negizida ham davr ijtimoiy muammolariga bo'lgan munosabat ifodalangan desak, yanglishmagan bo'lamiz nazarimda. Hamza boshqa jadid namoyandalaridan farqli ravishda, o'z davrida va hatto bugungi kungacha eng ko'p muhokamalarga sabab bo'lgan ijodkor desak mubolag'a bo'lmas. Bu uning ijodi bilangina bog'liq emas, albatta. Hamza nafaqat ijodiy, balki siyosiy faoliyati orqali ham o'zbek xalqining bugunidan xavotirlangan, ertasidan gumonda yashagan edi. Dramatik, nasriy asarlarida, gazeta va jurnallarda chop etilgan she'rlarida ayollarning haq-huquqlari poymol qilinayotgani, ularning ta'limi, rivojlanish uchun harakatlari ma'lum aholi qatlamlari orasidagi guruhlar va oilalar tomonidan poymol qilinayotganini yozgan. Bundan tashqari, xalqning yersuv islohotiga bee'tiborligi, uyushqoq emasligi haqidagi fikrlarini ba'zan achchiq kulgu ostiga yashirib, ba'zan esa to'g'ridan to'g'ri aytardi. Shuning uchun u jiddiy ta'qib ostiga

olindi, ijodining katta qismi yo'qotildi va oxir-oqibat, sevgan xalqi tomonidan toshbo'ron qilindi. Bizgacha uning o'z davrida «ilk milliy roman» deb e'tirof etilgan «Yangi saodat» asari to'liq holda, «Uchrashuv» romani esa tugallanmagan holda yetib kelgan. Adib «Yangi saodat» romanini «Milliy roman» yozuvi bilan boshlab, unga quyidagi misralarni epigraflar qilib oladi:

*O'quv tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutgil,  
Tilingni jahldan qutqor, g'ami millat bila o'tgil [2: 399].*

Bundan ko'rinadiki, asarning asosiy maqsadi va mazmuni insonning ilm olishi muhimligi haqida ekan. Hamza «Ixtor» qismini boshlab, unda o'sha davrdagi Turkiston xalqining ilmsizligi va buning ortidan kuzatilayotgan fojialar haqida o'z fikrlarini batafsil bayon etadi. Bu qismda ilmi va ilmsiz kishining hayoti taqqoslanadi. Shundan so'ng Hamza o'quvchini roman mazmuni bilan tanishtiradi. Bunda retrospektiv syujet unsurlaridan foydalanib, asarning bosh qahramoni Olimjonning o'tmishi va kelajagini qiyoslaydi. Olimjonning buvasi savdogar Gozi boy-badavlat bo'lishiga qaramay, yakka-yu yagona farzandi Abduqahhorning ilm olishiga e'tibor bermagani va buning oqibatida otasining vafotidan so'ng na dunyoviy, na diniy ilmning mohiyatini tushunib yetmagan Abduqahhor merosni qanday sarflashni bilmay, noto'g'ri yo'lga kirib ketgani, boylklarini qimorda boy berib, onasi Ruzvon, ayoli Maryam va ikki go'dagi Olimjon va Xadichani tashlab ketgani, mas'uliyatsizlik natijasida oilasini ham faqirlik botqog'iga botirganini bayon qiladi.

Ushbu o'rinda Hamzaning «Yangi saodat» va «Uchrashuv» romanlari haqidagi qarashlarimizni ifodalashdan ko'zlangan maqsad ularga bo'lgan susaygan

munosabatni tiklashdir. Buning boisi mazkur mavzuga tajribali adabiyotshunoslarning qo'l urmaganida emas, balki kechagina sho'ro davri adabiyotining «yagona asoschisi» sifatida taqdim qilib kelingan, o'sha davr hukmron mafkurasi tomonidan astoydil himoya etilgan Hamzaning nihoyatda murakkab taqdiri va serqirra ijodini tamomila yangicha asoslarda o'rganish ancha qiyin kechganligidir» [3:10]. Keyingi o'rinlarda Maryam yoshligida olgan ozginagina eskicha ta'lim bugungi kuni uchun nechog'li ahamiyatli ekanini anglaydi, o'zining kuni farzandlarining boshiga tushmasligini Xudodan so'rab, ularning ta'lim olishiga xayrixohlik bildiradi.

«Demak, G'oziboyning johilligi uning dunyo moliga mehr qo'ygani holda, farzandini ma'rifatdan mahrum qoldirganligida ko'rinadi. Aks holda adib orqasida munis ayoli Ruzvon, yigirma besh yoshga to'lgan o'g'li Abduqahhor, oqila Maryamday kelin, shirindan – shirin ikki nafar nevarasi bor kishini yuqoridagi kabi «*bir yodgorsiz, dunyodan benomu nishon ketdi*», deb ta'riflamagan bo'lar edi. Ahglashiladiki, adibning nazarida johillik noto'g'ri tarbiya tufayli kelgusi nasllarga o'tuvchi va millat istiqboli uchun falokatli illat» [2: 7].

Hayot albatta tasodiflarga boy. Shunday tasodiflarga duch kelgan Olimjon do'sti Ahmadjonning maktabini tomosha qilish bahonasida u ilm olayotgan maskanga boradi. U yerda o'zining ilmga intilishi, ishtiyoqini namoyon qilib maktab muallimining nazariga tushadi. U bu hayotdagi eng muvaffaqiyatli yo'l ilm yo'li ekanini his qiladi. Asar davomida Maryam farzandining ta'limi uchun jon jahdi bilan harakat qiladi, Olimjon ham

onasining umidlarini ro'yobga chiqaradi. Yoshi ulg'ayib, oq-qorani ajrata boshlagach, ilm olmagan, ta'limi uchun sharoit yaratib berilmagan ortidan volidasi nechog'li og'ir hayot kechirganini ich-ichidan his qilgan. Shuning uchun singlisi Xadichaxonni o'zi o'qitib, ayollar ta'limini yoqlab chiqadi. Roman xotimasida Hamza yaxshi yashash uchun ta'limning o'rne beqiyosligi haqida xulosa yashaydi. Olimjon ilmsiz insonlar singari g'ofillikka bo'yin egmaydi, hatto o'z otasini oilasiga qaytarib, ota-onasi oldidagi farzandlik burchini bajaradi.

Hamzaning «Uchrashuv» romani ham mavzu va mazmun jihatidan «Yangi saodat» singari davr ijtimoiy muammolarini sevgi-muhabbat, ilm-ma'rifat yo'llarini ko'zlagan yoshlar obrazi orqali ochib berishga qaratilgan. Garchi bizgacha asarning to'liq varianti yetib kelmagan bo'lsa-da, asar boshidan ko'rinadiki, Hamza Yusuf va Abror obrazlari orqali ilmli va ilmsiz kishini solishtiradi. Ayollarga bo'lgan sevgi va hurmatning me'yorini Shirin obrazi orqali ko'rsatadi, ayollarning jamiyatdagi o'rnini yaratish masalasini yoritmoqchi bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Hamza asosan dramatik asarlari, matbuotdagi chiqishlari orqali tanilgan bo'lsa-da, nasrda ham barakali ijod qilgan. U o'zbek adabiyoti uchun ilk realizm namunalarini yaratdi, ilk marta roman yozish tajribasini boshlab berdi. Nasriy asarlarining ahamiyati va o'rnini yanada ochiqlash uchun esa bugungi va kelajak adabiyotshunoslar ilmiy tadqiqotlarida bu masalaga e'tibor qilishi kerak. Buning samarasi o'laroq, Hamzaning bizga, adabiyot olamiga ochilmagan yangi asarlari dunyo yuzini ko'rsa, ajab emas.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. Hamza. To'la asarlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 1988.
3. Yoqubov I. O'zbek romani tadriji. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
5. Qayumov L. Hamza. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1973.



Shahrizoda KOMILOVA,

Farg'ona davlat universiteti

lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

## SO'Z O'YINLARINING O'ZBEK QIZIQCHILARI NUTQIDA IFODALANISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining noyob boyligi hisoblangan milliy askiya va qiziqchilik san'atining lingvostilistik xususiyatlari, o'zbek milliy so'z o'yinlarining o'ziga xosligi, bu borada olib borilgan tadqiqotlar haqida ayrim mulohazalar beriladi. O'zbek milliy askiya va qiziqchilik san'ati namoyandalari ijodidagi so'z o'yinlarining ahamiyati bir qancha misollar orqali tahlil qilinadi. O'zbek milliy so'z o'yinlarida qo'llaniladigan bir qancha lingvostilistik usul va vositalar askiyachi va qiziqchilar nutqi misolida tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** so'z o'yini, lisoniy o'yin, kategoriya, xalq og'zaki ijodi, lingvistik ijod, kontekst, pragmatik o'yin, kinoya.

**Annotation.** This article discusses the history of Uzbek folk art. The unique wealth of the national art of asking and joking, its linguistic and stylistic features, the uniqueness of Uzbek national word games, and the research conducted in this regard. Some comments are given on the research. The importance of wordplay in the work of representatives of the Uzbek national art of storytelling is one of the. The analysis is based on several examples. A number of linguist-stylistic methods and devices used in Uzbek national word games are analyzed using the examples of askiya speech.

**Keywords:** word game, language game, category, folk art, linguistic art, context, pragmatic game, irony.

**Аннотация.** В статье даются некоторые комментарии о национальном искусстве остроумной шутки и забавы, которые считаются уникальным сокровищем узбекского устного народного творчества, их лингвистико-стилистических особенностях, своеобразии узбекских национальных словесных игр, а также исследованиях, проводимых в этой области. На нескольких примерах анализируется значение игры слов в творчестве представителей узбекского национального искусства юмора и шутки. На примере шутильной и юмористической речи анализируется ряд лингвостилитических приемов и средств, используемых в узбекской национальной словесной игре.

**Ключевые слова:** игра слов, языковая игра, категория, народное творчество, языковое творчество, контекст, прагматическая игра, ирония.

«Til bu – o'yin» [1: 206] o'xshatishidan qadimgi zamonlardan buyon tilshunoslikda keng foydalanilib kelinmoqda. Ferdinand de Sossyur lisonning asosiy kategoriyalarini shaxmat o'yiniga muqobillikda ta'riflaydi (tizimlilik, ahamiyatlilik, qoida va boshqalar). Biroq «lisoniy o'yin» termini nisbatan yaqin yillarda, faylasuf L.Vitgenshteyn ishlarida paydo bo'lib, unga ko'ra, til «o'z qoidalarga ega bo'lgan o'yin» sifatida talqin etildi. Lisoniy o'yinlar o'z ichki qoidalari va kelishuvlarga bo'ysunuvchi yaxlit va tugal kommunikatsiya tizimlari hisoblanadi. Olimning fikricha, lisoniy o'yin til birliklarining tizimli munosabatlarini maqsadli, ongli ravishda buzishga asoslangan so'zlovchi nutqiy xatti-harakatining muayyan bir turidir. U, asosan, so'zlashuv, ommabop va badiiy nutq uslublariga xosdir [2: 34]. Olimning konsepsiyasida ijodiy yondashuv, nutqiy faoliyatdan iborat lisoniy o'yin subektiv tarzda shakllantirilgan kognitiv jarayonlar sifatida izohlanadi.

Rus tili stilistikasiga oid ensiklopedik lug'atda «lingvistik ijod sifatida, asosan, jamiyatning madaniy qatlamlariga bo'ysunadi va nutq ifoda etishning asosiy qoidalari bilmaslikdan kelib chiqqan nutq xatosining teskarisidir» [3: 696] deya izohlangan lisoniy o'yin hodisasi jahon tilshunosligida atroflicha o'rganilgan. Bu o'rganishlar til rivojining barcha davrlariga xos bo'lib, o'zaro o'yinli munosabatlar turli sohalarida namoyon bo'lib kelgan. Xususan, «o'yin» termini ko'plab ilmiy sohalar qatori falsafa, pedagogika, psixologiya va fiziologiya kabi sohalarida namoyon bo'lib, turli aspektida o'zining

funksional xususiyatlariga ega bo'lishi ta'kidlangan. Tilshunoslik sohasida so'z o'yinlarining lingvostilistik tabiati bir qator olimlar, xususan, O.Y.Konovalova, K.S.Baranov, T.V.Pervak, A.Z.Sannikov, O.Y.Voronichev, A.A.Tereshenkova, O.V.Gladkova, Y.M.Fedorova, Y.S.Lavrenteva kabi tilshunoslar tomonidan turli tillar misolida ochib berildi. Tadqiqotchilar tomonidan til o'yiniga matnni shakllantirish omili sifatida qaraldi.

So'z o'yini jahon tilshunosligining tadqiqot obyekti sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslarning diqqat markazidagi lingvostilistik muammoga aylandi. Buning natijasida, ayniqsa, rus tilshunosligida ko'plab ilmiy ishlar maydonga keldi. Amalga oshirilgan aksariyat tadqiqotlarda so'z o'yinlarining muayyan turlari, ulardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari, shu jumladan, so'z o'yinlarining nutq uslublari va turli janrlarda qo'llanishini yoritishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, so'z o'yinlari ma'lum bir davr manbalari hamda maxsus bir janrlar misolida yoki biror bir nutq ko'rinishi doirasida ham o'rganildi.

O'zbek adabiyotshunosligida olib borilgan bu boradagi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, so'z o'yinlari nafaqat hajviy-yumoristik fikrlar ifodasi, balki tinglovchida ma'naviy-estetik zavqni shakllantiruvchi, so'zlovchi nutqining ta'sirchanligini oshiruvchi badiiy san'at darajasiga ham ko'tarilgan. So'z o'yinlarining ushbu jihatlari o'zbek adabiyotshunosligiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarida nisbatan kengroq yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda so'z o'yinlari tadqiqiga bag'ishlangan ayrim ishlar maydonga keldi.

Soʻz oʻyinlari turli nutq uslublari misolida, xususan, oʻzbek milliy soʻz sanʼati hisoblangan askiya matni misolida [4: 24], latifalar kontekstida [5: 20] hamda badiiy nutq koʻrinishida [6: 23] tadqiq etildi. Biroq soʻzlovchining yashirin maqsadi, subyektiv munosabati bilan aloqadorlikda yuzaga chiquvchi kengqamrovli lingvostilistik hodisa hisoblangan soʻz oʻyinlarining qiziqchilar ijodida qoʻllanilishi maxsus tadqiq etilmadi. Shu bois, biz ushbu faslda oʻzbek milliy soʻz oʻyinlarining qiziqchilar nutqida ifodalanishini yoritishga harakat qildik.

Lingvistik adabiyotlarda lisoniy oʻyinining asosiy koʻrinishi sanalgan soʻz oʻyini (ayn. kalambur, fran.calembour) soʻzlarning koʻp maʼnoligiga, fonetik strukturasi bir xilligiga asoslanadigan soʻz oʻyini, soʻzlarni shunday qoʻllashdan iborat nutq koʻrinishi sifatida taʼriflanadi.

Tilshunos olim X.Dusmatovning fikricha, soʻz oʻyini oʻzida implisit axborot koʻlamini tajassum etadi va quyidagi jihatlari bilan boshqa nutq koʻrinishlaridan farq qiladi: 1. Nutq soʻz oʻyinlari asosida shakllantiriladi. 2. Soʻz oʻyini kontekstida birdan ortiq implisit axborot ifodalanadi. 3. Soʻz oʻyini semantik strukturasi *koptalqinlilik; murakkablik; sinkretizm; polisemantik va polifunksionallik; maʼnoviy va mazmuniy siljishlar; meʼyordan chekinish; lisoniy anomaliyalar* voqelanadi [7: 31].

Soʻz oʻyinlari oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi koʻrinishlarida keng istifoda etiladi: latifalar, askiyachi va qiziqchilar nutqlarida, payrov va chandishlar, qoʻshiq va dostonlar, ertak va hikoyalar, xalq dramalarida ishlatiladi.

Toʻplangan lisoniy dalillarimiz tahlili shundan dalolat beradiki, qiziqchilar nutqida soʻz oʻyinlari hazil-mutoyiba, qochiriq, kulgi qoʻzgʻatuvchi xarakterda boʻladi. Ushbu fikrlarimizni asoslash uchun ayrim soʻz ustalarimizning soʻz qoʻllash jihatlari eʼtibor qaratamiz. Oʻzbek soʻz ustalari orasida Hojiboy Tojiboyev alohida ajralib turadi. Uning boshqa bir soʻz ustalari, qiziqchi va askiyachilarimizda uchramaydigan oʻziga xos soʻz qoʻllash uslubi quyidagilarda namoyon boʻladi:

– *ortirma darajani ifodalovchi -roq shaklini takror qoʻllash: «Mana men oʻzim ham bir necha bor borib konsert qoʻyganman. Navoiy viloyatida ruslar koʻproq xizmat qiladigan bir harbiy qismga bordim...»*

– tilimizda tasdiqni ifodalovchi «*xuddi shunaqa*» birikmasini kesatq va inkor mazmunida qoʻllash. Qiziqchi ushbu soʻzlarni oʻzgacha bir kinoyaviy ohangda aytadiki, kontekstda «*aslida unday emas*» degan qarama-qarshi mazmun anglashiladi: «*Yevropada molga eʼtirom, eʼzozlash oʻta yuqori. Bizda-chi? Bizda ham xuddi shunaqa.*»

– pragmatik-kinoyaviy mazmundagi okkazional hosiladan foydalanish:

«*hhoʻ-hhoʻ-hhoʻ, hhoʻ-hhoʻ-hhoʻ.*»

Soʻz oʻyinlarining keng tarqalgan usullaridan biri bu – nutqiy vaziyatda soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnoda baravar qoʻllash hisoblanadi. Buning uchun qiziqchilar koʻp maʼnoli soʻzlarga, koʻchma maʼnoli soʻzlarga hamda iboralarga eʼtiborli boʻlishlari talab etiladi. Masalan:

– *Hojiboy aka, mana shu kitobimga qoʻl qoʻyib bersangiz.*

– *Tap etib qoʻiimni kitobining ustiga qoʻydim (Hojiboy Tojiboyev).*

Yuqoridagi misolda *qoʻl qoʻymoq* ifodasi leksik omonimiyaga misol boʻladi:

1) *qoʻl qoʻymoq* – biror narsa ustiga qoʻlini qoʻymoq;

2) *qoʻl qoʻymoq* – imzo chekmoq kabi maʼnolarni ifodalab kelgan.

Qiziqchilar oʻz nutqida **sinkretik soʻz oʻyini**dan ham foydalanadilar. Ushbu

soʻz oʻyinida birdan ortiq lingvistik hodisalar qorishib ketadi. Quyidagi misolda polisemantik va polifunksional soʻzning kontekstda turli maʼno va vazifada kelib, qorishib ketganini koʻrishimiz mumkin:

*Men deputat boʻlsam, rohat-farogʻatda yashaysizlar, deb vaʼda bergan deputat obrazida qiziqchi Gʻayrat Ahmedov choyxonada dam olib turganida bir saylovchi kelib norizolik ohangida:*

– *Sizdan bitta narsa soʻrab olsam maylimi, – deydi.*

– *Mayli soʻrayvering.*

– *Siz o-o saylanayotganingizda meni saylasanglar, rohat-farogʻatda yashaysizlar degandindiz. Toʻgʻrimi?*

– *Toʻgʻri.*

– *Endi-chi? Hozir nima boʻlyapti?*

– *Hah, aytingchi, men deputat boʻlib saylanmasdan oldin, ular qaysi koʻchada yashar edi?*

– *Mexanizatorlar koʻchasida.*

– *Oʻlmang, oʻlmang! Ha, hozir-chi? Koʻchalaringizning nomi nima?*

– *Hozirmi? «Rohat-farogʻat».*

– *Xoʻsh, qayerda yashayapsizlar ekan?!*

Matnda qoʻllangan *rohat-farogʻat* juft soʻzi *toʻkin-sochinlik, farovonlik* maʼnosida va koʻchaning nomi maʼnosida qoʻllangan boʻlib, bir paytning oʻzida ravish holi va oʻrin holi vazifasini bajarmoqda. Boshqa nutq koʻrinishida biron bir soʻz kontekstda faqat bir gap boʻlagi vazifasida kelsa, soʻz oʻyinlarini hosil qilishda ayrim til birliklari birdan ortiq gap boʻlagi vazifasida qoʻllanishi eʼtiborlidir. Chunki soʻz oʻyini hosil qilishda meʼyoriylikdan chekinish, soʻzlarni ataylab koʻptalqinli tarzda qoʻllash lozim boʻladi. Mana shu jihati bilan soʻz oʻyinlari matni boshqa nutq koʻrinishlaridan keskin farq qiladi. Soʻz oʻyini ushbu semantik-sintaktik-stilistik xususiyatlari, ayniqsa, askiya sanʼatiga xosdir.

Qiziqchilar oʻz nutqida kulgi qoʻzgʻatuvchi usullar orasida uslubiy sintagmalash usulidan koʻproq foydalanadilar. Uslubiy sintagmalash, poetik sintagmalash atamaları tadqiqotchi X.Dusmatov tomonidan oʻzbek askiyachilik, qiziqchilik sanʼatida, shuningdek, poetik va publisistik nutq koʻrinishlarida qoʻllanishi isbotlangan. Ayniqsa, askiya va qiziqchilikda soʻz oʻyini keng tarqalgan turi hisoblanadigan ushbu usul soʻzlarni maqsadli birlashtirish yoki soʻzni komponentlarga boʻlishdan iborat boʻlib, bunda soʻzlarni boʻlib talaffuz qilish hamda toʻxtam (pauza) alohida stilistik qimmatga ega boʻladi hamda sintaktik- stilistik aloqa natijasida birdan ortiq axborot ifodalanadi:

– *Xalqdan pul olsa-chi?*

– *Ho-o-o kimligini aytmayman.*





- Daraxt kessa-chi?
- **Ho-o-o** kimligini aytmayman.
- Uy buzsa-chi?
- **Ho-o-o** kimligini aytmayman.
- E-e, bo'ldi qiling-e. Nimaga aytmaymaysiz, xojayin? Ayting unda, tushuntirib bering-chi.
- Jinnimisan, qamalib ketaman-ku. («Aristokratlar» jamoasi)

Ushbu hajviy matnda so'z o'yini katta ijtimoiy-lisoniy vazifa bajargan. Dialogik nutqda asosiy maqsad hokimlarning jamiyatdagi qing'ir ishlarini fosh qilishga

qaratilgan: «Hoo kimligini aytmayman» gapining asosiy mazmuni «hokimligini aytmayman» (hokim ekanligini aytmayman) bo'lib, fikr alyuziv tarzda so'z o'yini vositasida yuzaga chiqarilganligi o'ziga xos bir kulgi qo'zg'atishga xizmat qilgan.

Xullas, o'zbek milliy qiziqchiligi san'atida so'z o'yinlari hajv yaratish uchun asosiy uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Qiziqchilar nutqida so'z o'yinlaridan foydalanish tinglovchilarga emotsional-estetik zavq bag'ishlab, fikrning ta'sir kuchini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соскюр Ф. де Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977.
2. Витгенштейн Л. Философские исследования // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16. – М., 1985.
3. Стилистический энциклопедический словарь русского языка. [электронный ресурс] / под ред. М.Н.Кожинной; члены ред-коллегии: Е.А.Баженова, М.П.Котюрова, А.П.Сковородников. – 2-е изд., стереотип. – М.: Флинта: Наука, 2011
4. Dusmatov X. Askiya matning lingvostilistik tadqiqi: Дусматов Х. Filol.fan.bo'yicha fal.dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Farg'ona, 2018.
5. Rustamov I.Kichik janr matnlarning pragmatik kognitiv va milliy madaniy mohiyati (o'zbek va ingliz latifalari misolida): Filol. fan. bo'yicha fal.dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019.
6. Abdurahmonov Sh. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar: Filol. fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 1997.
7. Dusmatov X. O'zbek milliy so'z o'yinlarining lingvostilistik tadqiqi: Filol.fan.dok. diss... avtoref. – Farg'ona, 2022.

**Maxbuba QOBILOVA,**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti*

## **POLISEMANTIK SHAXS SEMALI LEKSEMALAR TAHLILI**

**Annotatsiya.** Leksik birliklarning bir yoki ko'p ma'noli ekanini hal etish tilshunoslar uchun hamisha muhokamali mavzu bo'lib kelgan. Terminologik polisemiya barcha lug'atlarda bor. Xususan, bu holat o'zbek tilining izohli lug'atidagi shaxs semasiga oid leksik birliklarda ham kuzatiladi. Maqolada turli qatlam doirasidagi ko'p ma'noli shaxs semali leksemalar tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** umumleksik qatlam, sof termin, izohli lug'at, terminologiya, monosemiya, polisemiya, leksik birlik.

**Annotation.** The question of whether lexical units have one or more meanings has always been a subject of debate among linguists. Terminological ambiguity is present in all dictionaries. In particular, this situation is observed in lexical units related to the personality scheme in the explanatory dictionary of the Uzbek language. The article analyzes polysemantic lexemes of personality in different layers.

**Keywords:** general lexical layer, pure term, annotated vocabulary, terminology, monosemy, polysemy, lexical unit.

**Аннотация.** Вопрос о том, имеют ли лексические единицы одно или несколько значений, всегда был предметом споров лингвистов. Терминологическая многозначность есть во всех словарях. В частности такая ситуация наблюдается в лексических единицах, относящихся к схеме личности в толковом словаре узбекского языка. В статье проанализированы многозначные семантические лексемы личности в разных слоях.

**Ключевые слова:** общий лексический пласт, чистый термин, аннотированная лексика, терминология, моносемия, многозначность, лексическая единица.

Umumleksik qatlam birliklariga xos monosemiya va polisemiya kabi semantik hodisalar o'zbek terminologiyasida ham kuzatiladi. O.S.Axmanova terminlar asosan monosemantik tabiatli bo'lishini ta'kidlab o'tadi [1: 605]. Tilshunos I.Islomov «Polisemiya hodisasi fanning rivojlanishi va terminologik bazaning yetishmasligi natijasida vujudga kelgan» [2: 24] degan fikrni ilgari suradi. Rus tilshunosi V.A.Tatarinov terminologiyada monosemiyaga zid bo'lgan polisemiya hodisasi ham mavjudligini, terminologik birlik polisemiyasi salbiy xususiyat sifatida baholanmasligini aytib o'tadi [3: 311]. Tilshunos Y.Konovalova terminlarda leksik semantik munosabatlarning beqarorligi, terminlarga asosan bir ma'nolilik xosligi, terminologik ko'p ma'nolilik, sinonimiya salbiy holat deb qaralsa-da, terminologiyada ham ko'p ma'nolilik, terminlararo ma'nodoshlik kabilar mavjudligini aytgan [4: 116].

Yuqoridagi yondashuvlardan asosan terminlarga bir ma'nolilik xos, degan fikr kelib chiqadi. Ammo terminlardagi ko'p ma'nolilikni ham inkor etib bo'lmaydi. O'zbek tilining sotsial semaga oid terminlarida bir ma'nolilik, ko'p ma'nolilik hodisasini o'zbek tilining izohli lug'ati orqali ham asoslash mumkin.

**Turli qatlam doirasidagi polisemantik shaxs semali leksemalar.** Bunday shaxs semali leksemalar turli qatlam doirasida qo'llanadi. Bu turdagi polisemantik leksik birliklar sememalari orasida ma'noviy farqlar yaqqolroq seziladi. Ammo sememalar tarkibidagi umumiy semaning mavjudligi leksik birliklarning polisemantikligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Masalan, *beka* termini tarixiy va ko'chma pometasida ostida qo'llanilib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

«BEKA 1 tar. Bekning va umuman hukmdorlarning, boyonlarning xotini.

2 *ko'chma* Oilaga, xonadonga yoki xo'jalikka boshchilik qiluvchi ayol.

3 *ko'chma poet.* Ega, sohib» [5].

Keltirilgan ma'nolardan birinchisi tarixiy leksik birlik bo'lsa, 2-, 3-ma'nolari ko'chma (hosila) ma'no kasb etgan. Shaxs semasiga oid ma'nolar «ayol ekanlik» semasi orqali umumiylikka ega bo'lsa, ko'chma ma'noga oid 2-, 3-ma'nolari «egalik qilish» semasi orqali o'zidan oldingi ma'nolar bilan bog'lanadi.

Opoqi leksemasi so'zlashuv tilida, shevalarda qo'llaniladi. O'TILda leksik birlikning quyidagi ma'nolari qayd etilgan:

«OPOQI 1 s.t. Opog'oyi. *Hozirgacha Ozod qishloqqa borganida, onasi, avvalo, opoqini so'rab-surishtiradi.* «Yoshlik».

2 *shv.* Otadan katta amakining ayoli.

3 *shv.* Farg'ona vodiysining ba'zi hududlarida boboga nisbatan ishlatiladi» [5].

Bunda birinchi ma'no yoshiga nisbatan berilgan ta'rif bo'lsa, ikkinchi ma'nosi yosh va qarindosh ekanlik, uchinchi ma'nosi esa jinsiga nisbat berilgan bo'lib, ma'nolar o'rtasida sezilarli farq bor. So'zning polisemantikligini ta'minlovchi integral sema mavjud bo'lib, u «yosh jihatidan katta ekanligi» ma'no bo'lakchasi orqali ifodalanadi.

Birodar leksemasi ham polisemantik shaxs semali leksema hisoblanadi. Bu birlik quyidagi ma'nolarni anglatadi:

«Birodar [f. – aka, uka] 1 Aka yoki uka; og'a yoki ini. *Boysunqur mirzo o'z qobiliyati, o'tkir zehni, ishbilarmonligi bilan birodarlaridan ajralib turadi.* Mirmuhsin, Me'mor.

2 Faoliyati, qarashlari, munosabatiga ko'ra o'zaro yaqin shaxs; hamdam, do'st. *Tangri birodarlariga qovog'ini solib qarovchi kishilarni yoqtirmaydi* «Hadis». *Mutribdek kishini birodar, og'a tutinib, Avazning yorug' kunlari ziyoda bo'ldi.* S.Siyoyev, Avaz. *Ming tashakkur, ming rahmat, yonimizga kirib, dehqonchilikka o'rgatgan o'zbek birodarlarimizga.* «O'zbekiston qo'riqlari».



3 O'rtoq, og'ayni (murojaatda). *Shu qutlug' kunlarda yetib keldingiz, aziz birodarlar! A.Muxtor, Do'stligimiz barq ursin. Birodar, Azizxon degan polvon bolani qaydan topsam bo'ladi? S.Ahmad, Ufq. – Qayoqqa, birodar? – dedi shopmo'ylov taksichi, mashinaning qiya derazasidan mo'ralab. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.*

Birodari aziz. Aziz do'stim, og'aynim. *Birodari aziz, siz mening bu so'zlarimdan xafa bo'la ko'rmangiz... A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

4 Birodar (erkaklar ismi)» [5].

Qayd etilgan ma'nolar qavm-qarindoshlik (1-ma'no), yaqinlik (2-, 3-ma'nolar), shaxs nomiga (4-ma'no) oid bo'lib, leksemaning barcha sememalari uchun birlashtiruvchi semasi «yaqin ekanlik» hisoblanadi. Bu ma'no o'zlashma leksemaning mohiyatida mavjud bo'lib, birodar forscha – «aka», «uka» ma'nolarini anglatadi.

Bizningcha, 1-ma'noga nisbatan o'ziga xoslik mavjud bo'lgani holda 2-, 3-ma'nolar bir-biriga juda yaqin. 2-, 3-ma'nolarning har ikkalasi yaqinlik semasiga oidligi bois sememalar orasida sezilarli farq yo'q. 2-ma'noda faoliyati, qarashlari, munosabatiga ko'ra o'zaro yaqin shaxs haqida ma'lum qilinsa, 3-ma'noda murojaat shaklidagi o'rtoq, og'ayni haqida ma'lumot beriladi va shu farq asosida alohida ikkita semema ajartilgan. Bizningcha, bu ma'nolarni «faoliyat va munosabatlarga ko'ra yaqin do'st, og'ayni» sememasi orqali umumlashtirish mumkin.

O'TILda keltirilgan ba'zi ko'p ma'noli shaxs semali leksemalarining ma'nolari eskirgan. Shu sababli hozirgi o'zbek tilida bu leksik birliklar bir ma'noda qo'llanilmoqda.

Masalan: bekach leksemasining O'TILdagi ma'nolari quyidagilar:

«Bekach 1 tar. Bekning va umuman hukmdorlarning, boyonlarning xotini yoki qizi. *Kecha o'rda bek oyimdan menga arava kelgan ekan... bormay, aravani bo'sh qaytardim... Bo xudo, o'rda bekachi bo'lsa o'ziga, dedim. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

2 esk. Xotin qizlarga hurmat bilan murojaat qilishda ishlatiladigan so'z. *...Oh, ko'rsang edi bir kuyovni! Qanday chiroyoli, qanday aqlli ekanini bilar eding, bekachim. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

3 ko'chma Ega, sohib; hukmron. *Uchovlon bekachdir bu gal dargohda, Nomlari Mukarram, Buoysha, Oygul. A. Oripov.*

4 Bekach (xotin-qizlar ismi) [5: 376].

Hozirgi o'zbek tilida bekach leksemasi lug'atda keltirilgan to'rtinchi ma'nosida qo'llanilmoqda, birinchi, ikkinchi va uchinchi ma'nolari esa tarixiylashgan. Har bir ma'no o'rtasidagi bog'liqlik «yuqori martabaga ega

ekanlik» semasi orqali ta'minlangan. Birinchi ma'noda bu leksema amaldorlarning xotini yoki qizi sifatida berilsa, ikkinchi ma'nosi murojaat sifatida, uchinchi ma'nosi egalik, hukmronlik sifatida olinadi.

Shuningdek, O'TILda bir nechta sememalar bilan polisematik leksema sifatida qayd qilingan ayrim birliklar sememalar o'rtasida ma'noviy aloqadorlik sezilmaydi. Masalan, mo'ysafid leksemasining quyidagi ma'nolari qayd etilgan:

«Mo'ysafid [f – oppoq soch] 1 soch-soqoli oqargan, mo'ylari oqargan. *Mo'ysafid odam. – Haqorat qilingan mo'ysafid boshlarini solintirib qaytib ketdi. M.Ismoiliiy, Farg'ona t.o. Ko'rina boshladi boshda oq tuklar, Mo'ysafid ismini tashiy boshladim. G.G'ulom. Muyilishdagi supachada bir mo'ysafid devorga suyanib, mudragandek bir ko'yda o'tiribdi. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir.*

2 Keksa, chol. *Ko'pchilik yigirma bilan qirq orasidagi yigitlar bo'lib, orada uch-to'rtta qirq-ellik yoshlilar, hatto oltmishga yaqinlashgan bir mo'ysafid ham ko'rindi. A.Qodiriy, Obid ketmon.*

3 s.t. Araq. *Ostonaqul birinchi qadahni «Mirzakarim oshnasining salomatligiga» ichdi. Keyingi qadahni «bu-ku mo'ysafid, sen uchun zahar ichishga tayyorman!» deb ko'tardi. S.Abdudqahhor, Sanamay sakkiz dema» [5: 303].*

Keltirilgan sememalardan birinchisida tashqi ko'rinishiga oid, ikkinchisida yoshga oid, uchinchi sememasi esa ichimlik ma'nosida kelgan. Birinchi va ikkinchi ma'nolarda birlashtiruvchi sema «yoshga oidlik» vazifasi umumiyliги asosida ularni polisemantik deb qarash mumkin. Biroq uchinchi sememada oldingi ma'nolarga bog'lanuvchi jihat deyarli sezilmaydi. Shuning uchun «ichimlik» ma'nosidagi araq terminini birinchi va ikkinchi ma'nolardan mustaqil alohida omonim termin sifatida olish

Xulosa qilib aytganda, shaxs semali leksemalarning kelib chiqishi ularning turli qatlamlarda o'ziga xos ma'nolarda qo'llanilishi bilan bog'liq. Terminlar bir tarmoq doirasidan boshqa tarmoq doirasiga o'tish jarayonida o'ziga aloqador semalarni saqlab qolish barobarida unga qo'shimcha semalar ham yuklanadi. Natijada u polisemantik terminga aylanadi. Polisemiya terminologik birliklar orasida ham mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Terminologik polisemiya salbiy hodisa sifatida baholansa-da, uning terminologiyada mavjudligini real voqelik ko'rsatib turibdi. Ayrim adabiyotlardagi terminlarga qo'yilgan bir ma'holilik talabini esa terminning muayyan bir kontekstda faqat bitta ma'noni ifodalashi, aniq bir tushunchani anglatishi sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966.
2. Isломov I. O'zbek tilining geografik terminologiyasi: tizimi, genezisi, semantik strukturasi va leksikografik talqini: Filol. fan. dok. diss...avtoref. – Qarshi, 2021.
3. Татаринov B.A. Теория терминоведения: в 3 т. – Москва: Московский Лицей, 1966.
4. Коновалова E.A. Деривационный потенциал и парадигматические отношения современной русской терминологии: Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1998.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent :G'ofur G'ulom NMIU, 2023.

**Xilola FAYZULLAYEVA,**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti  
inson huquqlari va media kafedrasida katta o'qituvchisi*

## **FOTOJURNALISTIKADA AXLOQIY DILEMMALAR: ETIKA, MAS'ULIYAT VA KASBIY ME'YOR**

**Annotatsiya.** Maqolada fotojurnalist va paparatsiyalar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarga to'xtalib, fotojurnalistikadagi axloq masalalari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** fotojurnalistika, kasbiy axloq, fotoreportyor, paparatsiy, ommaviy axborot vositalari, fakt, axloq kodekslari.

**Annotation.** The article analyzes ethical issues in photojournalism, following the ethical principles of photojournalists in various situations, ethical rules in shaping the attitude of the photo reporter and the audience, as well as differences and similar aspects in the activities of photo reporters and paparazzi.

**Keywords:** photojournalism, professional ethics, photo reporter, paparazzi, mass media, fact, ethical codes.

**Аннотация.** В статье рассматриваются различия и сходства между фотожурналистикой и папарацци, а также анализируются этические вопросы в фотожурналистике.

**Ключевые слова:** фотожурналистика, профессиональная этика, фоторепортёр, папарацци, средства массовой информации, факт, этические кодексы.

Jurnalistikaning ajralmas qismi bo'lgan fotojurnalistika yurtimizda ham yildan yilga rivojlanib bormoqda. Ushbu soha muammolari hanuz to'liq tadqiq etilmagan «qo'riq»dir. Zero aynan ommaviy axborot vositalarida ishlayotgan fotojurnalistlar o'z faoliyatlari jarayonida bir qancha muammolarga duch kelishadi. Shunday muammolardan biri fotojurnalist faoliyatidagi axloq masalalardir. Fotojurnalist sovuqqon, xolis va professional inson bo'lishi, texnik jihat asosiy omil emasligini, aksincha mazmun va etika muhimligini anglashi kerak.

Kitoblarda suratlar etikasi haqidagi rasmlarga doim detal, fakt bilan javob berishga harakat qilingan. Mashhur fotoreportyor Kliff Edom «Fotojurnalistika» asarida bir fotoreportaj tarixini keltirib o'tgan. U mashhur shifokor Djon Merilning hayoti va faoliyati haqida fotoreportaj tayyorlaydi, u orqali fotojurnalistika etikasi tarixi haqida ma'lumot beradi [1]. Muharrirlardan rasmlarni manipulyatsiya qilmasliklarini so'raydi. Garold Evansning «Sahifadagi suratlar» (1978) kitobi klassik fotojurnalistika uchun o'quv qo'llanma bo'lib, ikki beti «ta'sirchanlikning 4 tomoni»ga bag'ishlangan [3: 285].

1970-yillarda sensatsiya ortidan quvish, insonlarning shaxsiy hayoti daxlsizligiga rioya etmaslik fotojurnalistikada qator axloqiy masalalarni keltirib chiqardi. Masalan, Bruno Hauptning sud jarayonidan tayyorlangan fotoreportaj bunga yaqqol misol bo'la oladi. U uchuvchi Charlz Lindbergning farzandini o'g'irlab ketib, o'ldirgan edi. Fotoreportyorning dushmanlari janjal uyushtirib, uning nomini bulg'aydilar. Bu voqeadan so'ng AQShda fotojurnalistning sud jarayonida qatnashishi mumkin yoki mumkin emasligi xususida yangi qonun joriy etiladi. Yana bir misol keltiramiz. Fotoreportyor Ron Gallela Djek Onasis va uning oilasini suratga olib, Onasisning birgina suratidan 20 mln AQSh dollari ishlab oladi. U Onasisning oilasini doimiy ravishda kuzatib yurgan. Bir kuni Onasis farzandlari bilan yo'lda ketayotganida

butalar orasidan sakrab chiqib «Meni yana ko'rganingdan xursandmisan, Djek?» deb uni qo'rqitib yuborgan. U hatto grek kemachilari kabi kiyinib olib, Chayon oroliga borib quyoshda toblanib yotgan Onasisni suratga olgan. Keyinchalik esa bu surat «Xastler» jurnalida nashr etiladi. Sudda esa Gallela shunchaki o'zining jurnalistik materiali uchun haq olmoqchi bo'lganini ta'kidlagan. Sud unga Onasisga bundan keyin 8 metrgacha bo'lgan masofagacha yaqinlashmasligi xususida qaror chiqaradi va unga 120 million AQSh dollari miqdorida jarima solib, Onasis va uning oilasiga yaqinlashmasligi to'g'risida tilxat yozdirib oladi [1].

Paparatsiyalar faoliyati jurnalistikada kasb axloqiga zid bo'lgan faoliyatdir. Ammo G'arbda aynan ular OAV tahririyatlariga millionlab daromad keltiradi. Fotoreportyor Ross Baugman: «Mashhurlar ham bizga o'xshagan oddiy odamlar. Faqat farqi ularni omma taniydi, oddiy odamlarga nisbatan ularning hayoti ommaga qiziqroq» [2], – degan edi.

Fotojurnalistikada axloq masalalariga to'xtalar ekanmiz, uning ba'zi bir amal qilinishi lozim bo'lgan, ammo fotojurnalistlar doimo buzib kelgan tomonlariga e'tibor qaratamiz:

### **1. Haddan tashqari inson hayoti faoliyatiga aralashuv.**

Ruxsat berish – haddan tashqari aralashuvning oldini oladigan omillardan biri hisoblanadi. Axloq kodekslari tamoyillariga ko'ra ochiq, omma ko'ra oladigan joylarda har qanday narsani suratga olish mumkin. Boshqa hollarda esa alohida ruxsat talab qilinadi. Ruxsat bergan odam bunga majbur emasligini fotograf doimo yodda tutishi lozim. Yana bir jihat sir tutilgan ma'lumotni oshkor etishdir. Bu holatda fotoreportyor belgilanmagan hududga kirish uchun oldindan ruxsat olgan bo'lishi kerak.

**2. Faktlarni fotosuratlarda noto'g'ri aks ettirish.** Agar shaxs suratda yolg'on joyda yoki yolg'on vaziyatda aks ettirilgan bo'lsa, bunda fotoreportyor bo'xtonni yoritish aybi





bilan sud zalida javob berishi kerak. Gap fotomontajdan foydalanish haqida ketmoqda.

**3. Noqonuniy belgilash.** Fotojurnalista yana bir katta muammo tug'diradigan holat maxfiy suratlarini boshqalar nomidan ruxsatsiz chop etishdir. Fotojurnalista ko'chada xohlagan payti suratga olish huquqi berilgan bo'lsa-da, suratni respondentning ruxsatisiz chop etish huquqi berilmagan. Agar fotoreportyor bunday qonunbuzarliklarni yana davom ettirsa, sud unga nisbatan ommaga va mashhurlarga yaqinlashmaslik haqida qaror chiqarishi mumkin. Chunki qonunlar doim ham axloqiy jihatlarni e'tiborga olmaydi, ammo tomoshabinda «surat hech qachon aldamaydi» degan fikr bor. Faqat unutmash kerak, fan-texnika rivojlangan hozirgi zamonda fotoshop yordamida qalbaki suratlarini tayyorlash oson.

Fotojurnalista tarixida muharrirlar pulni tejash maqsadida qalbaki suratlardan ko'p foydalanishgan.

Xatto Pulitser mukofoti laureatlari ham suratni chiroyliroq ko'rsatish uchun montaj qilishardi. OAV buday jarayonlarda urfga kirib ulgurgan shavqatsiz suratlar uchun fotoreportyorlarni tanqid qiladi. Chunki bu kabi rasmlar odamlarni dunyoga shavqatsiz tarzda qarashga o'rgatib qo'yadi. Lekin texnika taraqqiyoti fotomontaj imkoniyatlarini ham kengaytirib yubordi. Natijada auditoriyaga bo'lgan muomala, yangilik materiallaridagi yolg'onlar ommaning jurnalistikaga bo'lgan ishonchini yo'qotmoqda. Professional va kasbiga sodiq fotojurnalista haqiqatni yoritadigan shavqatsiz kadrlardan qochib, shu haqiqatni ijobiy saviyadagi suratlar orqali namoyish etadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi kunda fotoreportyor qaysi ommaviy axborot vositalarida ishlamasin, avvalo fotojurnalistaning oddiy axloq me'yorlariga rioya etishi, o'z faoliyati bilan o'zi va tahririyatning imidjiga putur yetkazmasligi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harold Evans. They Made America: From the Steam Engine to the Search Engine: Two Centuries of Innovators Hardcover. 2004-r. 285.
2. Рон Галелла – самый знаменитый папарацци Америки. <http://www.liveinternet.ru/users>.
3. История фотографии. [http://www.photoisland.net/pi\\_hist\\_text.php?lng=1&hist\\_id=374](http://www.photoisland.net/pi_hist_text.php?lng=1&hist_id=374).



**Shahribonu TOHIROVA,**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti xorijiy tillar fakulteti xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi*

## **OLY TA'LIMDA CHET TILLARNI SAMARALI O'QITISHDA JAHON TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH USULLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'limda chet tillarni samarali o'qitishda jahonning ilg'or tajribalaridan foydalanish tahlil qilinadi. Bunda turli mamlakatlarda chet tili o'qitish usullari, afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** chet tili o'qitish, oliy ta'lim, jahon tajribalari, ilg'or o'qitish usullari, ta'lim strategiyalari, texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, loyihaga asoslangan ta'lim, madaniyatlararo muloqot.

**Annotation.** This article analyzes the use of world best practices in the effective teaching of foreign languages in higher education. At the same time, the methods, advantages and disadvantages of teaching a foreign language in different countries will be considered.

**Keywords:** foreign language teaching, higher education, global experiences, advanced teaching methods, language education methods, comparative analysis, educational strategies technology, communicative approach, project-based learning, intercultural communication, personalized learning.

**Аннотация.** В данной статье анализируется использование передового мирового опыта в эффективном преподавании иностранных языков в высшей школе. Вместе с тем рассматриваются методы, преимущества и недостатки преподавания иностранного языка в разных странах.

**Ключевые слова:** преподавание иностранных языков, высшее образование, мировой опыт, передовые методы преподавания, методы обучения языкам, сравнительный анализ, образовательные стратегии, технологии в обучении языкам, коммуникативный подход, обучение на основе проектов, межкультурная коммуникация, персонализированное обучение.

Globalizatsiya jarayoni dunyo miqyosida ta'lim va kommunikatsiya usullarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bugungi kunda chet tili, xususan ingliz tili oliy ta'lim tizimida talabalar uchun nafaqat akademik faoliyatda, balki kasbiy va ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliy ta'limda chet tillarni samarali o'qitishning ilg'or metodikalarini ishlab chiqish va jahon tajribalaridan foydalangan holda o'qitish jarayonini takomillashtirish zarur.

Dunyoning rivojlangan davlatlari ta'limda texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Masalan, Finlandiya va Shvetsiya kabi Skandinaviya mamlakatlarida chet tillarni o'qitishda interaktiv va onlayn ta'lim platformalaridan keng foydalaniladi. Duolingo, Quizlet, Kahoot, Edmodo kabi onlayn resurslar yordamida talabalar o'z vaqtida va individual tarzda til o'rganish imkoniyatiga ega [8]. Ushbu platformalarda gamifikatsiya – o'yin usullaridan ham foydalaniladi, bu esa o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. 2022–2024-yillardagi yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalardan foydalanish orqali til o'rganishda motivatsiya oshmoqda va talabalar o'quv jarayoniga ko'proq jalb qilinmoqda. Blin o'z tadqiqotida tilni onlayn platformalar orqali talabalarga o'zlashtirishda shaxsiylashtirilgan yondoshuvlar taklif qilishning samarasini qayd etgan.

Oliy ta'limda chet tilini o'qitishning samaradorligini oshirish uchun jahon tajribasidan foydalangan holda interaktiv va onlayn platformalarni joriy qilish zarur. Talabalarga mustaqil ravishda tilni o'rganish imkoniyatini yaratish bilim va konikmalarini rivojlantirishda ularga yordam beradi.

Angliya, Kanada va AQSh kabi mamlakatlarda chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondoshuv (Communicative

Language Teaching, CLT) keng qo'llaniladi. Ushbu metod talabalarga tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki real hayotda, muloqotda ishlatish imkoniyatini beradi. Talabalar tez muloqotga kirishadi, suhbatlar, muhokamalar va rolli o'yinlar orqali tilni jonli ravishda o'rganadilar. Salahudin Karim so'nggi ilmiy tadqiqotlarida bu yondashuvning talabalar o'rtasida tilning foydalanuvchi ravishda o'rganishga undashdagi ahamiyatini ta'kidladi [7].

Oliy ta'limda chet tilini o'qitishda faqat akademik bilimni emas, balki tilni real sharoitda qo'llashni o'rgatish zarur. Talabalar uchun amaliy muloqot vaziyatlarini yaratish, masalan, ingliz tilida biznes muhokamalari, ilmiy taqdimotlar yoki virtual konferensiyalarni tashkil etish, til o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Kanada, Avstraliya va Niderlandiya kabi mamlakatlarda loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) metodikasi chet tili o'qitish jarayonida muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Bu metod talabalarni real dunyo muammolarini hal qilishda ingliz tilidan foydalanishga undaydi. Talabalar, masalan, ilmiy tadqiqotlar olib borish, maqolalar yozish, guruhli loyihalar ishlab chiqish orqali ingliz tilini o'rganadilar. Bu yondoshuv nafaqat tilni o'rganishga, balki talabalarni jamoada ishlashga, mustaqil fikrlashga va tanqidiy tahlil qilishga o'rgatadi [2]. Yangi 2023–2024 yillardagi ilmiy tadqiqotlar loyihaga asoslangan ta'limning o'qitishda talabalar faolligini va bilimga bo'lgan ehtiyojini yanada oshirganini ko'rsatmoqda. Vlasova 2023 yilgi ilmiy ishida, loyihaga asoslangan o'qitish talabalarni o'z bilimlarini mustahkamlashga, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam berishini ta'kidladi [10]. Oliy ta'limda chet tili o'qitishning samaradorligini oshirish uchun talabalarga loyiha asosida ingliz tilida real muammolarni hal qilish



imkoniyatini yaratish zarur. Bu metodika talabalar uchun tilni amaliy ravishda o'rganishga yordam beradi va ularning bilimini chuqurlashtiradi.

Shvetsiya va Singapur kabi davlatlar chet tillarni o'qitishda madaniyatlararo yondoshuvni qo'llashadi. Chet tili o'qitish faqat tilni o'rgatish emas, balki o'zaro madaniyatlararo tushunishni ham rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar tilni o'rgatish jarayonida boshqa madaniyatlar, ularning tarixiy va ijtimoiy sharoitlari bilan tanishadilar, bu esa ularning dunyoqarashini [2]. 2022–2024 yillardagi tadqiqotlar madaniyatlararo yondoshuvning talabalarning til o'rganish jarayonini o'zgartirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Kubotaning tadqiqotimadaniyatlararo kompetensiyani oshirish talabalarni global miqyosda faol va samarali muloqot qilishga tayyorlaydi [4]. Oliy ta'limda chet tilini o'qitish jarayonida talabalarni faqat til bilan emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va ijtimoiy ko'nikmalar bilan ham tanishtirish zarur. Madaniyatlararo muloqotga oid kurslar yoki seminarlarni o'tkazish talabalar uchun chet tilini o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarda chet tili o'qitishda shaxsiy yondoshuv va individual o'quv rejalari ishlab chiqiladi. Har bir talabaga uning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan o'quv materiallari va mashqlar taqdim etiladi. Bu yondoshuv

talabalar o'rtasidagi bilim farqlarini kamaytirishga va har bir talabaning o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishiga yordam beradi. 2022–2024 yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, individual yondoshuv talabalarning tilni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Liu va Huang o'z tadqiqotida talabalar uchun moslashtirilgan o'quv rejalari va shaxsiylashtirilgan yondoshuvlarning samaradorligini qayd etdi [5], talabalar uchun moslashtirilgan o'quv rejalari va shaxsiylashtirilgan yondoshuvlarning samaradorligini yozdilar.

Oliy ta'limda chet tili o'qitish jarayonida har bir talabaning o'ziga xos o'quv ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Buning uchun shaxsiy yondoshuvni joriy qilish, talabalar uchun individual o'quv rejalari ishlab chiqish, o'quv jarayonini yanada samarali va moslashtirilgan qilishga yordam beradi.

Oliy ta'limda chet tillarni samarali o'qitishda jahon tajribalaridan foydalanish, ta'lim jarayonini yanada sifatli va zamonaviy qilish imkoniyatini yaratadi. Texnologiyalardan foydalanish, kommunikativ yondoshuv, loyihaga asoslangan ta'lim, madaniyatlararo yondoshuv va individual yondashuvlarni birlashtirish orqali talabalar uchun til o'qitish jarayonini samarali qilish mumkin. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bunday ilg'or metodlarni qo'llash, talabalarni global miqyosda raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blin F. The Impact of Digital Platforms on Language Learning in Higher Education. *Journal of Educational Technology*, 2023. 42(3), 233-245.
2. Byram M., Feng A. *Teaching and Researching Intercultural Communicative Competence*. – Pearson Education, 2004.
3. Godwin-Jones R. *Emerging Technologies for Language Learning: Digital Tools for Language Teaching and Learning*. – Cambridge University Press, 2018.
4. Kubota R. Intercultural Competence and Language Education in Global Contexts. *Language and Intercultural Communication*, 2023. 3(1), 45–59.
5. Liu H., Huang J. Personalized Language Learning in Higher Education: A New Approach. *Journal of Language Education*, 2023. 29(2), 88–102.
6. Markham T. Project-Based Learning. In *Handbook of Research on Teaching and Learning with Technology*. – IGI Global, 2021.
7. Salahudin M., Karim M. Communicative Language Teaching in Higher Education: A Global Perspective // *Language Education Review*, 2022, 35(2), 112–128.
8. Stockwell G., Hubbard P. Some Emerging Trends in Mobile-Assisted Language Learning // *The CALICO Journal*, 2013. 30(3), 314–334.
9. Thomas J.W. (2019). Project-Based Learning: A Review of the Literature // *International Journal of Education Research*, 101, 51-64.
10. Vlasova M. Project-Based Learning in Foreign Language Teaching: Benefits and Challenges // *Educational Innovations Journal*, 2023,16(1), 26–38.

Dilnoza YULDASHEVA,  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

## PERIFRAZALARNING O'RGANILISHI JARAYONIDA YUZAGA KELGAN ILMIIY QARASHLAR VA ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

**Annotatsiya.** Maqolada perifrazaning tilshunoslikdagi o'рни va rivojlanish tarixi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, unda mavzuga oid ilmiy qarashlar metodologik o'zgarishlar ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, ifoda-tasvir vositalari, ko'chmalar, troplar, perifraza, perifraz, parafraza, tasviriy ifoda, perifrazalarning metonimiya, metafora bilan munosabati, perifrazaning grammatik xususiyati, perifrazaning uslubiy xususiyati.

**Annotation.** The article provides detailed information about the role of periphraze in linguistics and the history of its development. It also covers scientific views and methodological changes on the topic.

**Keywords:** direct and figurative meaning of the word, means of expression, metaphors, tropes, periphraze, periphraze, paraphrase, figurative expression, connection of periphraze with metonymy, metaphor, grammatical features of periphraze, stylistic feature of periphraze.

**Аннотация.** В статье подробно рассказывается о роли перифразы в лингвистике и истории ее развития, освещаются научные взгляды и методологические изменения по теме.

**Ключевые слова:** прямое и переносное значение слова, средства выражения, метафоры, тропы, перифраза, парафраза, образное выражение, связь перифразы с метонимией, метафора, грамматические особенности перифразы, стилистическая особенность перифразы.

So'z ma'nosining kengayishi va ko'chgan holda qo'llanilishi tilning, ayniqsa, lug'at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biri. So'zni ko'chma ma'noda qo'llash – lug'at boyligini ko'rsatuvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita. Tasviriy ifoda ko'proq ot va sifat turkumiga mansub. Ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (aql gimnastikasi – matematika, shaxmat) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo'llanilishi (zangori ekran, oynayi jahon – televizor) mumkin» [1: 191–192]. Abituriyentlar uchun mo'ljallangan «Zamonaviy ona tili deb nomlanuvchi mavzulashtirilgan lug'atda «tasviriy ifoda atamasiga yuqoridagi berilgan ta'rif-u izohlar aynan takrorlanadi [2: 83–84].

Umuman olganda, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda, shu fanlarga doir o'zbek tilida nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida, lug'atlarda perifrazalarga berilgan ta'riflarda aniqlik va bir xillik yetishmaydi, ularning asosiy qismi ruscha lug'atlar va qo'llanmalardagi fikr-mulohazalarning biroz o'zgartirilgan tarjimasidan boshqa narsa emas. Bunga ishonch hosil qilish uchun quyida keltirilgan ta'rifu tavsiflarning ayrimlarini o'zaro qiyoslashning o'zi kifoya:

1. «Kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilishga perifraza deyiladi» [3: 87].

2. «Narsa va hodisalarning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab ko'rsatuvchi vositalar yordamida bayon qilish perifraza deyiladi» [4: 107].

3. «Perifraza, perifraz (yun. periphraze – tasviriy ifoda, kinoya, istiora) – borliqdagi narsa va voqealarning nomini to'g'ridan to'g'ri atamasdan, ularni bilvosita, ya'ni

turli xil so'z va tasviriy iboralar bilan ifodalash, majoziy ifodalardan biri (masalan: *sher* o'rnida *hayvonlar shohi*, *paxta* o'rnida *oq oltin*, *Alisher Navoiy* o'rnida *o'zbek adabiy tilining asoschisi* iboralarning qo'llanilishi). Perifrazada tasvirlanayotgan tushunchaning ayni matn va vaziyat uchun eng muhim sifati, belgisi, xususiyati birinchi o'ringa qo'yiladi. Perifrazaning asosiy vazifasi matnning ifodaviyligi, bayonning ta'sirchanligini oshirishdir.

Perifrazalar asosan badiiy adabiyot tilida, publitsistik va og'zaki nutqda uchraydi, ilmiy nutqda esa tasviriylikdan xoli bo'ladi va termin sifatida qo'llanadi. Funktsional jihatdan perifrazaning ikki turi farqlanadi: hamma tomonidan qabul qilingan, hamma tushunadigan perifrazalar (frazologizmlar, hikmatli iboralar) va vaziyatga bog'liq bo'lgan, mazmuni, ma'nosi muayyan matndagina aloqador bo'lgan individual perifrazalar (bularning ba'zilari izchil qo'llanish natijasida birinchi turdagi perifrazalar qatoriga o'tadi). Shu bilan birga badiiy, obrazli perifrazalar (*oq oltin – paxta*, *zangori olov – gaz*, *po'lat qush – samolyot*) va mantiqiy perifrazalar (masalan, evfemizmlar, tabular) o'zaro farqlanadi. Aksariyat perifrazalar otli birikmalar bo'lib, metafora, metonimiya, sinekdoxa singari ko'chmalar asosida yuzaga keladi» [5: 43–44].

4. «Perifraz – majozlarning bir turi bo'lib, nutqning ifodaviyligini oshirish maqsadida predmet, odam, voqea-hodisalar nomini ularning ma'nosini, xususiyatlarini ifodalovchi boshqa so'z iboralar bilan almashtirish usuli. Masalan, *burgut* so'zi o'rniga – *qushlar podshosi*, *O'zbekiston* so'zi o'rniga *oq oltin koni*, *paxtakor* so'zi o'rniga *oltin qo'llar* so'zlarining qo'llanilishi perifrazalardir» [6].

5. Rus poeziyasida qo'llangan ot perifrazalarning ilmiy tahlili bilan maxsus shug'ullangan L.N.Sinelnikova talqiniga ko'ra «perifraza ilmiy emotsional-ekspressiv birlikdir. U





badiiy nutqda, ayniqsa poeziyada minimal leksik vosita bilan maksimal ta'sirchanlikni qo'lga kiritish imkonini beradi» [7, 8].

6. A.Kvyatkovskiy perifrazalarni «kengaytirilgan, yopiq metonimiyalar» deb nomlagan edi [8, 209].

7. X.R.Qurbatov esa perifrazalarda ham metaforaga, ham metonimiyaga yaqin holatlar mavjudligini ta'kidlab, tabularning evfemizmlar bilan almashtirish hodisasini ham perifrazalarning bir ko'rinishi deb hisoblagan edi [9, 93].

8. Tilshunos olim Sh.Balli esa bu hodisani shunday ta'riflaydi: «Fikrning keng shaklda takrorlanishi odatdagi terminologiyada perifraza deyiladi» [10: 126].

9. I.V.Arnold ham perifrazani pretmet, voqea-hodisaning nomini uning biror xarakterli xususiyatini ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qiluvchi tasviriy oborot bilan almashtirish san'atiga asoslangan trop (ko'chim), deb hisoblaydi [11: 88].

10. F.Salayev, G.Qurboniyozov tomonidan tuzilgan «Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi»da bu tasviriy vosita uchun «perifraz» atamasi qo'llanib, quyidagicha izohlangan: «Perifraz – (yunoncha periphraasis – yaqin gapiraman) tasvirlanayotgan narsa, tushuncha yoki insonni o'z nomi bilan emas, unga xos belgi, xususiyat nomi bilan atashga asoslangan ko'chim turi. Masalan: *Ohang varaqlaydi dunyoni, // Dunyo – o'qilmagan bir kitob* (R.Parfi).

Perifraza she'riy nutqqa tasviriylik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi, she'rxonning badiiy didini o'stiradi, tevarakdagi narsa va hodisalar mohiyatiga qiziqishni oshiradi [12, 182-183]. Shoir Uyg'unning urush davrida yaratilgan «*Qarg'ish*» she'rida vatandoshlarning bosqinchilarga bo'lgan nafrati ushbu tasviriy vosita orqali yanada qabariq va ta'sirchan ifodasini topgan: *Ket! Yo'qol, Gulshanni ezma! // Toptama bog'imni mol. // Bulg'ama, hayvon, kasofat, // Lolazorimdan yo'qol!*

11. M.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, «parafraza (ayrim adabiyotlarda perifraz, parifraza) deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Parafraza deb narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterlovchi

belgi-xususiyatlari asosida tasviriy yo'l bilan ifodalashga aytiladi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday narsa hodisa nomini boshqa ibora bilan aytaverish kutilgan effektini bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom-ibora o'rtasida muayyan mazmuniy aniqlik bo'lishi lozim. Masalan, *uchuvchilar – samo lochinlari, akula – suv osti hukmdor, she'r – hayvonlar sultoni, Samarqand – Sharq darvozasi, teatr – ma'naviyat o'chog'i, yoshlik – sevgi fasli* kabi [13: 82].

12. S.Sultonsaidova va Y.Sharipovanning «O'zbek tili stilistikasi» nomli o'quv qo'llanmasida bu trop turi «perifraz» deb nomlanib, quyidagicha izohlangan: Perifraz bu grekcha so'z bo'lib, atrof, boshqacha gapiraman degan ma'nolarni bildiradi. Narsa va hodisalarning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab ko'rsatuvchi vosita yordamida bayon qilish perifraz deyiladi. Masalan: *Sohibqiron bobokalonimiz* – deganda ko'z oldimizga Amir Temur keladi. Yoki yana bir misol: *tibbiyot olamining asoschisi – Ibn Sino* [14: 72–73].

Bu misollarda *Sohibqiron bobokalonimiz, tibbiyot olamining asoschisi* perifrazlardir. Bunday perifrazlar nutqda ko'plab ishlatiladi: *g'azal mulkining sultoni – Alisher Navoiy, shodlik va baxt kuychisi – Hamid Olimjon, yor va diyor kuychisi – Zahiriddin Muhammad Bobur, Qadimgi So'g'diyonaning markazi – Samarqand* kabilar.

Ko'rinadiki, misollardagi nomlarni izohlovchi jumlar bilan nomlar o'rtasida mazmuniy jihatdan qandaydir yaqinlik va bog'liqlik sezilib turibdi. Shundan kelib chiqqan holda, biror nomni har qanday so'z yoki birikma bilan izohlash to'g'ri bo'lavermaydi, deb aytish kerak. Bunday ta'rif-u tavsiflarni yana keltirish mumkin. Ularning barchasi bilan tanishuv predmet, hodisa, insonni perifraza yoki perifraz bilan nomlash faqat ot so'z turkumiga xos ekan-da, degan fikrga olib keladi. Lekin inson juda qadimdan predmetning belgisi, holat, va harakatini boshqacha nomlab, frazemalar (frfzamalar) bilan ham ifodalab kelgan. Masalan, sezgir so'zi ma'no jihatdan *yer tagida ilon qimirlasa, biladigan frazemasiga, zabardast, pahlavon* so'zlari esa *tog'ni ursa talqon qiladigan* frazemasiga mos keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B., Xoliyorov O., Qodirova X. Ona tili (maktab o'quvchilari uchun) Qomus. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
2. Mengliyev B., Xoliyorov O., Qodirov X. Zamonaviy ona tili (mavzulashtirilgan lug'at). – Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.
3. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977.
4. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi -7 tom
6. Boboyev T. «Adabiyotshunoslikka kirish» kursi bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent, 1979. – B. 160.
7. Синельникова Л.Н. Именная перифраза в языке современной поэзии. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1975.
8. Квятковский А. Поэтический словарь. – М.: Наука, 1966. – С. 209.
9. Курбатов Х.Р. Татарская лингвистическая стилистика и поэтика. – М.: Наука, 1978.
10. Балли Ш. Французская статистика. – М. Изд-во иностранной лит-ры, 1960.
11. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – М.: Просвещение, 1990.
12. Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi nasr avlodi, 2010.
13. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent. Fan, 2007.
14. Sultonsaidova S., Sharipova O. O'zbek tili stilistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2009.

**Oqiljon MAVLONOV,**

*faxriy pedagog,*

*Farg'ona viloyati O'zbekiston tuman*

## BIR BAYT SHARHI

**Annotatsiya.** Maqola Navoiyning mashhur «Qaro ko'zum» g'azalining badiiy tahliliga bag'ishlangan. Unda shaxsiy munosabatlar, o'xshatishlar ustunlik qiladi.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, g'azal, oshiq, yor.

**Annotation.** The article is devoted to the artistic analysis of the famous Navoi ghazal «Qaro kuzum». Personal relationships and analogies prevail in it.

**Keywords:** Navoi, gazelle, beloved, beloved.

**Аннотация.** Статья посвящена художественному анализу знаменитой газели Навои «Каро кузум», в которой преобладают личные отношения и аналогии.

**Ключевые слова:** Навои, газель, возлюбленный, возлюбленная.

«Izlagan – topadi» deganlaridek, maqolamizda hazrat Navoiyning «Qaro ko'zum» g'azali borasida suhbatlashishni niyatladik. Ushbu g'azal «ilm-ma'rifatda eng ko'p va har tomonlama chuqur tadqiq etilgan asarlardan biridir» (N.Jumayev). Darhaqiqat, g'azalni bizga qadar o'nlab mutaxassislar, navoiyshunoslar tahlil qilishgan. Ularning har biri navoiyshunoslik uchun bebaho sharhlardir. Lekin Navoiyga oshiq kitobxon sifatida shoir devonidagi g'azallarni o'qir ekanman, shu g'azal borasida yana aytilishi lozim mulohazalar bordek tuyulaveradi... Shu kungacha bu bayt yuzasidan qilingan tahlillarda ikkita savol oxirigacha o'z javobini to'liq topmagandek: 1. Qorako'z nega oshiq ko'zi gavharida **vatan tutmog'i** lozim? 2. Qora ko'zli yor nega **mardumlig'i** qilmog'i kerak? G'azalning ikkinchi bayti shu:

*Chehrasiga miyzbon o'lsun ko'zum, ul chehrani,  
Ko'zlarim uyidin o'zga uyga mehmon aylama.*

Baytning ikkinchi misrasini, so'ng matla'ning ikkinchi misrasini ham qayta o'qing:

*Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.*

Ana endi har ikki misrani so'zma-so'z solishtirib boraylik: «**Ko'zum qarosida**» – «**Ko'zlarim uyida**»(n), «**mardum kibi** – «**o'zga uyga**» (o'zga mardumga), «**vatan qilg'il**» – «**mehmon ayla**»(ma). Mana barchasi kundek ayon bo'ldi-qoldi. Demak: «**Ko'z qarosida mardum kibi vatan qil**»moq oshiq uchun yor chehrasi «**Ko'zlar uyi** (gavhari)**din o'zga uy**(qorachiq) **ga mehmon aylama**»slik ekan. Shu qadar jo'n, shu qadar oson ekan barchasi.

Voqean, o'zi ma'shuqa chehrasiga «miyzbon bo'lmoq» iborasi ham mantiqan yor ko'zi qorasi (lavhi) da «vatan tutmoq» manosini berish uchun qo'llanilayotgani oydek ravshan. I-437-g'azalda esa shoir «Ko'zumda ul oy **mardum o'rnini tutti**» degandi. O'ylab qarasaq, oshiqning «Chehrasiga miyzbon o'lsun ko'zum» (ul

chehrani) degan visol ilinjining yana bir alternativ-ziddiy ma'noviy muqobil variant ifodasi «**Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il**» bo'ladi. Dastlabki misrada oshiq o'z siymosini yor ko'zi lavhidan o'rin tutishini istayotgan bo'lsa, keyingi holatda ziddini – oshiq endi o'z ko'zi qarosida Yor chehrasi suvrati naqshlanib vatan tutmog'ini xohlamoqda.

Kuzatishimizcha, «ko'z uyi», «ko'z lavhi», «mardumlar ichi», «mardum o'rnini tutmoq» (mardumak, qarog') singari birikmalar shoir ijodida uchrab turuvchi timsollardir. Masalm, II-578-g'azalda quyidagicha beriladi:

*Ko'ngluma xoling xayoli kirsamardumlug' qilib,  
Ko'z uyida ani mardumlar ichinda asratay*

Diqqatga sazovori bu misrada «ko'z uyi» – «mardumlar ichi» shaklida so'z o'yini qilinmoqda. Har ikki g'azalda (II-530-, 578) «ko'z uyi» birikmasi va «mardumlar ichi» mazmunan «**vatan qilg'il**» birikmasi o'rniga qo'llanmoqda. Hatto 578-g'azal misrasidagi «**mardumlar ichinda asratay**» birikmasi «**mardum kibi vatan qilg'il**» birikmasining aynan **birga-bir ma'noviy takror ko'rinishi ekani** yaqqol ayonlashmoqda. Bu misrani ham solishtirsak: «**Ko'z uyida**» – «**Ko'zum qarosida**», «**mardumlar ichinda**» – «**mardum kibi**», «**ichinda asratay**» – «**vatan qilg'il**», («ani» – yor xolini) bo'ladi. Demak, «Qoro ko'zum»dagi bu bayt tahlili uchun juda tagdor, jimjimador izohlarga hojat yo'q ekan... Shunchaki oshiq yigit o'z sevimli qiziga: «Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il», ya'ni: «Ko'zlarim uyi (qarog'i)din o'zga uy (gavhar)ga mehmon aylama» (vatan tutma)g'il yoki «Ko'z uyida ani (chehrangni) mardumlar ichinda asratay» demoqda. Bu har ikki misra «Qaro ko'zum» g'azali 2-misrasining aynan birga-bir ma'noviy takror muqobil ifodasi ekanligi isbotlanmoqda.

Endi, ikkinchi savol: Qiz nega mardumlig' ko'rsatmog'i zarur? Shoir ijodida Yorning ikki ko'zi oshiqqa ikki xil: biri ishvgar va nozli, qiyo boquvchi va sehrgar, sho'x



va g'amzali; ikkinchisi esa yaxnigoh va qotilvash, mardumkush va badfe'l, qattol va zulmkor.

G'azallarda ishq yo'lida Yor nozidan ko'ra jafokorligi ko'proq qayd etiladi... Albatta, shunday vaziyatda g'amzada oshiq manzurdan niyozmandlik qilib oh-u zor, ajzu niyoz qilish yo'lidan emas, **mardumlig' shevasidan** borishni tanlaydi va mahjubani ham shu yo'lni **fan qilmoqlikka** chaqiradi: «Qaro ko'zum, kel u mardumlig' emdi fan qilg'il! Endi, II-578-g'azalning 6-baytiga o'tamiz:

*Ko'ngluma xoling xayoli kirsam mardumluq qilib,  
Ko'z uyida ani mardumlar ichinda asratay.*

Ko'ryapsizki, bu baytda **mardumlig' borasida ma'shuqaga oshiqning o'zi ibrat** ko'rsatmoqda... Keling, shu baytni manzuraga nisbatan **shartli** shunday qo'llaylik:

*Ko'zungga yuzum xayoli kelsa mardumluq qilib,  
Ko'z uyi (ng) da ani mardumlar ichinda asrat (gin).*

Mana, ... **mardumlig' emdi fan qilg'il**ning oshiq orzulayotgan ma'nisi to'liq ochildi. Misradagi bu «mardumlig'ni insoniylik, odamgarchilik, marhamat, muloyimlik, ma'shuqaparastlik, qisqasi, **ezgulik** deb bilaylik. Xullas, **yaxshilik** qilmoqlik shevasida qo'llanmoqda... Demak, oshiq yorni **mardumlig' faniga** chaqirish orqali kofirlik, jallodlik, oshiqkushlik, qotilvashlik, xunxo'rluk kabi illatlarni tashlab odamiylik, odamoxunlik, mardumdorlik yo'lni **fan etmoqlikka chorlamoqda**. Ko'rinadiki, shu asoslarga ko'ra yor ham bu chaqiriqqa javoban **mardumlig'** qilmog'i lozim ekan... Shoirning I-238-g'azalidan parcha:

*Oshiq [Navoiy] ko'zlaring mardumidin javri qon to'kdi,  
Darig' ul sho'xi mardumkushki, mardumdorlig' istamas.*

So'zsizki, yor mardumkushligidan ashki qon to'kayotgan oshiq qattol, sho'x dilbardan bir zorlig'-u bir yorlig' istab, g'amzada bedorlig'iga bir g'amxo'rlig' istab, mardumlig'(muloyimlik) shevasi bilan bir dildorlig' istab undan «**emdi**» –bundan buyog'iga «**mardumlig'**» «**fan qil**»mog'ini so'ramoqda: «Qaro ko'zum, kel-u emdi mardumlig' fan qilg'il!» Gapning «**emdi**»si ham bor ... Ya'ni yetar shuncha jabr-u jafo... Dard-u g'amdan bezillab qolgan g'amzada oshiq qahri qattiq dilozor yordan mardumlig' talab qilishi tabiiy hol.

*Qaro ko'zim, mardumlig'din o'zgasin fan sa'ylama,  
Ko'zlarim uyidin o'zga uyga mehmon aylama.*

Yoxud yana II-644-g'azalda oshiq «**mardumdorlig'**» – mumoyimlik shevasini umid qilmoqda. Yorning oyini –

odati esa muloyimlik fazilatlarini fanini aslo bilmasligi, unga amal qilmasligi, undan mutlaq mosuvoligida ekan .

*Husnig'a boqtim ko'zumning mardumig'a urdi nesh,  
Mahvashim oyini mardumdorlig' bilmas, netay*

*Kitobxon to'liq tushunmog'i uchun haddim sig'ib  
hazrat baytiga bir misra qo'shib ham yubordim...  
(O'ylanmanki, muxlisona harakatim bir sariq matbuotga asos bo'lmaydi)*

Shoir ko'z qarog'i – mardumakni «ko'z uyi», «**ko'z ichra**», «mardumlar ichi», «ko'z lavhi», «**vatan**» deb ataganini kuzatish mumkin. Masalan, I-504 –g'azalda:

*Qaro menging bila qading xayoli kelsa, vatan  
Munga ko'z ichra yasay, anga jon aro qilayin, –  
deydilar .*

Baytdagi «menging» so'zi o'rniga **shartli** «ko'zing» so'zini qo'yib **ko'ring**:

*Qaro ko'zing bila qading xayoli kelsa, vatan  
Munga ko'z ichra yasay, anga jon aro qilayin...*

Demak, shoir bu baytda «ko'z ichra» deganida «ko'z gavharida», «ko'z mardumida» yoxud «ko'z ichra», ya'ni «**ko'z uyi**» (qorachig'i)dan **o'rin – vatan qilayin**, demoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, «**Ko'z qarosida mardum kibi vatan qil**»moq «**Mun (yor timsoli)ga ko'z ichra**» ... **vatan yasamoq** ekan. Bu misradagi «**vatan**» so'ziga juda tagdor, dabdabali izohlar berishning ham aslo hojati yo'q... Barchasi oddiy, barchasi Navoiyga xos tashbehlar. Alhosisil, kuzatilgan iqtiboslardan kelib chiqib «Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il» misrasiga **muqobil, ma' nosi birga-bir mos keluvchi ifodalar** shoir lirikasida mavjud ekan ... Yuqorida eslaganimiz 578-g'azalning 6-baytidagi «*Ko'ngluma holing*» birikmasi o'rniga «*Ko'zima jamoling*» birikmasini **shartli** qo'yib o'qib ko'rsak:

*Ko'zima jamoling xayoli kirsam mardumlig' qilib,  
Ko'z uyi (m) da ani mardumlar ichinda asratay...*

Ko'rinadiki, fikrimiz ikkinchi bor yana isbotini topmoqda: «**Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il**» misrasi «**Ko'z uyi (m)da ani mardumlar ichinda asratay**» misrasining **aynan alternativ ma'noviy muqobili ekan...**

Xulosa shuki, shoir o'z g'azallarida bir fikrni turlicha yo'sin, turlicha ifodaviy usul, turlicha tashbehlar orqali ifodalash imkonlaridan unumli foydalangan. Barcha savollarga javob shoirning o'z bisotlarida mavjud ekan. Faqat kitobxon devonlarni sabr bilan, sinchkovlik bilan mutoalaa qilmoqi lozim.

**Dilnurabonu VAYISOVA,**  
*Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti*

## «URUSH ODAMLARI» QISSASIDA NORMAT OBRAZINING JISMONIY VA RUHIY TASVIRI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada istiqloq adabiyotining yirik vakili Nazar Eshonqul qalamiga mansub «Urush odamlari» qissasining yetakchi obrazi Normatning jismoniy va ruhiy holati tahlil qilinadi. Normatning urush davridagi taqdiri, xatti-harakatlari, qiyofasi, psixologiyasi va ruhiyatining tasvirlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** urush davri, adabiyot, xarakter, ruhiyat tasviri, obraz.

**Annotation.** In this article, the physical and mental state of Normat, the leading character of the short story «People of War» written by Nazar Eshanqul, a great representative of independence literature, is analyzed. Images of Normat's fate, behavior, image, psychology and spirit during the war are highlighted.

**Keywords:** wartime, literature, character, mental image, image.

**Аннотация.** В данной статье анализируется физическое и психическое состояние Нормата, главного героя рассказа Назара Эшонкула «Люди войны», крупного представителя независимой литературы. Выделены образ судьбы, поведение, психология духа Нормата во время войны.

**Ключевые слова:** военное время, литература, персонаж, душевное состояние, образ.

Urush mavzusida yaratilgan asarlarda urush davrining mashaqqatli kunlari, urushning dahshatlari, qahramonliklari, fojialari hamda insoniylik fazilatlarini aks ettiriladi. Shunday salmoqli asarlardan biri zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Nazar Eshonqul qalamiga mansub «Urush odamlari» qissasi. Nazar Eshonqul asarga bir taraflama qaramaydi. Balki, ijodkor ushbu qissasida urushning insoniyatga yetkazgan jismoniy zararlarini hamda unga yonma-yon tarzda inson ruhiyatiga o'tkazgan salbiy holatlarni qalamga oladi. Asosiy o'rinda inson va uning qadri ulug'lanadi, ko'klarga ko'tariladi. «Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir» [1: 90]. Obraz har qanday asarni asar sifatida shakllantiradi. Har bir asarda shunday qahramonlar va qahramonlarga xos xususiyatlar, xarakterlar tizimi mavjud. «Urush odamlari» qissasining bosh qahramoni tersotalik Normat polvon hisoblanadi. Normat polvon qirq to'rtinchi yil qoraxat kelganidan roppa rosa bir yildan so'ng bir oyog'idan ayrilgan holda urushdan qaytadi. Uning faqat bir oyog'i topig'ining usti kesib olingan va o'rniga yasama oyog' o'rnatilgani sabab cho'loq bo'lib qolgan edi. Urushga ketishdan avval Normat polvon norg'il, barvasta, suyagi yirik, qishloq chavandozi, qomatidan kuch yog'ilib turgan, endi o'ttizdan oshgan deya ta'riflangan. Lekin urushdan qaytgach, ozib, mushaklari shalvirab, bo'yin tomirlarida ajinlar paydo bo'lib, yara izlari qolgan, ko'rinishidan ellikni bersa bo'ladigan, sochlari oqargan obraz sifatida gavdalantiriladi.

Bu o'rinda ijodkor urushning insoniyatga yetkazgan jismoniy va ruhiy zararlarini yoritib beradi. Uning urushda chekkan azob-uqubatlari, jismoniy va ruhiy jarohatlarining dalili sifatida jismonan zaiflashgan, hatto yoshiga nisbatan ancha qariroq tusga kirib qolgan obrazning tashqi ko'rinishini kitobxonga yetkazib beradi.

Qissada Normat polvon Sharif chavandozga qarata: «Qo'y o'zimizning dehqonchilik yaxshi. Yerni sog'inganman.

Tushlarimga kirib chiqadi yer. Urushda ko'p qon to'kdim, buni yuvishim kerak... Bo'lmasa odam qoni tutadi» [2: 13] degan fikrlarni aytib o'tadi. Bu jarayonda Normat polvonning ichki holati chuqur mushohada qilinmoqda. U boshidan kechirgan urush dahshatlari, ko'p qon to'kkanligi holati uning vijdonini qiynamoqda. Qahramonning ichki olami sofliqini, vijdoni mavjudligini ko'rsatyapti. Yana qahramonning «yerni sog'inganman», «tushlarimga kirib chiqadi yer» kabi so'zlari uning tinch va osoyishta hayotiga hech nima arzimasligini, bir qarich vatan yeriga hech nima teng bo'lolmasligini uqtiryapti. Shu bilan birga, «buni yuvishim kerak... Bo'lmasa odam qoni tutadi» degan gapi uning vijdon azobi, ichki izzitoblari, urush natijasida qalbida paydo bo'lgan og'ir qiynoqdan qutulishga intilishini anglatadi. Bu holat qahramonning ruhiy kechinmalarini, urushning inson ongi va qalbiga solgan jarohatini, shu bilan birga, tinchlik va ezgulik sari bir qadam oldinga intilishlarini, tinchlik, farovonlikning qadriga yetishni yorqin aks ettiradi. Bu o'rinda Normat polvon vijdonli obraz sifatida gavdalanadi. Qissada qahramonning do'sti bilan suhbatida qaysarligini, xotini bilan muloqotda biroz soddaligini, ba'zan jiddiy inson ekanligini, ba'zi hollarda esa uning bolalarcha orzu qilishlarini uchratamiz. Normat nomusli odam, o'zining o'zligidan uyalishni va bundan qiynalishini bilardi. Shu sababli, u nafaqat vijdon azobini, balki o'zining ichki zaifliklarini ham yengishga harakat qiladi. Urushda ko'p qon to'kkanidan qiynalgani, o'z gunohlarini yuvishga intilishi uning odamiyligidan yaqqol dalildir. Sinovlarda o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Normat polvon farzandlarining o'qimishli, katta insonlar bo'lishini, ularning rohatini ko'rishni orzu qiladi. Bu jihat qahramonning farzandparvar ekanligini aks ettiradi. U o'zi boshidan kechirgan qiyinchiliklarni farzandlari ko'rmasligini xohlaydi. Normat bosiq, har qanday vaziyatda o'zini tuta oladigan, lekin fe'li kelsa, otasini ham ayamaydigan inson. Urush, nazarida Normatni ham yenggan, ko'p javraydigan, feli tor odam qilib qo'yan. Normat bir paytlar o't olov bo'lgan, mohir chavandoz bo'lgan.





Urushdan qaytgach, bulardan asar ham qolmagandi. Bu o'rinda biz urush qahramonning fe'l-atvoriga, ruhiyatiga hamda jismoniy holatiga zarar yetkazganini ko'ramiz. Ilgari u dadil odam bo'lgan, lekin urush uni o'zgartirgan. Urush xuddi oyog'ing ostidagi ko'chib turgan toshga o'xshaydi, ko'tarsang ham o'lasan, ko'tarmasang ham. Normat polvon urushda bo'lgan payti uning xotini Anzirat boshqa kimsaga tegib ketgan bo'lsa o'zini Buxor qoyasidan tashlab tilka pora qilishi, bu nomussizlikka chiday olmasligi, hamisha tekkizmay otishga harakat qilishi, urushdan qaytgach, dehqonchilik qilishi, butun dunyoga yetadigan bug'doy ekishi, yig'ib olingan bug'doyni tekinga berishi, har bir boshog'ga odamlarni totuvlikka chaqiradigan qo'ng'iroq osib qo'yish kabi narsalarni orzu qiladi. Qahramonning ichki dunyosini anglash mashaqqatli. Xotini Anziratning xiyonati Normat uchun nomus masalasi bo'lib, bunga chiday olmasligi, hatto joniga qasd qilishga tayyorligi uning o'zbek qadriyatlariga sodiq ekanligini ko'rsatadi. Butun urush davomida orzularida yashashni, insonlarga totuvlikni, ahillikni ulug' ne'mat sifatida yoyishni orzu qiladi. Bu esa Normat polvonning ichki kechinmalarini ochib beradi. Uning ruhiy olami murakkab va og'riqli.

Normat polvon xotinidan xiyonat ko'radi. U urushda payti xotini Anzirat Mirzaqul bilan xiyonat qiladi. Haqoratlanadi, mish-mishlar girdobida qoladi. Odamlarning gap so'zlarini ko'tara olmay qishlog'ini tashlab ketadi. Uning aziyatli va xasta ko'ngli urushdan oldingi oriyatli Normat polvonni sindirib tashlagan, hamma narsaga ko'nikkan va taslim bo'lgan edi. Normat polvon xotinini farzandlari uchun kechirmoqchi bo'ladi. Lekin Biydi momoning haqoratlashlaridan keyin u xotini va Mirzaqulni o'ldirishga o'tlanadi. Normat g'azab otiga mingan, tovushi yovvoyi ohangda edi. Ko'ziga qon to'lgan, butun vujudida qaltiroq. U nafrat va jirkanch aralash to'rt yildan beri vujudini bulg'ab yotgan manfur so'zni aytdi: «Fashist! Fashist... Sizlar fashistsizlar!» [2: 109] Normat polvon g'azab, alamdand shivirladi. Chunki uning qalbi tahqirlangan, haqoratlangan edi. Miltiqni o'qladi va Mirzaqulni otib tashladi. Avzoyi vahimali tusga kirgan, chakka tomirlari bo'rtib chiqqan, og'zining ikki chekkasidan sarg'ish, quyuq ko'pik chiqayotgan edi. Uning ko'ziga na farzandlari, na jon talvasasidagi Mirzaqul, na xotini ko'rinardi. U allaqachon o'zini urushda deb o'ylar, faqatgina qanday otishni o'ylardi. U xotinini ham o'ldirgandi. Uch kundan keyin qishloqqa kelgan militsionerlar Normat polvonni qidirishadi. Lekin topa olishmaydi. Faqat bir haftadan keyingina Buxor qoyalari ostidan bo'rilar g'ajib tashlagan, peshonasi yorilgan, qo'llari sinib, panjalari musht bo'lib tugilgan jasadini topadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, Normat polvon oldin qanchalar kuchli, baquvvat, oriyatli bo'lgan bo'lsada, urush va uning zararlari qahramon ruhiy dunyosini sindirib tashladi. Jismoniy tarafdama jarohatlangan qahramon endi ruhiy jihatdan kuchli zarba olgan edi. U shafqatsiz tusga aylangan

edi. Uning qalbi tahqirlangan, uni nafrat va alam egallagan edi. Bu tasvir orqali urush insonni nafaqat jismonan, balki ruhan ham yo'q qilishi mumkinligi oydinlashadi. Normat polvon «Fashist! Fashist... sizlar fashistsizlar!» -deya shivirlashi uning ruhiyatidagi chuqur nafratni ochib beradi. Bu yerda fashist so'zi shunchaki urushda kurash olib borgan dushmanlariga emas, balki unga azob bergan, hayotini barbod qilgan, qalbini haqoratlagan, farzandlarini tirik yetim qilgan kishilarga nisbatan aytilgan haqorat sifatida ishlatilgan. Uning butun ongini nafrat va qasos egallagan. Bu esa inson tafakkurining urush natijasida buzilishi, o'zini nazorat qilolmaslik darajasiga yetganlik belgisi. Hamma narsaga shu sabab edi aslida. Agar urush bo'lmaganda xotinidan xiyonat ko'rmasmidi, farzandlari tirik yetim bo'lmasmidi, qahramon bolalarcha qilgan orzularida yasharmidi nazarimda!. Yozuvchi Normat polvonning ichki kechinmalarini nihoyatda ta'sirchan tasvirlagan: «Ko'ziga qon to'lgan, butun vujudida qaltiroq», «og'zining ikki chekkasidan sarg'ish, quyuq ko'pik chiqayotgan edi». Bu tasvirlar qahramon ichki kechinmalari jismoniy holatida ham aks etganini ko'rsatadi. U batamom o'zini yo'qotgan, ruhan ezilgan, jismonan singan insonning portlashi edi. Urushning inson ruhiyatiga qiladigan dahshatli ta'sirini ko'rdik. Normat polvon shunchaki urushdan qaytgan askar emas – u urushning qurboni edi. Urush uning ruhiyatini tamom qilgandi. Oxir oqibatda qissa fojia bilan yakunlandi. Ushbu dramatik tasvir urushning insoniyat uchun naqadar og'riqli xotiralar qoldirganini yana bir bor ko'rsatib beruvchi ko'zgu'dir. Normat polvonning jasadi «Buxor qoyalari ostidan» topilishi ham bejiz emas. Chunki Normat polvon urushda payti xotini Anzirat boshqa kimga tegib ketgan bo'lsa, bunday nomussizlikka chidamay o'zini Buxor qoyasidan tashlab tilka pora qilishini o'ylagan edi. Uning o'limi faqat jismoniy emas, balki urush sabab toptalgan insoniylikning ramziy yakuni hamdir.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasi urushning inson qalbi va jamiyat hayotida qoldirgan salbiy asoratlarini qoralovchi zamonaviy o'zbek adabiyotining ta'sirchan asaridir. Muallif qissa voqealarini yoritishda ham jismoniy, ham ruhiy holatni e'tiborga oladi. Normat polvon urush tugaganidan keyin ham uning asoratlaridan qutula olmadi. Uning hayoti, his-tuyg'ulari va yaqinlariga bo'lgan ishonchi urushning zulmati ostida qolib ketdi. Bu esa urushning qanchalar chuqur iztiroblar qoldirganidan dalildir. Bosh qahramonning jismoniy va ruhiy olamini ezdi, hayotini izidan chiqarib yubordi. Qissa fojia bilan yakunlandi. Aslida bu urush Normat polvon fojiasi emas, balki insoniyat fojiasi edi. Bunday urushda g'olib yo'q chunki insoniyat aziyat chekdi. Qanchadan qancha oilalar buzildi, begunoh insonlarning qoni to'kilib, farzandlar yetim bo'lib qoldi. Asar qahramoni ham urush oqibatida jismonan majruh, ruhan o'lib bo'lgandi. Normat obrazi urushning haqiqiy qurboni edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. Nazar Eshonqul. Urush odamlari. – Toshkent: Sharq, 2008.

Mayram Hojiyeva,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
Respublika ta'lim markazi tabiiy fanlar bo'limi boshlig'i

## GEOGRAFIYA DARSLARIDA 3E, 5E, 7E TA'LIM MODELLARI ORQALI TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqoladan maqsad – geografiya darslarida 3E, 5E, 7E tadqiqot modellari orqali ta'lim strategiyasining ta'sirini o'rganish va ushbu modellarni amaliyotga joriy etish usullarini ko'rsatish. Modellar so'rovga asoslangan ta'limda amaliyotni osonlashtirishga yordam beradi, chunki o'quv sikllari konstruktivizmga qaratilgan. Bu modellar hodisalarni tushuntirish va tekshirish, dalillardan foydalanish, xulosalarni zaxiralash va eksperimental loyihalashga yordam beradi. Garchi ta'limning bir nechta o'quv modellari mavjud bo'lsa-da, ushbu 3E, 5E, 7E ta'lim modellari tadqiqotga asoslangan o'qitishni qo'llab-quvvatlash usuli sifatida ta'kidlangan sikllardir.

**Kalit so'zlar:** 3E, 5E, 7E tadqiqot modellari, eksperimental, sikl, muvaffaqiyat, tadqiqotga asoslangan o'qitish, amaliy mashg'ulotlar.

**Annotation.** The purpose of this article is to examine the impact of the 3E, 5E, and 7E inquiry-based learning strategies in geography lessons and to demonstrate ways to implement these models. These models help facilitate the practice of inquiry-based learning because the learning cycles are focused on constructivism. These models help explain and investigate phenomena, use evidence, support conclusions, and design experiments. Although there are several instructional models of education, these 3E, 5E, 7E instructional models are the cycles emphasized as a way to support inquiry-based instruction.

**Keywords:** 3E, 5E, 7E research models, experimental, cycle, success, research-based teaching, practical training.

**Аннотация.** Целью данной статьи является изучение влияния стратегий обучения на основе исследования 3E, 5E и 7E на уроках географии и демонстрация способов внедрения этих моделей. Эти модели помогают облегчить практику обучения на основе исследования, поскольку циклы обучения сосредоточены на конструктивизме. Эти модели помогают объяснять и исследовать явления, использовать доказательства, подтверждать выводы и разрабатывать эксперименты. Хотя существует несколько учебных моделей образования, эти учебные модели 3E, 5E, 7E являются циклами, на которых делается акцент как на способе поддержки обучения на основе исследования.

**Ключевые слова:** исследовательские модели 3E, 5E, 7E, экспериментальный, цикл, успех, обучение на основе исследования, практическое обучение.

### O'quv siklining bosqichlari.

3E: tadqiq etish, tushuntirish, qo'llash;

4E: tadqiq etish, jalb qilish, qo'llash va baholash;

5E: jalb qilish (engage), tadqiq etish (explore), tushuntirish (explain), qo'llash (elaborate) va baholash (evaluate);

6E: jalb qilish, tadqiq etish, tushuntirish, qo'llash, baholash va kengaytirish;

7E: aniqlash (elicit), jalb qilish, tadqiq etish, tushuntirish, qo'llash, baholash va kengaytirish (extend).

**3E ta'lim modeli.** Ushbu yondashuv, Hanukin va Li (2008) tomonidan tushuntirilganidek, quyidagi bosqichlardan iborat:


a) *Tadqiq etish.* O'quvchilar mavzuga oid yangi ma'lumotlar yoki vaziyatni turli axborot manbalari, darslikdan o'rganadilar, fan nuqtayi nazaridan ilk tajribasini taqdim etadilar. Bu o'quvchilar o'rtasida muhokama, bahs-munozaralarni keltirib chiqaradigan, har bir guruh g'oyalarning asoslarini tahlil qiladigan bosqichdir. Bunday tahlillardan olingan natijalar ilmiy nuqtayi nazardan muqobil tushunchalarni qabul qilishga olib kelishi mumkin. Kuzatish, ko'nikma hosil qilish, ilmiy faraz(gipoteza)ni ilgari surish va sinovdan o'tkazish o'quvchilarning avvalgi va keyingi tushunchalarini solishtirish imkonini beradi.

b) *Tushuntirish.* Bu bosqichga fandagi hodisalarni tushuntiruvchi ilmlar kiritiladi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan muloqot qilish orqali ularga fandagi tushunchalarni anglashlarida yordam beradi.

c) *Qo'llash.* Bu bosqich o'quvchilar yangi vaziyatlarda tushunganlarini tekshirishlari uchun kerak. O'qituvchining

misollari yoki sinfdagi muhokamalar ularga mavzu konsepsiyasini tushunishni umumlashtirishga imkon beradi [6].

**5E ta'lim modeli.** Hozirgi o'quv jarayonida 5E ta'lim modeli (Bybee & Landes, 1990) fanni loyihalashda qo'llanilishi mumkin. Fanlarni o'qitishdagi bu ilg'or tajribalar kognitiv psixologiya, konstruktiv-o'rganish nazariyasiga asoslanadi. O'rganishning jalb qilish, tadqiq etish, tushuntirish, qo'llash va baholash kabi kognitiv bosqichlari 1-rasmda ko'rinadi [4]:



1-rasm.



Bybee ta'kidlaganidek (1997), o'quvchilar ushbu yondashuvdan foydalangan holda jalb qilish bosqichida o'z iqtidori, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini ko'rsatadilar. Tadqiq etish bosqichida o'qituvchi o'quvchilarni ilmiy tadqiqot metodlari va mavzuga oid ilmiy tushunchalarni o'rganishga yo'naltiradi. O'quvchilar guruhlarda ishlab, tadqiq etiladigan savollarni o'rtaga qo'yadilar va ularga javob izlaydilar. Tushuntirish bosqichida o'qituvchi ilmiy tushunchalar mazmunini kengroq yoritib berishi lozim. Qo'llash bosqichida o'quvchilar tadqiq etish va tushuntirish bosqichlarida egallagan bilim va ko'nikmalarini qo'llaydi va rivojlantiradi. Baholash bosqichida esa o'qituvchi har bir o'quvchi va sinfning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi [5].

**Jalb qilish.** Modelning ushbu birinchi bosqichida o'qituvchi dastlab o'quvchining bilimi yoki o'zlashtirish darajasini baholashni maqsad qiladi. Bu asosan bolada o'rganish istagini paydo qiluvchi motivatsion davr hisoblanadi. Masalan, «Men bu mavzu haqida nimani bilaman?» KWL(BBB) diagrammalari kabi grafik organayzerlar orqali nima biladi, nimani bilishni xohlaydi va (oxir-oqibat) mavzu haqida nimalarni bilib oldi singari qiziqish uyg'otishni yaratishda yordam beradi.

**Tadqiq etish.** Jalb qilish bosqichidan keyingi konsepsiyaga ko'ra, tadqiqot bosqichi o'quvchilarga o'rganish tajribasini beradi. Bu bosqich tajribalar qilish va faollikni o'z ichiga oladi. O'quvchilar kuzatish, savol berish, tekshirish, prognoz qilish, faraz qilish va muloqot qilish ko'nikmalarini egallaydi. O'quv siklining ushbu bosqichi asosiy qism hisoblanib, so'rovga asoslangan faoliyat yoki tajribani rivojlantirishga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchining roli fasilitator yoki maslahatchidir. Bundan tashqari, o'quvchilar to'g'ridan to'g'ri ishlamasdan, o'qituvchi ko'rsatmasi va tushuntirishiga ko'ra o'quv muhitida hamkorlikda ishlashga yo'naltiriladi.

**Tushuntirish.** Tadqiqotdan keyingi bu bosqich asosan o'qituvchi tomonidan boshqariladi va tadqiqot davomida o'quvchilarning oldingi tajribasiga asoslanadi. Tushuntirish bosqichi o'quvchilarga yangi bilimlari yuzasidan tug'ilgan savollarini berish imkonini yaratadi. Bosqichning muhim jihati hisoblangan boshlang'ich qismi o'qituvchi fasilitator sifatida xizmat qilish vaqti sanalsa, keyingi qismda o'quvchilardan tadqiqotlari, o'rganish tajribalarini tavsiflash va muhokama qilish so'raladi. O'quvchilar o'z tushuntirishlari bilan bo'lishish imkoniga ega bo'lgach, o'qituvchi ilmiy va texnik ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri kiritadi. Bu bosqich davomida o'quvchilarda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan noto'g'ri tushunchalarga oydinlik kiritiladi. O'qituvchi esa o'quvchilari dasturlar yoki boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanishi mumkin.

**Qo'llash.** O'quv siklining ushbu bosqichida o'quvchilar yangi tushunchalarni qo'llab, egallagan ko'nikmalarini mustahkamlashi kerak. Bunda o'rganganlarini tekshirish yoki loyihalashtirish tavsiya etiladi. Bu bosqich chuqurroq va kengroq tushunchalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishlari, o'z g'oya, bilim va ko'nikmalarini boshqa fanlarda qo'llash asosida loyiha namunasini ishlab chiqishlari, o'rtoqlashishlari ham

mumkin. Bu esa fanni boshqa sohalar bilan integratsiya qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

**Baholash.** Bunda rasmiy va norasmiy yondashuvlar mavjud bo'lib, baholashning noan'anaviy shakllaridan foydalanish, masalan, portfellar, samaradorlikka asoslangan baholash, modellar yoki jurnal qaydnomalari o'quvchining muhim dalili bo'lishi mumkin. So'rovga asoslangan darsda baholashga nisbatan davom etayotgan jarayon sifatida qarash zarur. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarini kuzatishi, ularning yangi tushuncha va ko'nikmalarni egallagani, tafakkuri o'zgartirgan haqida dalillar izlashi ko'zga tashlanadi. O'quvchilar o'zini yoki tengdoshlarini baholash imkoniyatiga ega bo'lishi, biroq baholash viktorina, imtihon yoki yozma topshiriq kabi umumlashtiruvchi jarayonlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Quyida 6-sinf «Tabiiy fanlar» daralarida modelning tadqiq etish bosqichiga namuna taqdim etiladi. «Birgalikda tadqiq etamiz» ruknida «Tog' jinslarini hosil qilamiz!» mavzusining bir qismini ko'rib chiqamiz.

*Maqsadlar:*

Mavzuni o'rganish davomida:

- tog' jinslarining o'zgarishi (ya'ni magmatik, cho'kindi va metamorfik tog' jinslari qanday hosil bo'lishi)ni izohlaysiz;
- cho'kindi tog' jinslarida toshqotgan qoldiqlar qanday hosil bo'lishini tavsiflaysiz;
- ilmiy hodisani tasvirlash va izohlashda modeldan foydalanasiz;
- tadqiqot natijalariga asoslanib ilmiy xulosa chiqarasiz;
- tabiiy fanlarning muayyan sohasida faoliyat yurituvchi kasb egalarini aniqlaysiz va ularning faoliyatini tavsiflaysiz;
- ilmiy bilimlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ko'rsatish uchun to'plangan dalillardan foydalanasiz;
- fan va texnologiya yutuqlaridan foydalanishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini muhokama qilasiz;
- bahs-munozarada o'z nuqtayi nazarini ilmiy dalillardan foydalanib asoslaysiz.

*Sinf darajasi:* 6-sinf

*Materiallar:* (har bir jamoa uchun)

*Sizga kerak bo'ladi:*

- qizil rangli plastilin;
  - qahva kukuni;
  - mosh donalari;
  - plastmassa pichoq.
- Ishni bajarish tartibi:*
1. Qizil rangli plastilinni uch bo'lakka bo'ling.
  2. Bitta bo'lagini olib qo'ying. Ushbu bo'lak A tog' jinsini ifodalaydi.
  3. Plastilinning ikkinchi bo'lagini yoying. Uning sirtiga qahva kukunini sepib, mosh donalarini terib chiqing.
  4. Plastilinning uchinchi bo'lagini yoying. Uni qahva kukuni sepilgan va mosh donalari terilgan ikkinchi bo'lak ustiga joylashtiring. Plastilinni bosing. Bu bo'lak B tog' jinsini ifodalaydi.
  5. A va B tog' jinslarini plastmassa pichoq yordamida kesing hamda ularni kuzating. a) Ushbu tog' jinslari qanday o'xshashlikka ega? Ularning qanday farqlari bor? b) Tog' jinslarining qanday turlarini hosil qildim deb o'ylaysiz?

Javobingizni izohlang. O'quvchilarga tog' jinslari hosil bo'lishini tasvirlaydigan model qurishni va bu model ilmiy

holatni tushunishga qanday yordam berishini tasvirlashni ayting [10: 11].

Bosqishlar	Mazmuni
Jalb qilish	O'qituvchi «Nima uchun ba'zi tog' jinslarida toshqotgan qoldiqlar uchraydi?» savoli bilan murojaat qiladi.
Tadqiq etish	O'quvchilarni guruhga bo'ling. «Tog' jinslarini hosil qilamiz!» O'quvchilarga tog' jinslari hosil bo'lishini tasvirlaydigan model qurishni va bu model ilmiy holatni tushunishga qanday yordam berishini tasvirlash kerakligini ayting.
Tushuntirish	O'qituvchi o'quvchilarni <i>tog' jinslarining o'zgarishi, erish, kristallanish, nurash, cho'kish va ko'milish, metamorfizm, toshqotgan qoldiqlar</i> kabi ilmiy atamalar bilan tanishtiradi.
Qo'llash	O'quvchilar tog' jinslarining o'zgarishiga oid jarayonlar sodir bo'lganidan keyin shakllanadigan tog' jinslari turini ko'rsatuvchi sxematik model yaratishadi.
Baholash	O'qituvchi «Quyidagi qaysi ko'nikmalarni egalladingiz?» ruknida berilgan ko'nikmalarni baholaydi. Masalan, «Tog' jinslarining o'zgarishi (ya'ni magmatik, cho'kindi va metamorfik tog' jinslari qanday hosil bo'lishi)ni izohlay olaman».

### 7E ta'lim modeli

Ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor 7E o'quv modeliga qaratiladi, bu esa takomillashtirilgan namunasidir. 5E o'quv modeli strategiyasini takomillashtirish maqsadida va uning geografiya faniga ta'sirini aniqlash uchun o'quvchilarda qo'llaniladi.

7E ta'lim modelining bosqichlari quyidagicha:

a) *Aniqlash* bosqichi o'quvchilarning mavzu bo'yicha egallagan tushunchalarini aniqlashda yordam beradi. Masalan: Tog' jinslarining xususiyatlarini bilasizmi? Aytib bering.

b) *Jalb qilish* mavzuni o'quvchilarga qiziqarli tarzda taqdim etadi. Masalan: Nega tog' jinslari bir-biriga o'xshamaydi? Nima uchun ba'zi tog' jinslarida toshqotgan qoldiqlar uchraydi?

c) *Tadqiq etish* o'quvchilarga mavzuni tekshirish imkoniyatini beradi. Masalan: a) Ushbu tog' jinslari qanday o'xshashlikka ega? Ularning qanday farqlari bor? b) Tog' jinslarining qanday turlarini hosil qildim deb o'ylaysiz? Javobingizni izohlang?

d) *Tushuntirish* o'quvchilar *tog' jinslarining o'zgarishi, erish, kristallanish, nurash, cho'kish va ko'milish, metamorfizm, toshqotgan qoldiqlar* kabi ilmiy atamalar bilan tanishadilar.

e) *Qo'llash* o'quvchilarni mavzuni yanada chuqurroq o'rganishga va bilimlarini kengaytirishga undaydi. Masalan: Tog' jinslarining o'zgarishiga oid jarayonlar sodir bo'lganidan keyin shakllanadigan tog' jinslari turini ko'rsatuvchi sxemani to'ldiring. Har bir katakka tegishli tog' jinsining nomini yozing. Quyidagi tog' jinslarining turini


ko'zga yaqqol tashlanadigan xususiyatlariga asoslanib aniqlang. Jadvalni to'ldiring. Qaysi jarayonda to'g'ridan to'g'ri magmatik tog' jinsi hosil bo'ladi?

f) *Baholash* bosqichida testlar orqali o'quvchilarning o'rganishini tekshirish yoki baholash mumkin. Mavzuning to'g'ri kontseptuallashtirilganini isbotlaydigan dalillardan biri ularni sinab ko'ruvchi savollardir. Masalan: Quyidagi qaysi ko'nikmalarni egalladingiz? 1. Tog' jinslarining o'zgarishi (ya'ni magmatik, cho'kindi va metamorfik tog' jinslari qanday hosil bo'lishi)ni izohlay olaman. 2. Cho'kindi tog' jinslarida toshqotgan qoldiqlar qanday hosil bo'lishini tavsiflay olaman. 3. Ilmiy hodisani tasvirlash va izohlashda modeldan foydalana olaman. 4. Tadqiqot natijalariga asoslanib ilmiy xulosa chiqara olaman. 5. Tabiiy fanlarning muayyan sohasida faoliyat yurituvchi kasb egalarini aniqlayman va ularning faoliyatini tavsiflay olaman. 6. Ilmiy bilimlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ko'rsatish uchun to'plangan dalillardan foydalana olaman. 7. Fan va texnologiya yutuqlaridan foydalanishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini muhokama qila olaman. 8. Bahs-munozarada o'z nuqtayi nazarimni ilmiy dalillardan foydalanib asoslay olaman.

g) *Kengaytirish* bosqichida o'quvchilarga mavzular konsepsiyaning boshqa vaziyatlarda, masalan, kundalik hayotda qanday qo'llanilishi o'rganish taklif etiladi. Masalan, Farida vulqon yaqinida yashaydi. U tog' jinsi namunalarini to'plash uchun vulqon oldiga bordi. Farida qaysi tog' jinsini uchratadi? [10:11]

2-rasmda 5E modelini to'ldiruvchi ikkita «E» qo'shilishidan hosil bo'lgan 7E modeli tasvirlanadi.





2-rasm

Geografiya darslarida o'quvchilarning fanga oid ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda darslarni ushbu ta'lim modellaridan foydalangan holda tashkil etish yaxshi samara beradi. Shuning uchun o'quvchilar bilan

yuqoridagi 3E, 5E, 7E modellarining metodik yondashuvlarga tayanib darslar davomida tez-tez amaliy mashg'ulot va topshiriqlar, loyiha ishlari va tadqiqotchilikka yo'naltirilgan kichik tajribalar o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda imzolangan «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz//ru/docs/-4312785>.
2. Avezov M.M., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Hojiyeva M.T. Geografiya. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2022.
3. Abraham M.R. The learning cycle approach to science instruction (Research matters – To the science teacher, No. 9701). – Columbia, MO: The National Association for Research in Science Teaching, 1997.
4. Bybee R. Achieving scientific literacy: From purposes to practices. – Portsmouth, NH: Heinemann Publications, 1997.
5. Bybee R., Landes, N.M. Science for life and living: An elementary school science program from Biological Sciences Improvement Study (BSCS), 1990.
6. Journal of Turkish Science Education, 2021, 18(4), 748–764. DOI no: 10.36681/tused.2021.101.
7. National Research Council. Inquiry and the national science education standards: A guide for teaching and learning. – Washington, DC: National Academy Press, 2000.
8. Rutherford F.J., & Alhgren A. Project 2061: Science for all Americans. – New York: Oxford University Press, 1990.
9. TAPESTRIES (n.d.). Retrieved February 20, 2004, from <http://www.tapestries.ut-bgsu.utoledo.edu/> (Follow the Science Kits & Resources link).
10. Jasvinder K. Randhava, doktor Natasha Mehta 6-sinf Tabiiy fanlar umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, 2024.
11. Jasvinder K. Randhava, Mehta N. Tabiiy fanlar. 6-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mashq daftari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, 2024.

**Шахноза ТУРСУНОВА,**

*преподаватель-стажёр*

*Узбекского государственного университета мировых языков*

## ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ ДИСКУРС В КОНТЕКСТЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ

**Аннотация.** Дискурс представляет собой общение между людьми, анализируемое в контексте их принадлежности к определенным социальным группам или в рамках специфических речевых и поведенческих ситуаций. В статье рассматривается модель институционального дискурса применительно к педагогическому общению.

**Ключевые слова:** дискурс, институциональный дискурс, образовательно-педагогический дискурс, статус педагога.

**Annotatsiya.** Diskurs odamlar o'rtasidagi aloqa, ularning ma'lum ijtimoiy guruhlariga mansubligi yoki o'ziga xos nutq va xulq-atvor holatlari doirasida tahlil qilinadi. Ushbu maqolada biz pedagogik muloqotga nisbatan institutsional diskurs modelini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** nutq, institutsional diskurs, ta'lim va pedagogik diskurs, o'qituvchi maqomi.

**Annotation.** Discourse is communication between people, analyzed in the context of their belonging to certain social groups or within the framework of specific speech and behavioral situations. In this paper, we will consider the model of institutional discourse in relation to pedagogical communication.

**Keywords:** discourse, institutional discourse, educational and pedagogical discourse, teacher status.

Попытки ученых уточнить содержание понятия «дискурс» и обозначить его границы способствовали выявлению его отличительных характеристик, что в свою очередь привело к разработке различных типологий. С точки зрения социолингвистики дискурс представляет собой коммуникацию между людьми, анализируемую в контексте их принадлежности к определенным социальным группам или в рамках специфических речевых и поведенческих ситуаций. Основываясь на критерии «принадлежность к конкретному социальному институту», В.И.Карасик выделил различные виды институционального дискурса: политический, административный, юридический, педагогический, религиозный, медицинский, деловой, рекламный, спортивный, научный, сценический, масово-информационный [1, с. 23].

Институциональный дискурс представляет собой специализированный формат взаимодействия между людьми, которые, возможно, не знакомы друг с другом, но обязаны общаться в соответствии с нормами данного общества. Естественно, любое взаимодействие обладает многогранностью и может быть классифицировано с определенной долей условности. Полное исключение личного аспекта приводит к тому, что учащиеся институционального общения становятся похожими на куклы. В то же время существует интуитивно воспринимаемая граница, нарушение которой может угрожать основам функционирования определенного общественного института.

От роли коммуникантов (учитель и ученик, преподаватель и студент, ученый и его коллега) зависит и вид институционального дискурса. Далее мы представим модель анализа институционального дискурса в контексте педагогического общения.

O'quvchilarda leksik xatolarni tuzatish uchun bir qancha metodlar mavjud. Birinchidan, turli xil so'zlar va iboralarning ma'nosini o'rganishda ularni rag'batlantirish kerak. Sinonimlar, antonimlar, idiomatik iboralar va boshqa til qoidalariga haqida ma'lumot berish kerak. Ikkinchidan, o'quvchilarga kontekstga mos keladigan so'zlarni tanlashni o'rgatish lozim. Ular so'zlarning ma'nosini faqat lug'atga asoslanib o'rganmasdan, balki so'zning ishlatiladigan vazifasiga qarab ham tushunishlari zarur. Nihoyat, o'quvchilarni yozma nutqning aniq va to'g'ri bo'lishi uchun muntazam ravishda yozish va o'z nutqlarini tahlil qilishga undash zarur.

«Kalka ko'pincha salbiy xususiyat kasb etsa-da, ijobiy jihatlari ham bor. U ijodiy jarayonda paydo bo'ladigan til hodisasi, tilni boyitish omillaridan biri. Albatta, tarjimon mahorat bilan o'gira olsa. Tilda mavjud bo'lgan tayyor so'z, birikma va iboralar o'rniga chet tilidan so'zma-so'z tarjima qilib, o'xshamagan «ijodiy» yangiliklar yaratish esa tarjimonning no'noqligi belgisi. Bunday sun'iy ibora va jumlar avj olsa, ommalashsa, til sofligi va rivojiga jiddiy zarba beradi» [5].

O'quvchilarning yozma nutqidagi leksik xatolar nafaqat tilni o'zlashtirish jarayonida, balki umumiy bilim darajasini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Leksik xatolarni tahlil qilish va ularni to'g'rilash orqali o'quvchilarni o'z ifodalarni yanada aniqroq va samarali qilishga o'rgatish mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarni so'z boyligini rivojlantirishga va to'g'ri leksik tanlovlar qilishga o'rgatish nafaqat tilshunoslik, balki umumiy kommunikativ ko'nikmalarni ham yaxshilaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xaitov X. Ona tili o'qitish metodikasi. – Buxoro, 2022. 8-bet.
2. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 1984.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
4. Qosimova K. va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
5. <https://oriftoilib.uz/>.




**Hulkar SHAMSHIYEVA,**
*Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining matematika fani o'qituvchisi*

## MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA (fizika fani misolida)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya masalasi fizika fani misolida ochib berildi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, texnologiya, mexanika, elektr, funksiya, hosila.

**Annotation.** This article discusses the issue of interdisciplinary integration in teaching mathematics using the example of physics.

**Keywords:** integration, technology, mechanics, electricity, function, derivative.

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема междисциплинарной интеграции в преподавании математики на примере физики.

**Ключевые слова:** интеграция, технология, механика, электричество, функция, производная.

«Integratsiya» atamasining turli talqinlari bor, ularning asosida umumiy bir g'oya yotadi. Integratsiyaning komponentlari, ya'ni tarkibiy elementlarining o'zaro aloqasi, ta'siri natijasida muayyan integratsiya vujudga keladi. Bu jarayonni fanlar kesimida kuzatish soha rivoji uchun joizdir.

Matematika ta'limida integratsiya masalalarini tadqiq etar ekanmiz, integratsiya muammosini ikki yo'nalishda – ta'lim (fanlar) mazmuni yoki o'qitish texnologiyalari asosida hal qilishni maqsad qilib qo'ydik. Ta'lim mazmunini integratsiya qilish fanlararo aloqadorlik vositasida amalga oshirilib, fanlararo darajadagi aloqalarda tayanch predmet maqomi turli variantdan iborat bo'lishi mumkin. Ikki o'quv predmeti orasidagi aloqalarni o'rnatishda, ularni integratsiyalashda vaqti-vaqti bilan u yoki bu predmet tayanch bo'lib xizmat qiladi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, matematika fanining mohiyati muayyan hodisalarni abstraktlashtirib o'rganishidan iborat, ya'ni matematikalashtirish bilimlar integratsiyasini amalga oshirishning ko'rinishlaridan biridir [1: 101].

Darhaqiqat, matematikalashtirish – bilimlarni sintez qiladigan qadimgi metodlardan biri. Bunda matematik tushunchalarning umumiyliigi asosida ilmiy mulohaza, qonun va prinsiplarni umumiyliigi ta'minlanadi. Hozirgi paytda matematika bilimlar majmuasini birlashtirib, fanlar integratsiyasini ta'minlovchi vosita bo'lib qoldi. Buning sababini tushunish uchun uning negiziga, falsafiy asoslariga, matematik va dialektik mantiq munosabatlariga, tushunchalarni tashkil etishda mavhumlash jarayonlarining har xilligiga e'tibor qaratish kerak. Matematik mantiq taraqqiyotining muhim xususiyati formallashtirilgan til ishlab chiqilishi va uni fanning turli sohalariga tatbiq etilishidadir. Har bir fan taraqqiyotining muayyan bosqichida matematik metodlarga murojaat qilish zarurati vujudga keladi. Mazkur fan ularni qo'llash natijasida mukammallikka erishadi. Muayyan voqelikning miqdoriy jihatlarini o'rganish uning sifat tomonlarini va mohiyatini ochishga imkon yaratadi. Borliqdagi hodisa hamda jarayonlarni to'la o'rganish uchun ularning sifat va miqdoriy tomonlarini birgalikda tahlil etish zarur. Bunda voqelik, hodisaning mazmunidan chetlashib

uni matematik tilda ifoda etish, mazmunan chuqur o'rganish talab qilinadi.

Matematikaning integrallash funksiyasi asosida modellashtirish, strukturalash, aksiomatika kabi sintetik metodlar paydo bo'ldi. Fanlarni integratsiyalash, yangi sintetik bilimlarni shakllantirish, fan taraqqiyotining zarur qonuniyati tarzida yuzaga chiqadi.

### Matematikaning fizika fani bilan bog'lanishi

Fizika, mexanika, astronomiya, elektr nazariyasida matematik tushunchalarning qo'llanishi son, funksiya, hosila, integral, differensial hisob nazariyalarining samarali tatbiqiga olib keldi. Biologiya va gumanitar fanlarda matematikaning qo'llanishi «aks ettirish», «binar munosabat», «to'plam», «algebraik munosabat» kabi tushunchalarni yanada chuqurroq ishlab chiqishga sabab bo'ladi. Matematika, fizika hamda kimyo fanlarini integrallashda ushbu fanlarning uzviy bog'liqligi, predmetlararo aloqadorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Tenglamalar tuza olish ko'nikmasi – muvaffaqiyatli modellashtirishning zarur shartidir. Ko'pgina fizik masalalar tenglama (yoki tenglamalar tizimi) tuzish va uni yechish ko'nikmasini taqozo etadi. Fizikani o'qitishda matematika fani nafaqat hisoblash apparati sifatida qo'llanilmoqda, balki bugungi kunda matematik mulohazalar yordamida voqelik, hodisaning o'tish jarayonining xarakteri haqida fizikaviy xulosalar chiqarishga imkon tug'diradi. Matematik tenglamalar yechish orqali fizik hodisalar haqida fikr yuritish mumkin. Eng sodda tenglamalar boshlang'ich sinflarda o'rganiladi. Masalan, 5–6-sinflarda o'quvchilar tenglama (nisbatan murakkabroq) yechishning oddiy usullari bilan tanishadilar. Tizimli ravishda esa 7-sinfdan boshlab o'rganiladi [2: 72].

O'quvchilar fizika darslarida tenglamalar tuzishga qiynaladilar. Bunday vaziyatning oldini olish maqsadida matematika darslarida aynan fizikaviy voqelik natijasi bo'lgan tenglamalarni yechish, shu bilan bir qatorda, harfiy belgilashlarda uzviylikni ta'minlash kerak.

Fizika fanini o'qitishda vektor va skalyar kattaliklar ko'p ishlatiladi. Funksional bog'lanish, kvadrat tenglama,



limit, hosila tushunchalari keyinroq o'tiladi. Funksional bog'lanish fizikada keng ishlatiladigan munosabat. «Funksiya» tushunchasi, grafigi, ikki voqelik, to'plam orasidagi munosabat, moslik, xossalari kabilarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi fandagi funksional bog'lanishlarni tez anglaydi va fizik munosabatlarni puxta o'rganadi. «Tekis to'g'ri harakat» (7-sinf) mavzusini o'rganishda matematikada o'rganilgan «chiziqli funksiya» tushunchasi (7-sinf), uning grafigini ( $F = kx + b$ ) bilishi o'quvchiga asqotadi. Bunda uning chiziqli funksiya qonuniyatlariga bo'ysunishi o'rgatiladi [3: 34].

$F = kx$  bog'lanish jismlarning o'zaro proporsionallik holatini tasniflovchi hodisalarning matematik ifodasi sifatida ko'p uchraydi. Matematikada o'zgaruvchi miqdorlar  $u$  bilan  $x$  ning to'g'ri proporsional bog'lanishi yoki  $u$  o'zgaruvchi  $x$  ning chiziqli funksiyasi deyiladi;  $u = kx$  munosabat bilan bog'langan  $x$  va  $u$  o'zgaruvchilarning

muayyan tabiati qanday bo'lmasin, hamma vaqt  $x$  ning bir necha marta o'zgarishi  $u$  ning proporsional (ya'ni xuddi o'shancha marta) o'zgarishiga olib keladi. Matematika  $u = kx$  kabi eng sodda bog'lanishni ham, murakkabroq bog'lanishlarni ham umumiy, abstrakt ko'rinishda xususiy sharhlardan ajratgan holda o'rganadi. Funksiyaning bunday tadqiqotda aniqlangan xossalari yoki shu xossalarni o'rganish metodlari umumiy matematik usullar, xulosalar, qonunlar, natijalar xarakterida bo'ladi. Abstrakt holda o'rganilgan funksiya har bir konkret hodisaga, bu hodisa bilimning qaysi sohasiga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, tatbiq qilinaveradi.

Matematikani boshqa fanlar bilan ham bog'lab o'tish mumkin. Muhimi, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mavzuni to'laligicha yetkazib berishi va darsda ko'zlangan maqsadga erishisha olishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusova D.I. Ta'lim texnologiyalari asosida matematik ta'limni tashkil etish. – Toshkent: Universitet, 2005.
2. Qo'chqorov A., Ismailov Sh. Mantiqiy masalalar – Toshkent, 2008.
3. Shodiyev D.Sh., Shaxmayev N.M. Fizika. 7-sinf. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.



Zoxida TURSINOVA,

*Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti*

## ZAMONAVIY O'QITUVCHINING KASBIY MAHORAT MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARINI ISHLAB CHIQISHNING INNOVATSION USULLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'qituvchilarning kasbiy mahoratini baholash uchun mezon va ko'rsatkichlarni ishlab chiqishning innovatsion usullari o'rganiladi. O'qituvchilar faoliyatini baholash bo'yicha global istiqbollar tahlil qilinib, sun'iy intellektga asoslangan baholash, o'yinga asoslangan ta'lim va malakaga asoslangan baholash kabi texnologik yutuqlar tahlil qilinadi. Tadqiqotlar zamonaviy raqamli baholash vositalari o'qituvchilarning ish samaradorligini va talabalarning o'quv natijalarini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun ishlab chiqilayotgan pedagogik strategiyalar va texnologik vositalarni o'z ichiga olgan faoliyatni baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy mahorat, baholashning innovatsion usullari, sun'iy intellekt asosidagi baholash, o'yinlashtirilgan ta'lim, kompetensiyaga asoslangan baholash, o'qituvchilar malakasini oshirish, ta'lim islohoti, pedagogik strategiyalar.

**Annotation.** The article examines innovative methods for developing criteria and indicators for assessing the professional competencies of modern teachers. It analyzes global perspectives on teacher performance evaluation and explores technological advancements such as artificial intelligence-based assessment, gamified learning, and competency-based assessment. Research confirms that modern digital assessment tools significantly improve teacher effectiveness and student learning outcomes. The paper provides recommendations for improving the performance evaluation system, including pedagogical strategies and technological tools designed to encourage continuous professional development.

**Keywords:** professional competencies, innovative assessment methods, assessment based on artificial intelligence, gamification of learning, competency-based approach to assessment, advanced training of teachers, education reform, pedagogical strategies.

**Аннотация.** В статье рассматриваются инновационные методы разработки критериев и показателей для оценки профессиональных компетенций современных учителей. Анализируются глобальные перспективы оценки деятельности учителей, рассматриваются технологические достижения, такие как оценка на основе искусственного интеллекта, игровая форма обучения и оценка на основе компетенций. Исследования подтверждают, что современные цифровые инструменты оценки значительно повышают эффективность работы учителей и учебные результаты учащихся. В работе даются рекомендации по совершенствованию системы оценки деятельности, включающей педагогические стратегии и технологические средства, разработанные для стимулирования непрерывного профессионального развития.

**Ключевые слова:** профессиональные компетенции, инновационные методы оценки, оценка на основе искусственного интеллекта, геймификация обучения, компетентностный подход к оценке, повышение квалификации учителей, реформа образования, педагогические стратегии.

Tez rivojlanayotgan ta'lim sharoitida o'qituvchining roli an'anaviy ta'limdan tashqari, uzluksiz kasbiy rivojlanish va innovatsion pedagogik strategiyalarni o'zlashtirishni qamrab oladi. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahoratini baholash bugungi ta'lim muhitining murakkabligini aks ettiruvchi aniq belgilangan mezon va ko'rsatkichlarni talab qiladi. Mezonlarni yaratish uchun ko'pgina mamlakatlarda o'qituvchilar malakasini oshirish, baholash va uzluksiz ta'limni yaxshilaydigan innovatsion usullarni birlashtirgan holda keng qamrovli tadqiqotlar olib borildi.

Zamonaviy ta'lim o'qituvchilardan innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali o'z kasbiy mahoratini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchilarning malakasini baholash va oshirish uchun tizimli strategiya va metodlarni ishlab chiqish muhimdir. Aniq mezon va ko'rsatkichlarni belgilash orqali ta'lim muassasalari o'qituvchilarning kasbiy samaradorligini yuqori standartlarga javob berishini ta'minlashi mumkin.

Xalqaro tajriba o'qituvchilarning kasbiy mahoratini baholashda dinamik va ko'p qirrali yondashuvlar zarurligini isbotlaydi. Masalan, Qozog'istonda pedagogik malakalarni an'anaviy imtihon usullaridan tashqari baholash uchun o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida ishbilarmonlik

o'yinlari, bahslar va portfolio asosida baholash kabi innovatsion baholash usullari joriy etilgan [5]. Shunga o'xshab, Rossiyada qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlari doirasida o'qituvchilarning subyektivligini va reflektiv o'qitish amaliyotini yaxshilash uchun formativ baholash mexanizmlari ishlab chiqilgan [3].

Qo'shma Shtatlar va Avstraliyada tadqiqotchilar talabalarning natijalarini baholashda ishonchlilik va obyektivlikni ta'minlash uchun o'qituvchilarni baholash usullarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarni baholashdagi noxolislikni rubrikaga asoslangan baholash va avtomatlashtirilgan belgilash vositalari kabi innovatsion usullar orqali yengillashtirish mumkin [2]. Ushbu tushunchalar ilg'or baholash vositalari orqali o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirishga qaratilgan global majburiyatlarni keltirib chiqaradi.


O'qituvchilikdagi kasbiy mahoratning ta'rifi keng qamrovli adabiyotlarni tahlil qilish orqali takomillashtirildi. Gofirov (2021) fikricha, kasbiy va pedagogik kompetensiyani o'qituvchining innovatsion texnologiyalarni sinfga integratsiyalash qobiliyatini baholash orqali belgilash mumkin [1]. Vientseva va Karapetrovalarning (2022)

ta'kidlashicha, o'qituvchining innovatsion kompetensiyasi ijodiy o'qitish usullarini joriy qilish va moslashuvchan o'quv muhitini yaratish qobiliyati bilan tavsiflanadi [4]. Ushbu mezonlar rivojlanayotgan ta'lim tizimida o'qituvchi mehnatining samaradorlik darajasini aniqlashda muhim ko'rsatkichlar bo'lib xizmat qiladi. Divinsk nazariy va amaliy tayyorgarlikni o'lchaydigan tizimli baholashlar o'qituvchining zamonaviy ta'lim muammolariga tayyorligini aniq ko'rsatishi mumkinligini taklif qiladi [6].

Zamonaviy o'qituvchilar mahoratining mezonlari va ko'rsatkichlarini yanada rivojlantirish uchun kelajakdagi tadqiqotlar o'qituvchilarni baholashda sun'iy intellekt (SI)ga asoslangan dasturlardan keng foydalana olishga yo'naltirilishi kerak. SIga asoslangan tahlillar real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin, bu

esa formativ baholash jarayonlarini yaxshilaydi. Bundan tashqari, ta'lim tadqiqotchilari va kognitiv olimlar o'rtasidagi fanlararo hamkorlik o'qituvchilarni yaxlit baholashni ta'minlashda mavjud baholash modellarini takomillashtirishi mumkin.

Zamonaviy o'qituvchilarning mahoratini baholashni yaxshilash uchun SIga asoslangan tahlillar, interaktiv simulyatsiyalar va malakaga asoslangan baholashlarni birlashtiradigan yangi strategiya taklif etiladi. Ushbu strategiya shaxsiylashtirilgan kasbiy rivojlanish imkonini beruvchi o'qituvchilarning faoliyati haqida real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etishga qaratilgan. Yondashuv o'qituvchilar o'zlarining o'qitish metododikasini yaxshilashi uchun tavsiyalar oladigan moslashuvchan o'quv muhitini ta'minlaydi.




#### *An'anaviy va innovatsion o'qituvchilarni baholash usullarini taqqoslash*

Rasmda an'anaviy usullardan innovatsion usullarga o'tishi ko'rsatilgan, bu o'qituvchilarni baholash usullarining evolutsiyasini anglatadi. An'anaviy usullar (qizil rangda) tuzilgan, subyektiv va ko'pincha eskirgan yondashuvlarga tayanadi. Innovatsion usullar (yashil rangda) esa baholashda aniqlik va faollikni oshirish uchun texnologiya, avtomatlashtirish va interaktiv elementlarni o'z ichiga oladi. Ko'rish mumkinki, o'qituvchilarni baholash

ko'proq moslashtirilgan, texnologiya takomillashtirilgan metodologiyaga o'tmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi baholashlar, o'yinlashtirish va raqamli portfellar an'anaviy bir martalik baholashga qaraganda o'qituvchilar uchun yanada kengroq, interaktiv va uzluksiz fikr-mulohazalarni taklif qiladi.





Diagrammadan ko'rinib turibdiki, SIga asoslangan baholash 90% ni tashkil etmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi baholash usullari o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish uchun dasturlarni o'rganish algoritmlaridan foydalanadi.

Hamkasblarni baholash – 80%. Ushbu strategiya o'qituvchilarga bir-birlarini baholashga imkon beradi. Hamkasblarni ko'rib chiqish o'zini o'zi baholashni kuchaytiradi va pedagogik kamchiliklarni aniqlaydi. Tadqiqotlar kasb bilan birlashganda o'qituvchining malakasini 20% ga oshirishni ko'rsatadi.

Raqamli portfolio – 88%. Raqamli portfolio o'qituvchining ishi, mulohazalari va baholashlari, hujjatlar to'plamidir. Ushbu portfolio uzoq muddatli, dalillarga asoslangan baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchining tajribasi, erishgan yutuqlariga asoslangan bo'ladi.

Qobiliyatga asoslangan baholash – 87%. Ushbu model asosan o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini o'lchaydi. Bu kabi baholash usuli o'qituvchilarning asosiy sinfidagi ishlash ko'rsatkichlariga qaratilgan bo'ladi. Ushbu model o'qituvchilar muvaffaqiyatini 25% ga oshiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi baholashlar o'qituvchining ish faoliyat imkoniyatini 25% ga oshirishi mumkin, o'yinlashtirilgan o'rganish usullari esa o'quvchilarning faolligini 30% ga ko'taradi [3]. Bundan tashqari, raqamli portfellar uzluksiz kasbiy takomillashtirishni ta'minlab, o'qituvchilarni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli istiqbolni ta'minlaydi [6].

Ushbu innovatsion strategiya va usullarni tatbiq etish orqali ta'lim muassasalari yanada samarali va

moslashuvchan o'qituvchilarni rivojlantirishi, natijada umumiy ta'lim sifati va talabalar natijalarini yaxshilashi mumkin. Innovatsion baholash strategiyalarini o'qituvchilarni baholash jarayonlariga integratsiya qilish o'qitish sifati hamda o'quvchilarning faolligini oshirishga va umuman ta'lim muhitini yaxshilashga sabab bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarni baholashning innovatsion usullari kasbiy mahoratning sezilarli yaxshilanishiga sabab bo'ladi, o'qituvchilarning baholash ballari o'rtacha 18–20% ga oshadi. Natijalar juda istiqbolli bo'lsa-da, bu tadqiqotlarning umumlashtirilishi bir necha omillarga bog'liq. Avvalo, tadqiqot ingliz tili o'qituvchilariga qaratilgan; keyingi tadqiqotlar ushbu usullar boshqa fanlar o'qituvchilari uchun o'xshash natijalarni berishi yoki bermasligini tekshirishi kerak.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Avstraliyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin shaklida o'rganish o'qituvchilarning faolligini va o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va bu tadqiqot natijalari samaradorligini kuchaytiradi [2]. Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, kompetensiyaga asoslangan baholash ushbu tadqiqotda kuzatilgan 20% yaxshilanish bilan yaqindan mos keladigan kasbiy rivojlanish natijalarini 25% ga yaxshilaydi [4].

Maqola innovatsion baholash usullari o'qituvchilarning kasbiy mahoratini an'anaviy baholash usullariga qaraganda qanchalik samarali ekanini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotlar, zamonaviy baholash strategiyalari o'qituvchilarning ish faoliyatini, faolligini va kasbiy o'sishini ta'minlaydi. Sun'iy intellekt asosidagi



baholash, o'yinlar yordamida o'rganish, raqamli portfoliolar va kompetensiyaga asoslangan baholashni qo'llagan o'qituvchilarning kasbiy mahorati 18–20 foizga yaxshilangan.

Qiyosiy ma'ga ko'ra an'anaviy baholash usullari o'rtacha 65–72% ball bergan, innovatsion yondashuvlar esa 85–89% gacha ko'tarilgan.

Tadqiqot an'anaviy baholash modellaridan innovatsion, texnologiyaga asoslangan baholash tizimiga o'tish o'qituvchilar faoliyati va o'quvchilarning ta'lim natijalari rivojlanishiga sabab bo'lishini qisman isbotladi. Demak, kelajakda olib boriladigan tadqiqotlarda SI imkoniyatlariga e'tibor qaratilishi juda muhim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gofirov M. Efficiency Criteria of Educational Technologies in Assessing the Professional and Pedagogical Competence of the Teacher // *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2021.
2. Hedsinger S., Humphry, S. An Innovative Method for Teachers to Formatively Assess Writing Online // *Research Conference 2022: Reimagining Assessment*, 2022.
3. Temnyatkina E. Mechanisms of Formative Assessment in the Additional Professional Education System // *Higher Education in Russia Journal*, 2023.
4. Vientseva N., & Karapetrova, O. Innovative Competence as a Component of the Professional Activity of a Modern Teacher // *Bulletin of Alfred Nobel University Series Pedagogy and Psychology*, 1(23):109–115, 2022.
5. Kenzhetaeva, R., Nurzhanova, A. Innovative Assessment Forms of Control in Professional Teacher Training. *Pedagogical Innovations Journal*, 2020.
6. Divinska O. Diagnostics of the Teachers' Professional Skills to Use Digital Technologies // *International Journal of Innovative Technologies in Learning*, 2(97), 134–146, 2022.
7. Tursinova Z. Mechanisms for assessing teachers' pedagogical skills in improving the quality of education. *Science and Education in Karakalpakstan*, 2024. №2/1 ISSN 2181-9203.



Periyat KOJALIPESOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

## O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

**Annotatsiya.** Maqolada o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy bosqichlari bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar haqida fikr yuritilgan. Fonetik bosqichda so'zlarni aniq talaffuz qilish mashqini bajarish, leksik bosqichda so'zlar ma'nosini anglash, sintaktik bosqichda gaplarning o'zaro bog'liqligini tahlil qila olish, semantik bosqichda matn mazmunini chuqur anglash, asosiy fikrni ajrata olish hamda pragmatik bosqichda muallifning maqsadini, g'oyasini tushunish, matn janrini tahlil qila olishga o'rgatish bo'yicha tahlil va tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish, fonetik bosqich, leksik bosqich, sintaktik bosqich, semantik bosqich, pragmatik bosqich, «Fleshcards» metodi, «Evrka» usuli, binar test.

**Annotation.** The article reflects on the tasks carried out according to the main stages of formation and development of understanding skills. The phonetic stage describes the analysis and recommendations on how to carry out the exercise of clear pronunciation of words, to understand the meaning of words at the lexical stage, to be able to analyze the interrelationships of sentences at the syntactic stage, to deeply understand the content of the text at the semantic stage, to be able to distinguish the main

**Keywords:** reading comprehension, phonetic stage, lexical stage, syntactic stage, semantic stage, pragmatic stage, «Fleshcards» method, «Eureka» method, binary test.

**Аннотация.** В статье рассматриваются задания по формированию и развитию навыка понимания прочитанного, анализируются рекомендации по выполнению упражнений на точное произношение слов на фонетическом уровне, по пониманию значения слов на лексическом уровне, умению анализировать взаимосвязь предложений на синтаксическом уровне, по глубокому пониманию содержания текста на семантическом уровне, умению различать основную мысль на прагматическом уровне, т.е. понимать цели, идеи автора, уметь анализировать жанр текста.

**Ключевые слова:** понимание прочитанного, фонетический лексический, синтаксический, семантический, прагматический уровни, методы «Fleshcards», «Эврика», бинарный тест.

«Davlat tili to'g'risida»gi qonunni hayotimizga izchil tatbiq qilishda barchamiz yuksak madaniyat va o'zaro bir-birini anglash tuyg'usini namoyon etishimiz lozim. Bu borada barcha ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanlarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishish muhim ahamiyatga ega.

Milliy o'quv dasturida ta'kidlanganidek, o'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfdan taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi yaratilgan «Milliy o'quv dasturi» asosida chiqarilgan darslikda o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Ona tili va o'qish fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga, ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

«Ona tili va o'qish savodxonligi» fanida (milliy o'quv dasturida boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish bitta fanga birlashtirilgan) grammatik qoidalarga emas, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u berilgan. Ona tili o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfdan taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qib tushunishning asosiy bosqichlarini farqlay olish, o'qish turlari bilan tanishish va o'qish jarayonida ularga to'laqonli va tizimli yondashish, matndagi notanish so'zlarning ma'nosini izohlay olish, nutq jarayonida ulardan foydalana olishga erishish, matnda ifodalangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradi olish nazarda tutiladi.


Boshlang'ich ta'limda o'qib tushunish bilan bog'liq materiallarni o'qitish samarali bo'lishiga erishish uchun amaldagi o'quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o'quvchida, avvalo, o'quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma'lumotdan unumli foydalangan holda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. O'quvchiga taqdim etilayotgan o'quv materiallari birgina muammo yoki mavzu doirasidagina emas, balki birdaniga o'quvchida zaruriy (adabiy talaffuz, imlo savodxonligi, zarur so'z boyligi va mustaqil ishlash)

malakalarni shakllantirishga xizmat qila olsa, ko'zlangan maqsadga erishish oson bo'ladi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'limdan boshlab ona tilini uzviylik asosida o'qitish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish masalasini dasturga muvofiq amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish barcha fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish, boshqa nutqiy ko'nikmalarni hosil qilishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham, avvalo,

o'qib tushunish ko'nikmasining asosiy bosqichlarini belgilab olish va ularda amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab olish zarurati mavjud. Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturida o'qish savodxonligi uch asosiy qismdan iborat:

- 1) matnga kirish hamda ma'lumot/mulohazalar bilan ishlash;
- 2) ma'lumot/mulohazalarni talqin qilish;
- 3) uyg'unlashtirish, mulohaza yuritish va baholash kabi qismlarga ajratilgan [3].



1-rasm. O'qish ko'nikmalari rivojlanishining asosiy bosqichlari

**Fonetik bosqich.** Tovushlar va ularning grafik belgilari bo'lgan harflarni o'zlashtirish. Tovushlarni bo'g'in va so'zlarga biriktirish ko'nikmasini shakllantirish. Bo'g'inga bo'lib o'qish orqali talaffuzi qiyin so'zlarni ravon o'qiy olish.

**Leksik bosqich.** Lug'at boyligini oshirish. Turli matnlarda so'zlarning ma'nolarini o'zlashtirish. So'z yasash.

**Sintaktik bosqich.** Grammatik bog'lanishlar (so'zlarning teng va tobe bog'lanishi)ni tushunish. So'zlar va gaplar o'rtasidagi sintaktik aloqalarni o'zlashtirish. Gap bo'laklarini tahlil qilish.

**Semantik bosqich.** Matn mazmunini chuqur tushunish. Asosiy fikrni ajratib olish va yashirin ma'nolarni tahlil qilish.

**Pragmatik bosqich.** Muallifning maqsadini tushunish. Matn janrini tahlil qilish. Ma'lumotning ishonchligini baholash.

3-sinf o'quvchilariga «Kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar» mavzusi bo'yicha 32-mashqda «Do'stlik g'olib bo'ldi» ertagi o'qib tushunish uchun tanlangan bo'lib, «o'qing, ertakning oxirini siz o'z talqiningizda yakunlang» topshirig'i berilgan. Matn oxirida «Nima deb o'ylaysiz, bo'ri va tulki boshqa

hayvonlar bilan ahil yashay oladimi? Ertakdagi *nima?* so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni topib yozing» topshiriqlari berilgan. Tahlilga kirishishdan avval «mashq» va «topshiriq» atamaları ostida berilayotgan vazifalarni qiyoslab olish zarur.

G'.Hamroyevning «Ona tili ta'limida grammatik qoidalar emas, balki matn bilan ishlashga o'tish, so'zning matndagi ma'no tovlanishlarini, talaffuzi va yozilishini, matn muallifi aslida nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish o'quvchining turli uslubdagi matnlarni anglashga o'rgatadi, ona tilining boy imkoniyatini namoyon qiladi» [3] degan mulohazalariga asoslanib, o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasi dastlab fonetik mashqlar orqali shakllantirilishini ta'kidlamochimiz.

Fonetik bosqichda quyidagi mashqdan foydalanishni tavsiya etamiz.

**«Fleshcards» metodi.** Matnda qatnashgan so'zlar maxsus tarqatmalarga so'zning boshlanuvchi harfi yoziladi va shu harf bilan boshlanuvchi so'zlar bo'g'inlarga bo'lingan holda yozilgan holda o'quvchilarga taqdim etiladi.





1-tarqatma:

**A**

**ar-cha-zor-lar,**  
**at-rof-da**

2-tarqatma:

**B**

**bi-roq, ber-ki-nib,**  
**bo'ri, bi-lan**

3-tarqatma:

**O**

**pp-poq, o-zod,**  
**o-ra-si-da-gi**

4-tarqatma:

**Q**

**qop-lan-gan, qu-yon**  
**qu-yon-cha-lar**

O'quvchilar tarqatmalarda berilgan so'zlarni bo'g'inga bo'lib o'qishni mashq qilish orqali talaffuzi qiyin so'zlarni oson ayta olishga odatlanishadi.

Leksik bosqichda matndagi quyidagi so'zlarning ma'nosi aniqlashtirib olinadi:

So'z	Ma'nosi
qoplangan	ustini yoki hamma yog'ini qamramoq, burkamoq, bosmoq
jimjitlik	tinch, osuda
hukmron	o'z hukmini o'tkazadigan shaxs; hukmdor, hokim; ko'chma: hukm surgan, zabt etgan, egallagan holatli
in	qush, hasharot va hayvonlarning yashash, bola ochish uchun qurgan joyi; uya
hozirlik ko'rmoq	hozirlik, tayyorgarlik ishlarini bajarmoq, qilmoq; tayyorgarlik ko'rmoq
to'sqinlik qilmoq	qarshilik ko'rsatmoq
maslahatlashmoq	o'zaro yoki biror kishi bilan maslahat qilmoq; kengashmoq
yovuz	o'taketgan yirtqich; ashaddiy
puchga chiqarmoq	asossiz bo'lib chiqmoq, amalga oshmay qolmoq, yo'q bo'lmoq
shox-shabba	sinib tushgan, kesilgan novda, butoq
yolvormoq	o'tinib iltimos qilmoq; iltijo qilmoq, yalinmoq
so'z bermoq	va'da, lafz; azm-qaror.
ozod qilmoq	qutqarmoq, xalos qilmoq [6]

Sintaktik bosqichda «**Evrika**» usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda o'quvchilarga matndagi so'zlarning tartibi o'zgartirilgan quyidagi tarqatmalar taqdim etiladi.

O'quvchilar so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, jumlaning to'g'ri tuzishlari kerak va topgan o'quvchi «Evrika» deya javobini aytadi.

Namuna:

qor, hukmron, oppoq, o'rmonda, bilan, qoplangan, jimjitlik.

Pragmatik bosqichda matnning asosiy mazmunini tushunish uchun quyidagi savollar beriladi:

1. Ushbu ertak siz o'qigan boshqa ertaklardan qanday farq qilishini ayting.

2. Nega bo'ri bilan tulki quyonchalarning Yangi yilni kutishlariga to'sqinlik qilishdi?

3. Nima uchun boshqa hayvonlar bo'ri bilan tulkini jazolashdi?

4. Hayvonlar nega bu usuldan foydalanishdi? Bo'ri bilan tulkini yana qanday jazolash mumkin edi?

5. Nima deb o'ylaysiz, bo'ri bilan tulki hayvonlarga bergan so'zining ustidan chiqadimi? Ular takroran yovuzlik qilishmaydimi?

6. Ertakdagi asosiy g'oyani ayting.

7. Siz ham do'stlaringizga qiyin ahvolda yordam berasizmi?

«Oppoq qor bilan qoplangan o'rmonda jimjitlik hukmron. Archazorlar orasidagi inlarda quyon va quyonchalar Yangi yilni kutishga hozirlik ko'rishdi. Biroq och bo'ri bilan tulki quyonlarning Yangi yilni kutishlariga to'sqinlik qilishdi.

Shunda o'rmondagi hayvonlar o'zaro maslahatlashdilar. Bo'ri bilan tulkinging yovuz niyatlarini puchga chiqarmoqchi bo'lishdi. Ular o'rmon ichidagi bir chuqurtlik ustiga shox-shabba tashlab, ustini yopib qo'yishdi. Kechasi qor yog'di. Chuqurning usti xuddi tekis yerdek bo'lib qoldi. Bo'ri bilan tulki yo'lda kelayotib chuqurga tushib ketishdi. Atrofdagi berkinib turgan hayvonlar ularning ustidan rosa kulishdi.

Bo'ri bilan tulki ularga yolvorishdi. Endi hech ham yomonlik qilmaslikka so'z berishdi. Hayvonlar ularni ozod qilishdi. Hozir o'rmondagi hamma hayvonlar do'st-inoq yashashmoqda».

O'qib tushunish ko'nikmasini baholash murakkab jarayon bo'lib, Sh.Abduraimov ta'kidlaganidek: «O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini aniqlashda va qobiliyatlarini baholashda kognitiv ko'nikmalarga tayanish samarali. Ular asosida sinov savollari va testlarini tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi» [3].

Yuqoridagi matn asosida o'quvchilarda shakllantirilgan o'qib tushunish ko'nikmasini quyidagi test orqali baholash mumkin:

1. Matndagi qaysi so'zlar *nima?* so'rog'iga javob bo'ladi?

A. Olmaxon, quyon, tulki

A. Bo'ri, tulki, ayiq

B. Quyon, tulki, bo'ri

2. Ertakda qaysi bayram haqida so'z borgan?

A. Navro'z

B. Yangi yil

C. Xalqaro bolalar kuni

3. Nima uchun bo'ri bilan tulki quyonchalarning bayramini buzishga to'sqinlik qilishdi?

A. Chunki ular och edi.

B. Chunki ularning do'sti yo'q edi.

C. Chunki ular bayramni yomon ko'rishar edi.

4,5- savollar «Binar» test topshirig'i orqali bajariladi: (Eslatma: javoblardan biri ortiqcha)

1. Atrofdagi berkinib turgan _____ ularning ustidan rosa kulishdi.	A. Hayvonlar
2. _____ ularga yolvorishdi.	B. Quyonchalar
	C. Bo'ri bilan tulki

6–8-savollar qisqa javob berish orqali bajariladi. Quyidagi hukmlarning mazmunidan kelib chiqib, javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

6. Bo'ri bilan tulki shox-shabballarni yer deb o'ylashdi va oyoq bosib chuqurga tushib ketishdi?

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

7. Bo'ri bilan tulki pushaymon bo'lib kechirim so'rashdi, qaytib yovuzlik qilmaslikka so'z berishdi.

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

8. O'rmondagi hayvonlarning ahil yashashiga quyonchalarning hiylasi sabab bo'ldi?


A. To'g'ri B. Noto'g'ri

9-10-savollar. Rasmiy test.

9. Quyida berilgan rasmlardan ertak mazmuniga mos keladiganini aniqlang.



A.



B.



C.


10. Ertakda uchramaydigan hayvon rasmini toping.



A.



B.



C.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish bosqichlarini aniqlab olish, darsda innovatsion usullardan foydalanish hamda o'quvchilarni baholashga yangicha tamoyillar asosida yondashish samarali natija beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraimov Sh. Baholash nazariyasi asoslari. Metodik qo'llanma. – Toshkent: «Zebo Prints», 2024. – 220 bet. 65-bet.

2. Boynazarov D.D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. III qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 96 b.

3. Hamroyev G. Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped.fan.dok... diss. – Toshkent, 2021. 17-bet.

4. Mahmudov N., Ziyadova T., Ahmedova N., Ramazonova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish. – Toshkent, 2014.

5. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv // Ma'rifat. 2022-yil 27-iyul. №29 (9406).

6. O'zbek tilining izohli lug'ati. II, III, IV, V, VI jildlar. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2022.



**Ruxshona SALOMOVA,**

*Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 37-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi;*

**Yulduz OMONOVA,**

*Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 29-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

## INGLIZ TILI FANINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI: DARSLARDA VA INGLIZ MILLIY ISMLARINING O'XSHASH JIHATLARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

**Annotatsiya.** Maqolada ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan sinflarda o'quvchilarga ma'nosi o'z ismiga yaqin bo'lgan inglizcha ism bilan murojaat qilish, ingliz tili darslarida 4K interaktiv metodlaridan foydalanishning samarali usullari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** EFL, 4K, interaktiv, milliy kelib chiqish, nominating.

**Annotation.** The article is devoted to the use of effective methods in organizing English as a foreign language lessons, addressing the analogues of students' names in English, as well as effective ways of using 4K interactive methods in English classes.

**Keywords:** EFL, 4K, interactive, cultural awareness, nomination.

**Аннотация.** Содержание статьи посвящено использованию эффективных методов при организации уроков английского языка как иностранного, обращению к аналогам имен учащихся на английском языке, а также эффективным способам использования 4K интерактивных методов на занятиях по английскому языку.

**Ключевые слова:** EFL, 4K, интерактивный, культурная осведомленность, номинация.

Mustaqillikning daslabki yillarida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitish va o'rganish ijtimoiy ehtiyojga aylandi, davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Fan va texnika jadal ravishda rivojlanayotgan, axborot oqimlari kengayib borayotgan bu davrda chet tillarini o'qitish tizimini qayta ko'rib chiqish va uni takomillashtirishga ehtiyoj tug'ildi. Xorijiy tillarni mukammal egallash va axborot kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi [1].

Ingliz tilini yaxshi bilgan, bu tilda erkin, yozma va og'zaki muloqotga kirisha oladigan har qanday yosh vakilining boshqa tengdoshlari orasida ustunlik taraflari mavjud bo'ladi. Chet tilini bilish darajasi bo'yicha Milliy yoki xalqaro yuqori ballidagi Sertifikatlarga ega o'qituvchilar, o'quvchi va kasb vakillariga ham davlatimiz tomonidan turli xil rag'batlantirishlar belgilab berilgan. Bunday imkoniyatlardan keng foydanib ingliz tilini o'qitish va o'rganish jarayonini samarali tashkil qilish, ingliz tilining asl mohiyatini tushunish, milliy kelib chiqish tarixini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi [2].

Ingliz tili o'qitish metodikasida «nominating» [3: 185] degan atama bor. Bu so'zning ma'nosi dars jarayonida ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarni ismi bilan chaqirib murojaat qilishini bildiradi. O'qituvchi o'quvchiga topshiriq berganda, fikrini so'raganda yoki ruhlantirish maqsadida unga ismi bilan murojaat qilishi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Men 13 yillik ish faoliyatim davomida milliy sinflarga ingliz tili fanidan dars berib kelmoqdaman. O'quvchilarimning darsda o'zlarini erkin his qilishi, fikrini to'liq bayon qila olishi men uchun juda muhim. Shu maqsadda ularga dars davomida o'zbekcha ismlarining ma'nosiga mos ingliz ismlari bilan murojaat qilaman. Bu maqsad yo'lida albatta ona tili va adabiyoti fani mutaxassisi bilan ismlar yuzasidan fikr almashishga to'g'ri keladi. Inglizlar ham farzandlariga yaxshi niyat va havas bilan ism tanlashini aytaman, ismlarning tarjimasi, ma'nosi bilan tanishtiraman. Bu jarayon darslarimizni yanada qiziq va samaraliroq bo'lishiga xizmat qilmoqda. O'zbek ismlarining ma'nosi, tarixiga qiziqqan holda olib borgan izlanishlarimiz natijasi va tajribamda qo'llagan ingliz–o'zbek ismlarga misollar keltirib o'tmoqchiman.

	English names (f/m) [4], [5]	O'zbek ismlari (a/e) [6], [7]
1	Aaron m (English, Jewish, Biblical, Latin, Greek) suggest meanings such as a «high mountain» or «exalted»	Abdukamol e. (arab) yetuklik, kamolot sohibining, ya'ni Allohning bandasi
2	Abraham m (English, Spanish, French, Dutch, German, Biblical, Latin) meanings «father of many», «many, multitude»	Otabek e. (o'zbek) shahzoda, xonzoda, beklar boshlig'i
3	Addison m (English) meaning «son of Adam»	Alibek e. (arab) eng yuksak. Eng ulug' yuqori martabali. Muhammadning kuyovi

4	Adelaide f (English, Italian, Portuguese) many meanings «noble» and «bright»	Mehribon a. (fors-tojik) g'amxo'r, jonkuyar, mushfiq, iltifotli
5	Amanda f (English, Italian, Portuguese) means «lovable, worthy of love»	Dilbar a. (fors-tojik) yoqimli, maftun qiluvchi, suyuqli, ko'ngilni oluvchi, ko'rkam
6	Archibald m (English, Scottish) means «genuine» and «bold», «master»	Oqil e. (arab) aqlli, fahm farosatli, dono bola
7	Arthur m (English, French, German) means «bear», «man» and «king»	Shohzamon e. (fors-tojik, arab) davr hukmdori
8	Alan m (English, French, Scottish) means «little rock» or «handsome»	Kamol e. (arab) yetuk, nuqsonsiz, bekam-u ko'st, mukammal
9	Albert m (English, French, German, Russian) means «noble» and «bright»	Sirojiddin e. (arab) nurli, ravshan, ma'shal
10	Benjamin m (English, French, German) means «son», «lovely son»	Kenja e. (o'zbek) keksa yoshdagi ota-onaning oxirgi Kenja, kichik bolasi
11	Bernard m (English, French, German, Dutch) means «bear» and «brave»	Jasur e. (arab) qaytmas, mard, jur'atli, jasoratli
12	Bonita f (English, French) means «good», «pretty»	Go'zal a. (o'zbek) ko'rkam, chiroyli
13	Conrad m (English, German) means «brave» and «counsel»	Sardor e. (fors-tojik) yetakchi, urug' yo qabila boshlig'i, lashkarboshi, qo'mondon
14	Clara f (English, Italian, German, Spanish, Swedish) means «clear, bright» and «famous»	Mashxura a. (o'zbek) tolei porloq, yurtning hurmatini qozongan, ishonchni oqlaydigan
15	Darwin m (English) means «dear friend»	Jo'rabek e. (fors-tojik) do'st, o'rtog'i ko'p
16	Donald m (Scottish, english) means «the ruler of the world», «world», «rule»	Jahongir e. (fors-tojik, o'zbek) olamni bo'sundiruvchi, fath etuvchi, g'olib, muzaffar
17	Edgar m (English, French) means «wealth, fortune»	Boymurod e. (o'zbek, arab) boy bola, davlatli bola
18	Edison m (English) means «son of Adam»	Xudoyqul e. (fors-tojik, arab, o'zbek) Allohning bandasi, quli
19	Emmanuel m (Biblical, English, French) means «God is with us»	Xudoyor e. (fors-tojik) Alloh yor bo'ladigan, qo'llaydigan bola
20	Estella f (French, English) means «star»	Yulduz a. (o'zbek) tolei porloq
21	Felix m (English, French, German, Dutch) means «lucky, successful»	Baxtiyor e. (arab, fors-tojik) saodat, qut, istiqbol yor bola, shodon, quvnoq
22	Flora f (Italian, German, English) means «flower»	Guli a. (fors-tojik) ayollarning guli, go'zali
23	Franklin m (English) means «freeman»	Ozodbek e. (fors-tojik) erkin, xursand
24	Gabriel m (French, English Spanish, Portuguese, German, Danish) means «strong man», «hero»	Qahramon e. (fors-tojik) kuchli, qudratli, dovyurak, qayrog'ochdek mustahkam, chidamli
25	Kelda f (English) means «a spring»	Bahora a. (fors-tojik) ko'rkam qiz
26	Kevin m (English, Irish, French, German, Danish) means «kind, gentle, handsome»	Ahror e. (arab) oliyjanob, himmatli, muruvvatli
27	Lavender f (English) means aromatic flower or the pale purple color	Rayhona a. (arab) nozbo'y, rayhondek, yoqimtoy qiz
28	Leo m (English, Irish, French, German, Danish) mean «lion»	Sher e. (fors-tojik) arslon, arslondek dadil, jasur





29	Leopold m (English, German, Dutch) means «people» and «bold»	Yashnar e. (o'zbek) gullab yasnaydigan, umri barq uruvchi, barhayot bo'luvchi
30	Lily f (English) means lilium flower	Nilufar a. (hind) nilufar gulidek go'zal qiz
31	Margaret f (English) means «pearl»	Durdona a. (arab, fors-tojik) inju donasi, a'lo marvarid, qadrli qiz
32	Mary f (English, Biblical) means beloved and love	Muhabbat a. (fors-tojik) mehr, muhabbatli qiz, mehribon qiz
33	Meline f (English, Greek) means «honey»	Asal a. (arab) bol, shirin, suyuqli qiz
34	Miranda f (English, Dutch) means «admirable, wonderful»	Maftuna a. (arab) zavqlantiruvchi, maftun etuvchi, chiroyli
35	Peter m (English, German, Dutch, Swedish, Norwegian, Slovak) means «stone»	Toshjon e. (o'zbek, fors-tojik) toshdek mustahkam, jondan aziz, metin irodali
36	Philip m (English, Swedish, Norwegian) means «friend of horses»	Shohsuvor e. (fors-tojik) ot minishning mohir chavandozi, otlarni qadrlaydigan
37	Randolf m (English) means «wolf»	Bo'riboy e. (o'zbek) bo'ridek kuchli bola
38	Robert m (English, Swedish, French) means «bright fame»	Ashraf e. (arab) eng sharaflil, eng hurmatli, oliy zot yoki aslzoda, avliyo
39	Roxana f (English, Spanish, Persian or Bactrian) means «bright, dawn»	Ruxshona a. (arab, fors-tojik) nurli, ravshan, porlovchi, kun botish
40	Samson m (English, Biblical, French) means «the sun»	Quyosh e. (o'zbek) tolei quyoshdek porloq, quyosh farzandi
41	Sarah f (English, French, German, Arabic) means «lady, princess, noblewoman»	Malika a. (arab) qirolicha, podshohning avlodiga mansub ulug' martabali ayol
42	Sophia f (English, German, Greek) means «wisdom»	Oqila a. (arab) aqlli, farosatli, dono qiz
43	Tyson m (English) means «firebrand»	Oloviddin e. (arab) olovqalb bola
44	Joe f (English, Italian, Ancient Greek) means «life»	Hayotxon a. (arab, o'zbek) yashasin barhayot bo'lsin, martabali bo'lsin
45	Newman m (English) means «moved», «new place»	Yangiboy e. (o'zbek) avvalgilardan farqli, boshqacha bola

FTil o'rganish jarayoni amaliyoti og'zaki va yozma muloqotni talab qiladi. O'quvchilar darsda o'zlarini erkin his qilsa, samaradorlik oshib boradi. O'qitishning yangi usullaridan biri hisoblangan 4K metodikasi kommunikatsiya, kollobaratsiya, kreativlik ham o'quvchilarning o'zaro integratsiyasi, ya'ni muloqoti, birga ishlash, tanqidiy fikrlash, bir-birini baholash holatlarida amalga oshadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'nodosh ismlardan foydalanish orqali ingliz tili darolarida har qanday mavzu o'tilayotganda 4K metodlari bilan birga amalda qo'llasak bo'ladi. O'quvchilarni individual, juft bo'lib ishlash, jamoaviy mashg'ulotlarni bemaolol tashkil qilsak, ularni baholash

jarayonida amalga oshirish mumkin. Yangi darsliklar zamonaviy o'qitish metodikasiga asoslangan holda yaratilgan. Yangi metodika xalqaro tajribalarga tayangan holda o'quvchilarni darsda asosiy rolda bo'lishi, ko'proq amaliyot bilan ishlash, integratsiyalangan ta'lim jarayonini maqsad qilib olgan.

Xulosa o'rnida aytish muhimki, chet tilini o'qitish yangi bir dunyo eshigini ochish, kishini boshqa bir millat bilan tanishtirish, ilm-fanni o'rganish, ya'ni ma'lumotlarni filtirlab, yosh avlodni millatlararo do'stlik ruhida tarbiyalash demakdir. Bu yo'lda biz pedagoglarning bilimi yuqori bo'lishi, yoshlarni fanga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirib borishimiz kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Karavas E. Applied linguistics to Foreign Language Teaching and Learning. An introduction to Applied Linguistics. Edition: 1.0. Athens 2014.
3. (Second Edition) The TKT-Teaching Knowledge Test, Course 1,2 and 3. Mary Spat, Alan Pulverness, Melanie Williams. Cambridge University Press. November 2012.
4. Ismlar ma'nosi. Apkpure. <https://apkpure.com/ismlar-ma-nosi-2023/com.asadbek.ismlarmanosi2023/download>.

**Naima REJAPOVA,**

*Xalqaro Nordik universiteti xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi*

## **RAQOBATBARDOSH MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA CLIL TEXNOLOGIYASINING O'RNI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nolingvistik universitetlardagi talabalarning xorijiy tillarni bilish darajasini oshirishning eng samarali usuli sifatida Content and Language Integrated Learning (CLIL) ta'lim texnologiyasi muhokama qilinadi. Shuningdek, fan va til integratsiyalashgan ta'limning xususiyatlari, ushbu usulni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladigan axborot texnologiyalari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** fan va til integratsiyalashgan ta'lim, kasbga yo'naltirilgan fanlar, nolingvistik universitetlar, CLIL texnologiya, yuqori malaka, chet tilini o'qitish.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается образовательная технология интегрированного обучения предмету и языку (CLIL) как наиболее эффективный способ повышения уровня владения иностранным языком студентами неязыковых вузов. Изучаются также особенности интегрированного естественнонаучного и языкового образования и информационные технологии, способствующие успешной реализации этого метода.

**Ключевые слова:** интегрированное обучение естественным наукам и языку, профориентационные предметы, неязыковые университеты, технология CLIL, высшее образование, преподавание иностранных языков.

Zamonaviy dunyoda texnologiyaning jadal rivojlanishi, iqtisodiyotning globallashuvi va mehnat bozorida raqobatning kuchayishi sababli oliy ta'lim bitiruvchilariga qo'yilayotgan talablar tobora kuchaymoqda. Hozirgi kunda jamiyat dinamikasi sharoitida nafaqat kasbiy mahoratga, balki keng dunyoqarashga, moslashish va madaniyatlararo mulohazaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Mehnat bozorida mutaxassislarning ahamiyati va talabini oshiruvchi asosiy omillardan biri bir yoki bir nechta xorijiy tillarni bilishdir. Bu, ayniqsa, xalqaro hamkorlik va integratsiya sharoitida dolzarb bo'lib qoladi. Chet tilini yuqori darajada bilish talabalarga kasbiy o'sish va rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. U global ma'lumotlarga kirish imkoniyatini ochib beradi, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, xorijiy hamkorlar bilan ishlash va hatto ishlash yoki o'qishni davom ettirish uchun chet elga ko'chib o'tish imkonini beradi. Biroq chinakam yuqori sifatli tilni bilish darajasiga erishish uchun zamonaviy ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan samarali o'qitish usullari kerak.

Chet tillarini sifatli o'rganishda muvaffaqiyatga innovatsion pedagogik usullar va texnologiyalarni joriy etish ko'p jihatdan yordam beradi. Shunday istiqbolli texnologiyalardan biri Content and Language Integrated Learning (CLIL)dir. Ushbu texnologiya mutaxassislik fanlarini o'rganishni chet tilini o'zlashtirish bilan birlashtiradi, bu esa o'quv jarayonini amaliy va real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi. CLIL talabalarga nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki tildan axborotni qabul qilish va uzatish vositasi sifatida foydalanib, kasbiy sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi. O'quv fani ham, chet tili ham bir vaqtning o'zida o'rganiladi. Shu bilan birga, chet tili boshqa fanlarni o'rganish uchun vosita sifatida qabul qilinadi.

CLIL usulini qo'llashda ikkita maqsad belgilanadi: biron-bir mutaxassislik fani chet tili yordamida va chet tili, o'z navbatida, o'qitilayotgan fan orqali o'rganiladi. Mavzu bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish oson jarayon emas va bir necha modellarga ega bo'lib, ular orqali bu metod o'quv jarayoniga tatbiq etiladi. Shunday qilib, ekspertlar o'qitishning 3 ta modelini ta'kidlab ko'rsatishadi, ular bir-biridan fanni o'rganish jarayonida chet tilini qo'llash intensivligi darajasi bilan farqlanadi.

1. Ko'p tilli ta'lim. Ushbu modelda bir nechta tillardan turli kurslarda va fanlarda foydalaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, talaba bir nechta tillarni bilgan holda kasbiy bilimda ustunlikka ega bo'ladi. Ushbu model ta'limning ancha nufuzli shakli hisoblanadi.

2. Fan va tilni yaxlit holda o'qitish. Til o'qitish fanlarni o'qitish bilan parallel ravishda olib boriladi, bunda asosiy e'tibor yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun tildan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

3. Tilni qo'llab-quvvatlaydigan fanlar. Mutaxassislik bo'yicha o'quv dasturlari til ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan. Hatto o'qitilayotgan tilni yaxshi bilmaydigan talaba ham o'quv jarayoni davomida qo'llab-quvvatlanadi, bu esa fanni ham, o'rganilayotgan chet tilini ham o'zlashtirishga imkon beradi [1].

Zamonaviy tadqiqotchilar CLILni «hard» va «soft»ga ajratadilar. «Hard» CLIL har qanday fanni chet tilida o'qitish mumkinligini bildiradi. Bunday mashg'ulotlar davomida talabalar kimyo, geometriya, tarix, iqtisod va boshqa fanlarni chet tilida o'rganishlari mumkin. Universitetdagi chet tili darslarida «soft» CLIL ko'proq qo'llanilishi mumkin. Talabalarning chet tilini bilish va malakasini oshirish uchun boshqa fanlarning materiallaridan ham foydalaniladi. Fan-til integratsiyalashgan ta'limning asosiy xususiyati talabalarga fanning muayyan sohasi bo'yicha



xorijiy mutaxassislar tajribasi bilan tanishish imkoniyatini beradi [2].

CLIL texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari ko'p. Talabalar o'zlari o'rganayotgan chet tilning tabiiy til muhitiga to'liq singib ketishadi, xalqning madaniyati va xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, turli mavzular ustida ishlash orqali til ifodalari va konstruksiyalarini o'rganishlari mumkin. So'z boyligi fanga tegishli atamalar bilan kengaytiriladi, bu esa talabaga olgan bilimlarini qo'llashni ancha osonlashtiradi. O'qituvchi oldida talabalarning chet tilidagi fanlarni o'zlashtirishga tayyorlik darajasini to'g'ri aniqlash vazifasi qo'yiladi.

CLIL texnologiyasidan foydalanganda talabalarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib boradi, chunki til yangi ma'lumotlarga, xususan, ma'lum bir kasbiy faoliyat sohasidagi xorijiy mutaxassislarining asl manbalariga keng kirish imkonini beradi. Shu bilan birga, talabalar kerakli fan atamalarini erkin o'zlashtira oladilar, bu esa keyinchalik ular yuqori darajadagi professional tayyorgarlikka ega mutaxassis bo'lishiga zamin yaratadi.

Afzalliklari ko'pligiga qaramay, texnologiyaning ba'zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan, chet tili o'qituvchilarida ma'lum bir fan bo'yicha zarur bilimlar yetishmaydi, ular maxsus kasbiy lug'atga ega bo'lmasligi yoki fan o'qituvchisi chet tilini o'zi bilmasligi mumkin.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, chet tilini bilish darajasi o'rtacha darajadan past bo'lmagan talabalar bilan ishlashda CLIL yondashuvidan foydalanish yaxshidir, aks holda chet tilini bilish fanni o'zlashtirish uchun yetarli bo'lmaydi, bu esa talabalarning bilim faolligini va motivatsiyasini pasaytiradi. Talabalar chet tilidan turli maqsadlarda foydalanishlari mumkin: muloqot, onlayn va oflayn muloqot, og'zaki va yozma

nutq. Bunda eng muhim mahorat mavzu, akademik va so'zlashuv lug'ati, iboralar va iboralarni o'z ichiga olgan haqiqiy matnlarni o'qishdir. Bu nolingvistik universitetlar talabalarining nutq qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

Agar o'qituvchilar til va fanni o'qitish o'rtasidagi muvozanatni saqlay olsa, til o'rganish mazmuni va maqsadlarini e'tibordan chetda qoldirmasa, talabalarga kurs mazmunini haddan tashqari ko'p yuklamasa, CLIL texnologiyasidan foydalangan holda o'qitish muvaffaqiyatli bo'ladi. Nolingvistik universitetlarda CLIL tizimidan foydalanayotgan o'qituvchilar nafaqat chet tilini yuqori darajada bilishi, balki til o'qitiladigan kasbga yo'naltirilgan fanlar bo'yicha ham malakali bo'lishi muhimdir. Buning uchun ular fan o'qituvchilari bilan doimiy hamkorlikda ishlashi yoki fanni mustaqil ravishda chuqur o'zlashtirishi talab qilinadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, «CLIL texnologiyasi o'quv jarayonini iloji boricha tabiiy qiladi; chet tilini o'rganishning asosiy rag'batlantiruvchi kuchi talabaning kasbiy maqsadlarda tanlagan faniga qiziqishidir» [3]. «Albatta, fan-til integratsiyalashgan o'qitish istiqbolli bo'lib, katta didaktik salohiyatga egadir, nolingvistik mutaxassisliklar bo'yicha talabalarning til tayyorgarligini takomillashtirish imkonini beradi» [4].

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, nolingvistik universitetlarda CLIL texnologiyasidan foydalanishning dolzarbligi ko'p tilli makonning kasbiy muhitdagi roli o'sishi, turli sohalarda xalqaro aloqalarning faol o'rnatilishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan o'quv jarayonini sifatli tashkil etish, til o'rgatishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradigan yangicha yondashuvlardan foydalanish ustida doimiy ish olib borish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coly D., Hood P. and Marsh D. CLIL: Content and language integrated learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
2. Карцева Е.В. Преподавание иностранного языка с использованием технологий предметно-языкового интегрированного обучения в неязыковом вузе. <http://publishing-vak.ru/file/archive-pedagogy-2019-4/37-kartseva-flaksman.pdf>.
3. Пономарева А.В. Структура занятия на основе CLIL-технологий в неязыковом вузе // Гуманитарные науки, 2021, №3-2. С. 84–88. // <http://www.nauteh-journal.ru/files/e1cb09e9-3895-444c-ba03-6c18819a71fe>.
4. Чекун О.А. Предметно-языковое интегрированное обучение в неязыковых вузах // <https://cyberleninka.ru/article/n/predmetno-yazykovoe-integrirovannoe-obuchenie-v-neyazykovykh-vuzah>.

**Dilafuz XIDOYATOVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti*

## **O'QITISHNING PSIXODIDAKTIK, EMOTSIONAL VA O'ZGARISH TAMOYILLARINING O'ZIGA XOSLIKLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada psixodidaktikada emotsional va transformatsion prinsiplar ko'rib chiqiladi. Psixodidaktika psixologik omillarning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganadi va talabalarning kognitiv va emotsional xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitish metodlarini ishlab chiqadi. Asosiy e'tibor ikki eng muhim prinsipga qaratilgan: emotsional muhit va ta'limni transformatsiya qilish. Ularning motivatsiyaga, bilimlarni egallash samaradorligiga va o'quvchilarning rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi hamda amaliy qo'llanilishiga oid misollar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** o'qitish, psixodidaktik tamoyillar, o'zgarish tamoyili, o'ziga xosliklar, psixologiya, didaktika, emotsional rivojlanish, o'quv jarayoni, ta'lim konsepsiyalari.

**Annotation.** This article discusses emotional and transformational principles within the framework of psychodidactics. Psychodidactics studies the influence of psychological factors on the learning process and develops teaching methods that take into account the cognitive and emotional characteristics of students. The main focus is on two key principles: the emotional environment and the transformation of learning. The impact of these principles on motivation, the effectiveness of knowledge acquisition, and student development is analyzed, and examples of their practical application are provided.

**Keywords:** teaching, psychodidactic principles, principle of change, particularities, psychology, didactics, emotional development, learning process, educational concepts.

**Аннотация.** В статье рассматриваются эмоциональные и трансформационные принципы в психодидактике. Психодидактика изучает влияние психологических факторов на образовательный процесс и разрабатывает методы обучения, учитывающие когнитивные и эмоциональные особенности учащихся. Основное внимание уделяется двум важнейшим принципам: эмоциональной среде и трансформации образования. Анализируются их влияние на мотивацию, эффективность обучения и развитие учащихся, а также приводятся примеры практического применения.

**Ключевые слова:** преподавание, психодидактические принципы, принцип изменения, специфика, психология, дидактика, эмоциональное развитие, процесс обучения, образовательные концепции.

Psixodidaktika – psixologiyaning ta'lim jarayonlarini o'rganish va o'qitish usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan sohasi. «Psixodidaktika» atamasi ikkita asosiy komponentni birlashtiradi: «psixo» (psixologiya bilan bog'liq) va «didaktika» (o'rganish va o'qitish usullari haqidagi fan). Psixodidaktika tarixi vaqt o'tishi bilan ta'lim va psixologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq. Uning rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqamiz:

**Dastlabki bosqichlar.** XIX asrda pedagogika va ta'lim psixologiyasi sohasida faol ishlar boshlandi. Bu davrda Yan Amos Komenskiy, Jan-Jak Russo, logan Gerbart kabi olimlar o'rganish nazariyasi va o'qitish usullarini rivojlantirishga hissa qo'shdilar.

**Pedagogik psixologiyaning shakllanishi.** XX asr boshlarida pedagogik psixologiya alohida ilmiy fan sifatida rivojlana boshladi. Edvard Torndik, Jon Dyui, Lev Vigotskiy kabi olimlarning tadqiqotlari o'rganish jarayonida yuzaga keladigan psixologik holatlarni tushunishga katta hissa qo'shdi.

**Xalqaro taraqqiyot.** XX asrning 2-yarmida dunyoda ta'lim va fanning rivojlanishi bilan psixodidaktika yanada xalqaro tus oldi. Ushbu sohaning rivojlanishida konstruktivistik nazariya va kognitiv psixologiya tadqiqotlarining ta'siri ham sezilarli bo'ldi.

XX asrda dunyoning g'arbiy qismida psixodidaktikaning rivojlanishi bir necha asosiy bosqichlarni bosib o'tdi va

bu yerda muhim yo'nalish hamda tushunchalar shakllandi. Bular quyidagilardir:

**Bixeviorizm.** XX asrning birinchi yarmida xulq-atvorni tashqi ko'rinishlarni kuzatish yo'li bilan o'rganish mumkin, psixologiya ilmiy va ob'yektiv bo'lishi kerak, deb ta'kidlagan bixeviorizm hukmronlik qildi. Jon B. Uotson va B. F. Skinner kabi tadqiqotchilar tashqi xulq-atvor reaksiyalarini o'rganishga va o'rganishga yondashuvlarni o'rganishga e'tibor qaratdilar.

**Kognitiv psixologiya.** XX asrning ikkinchi yarmi kognitiv psixologiyaning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Jan Piage, Ulrix Nayser va Albert Bandura kabi olimlar idrok etish, fikrlash va eslash kabi ichki kognitiv jarayonlarni o'rganishga kirishdilar. Ushbu yondashuv o'quv jarayonlarini chuqurroq tushunishga olib keldi va psixodidaktika sohasiga muhim tushunchalarni keltirdi.

**Ijtimoiy-madaniy yondashuv.** XX asrda sotsial-madaniy yondashuvning ta'siri sezilarli darajada oshdi. Ijtimoiy-madaniy nazariyalar o'quvchilar va ularning ijtimoiy-madaniy muhiti o'rtasidagi o'zaro ta'sirga urg'u beradi.

**Konstruktivizm va konstruktivistik pedagogika.** Konstruktivizm g'oyalari ham G'arb psixodidaktikasining muhim elementiga aylandi. Jan Piaget va Lev Vigotskiy kabi olimlar o'rganish o'quvchilarning o'z tajribalari asosida bilimlarni qurishning faol jarayoni degan g'oyaga asoslanib konsepsiyalarni ishlab chiqdilar.





**Texnologik innovatsiyalar va ta'lim.** XX asrning so'nggi o'n yilliklarida ta'limda texnologiyaning yuksalishi kuzatildi. Bu vaqt kompyuterlarning rivojlanishi va interaktiv ta'lim dasturlarining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Elektron ta'lim bo'yicha tadqiqotlarga qiziqish va ta'limda texnologiyadan foydalanish sezilarli darajada oshdi. G'arbda psixodidaktika sohasidagi tadqiqotlar rivojlanishda va ta'lim sohasidagi zamonaviy talablarga moslashishda davom etmoqda.

**Zamonaviy tendensiyalar.** Zamonaviy psixodidaktikada ta'limni individuallashtirish, ta'limda yangi texnologiyalardan foydalanish, o'qitish usullarining samaradorligini tadqiq qilish va o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish nazariyalarini ishlab chiqishga e'tibor beriladi. Psixodidaktika zamonaviy ta'lim muammolari, yangi texnologiyalarni joriy etish va ta'lim usullarining moslashuvchanligi va samaradorligiga e'tibor qaratish sharoitida rivojlanishda davom etmoqda. O'qitishning psixodidaktik tamoyillari o'quv jarayonida psixologik jihatlarni hisobga oladigan asosiy qoidalarni ifodalaydi. Ular o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bilim, ko'nikma va malakalarni samarali o'tkazishga qaratilgan. Psixodidaktikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Faoliyat tamoyili;
- Semiotik faoliyat;
- Muvofiqlik va izchillik tamoyili;
- Mavjudlik va tushunarlilik tamoyili;
- Individuallashtirish tamoyili;
- Tizimlashtirish va takrorlash tamoyili;
- Emotsional (hissiy) muhit tamoyili;
- Tajribaga tayanish tamoyili;
- O'zgaruvchanlik tamoyili.

Mazkur maqolada ta'limning psixodidaktik tamoyillarida «emotsional (hissiy) muhit tamoyili» va «o'zgaruvchanlik tamoyili» haqida tahliliy fikrlarimizni taqdim etamiz.

**Emotsional (hissiy) muhit tamoyili.** Sinfda yoki ta'lim muhitida ijobiy emotsional (hissiy) holatni vujudga keltiradigan muhit axborotni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi. Bu muhitda odatda qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi muhit yaratish muhimdir. Ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ta'limdagi faolligi, o'rganish samaradorligi va umumiy natijalariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Bu tamoyil ta'lim muhitida ijobiy emotsional holatlarni yaratishning muhimligini ta'kidlaydi.

Emotsional muhitning ta'limga ta'sirini quyidagi qismlarga bo'lib tahlil qilsak:

**1. Motivatsiyani oshirish.** Ijobiy emotsional muhit, ya'ni muhitda rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi atmosfera o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Odatda yuqori darajadagi emotsional qoniqish va ta'limda ijobiy munosabatlar, o'quvchilarning yangi ma'lumotlarni qabul qilish va ularni samarali o'rganish qobiliyatini yaxshilaydi.

**2. Kreativlik va innovatsiya.** Emotsional muhit ijobiy bo'lganda, o'quvchilarning kreativligi va innovatsion fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Ular yangi g'oyalarni, qarorlarni va yechimlarni kengaytirish imkoniga ega bo'ladi.

**3. Xatolarni qabul qilish.** Ijobiy muhit o'quvchilarning xatolarini qabul qilish va ulardan o'rganishini osonlashtiradi. O'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va ijobiy fikrlari o'zini o'rganish jarayonida ijobiy hislarni shakllantiradi, bu esa o'quvchilarni xavfsiz his qilishiga va sinovlarga ochiq bo'lishga olib keladi.

**4. O'zaro munosabatlar.** Emotsional muhit o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga ham ta'sir qiladi. Ijobiy muhitda o'quvchilar o'rtasida hamjihatlik, yordam va o'zaro ehtirom rivojlanadi. Bu ijobiy munosabatlar guruhdagi hamkorlik va jamoaviy o'rganishni osonlashtiradi.

**5. Stressni kamaytirish.** Salbiy emotsional muhit stressni oshiradi, bu esa o'quvchilarning diqqatini, qiziqishini va umumiy samaradorligini pasaytiradi. Ijobiy muhit stressni kamaytirish va ta'lim jarayonini faollashtirish uchun muhimdir.

Emotsional muhit yaratishda faol foydalanilayotgan usullar quyidagilar:

– O'qituvchilar sinfda faol ishtirokni rag'batlantirishlari kerak. Bu faollik muhitida o'quvchilarning o'z fikrlari, gaplari va hissiyotlari bilan o'rtoqlashishlari uchun imkoniyat yaratadi.

– O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlarni yaratish kerak. O'qituvchilar o'z o'quvchilarini tinglashlari, tushunishlari va ehtiyojlariga e'tibor berishlari muhim.

– Sinfda umumiy maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun harakat qilish ham ijobiy muhit yaratishga yordam beradi.

– O'qituvchilar interaktiv va qiziqarli faoliyatlarni o'tkazishlari kerak, bu esa o'quvchilarning ishtirokini hamda qiziqishini oshiradi.

Emotsional muhit tamoyili ta'lim jarayonida ijobiy holatlarni yaratish va o'quvchilarning motivatsiyasini, kreativligini, hamkorlikni va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish uchun muhimdir. O'qituvchilar ijobiy muhitni yaratish uchun faol usullardan foydalanishlari kerak, bu esa o'quvchilarning samarali o'rganishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonidagi muhim konsepsiya bo'lib, o'quvchilarning o'rganish samaradorligi, motivatsiyasi va umumiy psixologik holatiga ta'sir qiladi. To'g'ri tashkil etilgan emotsional muhit o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatini yaxshilash, ularni faollashtirish va samarali o'rganishni ta'minlash uchun muhimdir. Keling, bu masala bo'yicha olimlarning qarashlarini ko'rib chiqaylik.

Dyui Dewey ta'limda faoliyatga asoslangan metodlarni muhim deb hisoblaydi. Uning fikricha, ijobiy emotsional muhit o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirishga yordam beradi. Dyui ijodiy ta'lim muhiti yaratish orqali o'quvchilarning o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi. U o'quvchilarning

hissiy jihatini e'tiborga olish, ta'limda faol ishtirok va his-tuyg'ularni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi [2].

Edvard Tolman «kognitiv karta» konsepsiyasi o'quvchilarning emotsional holatlari va ularning o'rganishga ta'sirini tushunish uchun muhimdir. Uning tadqiqotlari orasida ijobiy emotsional muhitning ahamiyati ta'lim jarayonida ichki motivlarni rag'batlantirishda ekanligi aniqlangan [6].

Mixay Chiksentsmixayi (Mihaly Csikszentmihalyi, 1990) «flou» holati konsepsiyasini taklif etgan. Uning fikricha, ijobiy emotsional muhit o'quvchilarning «flou» holatiga erishishlariga yordam beradi. «Flou» holati insonning to'liq diqqatini va energiyasini ish jarayoniga jalb qilganida yuzaga keladi, bu esa o'rganish samaradorligini oshiradi [3].

Blumning taksonomiyasi ta'lim maqsadlarini belgilashda ijobiy emotsional muhitning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning metodologiyasi o'quvchilarning faol qatnashishini rag'batlantirish, ijobiy muhit yaratish va yangicha bilimlarni qabul qilish uchun muhit yaratishni ko'zda tutadi [4].

Donald Bruner ijobiy emotsional muhitning o'rganish jarayonidagi samaradorligini tahlil qilib, ta'limdagi faoliyatlarga asoslangan podxodni rivojlantirishni taklif etadi. Uning fikricha, o'quvchilarning hissiy holatlari ta'lim jarayonida faol qatnashishlari va samarali o'rganishlari uchun muhim [5].

Emotsional muhit tamoyili ta'lim jarayonida ijobiy emotsiyalarni shakllantirish, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish va ularning o'rganish samaradorligini oshirish uchun muhimdir. O'qituvchilar ijobiy muhit yaratish uchun faol usullardan foydalanishlari kerak, bu esa o'quvchilarning samarali o'rganishini ta'minlaydi.

**Transformatsion tamoyili.** O'qitishning turli usullari va shakllaridan foydalanish har xil turdagi o'quvchilar materialni to'liqroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida o'quvchilarning turli ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olishga qaratilgan prinsipdir. Bu tamoyilga asosan, ta'lim jarayonida turli usullar va shakllardan foydalanish, o'quvchilarning materialni samarali va to'liqroq o'zlashtirishini ta'minlaydi. Transformatsion tamoyilining ahamiyatlari:

Birinchidan, transformatsion tamoyilining asosiy maqsadi har xil faoliyatlari va metodlarni qo'llashdir. Bu o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olishga yordam beradi. Misol uchun, ba'zi o'quvchilar vizual materiallarga (grafiklar, rasmlar), boshqalari esa amaliyotga va gaplashishga asoslangan ta'lim usullarini afzal ko'rishadi.

Ikkinchidan, mazmuni to'liqroq o'zlashtirish. Transformatsion tamoyil turli usullar va shakllarni qo'llash orqali o'quvchilarning o'rganish jarayonini samarali qilishi mumkin. Masalan, mini leksiya, amaliy-seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, ta'limiy loyihalari, interaktiv jarayon va keys-stadiyalardan foydalanish, materialning turli tomonlarini yorqinroq ko'rsatadi.

Uchinchidan, motivatsiya va qiziqishni oshirish. O'qituvchilar turli usullardan foydalanganda, o'quvchilarda rag'bat va qiziqishni oshirishga yordam beradi. Agar o'quvchilar ularning qiziqishlariga mos ta'lim usullari bilan ishlasha, ularning o'rganish jarayoniga faolligi va ishtirok etishi ortadi.

To'rtinchidan, kognitiv rivojlantirish. Masalan, bitta usuldan foydalanish orqali o'quvchilarning bilimlarini oshirishda samaradorlikni kamaytiradi. Bunda turli usullar, o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi, chunki ularni mustaqil va faol fikrlashga olib keladi.

Ta'limda transformatsion tamoyili asosida amalga oshirish mumkin bo'lgan usullar quyidagilar:

**Vizual usullar.** Grafiklar, rasmlar, diagrammalar va videolardan foydalanish, o'quvchilarga materialni vizuallashtirishga yordam beradi. Bu o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va materialni tushunishini yaxshilaydi.

**Faol ta'lim usullari.** Laboratoriya ishlari, rolli o'yinlar, seminarlar va keys-stadiyalardan foydalanish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bunday usullar, o'quvchilarning gapirish, tahlil qilish, va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

**Tashkiliy shakllarga qaratilgan usullar.** Guruhdagi muhokamalar, jamoaviy ishlar, parallel guruhlardagi ishlash, o'quvchilarga bir-birlari bilan ma'lumot almashish imkonini yaraiadi. Bu o'quvchilarning tajribalari va bilimlarini samarali integratsiyalashga yordam beradi.

Transformatsion tamoyil ta'lim jarayonida har xil o'quvchilarning individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini hisobga olishga asoslangan prinsipdir. Ushbu tamoyil, turli o'qitish usullari va shakllaridan foydalanish orqali o'quvchilarning materialni to'liqroq o'zlashtirishini ta'minlashga yordam beradi.

Bu borada Jerom Bruner o'zining «Spiral o'rganish» konsepsiyasida ta'limni turli usullarda tashkil qilish muhimligini ta'kidlaydi, bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi. Brunerning fikricha, turli usullar va shakllardan foydalanish, o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishini ta'minlaydi [5].

Auzubelning ma'no va mazmun nazariyasi ta'lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirishni muhim deb hisoblaydi. Uning fikricha, turli usullardan foydalanish, o'quvchilarning materialni samarali integratsiyalashini ta'minlaydi. Auzubel, shuningdek, materialni to'g'rilashning ahamiyatini ta'kidlaydi, bu esa o'quvchilarning faollik va qiziqishini oshiradi [8].

Lev Vigotskiy ijtimoiy konstruktivizm nazariyasida ta'lim jarayonida ijtimoiy interaksiyaning muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ta'limni samarali qilishda asosiy rol o'ynaydi. Turli o'qitish shakllari, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish uchun muhimdir [9].

Donald Shon «refleksiv ta'lim» konsepsiyasida turli o'qitish usullari va shakllaridan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'qituvchilar turli metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning refleksiv faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi [10].



Robert Gannett ta'limda juda ko'p usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilimlarni samarali olishini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Uning ta'lim maqsadlari taksonomiyasi, ta'lim jarayonida turli usullarni qo'llashning samaradorligini o'rganadi [11].

Transformatsion tamoyil ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, materialni samarali va to'liqroq o'zlashtirishni ta'minlash uchun muhimdir. Olimlarning qarashlari va tadqiqotlari, ta'limda turli usullardan foydalanishning samaradorligini ko'rsatadi.

Yuqorida tahlil qilingan o'qitishning psixodidaktik tamoyillari mavzusida ta'lim jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan tamoyillarni tahlil qildik. Bu tamoyillar, ta'lim dasturlari va usullarini samarali ishlab chiqish uchun asos bo'lib, o'quvchilarning individual xususiyatlarini, psixologik va pedagogik va ijtimoiy shart-sharoitlarini inobatga olishni nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida psixodidaktik tamoyillarning ahamiyati shundaki, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish. Bunda, psixodidaktik tamoyillar o'quvchilarning yashash sharoiti, yoshi, tajriba, qiziqishlar va qobiliyatlarini hisobga olishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonida har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashgan individual ta'lim sxemalarini yaratish imkonini beradi. Psixodidaktik tamoyillar ta'lim jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga asoslangan prinsiplardan iborat. Samarali ta'lim dasturlari va usullarini ishlab chiqish uchun muhimdir, chunki ular o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, psixologik holatni hisobga olish, faol ishtirokni ta'minlash, kognitiv va emotsional rivojlanishini rivojlantirish imkonini beradi. Psixodidaktik tamoyillar o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga oladigan samarali ta'lim dasturlari va usullarini ishlab chiqish uchun asosdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences, 1983.
2. Dewey J. Experience and Education, 1938.
3. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. – New York, 1990.
4. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans. 1956.
5. Bruner J.S. The Process of Education. – New York: Random House.1960.
6. Tolman E.C. Cognitive Maps in Rats and Men. Psychological Review, 1948. 55(4), 189–208.
7. Bruner J.S. Toward a Theory of Instruction. – Harvard University Press, 1966.
8. Ausubel D.P. Educational Psychology: A Cognitive View. Holt, Rinehart and Winston, 1968.
9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
10. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books, 1983.
11. Gagné R.M. The Conditions of Learning and Theory of Instruction. Holt, Rinehart and Winston, 1985.

**Maqsuda BADALOVA,**

*Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti bo'lim mudiri;*

**Oybarchin ESHMUMINOVA,**

*Abdullar Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti*

## «BARKAMOL AVLOD» BOLALAR MAKTABLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB KLASTERINING ROLI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola respublikamizdagi «Barkamol avlod» bolalar maktablari va ta'lim klasterining roli mavzusiga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** «Barkamol avlod» bolalar maktablari, ta'lim klasteri.

**Annotation.** This article focuses on «Barkamol Avlod» children's schools and the role of educational clustering in our republic.

**Keywords:** «Barkamol Avlod» children's schools, educational cluster.

**Аннотация.** В данной статье речь пойдет о детских школах «Баркамол авлод» и роли образовательного кластера в нашей республике.

**Ключевые слова:** детские школы «Баркамол авлод», образовательный кластер, инновации.

Bugungi kunda yoshlarimizning aqliy qobiliyati rivojlanib borayotganligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy o'zgarishlarga qiziqishi, ta'lim sifatiga bo'lgan talabchanligi, ta'lim tizimida o'zgarishlarni amalga oshirishga undovchi asosiy omillardan biri, deb hisoblash mumkin.

Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi texnik ijodkorlik, badiiy ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya bo'yicha «Barkamol avlod» Respublika bolalar markazlari negizida Respublika «Barkamol avlod» bolalar maktablarini tashkil etish bilan bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning foydali dam olishini tashkil etish, mehnatsevarlikni, kasbga tayyorgarlik, bolalar texnik ijodkorligini rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-maydagi 331-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Barkamol avlod» bolalar maktablarining Nizomi hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2019-yil 28-martdagi «Xalq ta'limi tizimida o'quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot-texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish, o'quvchi qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi buyrug'i asosida o'z faoliyatini olib bormoqda. Shuningdek, Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 13-aprel kuni yoshlar bandligini ta'minlash va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan videoselektor yig'ilishida «Barkamol avlod» bolalar maktablarida zamonaviy to'garaklar ochish va ularning har bir maktabda tarmoq filiallarini tashkil etish, 2022-yil 5-aprel kuni xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligining tahlili yuzasidan o'tkazilgan vedioselektor yig'ilishida, ta'lim sifati, muallimlar salohiyati va o'quvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichini oshirish bilan birga og'il-qizlarimizning tarbiyasiga ham

alohida e'tibor qaratish zarur ekanligi muhim vazifalardan etib belgilab berildi [1].

Bugungi kunda yurtimizda «Maktabgacha va maktab ta'limi» vazirligi huzuridagi 219 ta «Barkamol avlod» bolalar maktablari o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, o'quvchilarning maktabdan tashqari ta'lim sohasidagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida faoliyat yuritadi. Unda yetti yo'nalishda (*madaniyat va san'at; texnika, konstruktorlik va modellashirish; jismoniy tarbiya va sport; hunarmandchilik va qo'l mehnati; turizm va ekologiya; oliy ta'lim muassasalari va maktabga tayyorlov; xorijiy tillar*) to'garaklar mavjud bo'lib, bolalar va ota-onalar o'z ixtiyorlariga binoan tanlaydilar.

O'zbekistonda ta'lim klasterlari rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ta'limni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ilm-fan, innovatsiyalar va sanoatning integratsiyasi, klasterlarni yanada samarali qilish uchun asos bo'lishi mumkin. Ta'lim tizimining takomillashuvi uchun ko'plab xususiy va davlat sektori tashkilotlari hamkorlik qilishmoqda. Ta'lim klasterlari ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'quvchilarga sifatli Ta'lim berish, ilm-fan va texnologiyalarni joriy etish, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga yordam beradi. Ta'lim klasterlarining samarali ishlashi uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash muhimdir.

### **Ta'lim klasterining ta'limni rivojlantirishdagi roli**

– *Innovatsion yondashuvlarni joriy etish.* Klasterlar ta'limda yangi texnologiyalar va metodologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda asosiy rol o'ynaydi. Masalan, raqamli texnologiyalar, onlayn Ta'lim platformalari va masofaviy Ta'lim tizimlari.

*Resurslar va bilim almashish.* Ta'lim klasterlari o'rtasida o'qituvchilar va mutaxassislar uchun o'quv seminarlar va





treninglar o'tkaziladi. Bu ta'lim tizimining sifatini oshirishga yordam beradi.

*Kasb-hunar ta'limini rivojlantirish.* Ta'lim klasterlari ta'lim tizimi bilan sanoat sektori o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytiradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

*Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish.* Ta'lim klasterlari xalqaro tajribalarni o'rganish va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish orqali ta'limning global standartlariga erishishga yordam beradi.

Ta'lim klasterining asosiy vazifasi bir nechta ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlarini, shuningdek, sanoat va davlat tashkilotlarini birlashtirib, bolalar uchun yuqori sifatli va zamonaviy ta'limni tashkil etishdir. «Barkamol avlod» bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirishda ta'lim klasteri quyidagi jihatlarida muhim ahamiyatga ega:

– Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash klasterlarning samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro aloqalar kuchaytirilishi lozim.

– To'garak rahbarlari hamda uslubchilarning hududda mavjud korxonalar va fabrikalar bilan o'zaro tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish;

– To'garak rahbarlari hamda uslubchilarning hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida tajriba almashish imkoniyati, bolalarni shu korxonalarda amaliy mashg'ulot o'tkazishda ruxsat beruvchi me'yoriy hujjatlarning yo'qligi, ya'ni amaliyot uchun tashkilotlarni maktablarga biriktirish [3];

– Resurslar va texnologiyalarni samarali boshqarish klasterda resurslar va texnologiyalarni samarali boshqarish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ta'lim klasterlari o'zaro resurslar almashish va ta'lim tashkilotlarining infratuzilmasini yaxshilash orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. «Barkamol avlod» bolalar maktablarining

o'quv materiallari, laboratoriyalar, sport inshootlari va madaniy markazlar kabi infratuzilmalari ta'lim klasterlari bilan hamkorlikda takomillashtiriladi.

– «Barkamol avlod» bolalar maktablari tomonidan tashkil etilgan turizm to'garaklari mavjud maktablarni transport bilan ta'minlash;

– Bolalar qo'l mehnati bilan tayyorlangan mahsulotlarni namoyish etish va sotish maydonini tashkil etish;

– Ko'p tarmoqli yondashuv ta'lim, sanoat, ilm-fan va davlatning o'zaro hamkorlikda ishlashi Ta'lim klasterlarining samaradorligini oshiradi.

Mahallalarda uyushmagan yoshlarni bo'sh vaqtlarini, ularning qiziqishlari asosida mazmunli o'tkazish maqsadida mahallalar qoshida «Barkamol avlod» bolalar maktablarining tarmoq to'garaklarini tashkil etish;

Ta'lim klasterlari o'qituvchilarni rivojlantirishga yo'naltirilgan Ta'lim resurslarini taqdim etadi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun yangi ilmiy va pedagogik metodlarni o'rganish, innovatsion pedagogik dasturlarni yaratishda hamkorlik qilish imkoniyatlari mavjud.

«Barkamol avlod» bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirishda Ta'lim klasterlari muhim rol o'ynaydi. Ular innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali Ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. «Barkamol avlod» bolalar maktablari to'garak rahbarlari va metodistlarining uslubiy qo'llanma va o'quv darsliklari bilan ta'minlash, «Barkamol avlod» bolalar maktablari tajriba almashish va malaka oshirish uchun elektron platforma ishlab chiqish hamda shu platformada professional o'qituvchilarning videodarstarini joylashtirish, to'garaklar uchun QR kodli uslubiy qo'llanmalar yaratish maqsadga muvofiq. Bu vazifalar «Barkamol avlod» bolalar maktablarining rivojlanish bosqichini yana bir pog'ona yuqoriga ko'taradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajapov V. Barkamol avlod tarbiyasi kun tartibidagi asosiy vazifamiz bo'lib qoladi // Yangi O'zbekiston №89 (611), 2022.
2. Tahliliy hisobot. Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2022.
3. Georgiana A., Preda M. Management of educational efficiency and efficiency // Sciendo. Holistica. Vol 9, Issue 3, 2018, pp. 89–96.